Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, simulyatsiya asosida tashkil etilgan o‘qitish jarayoni tibbiyot talabalarining nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmaga aylantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular real klinik vaziyatlarda xatti-harakatni boshqarish, o‘zini tahlil qilish, muloqot o‘rnatish va stress holatida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Interaktiv yondashuvlar esa o‘quv jarayonida talabalarni faollikka undaydi, guruhiy ishlash ko‘nikmasini kuchaytiradi hamda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, simulyatsion o‘qitish psixologik nuqtayi nazardan talabalarda empatiya, mas’uliyat va refleksiya jarayonlarini kuchaytiradi. Shu bilan birga, interfaol metodlar orqali tibbiyot talabalari o‘z-o‘zini nazorat qilish, baholash va tahlil qilish malakasini shakllantiradi. Bu esa ularning kasbiy yetukligi va ijtimoiy psixologik tayyorgarligini ta’minlaydi.

Xulosa:

Yuqoridagi natijalarga asoslanib, simulyatsiya va interaktiv yondashuvlarning tibbiy ta’limdagi o‘rni beqiyos ekanligi aniqlandi. Ushbu metodlar o‘quv jarayonini faollashtiradi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini amalga oshiradi hamda talabalarning mustaqil fikrlash, muloqot, empatiya, stressni boshqarish va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Psixologik-pedagogik

jihatdan qaraganda, bu yondashuvlar o‘quvchilarning shaxsiy faolligini oshirish, motivatsiyani kuchaytirish, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan muhit yaratishga xizmat qiladi. Kelgusida tibbiy ta’limda ushbu metodlarni keng qo‘llash orqali o‘qitish samaradorligini oshirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassis tayyorlash sifatini yanada yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P.C. Немов. *Психология образования*. — Москва: Владос, 2020.
2. A.A. Реан, H.B. Бордовская. *Психология и педагогика*. — Санкт-Петербург: Питер, 2019.
3. Ye.A. Klimov. *Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya*. — Moskva: Akademiya, 2018.
4. O‘.Q. Tolipov, M.Usmonboyeva. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. E. G‘oziyev. *Psixologiya asoslari*. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017.
6. B. Umarov. *Zamonaviy ta’limda interfaol metodlar*. — Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti, 2022.

Advantages and Disadvantages of E-Assessment Systems in Medical Education

Rahmatshoyev Muslumbek Nozimjon ogli

Tivari utsavi

Fergana Medical Institute of Public Health

Abstract:

In recent years, digital technologies have become an integral part of medical education. One of the most significant innovations is the introduction of e-assessment systems, which enable objective, transparent, and efficient evaluation of students’ knowledge. Through online tests, interactive assignments, and automated scoring mechanisms, the evaluation process becomes faster and less influenced by human factors. However, several challenges remain — such as technical malfunctions, dependence on stable internet connectivity, and limited ability to fully assess practical skills virtually. This

paper analyzes the advantages and disadvantages of e-assessment systems in medical education and provides recommendations for improving their effectiveness.

Relevance of the Topic: The assessment process in medical education plays a crucial role not only in evaluating theoretical knowledge but also in determining students' practical readiness. Traditional assessment methods often face issues of subjectivity, time consumption, and human error. Therefore, the implementation of e-assessment systems has become a modern solution to these challenges. According to data from the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of Uzbekistan (2024)**,** electronic assessment elements have been introduced in 68% of medical universities — an increase of 27% compared to 2022. This reflects the rapid digitalization of the medical education system. Platforms such as *Moodle*, *Google Forms*, *Kahoot*, and *ExamSoft* are widely used for online testing and evaluation.

Research Objective: To analyze the efficiency, advantages, and limitations of e-assessment systems in medical universities, and to propose ways to enhance their effectiveness in both theoretical and practical disciplines.

Research Results: A survey was conducted among 250 medical students from different faculties. The findings revealed that:

72% of students rated e-assessment systems as fair and time-efficient;

18% reported that unstable internet and technical issues were major disadvantages;

10% expressed doubts about the effectiveness of online assessment in practical subjects.

Among instructors, 65% agreed that e-assessment reduced their workload, while 20% emphasized the need to improve their digital competence. The use of automated assessment saved up to 30% of instructors' time and ensured 98% accuracy in results.

Conclusion: E-assessment systems play a vital role in modernizing medical education. They contribute to transparency, accuracy, and time efficiency in the evaluation process. However, to ensure full effectiveness, several conditions must be met:

1.Development of a stable technical infrastructure and internet access;

2.Creation of high-quality and methodologically sound test databases;

3.Improvement of instructors' digital competence;

4.Development of digital tools to assess practical and clinical skills.

In the near future, e-assessment systems are expected to evolve from mere control instruments into intelligent analytical tools that help improve both teaching and learning quality in medical education.

References:

1.Karimov, B., & Tokhtaeva, M. (2023). The Role and Prospects of Digital Technologies in Medical Education. Tashkent: Medical Publishing House.

2.Qodirova, N. (2022). E-Assessment Systems and Their Importance in the Educational Process. Education and Innovation Journal, No.4, 45–49.

3.World Health Organization (WHO). (2021). Digital Education for Building Health Workforce Capacity: Global Report. Geneva: WHO Press.

4.Alruwais, N., Wills, G., & Wald, M. (2018). Advantages and Challenges of Using E-Assessment in Higher Education. International Journal of Information and Education Technology, 8(1), 34–37.

5.Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. (2024). Concept for the Development of Digital Education until 2030. Tashkent.

MASOFAVIY TA’LIM TIZIMINI JORIY ETISH

Qurbonov Pahlavon Sirojiddin o‘g‘li

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta’lim va uni tushunchasini Tibbiyot talabalari bilan birgalikda Tibbiyot xodimlariga ham chuqur mohiyatini yoritish uni barcha uchun sodda, tushunarli va albatta foydali tomonlarini tadbiq etishdan iborat. Masofaviy ta’lim tizimining tamoyillari asosiy vazifalari va amaliy ko‘nikmalarini hosil qilish bo‘yicha ishlar olib borilgan hamda tibbiyot xodimlari va talabalarni masofadan o‘qitishning dolzarb mavzulari ko‘rib chiqilgan.

Annotation: This article explores the concept of distance learning, emphasizing its essence and benefits for both medical students and healthcare professionals. The goal is to present it in a simple, comprehensible, and practical manner for everyone. The principles, primary tasks, and practical skills development within the distance learning system have been discussed. Additionally, pressing

issues related to the remote education of healthcare professionals and students have been reviewed.

Аннотация: В данной статье рассматривается концепция дистанционного обучения с акцентом на её сущность и преимущества как для студентов-медиков, так и для медицинских работников. Цель заключается в том, чтобы представить её в простой, понятной и, конечно, полезной форме для всех. Рассмотрены принципы, основные задачи и формирование практических навыков в системе дистанционного обучения. Также проанализированы актуальные вопросы дистанционного обучения медицинских работников и студентов.

Kalit so‘zlar: Masofadan o‘qitish, masofaviy ta’lim, masofaviy ta’lim texnologiyasi, zamonaviy tibbiy texnikalar.

Keywords: Distance education, distance learning, distance learning technology, modern medical techniques.

Ключевые слова: Дистанционное обучение, дистанционное образование, технологии дистанционного обучения, современные медицинские технологии.

Tibbiy bilimlarni tibbiyot oliygohlari talabalariga o‘rgatishda zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanilgan holda o‘rgatish zamonaviy kasb bo‘lgan axborot texnologiyalaridan foydalanib amalga oshirish ta’lim sifati va samaradorligiga yuqori hissa qo'shadi va buni natijaviyligi ortadi navbatdgi maqolamizda ham yuqoridagilar kabi samarodorlik jihatidan faol bo‘lgan mavzulardan mujassam bo‘lgan ushbu maqolani havola etamiz. Bugungi zamonaviy sharoitlardan kelib chiqqan holda Tibbiyot xodimlari va ularning talaba yoshlari uchun yurtimiz prezidenti muhtaram SH.M.Mirziyoyev tomonidan judayam yuqori sifatga ega bo‘lgan zamonaviy tibbiy texnikalar olib kelindi va ular yurtimizning deyarli har bir hududiga yetib bordi va bunday zamonaviy tibbiy texnikalardan foydalangan holda yurtimiz fuqoroloriga sifatli tibbiy tashxislar qo‘yilmoqda va malakali shifokorlarimiz tomonidan bunday davolash usullarini va tashxislash jarayonlarini boshqa joydan turib ham tibbiyot talabalari malakaviy amaliyot sifatida undan foydalanish ko‘nikmalarini qo‘shimcha o‘rganishib kelishmoqda bu esa o‘z

navbatida talabalar bilimini oshirish bilan bir qatorda ularning vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash va uzoq masofalarini yaqin qilishdan iborat bo‘lgan muhim jabhalarida yordam bo‘lib kelmoqda hamda ushbu masofaviy ta’lim tizimini tadbiq etishda har bir tibbiyot xodimi yoki uning talabasi o‘z bilimlarini va malakalrini boshqa Oliy ta’lim muassasasi talabalaridan yoki Tibbiyot xodimlaridan yetarli tajribalarni almashishmoqda bu esa masofali o‘qitish zamonaviy ta’limning eng muhim va tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Zamonaviy sharoitda axborot kommunikatsion texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta’lim jarayonida ularning imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda yetakchi xorijiy mamlakatlar masofadan o‘qitish borasida boy tajriba to‘plagan.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari - bu ta’lim oluvchi va pedagog xodimning to‘liq yoki qisman masofadan o‘zaro faoliyatida asosan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llab amalga oshiriladigan ta’lim texnologiyalari tushuniladi.

Masofaviy ta’lim sohasida nufuzli nazariy ishlanmalar mavjudligiga qaramasdan, ta’lim jarayonini tashkil qilish shakli sifatida hozirda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kengroq hisoblanadi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashda ta’lim oluvchi mashg‘ulotda qatnashmaydi, lekin topshiriqlarni bajaradi va tyutor bilan elektron pochta orqali muloqot qiladi yoki tyutor ta’lim oluvchilarga darsdan tashqari vaqtda blog yoki sayt orqali konsultatsiya beradi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari kunduzgi, sirtqi, kunduzgi-sirtqi; eksternat shakllarida; ta’limning ma’lum bosqichlarida; asosiy va qo‘shimcha ta’lim dasturlarini amalga oshirishda qo‘llanilishi mumkin.

Masofaviy ta’lim texnologiyalarida qo‘ llaniladigan aloqa usuli har biri turli bo‘ lishi mumkin. Ular elektron pochta orqali yozishmalar, shaxsiy saytlar/bloglar orqali muloqotlar, materiallarni turli elektron resurslar yordamida o‘rganish va boshqalardan iborat.

Shunday qilib, masofaviy ta’lim texnologiyalariga lokal o‘rnatilgan dasturlar va trenajyorlar bo‘yicha o‘qitish ham kiradi. Ba’zan masofaviy ta’limning eskirayotgan texnologiyalariga axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan

foydalanmasdan amalga oshiriladigan o‘zaro faoliyat (teleradioeshittirish, telefoniya, materiallarni pochta orqali jo‘natish) ham kiritiladi.

“Masofaviy o‘qitish” atamasi, yuqorida aytilganlarning eng birinchi bo‘g‘ini bo‘lib, Viskonsin shtati Universiteti tomonidan 1892-yildan boshlab sirtqi (korrespondentlik) kurslarda qo‘llanilgan. *Masofaviy* deb masofadan turib tashkil qilingan ta’lim tushunilgan. Unga “korrespondentlik o‘qitish”, “uyda o‘qish” va boshqalar sinonim hisoblangan.

Xorijiy davlatlarda masofaviy o‘qitish bo‘yicha bir qator muassasalar va olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan va masofaviy o‘qitish haqida turlicha fikrlarni bildirishgan.

Amerikaning masofaviy o‘qitish assotsiatsiyasi mutaxassislari (The United States Distance Learning Association — USDLA) masofaviy o‘qitish deganda - ta’lim oluvchi va tyutorning turli geografik makonda bo‘lganlari holda, o‘quv jarayonini tashkil etish uchun elektron vositalar va nashr qilingan qo‘ llanmalardan foydalanib o‘qitishni tushunishgan.

Masofaviy o‘qitish sohasi bo‘yicha xorijlik mutaxassislardan biri “distance education” atamasini tushuntirish borasida masofaviy o‘qitish jarayonining ikki asosiy belgisini ko‘rsatadi: ta’lim berishning nashr shaklida va video yoki audio-yozma usulda bo‘lishini, shu bilan birga, kommunikatsiyaning tashkil etilishi masofaviy turib turli xil zamonaviy texnika vositalari bilan aloqa qilish ekanini ta’kidlaydi.

Shuningdek, MDH davlatlari olimlari va yetakchi mutaxassislari A.A.Andreev, E.S.Polat, A.M.Bershadskiy, V.M.Monaxov, V.A.Slastenin, V.P.Tixomirov, I.K.Shalaev, A.V.Xutorskiy, M.V.Moiseeva kabi mutaxassislar tomonidan masofaviy o‘ qitish tushunchasi va u bilan bog‘liq boshqa atamalar keng tahlil qilingan.

E.S.Polat masofaviy o‘qitishni tyutor va ta’lim beruvchilarning hamda ta’lim oluvchilarning bir-birlari bilan o‘zaro faoliyatlari masofaviy amalga oshiriladigan va internet texnologiyalar yoki boshqa interfaol texnologiyalarga xos maxsus vositalar orqali amalga oshiriladigan o‘quv jarayoniga xos bo‘lgan barcha

komponentlarni (maqsadlar, mazmun, metodlar, tashkiliy shakllar, ta’lim vositalari)ni aks ettiradigan mustaqil ta’lim shakli sifatida ta’kidlaydi.


A.A.Andreev turli ta’riflarni tahlil qilib, masofaviy o‘qitish ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilarning o‘zaro va ta’lim vositalari bilan birgalikdagi faoliyati ularning makon va zamonda joylashishlariga invariant bo‘lgan o‘ziga xos maxsus didaktik tizimda amalga oshiriladigan interfaol faoliyatlarining maqsadga yo‘naltirilgan, tashkil qilingan jarayoni, degan xulosaga keladi.

Eydos Markazi mutaxassislari A.V.Xutorskiy va boshqalar masofaviy o‘qitish tushunchasini shunday talqin qilishadi: o‘qitish sub’ektlari (ta’lim oluvchilar, pedagoglar, tyutorlar va boshqalar) makon va vaqt bo‘yicha bir-birlaridan uzoqda turib telekommunikatsiya vositalari yordamida umumiy o‘quv jarayonini amalga oshiradi.

MESI mutaxassislari V.P.Tixomirov va boshqalar tomonidan masofaviy o‘qitish deganda shunday ta’lim texnologiyasi tushuniladiki, bunda tyutor va ta’lim oluvchi turli joylarda joylashgan bo‘ ladi hamda o‘qitish vositasi sifatida keys-texnologiya, TV-texnologiya va tarmoq texnologiyalaridan foydalaniladi.

M.V.Moiseevaning ishida masofaviy o‘qitish sirtdan o‘qishning bir turi, ya’ni kompyuter telekommunikatsiyalari, zamonaviy yangi axborot texnologiyalari vositalaridan maksimal darajada foydalanish va o‘quv jarayonining barcha qatnashuvchilari orasida faol axborot almashish nazarda tutilishi kerakligi tushuntiriladi.

Mazkur fikrlarni umumlashtirilgan holda mutaxassislar masofaviy o‘qitishni tyutor bilan ta’lim oluvchilar orasidagi munosabatlar masofadan turib amalga oshiriladigan va o‘quv jarayoniga xos bo‘lgan internet texnologiyalarining spetsifik vositalari yoki interfaollikni ko‘ zda tutadigan boshqa vositalar bilan amalga oshiriladigan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalari)nio‘zida aks ettiradigan ta’lim shakli sifatida ta’kidlaydilar. Masofaviy talim quyidagi model bo‘yicha bajariladi:



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qurbonov P., Ataxonov S., Sharofiddinov S. MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 43-47.
2. Pahlavon Q. TIBBBIYOTDA MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI //GERMANY SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 24-28
3. Mirzakarimov , B., & Qurbonov , P. (2023). TIBBBIYOTDA MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK TA’MINOTINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI. Research and Implementation. извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/745
4. Qurbonov , P., Minavarjonov, S., & Raxmonaliyeva, F. (2023). TIBBIYOT XODIMLARINI MASOFADAN O‘ QITISHDA AVTOMATLASHGAN DIDAKTIK TA’MINOTNING UMUMIY TUZILISHI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(3), 52–55. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/11562
5. **www.fjsti.uz**
6. **https://tktishf.edu.uz/**
7. **https://dist.edu.uz**

Tibbiyot yo‘nalishi talabalariga xorijiy tilni o‘qitishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari

ORCID: 0009-0000-8354-2988

Tuychibayeva Maftuna Baxodirovna

Lotin tili, pedagogika va psixologiya kafedrasi o’qituvchisi

maftunatuychibaeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot yo‘nalishi talabalariga xorijiy tilni o‘qitishda pedagogik va psixologik imkoniyatlarning ahamiyati yoritiladi. Xorijiy tilni o‘rganishda talabalarning motivatsiyasi, shaxsiy yondashuv, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, psixologik qo‘llab-quvvatlashning ta’lim jarayonidagi o‘rni va kasbiy faoliyatda xorijiy til bilishning zarurligi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: xorijiy til, tibbiyot ta’limi, pedagogik imkoniyatlar, psixologik motivatsiya, kommunikativ kompetensiya.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida tibbiyot sohasi mutaxassislari uchun xorijiy tilni puxta egallash zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Tibbiy bilimlarning asosiy qismi xorijiy manbalarda e’lon qilinadi, xalqaro konferensiyalar va ilmiy anjumanlarda esa tibbiy ingliz tili asosiy kommunikatsiya vositasi sifatida qo‘llaniladi. Shu bois tibbiyot ta’limida xorijiy tilni samarali o‘qitish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Biroq bu jarayonda faqat grammatik bilim yoki lug‘at boyligini oshirish bilan cheklanib qolish yetarli emas. Asosiy vazifa – talabalarni xorijiy til yordamida o‘z kasbiy faoliyatida erkin muloqot qilish, ilmiy yangiliklarni o‘qish va amaliyotga joriy etishga tayyorlashdir. Bu esa o‘qitishda pedagogik va psixologik imkoniyatlardan oqilona foydalanishni talab etadi. Pedagogik imkoniyatlar – ta’lim jarayonini tashkil etish, metod va texnologiyalarni qo‘llash, interfaol usullardan foydalanishni anglatadi. Psixologik imkoniyatlar esa talabalarni rag‘batlantirish, motivatsiyani oshirish, stressni kamaytirish va shaxsiy yondashuvni amalga oshirish orqali samaradorlikka erishishni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodlari. Maqola yozilish jarayonida xorijiy tilni o‘qitish bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Pedagogik va psixologik nazariyalar asosida xorijiy til ta’limining zamonaviy yondashuvlari ko‘rib chiqildi. Bundan tashqari, tibbiyot yo‘nalishi talabalari orasida kuzatuv va suhbatlar o‘tkazilib, ular xorijiy til darslarida duch keladigan muammolar, o‘qitish metodlariga munosabatlari va motivatsiya darajalari o‘rganildi. So‘rovnomalar orqali talabalar orasida xorijiy tilni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj, qiziqish va rag‘bat darajasi aniqlandi. Amaliy bosqichda esa interfaol metodlar, xususan, “case study”,

rol o‘ynash, klinik vaziyatlarni muhokama qilish kabi mashg‘ulotlar qo‘llanildi va ularning samaradorligi baholandi.

Natijalar. O‘tkazilgan kuzatuv va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tibbiyot talabalari xorijiy tilni o‘rganishda kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriqlarga alohida qiziqish bildiradilar. Agar dars jarayonida real klinik vaziyatlar, bemor va shifokor muloqoti, tibbiy terminologiyadan foydalanish kabi amaliy topshiriqlar qo‘llansa, talabalar faolroq bo‘lib, ularning bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi. Talabalarning 70 foizdan ortig‘i xorijiy tilni o‘z kasbiy faoliyatida zarur vosita sifatida ko‘rgan va uni o‘rganishga yuqori motivatsiya bildirgan. So‘rovnomalar natijasi shuni ko‘rsatdiki, talabalar an’anaviy grammatik mashqlardan ko‘ra interfaol metodlarni afzal ko‘radilar, ayniqsa, guruhiy ishlar, muloqotga asoslangan topshiriqlar va muammoli vaziyatlarni hal etishga katta qiziqish bildirganlar.

Shuningdek, psixologik qo‘llab-quvvatlash o‘quv jarayonida sezilarli natijalar berdi. O‘qituvchining rag‘batlantiruvchi so‘zlari, ijobiy baholari, o‘quvchilarning xatolariga konstruktiv munosabati talabalar faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Stressni kamaytirish, o‘ziga ishonchni oshirish va erkin muloqot muhiti yaratish orqali talabalar xorijiy tilni o‘zlashtirish jarayonida faolroq bo‘ldilar. Ayniqsa, kasbiy terminologiyani o‘zlashtirish jarayonida talabalar o‘zaro hamkorlikda ishlaganlarida natijalar yanada samarali bo‘ldi.

Tajriba darslari davomida aniqlanishicha, klinik vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlar talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam berdi. Bunday mashg‘ulotlarda talabalar nafaqat yangi terminlarni o‘rganadilar, balki ularni nutq jarayonida qo‘llash ko‘nikmasini ham shakllantiradilar. Shu orqali ular kelajakdagi kasbiy faoliyatida xorijiy tilni faqat bilim sifatida emas, balki real kommunikativ vosita sifatida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Muhokama. Olingan natijalar xorijiy tilni o‘qitishda faqat an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, pedagogik va psixologik imkoniyatlarni uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Pedagogik jihatdan interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va amaliy mashg‘ulotlar samarali natija beradi. Xususan, klinik vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarni nafaqat tilni

o‘rganishga, balki o‘z kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga ham undaydi. Bu jarayon talabalarga real hayotiy sharoitlarda muloqot qilish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. An’anaviy grammatik tarjima metodidan farqli ravishda kommunikativ yondashuv til o‘rganuvchining faol ishtirokini ta’minlaydi. Psixologik jihatdan esa talabalarni rag‘batlantirish, o‘qituvchining ijobiy munosabati va dars jarayonida stressni kamaytirish ularning o‘zlashtirish darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Agar talabada til o‘rganishga ichki motivatsiya kuchli bo‘lsa, u o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishda faolroq bo‘ladi. Shu bois o‘qituvchi dars jarayonida talabalarning qiziqishini uyg‘otishi, ularni rag‘batlantirishi va ijobiy muhit yaratishi zarur. Bunday sharoitda talaba o‘zini erkin his qiladi, ijodiy yondashadi va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga intiladi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tilni tibbiyot yo‘nalishi talabalariga o‘qitishda pedagogik va psixologik imkoniyatlarni birgalikda qo‘llash samaradorlikni keskin oshiradi. Pedagogik imkoniyatlar dars jarayonida samarali metodlar tanlash va o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etishni ta’minlasa, psixologik imkoniyatlar talabani darsga faol jalb etish, uning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va natijada bilimlarni mustahkamlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tibbiyot yo‘nalishi talabalariga xorijiy tilni o‘qitishda pedagogik va psixologik imkoniyatlardan oqilona foydalanish zaruriydir. Pedagogik imkoniyatlar zamonaviy metodlar, interfaol texnologiyalar va kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali ta’lim jarayonida qo‘llanilsa, psixologik imkoniyatlar talabalarni motivatsiyalash, emotsional qo‘llab-quvvatlash va shaxsiy yondashuv orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuvlar birgalikda xorijiy tilni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi, talabalarda kommunikativ kompetensiya shakllanadi va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida xorijiy tilni erkin qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Shu bois xorijiy til ta’limini faqatgina lingvistik bilimlarni berishga qaratilgan jarayon sifatida emas, balki kasbiy kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida ko‘rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Konsheva A.V. Chet tillarini o’qitishni individuallashtirishda xotira turini hisobga olish zarurati // Zamonaviy dunyoda individuallik: III xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - Smolensk, 1999. b. 142-147
2. I. H. Iminakhunova “ Management and development of students’ self education in the process of learning English“ .
3. Kadirova Munira Rasulovna, Iminaxunova Iroda Xuseynovna “Theoretical analysis of self-education in learning English”.
4. Parpieva O.R, Hojikarimova G.T, Nazirova A.M №6(85) 2021. 157-161-bet. (Formation of student pedagogical skills based on the requirements of innovative educational environment// Международном научнопрактическом журнал “Экономика и социум).
5. Arras U. Kompetenzorientierung im Fremdsprachenunterricht – was heißt das eigentlich? [Elektronnыy resurs] // Pandaemonium germanicum. – 2009. – 14 (2). – S. 206–217. – URL: http://www.testdaf.de/institution/_Pandemonium_2009_Kompetenyorientierung.pdf (data obraщeniya: 15.02.2016)
6. A.Zimnyaya. – Maktabda chet tillarni o’qitish psixologiyasi. – M-Просвещение 1991. 219 b.
7. Bim I. L. ba’zi dolzarb muammolar/maktabda chet tillarini o’qitishning zamonaviy chet tillari, 2001 yil, 4-son. 5-7 betlar
8. Chabner, D. E. The Language of Medicine - New York: W. B. Saunders Company 1998, 1036 p.
9. Druganova B. English Medical terminology - different ways of forming medical terms // JAHR. -2013. Vol. 4., № 7. - P. 55-69.
10. Ende K., Grotjan R., Kleppin K. Mohr Imke Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung. – Berlin, München: Langenscheidt, 2013. – 152 s
11. Karabutova E. A., Prokopenko Yu. A., Akinshina I. B. Formirovanie yazykovoi kompetentsii studentov vuza v svete kommunikativnogo podkhoda dlya realizatsii sotsial'nogo i professional'nogo mezhkul'turnogo vzaimodeistviya [Forming university students language competence in the light of communicative approach to make them successful in social and

professional cross-cultural communication]. Kontsept = Concept, 2021, no. 1, pp. 45–55.

12. Kompetenzorientierung, Bildungsstandards und fremdsprachliches Lernen – Herausforderungen an die Fremdsprachenforschung. Positionspapier von Vorstand und Beirat der DGFF [Elektronnыy resurs] / D. Caspari, A. Grünewald, A. Hu, L. Küster, G. Nold, H.J. Vollmer, W. Zydatiß // Zeitschrift für Fremdsprachenschulung. – Oktober 2008. – 19(2). – S. 163–186. – URL: http://www.dgff.de/fileadmin/user_upload/dokumente/ Sonstiges/Kompetenzpapier_DGFF.pdf (data obraщeniya: 15.02.2016)

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV MODELNING O‘RNI

Mamatxonova Moxichexraxon Ubaydullo qizi
FJSTI “O‘zbek xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi
mohichehraxonm@gmail.com, +998911292397
Idrisova Muhlisa Utkirjononovna
FJSTI Xalqaro fakultet Davolash ishi yo‘nalishi
103-guruh talabasi, +99891659717

So‘nggi yillarda o‘zbek tilini xorijiy tillar qatorida o‘qitish masalasiga, shuningdek, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan talabalar bilan ishlashda samarali pedagogik yondashuvlarni qo‘llashga e’tibor ortib bormoqda. An’anaviy grammatik-tarjima metodlari o‘rnini asta-sekin kommunikativ, interaktiv, muammoli o‘qitish modellariga berib kelmoqda. Kommunikativ modelning asosiy maqsadi — tilni “qoida” sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida o‘rgatishdir. Bu yondashuvda o‘quvchi yoki talaba real hayotiy vaziyatlarda tildan faol foydalanishga o‘rgatiladi.

Kommunikativ model XX asrning ikkinchi yarmida G‘arb tillarni o‘qitish tizimida shakllangan bo‘lib, uning asoschisi sifatida D. Hymes, M. Canale, M.

Swain, Dell Hymes kabi tilshunoslar nomi tilga olinadi. Ularning fikricha, til bilimlari (grammatika, fonetika, leksika) kommunikativ kompetensiyaning bir qismi xolos. Asosiy maqsad — bu bilimlarni haqiqiy muloqotda qo‘llay olishdir.

O‘zbek tilini o‘qitishda ham bu modelning joriy etilishi, ayniqsa, tibbiyot, texnika yoki iqtisod yo‘nalishidagi talabalar uchun o‘zbek tilida erkin fikr bildirish, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ model quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Maqsadga yo‘naltirilganlik (nutqiy maqsadni belgilash va unga erishish);
- Shaxsga yo‘naltirilganlik (talabaning ehtiyoji, qiziqishi va tajribasini inobatga olish);
- Faol muloqotga asoslanish;
- Integrativlik (til ko‘nikmalarini — tinglash, o‘qish, yozish, gapirishni uyg‘un rivojlantirish).

Kommunikativ kompetensiya — bu shaxsning tilni muloqot jarayonida to‘g‘ri, samarali va ijtimoiy jihatdan maqbul tarzda qo‘llay olish qobiliyatidir. Bu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Lingvistik kompetensiya — til qoidalarini bilish;
- Sotsiolingvistik kompetensiya — nutqiy vaziyatga mos so‘zlashni bilish;
- Diskursiv kompetensiya — matnni mantiqan, izchil tuza olish;
- Strategik kompetensiya — muloqotdagi qiyinchiliklarni yengish uchun usullardan foydalana bilish.

O‘zbek tilini o‘qitish jarayonida aynan shu komponentlarni uyg‘un shakllantirishga e’tibor qaratish zarur.

Kommunikativ yondashuv o‘qituvchining roli va o‘quvchining faoliyatini o‘zgartiradi. An’anaviy modelda o‘qituvchi asosiy manba bo‘lsa, kommunikativ modelda u yo‘naltiruvchi, fasilitator sifatida chiqadi. Talabalar esa bilimni faol izlovchi, tajriba orttiruvchi subyektga aylanadi.

Afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Talabalarda erkin fikrlash va o‘z fikrini ifodalash ko‘nikmasi rivojlanadi;
- Nutq madaniyati va muloqot etikasiga rioya qilish o‘rganiladi;

- O‘quvchilarning motivatsiyasi oshadi, chunki dars jarayoni hayotiy vaziyatlarga yaqinlashadi;
- Guruhli va juftlikdagi ishlar orqali kooperativ o‘qish muhitini shakllantiradi;
- Talabalar nutqiy kompetensiyani amaliy mashqlar orqali mustahkamlaydi.

Bugungi kunda o‘zbek tilini o‘qitishda quyidagi kommunikativ usullar samarali deb topilmoqda:

- Rol o‘yinlari (masalan, “kasalxona vaziyati”, “dorixonada suhbat”, “intervyu olish” kabi mavzular);
- Munozarali mashg‘ulotlar (muammoli savol asosida fikr almashish);
- Loyiha asosida o‘qitish (talabalar ma’lum mavzuda material to‘playdi, taqdimot tayyorlaydi);
- Dialog va intervyu mashqlari;
- Interaktiv o‘yinlar (“Kim topqir?”, “Tingla va davom et” kabi).

Masalan, tibbiyot yo‘nalishidagi talabalarga “Bemor bilan suhbat”, “Shikoyatni tinglash va tavsiya berish” kabi kommunikativ vaziyatlar asosida dars o‘tkazish o‘zbek tilini real muloqot muhiti sifatida o‘rganishga yordam beradi.

Kommunikativ o‘qitishda o‘qituvchi:

- talabalarni faollikka undaydi;
- muloqot uchun qulay psixologik muhit yaratadi;
- baholashni ko‘proq jarayonli (formatif) shaklda olib boradi;
- interaktiv texnologiyalarni (multimedia, video, onlayn platformalar) qo‘llaydi.

Kommunikativ yondashuv samaradorligi quyidagi shartlarga bog‘liq:

1. O‘qituvchining o‘z kommunikativ kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirib borishi;
2. Dars jarayonida o‘zbek tilining madaniy, sotsial, pragmatik jihatlarini uyg‘un o‘rgatish;
3. Baholash mezonlarini faqat grammatik to‘g‘rilik bilan emas, muloqot samaradorligi bilan belgilash.

O‘zbek tilini o‘qitishda kommunikativ modelni to‘liq tatbiq etishda ba’zi qiyinchiliklar mavjud:

- O‘quv materiallarining kommunikativ maqsadga to‘liq mos emasligi;
- O‘qituvchilarning yangi metodikaga to‘liq tayyor emasligi;
- Talabalarning passiv o‘rganish odatidan chiqolmasligi.

Shu sababli:

- Darslik va qo‘llanmalar nutqiy vaziyatlar asosida qayta ishlab chiqilishi lozim;
- O‘qituvchilar uchun metodik seminarlar muntazam tashkil etilishi zarur;
- Talabalarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiruvchi refleksiv topshiriqlar keng qo‘llanishi lozim.

Kommunikativ model o‘zbek tilini o‘qitishda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki muloqot madaniyatini, fikrlashni, muomala ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Bu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u talabalarni hayotiy vaziyatlarda tilni amaliy qo‘llashga o‘rgatadi. Shunday qilib, o‘zbek tilini o‘qitishda kommunikativ modelni joriy etish zamonaviy ta’lim talablari bilan uyg‘un, talabaning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hymes, D. (1972). *On Communicative Competence.* London: Penguin.
2. Canale, M., & Swain, M. (1980). *Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing.* Applied Linguistics, 1(1).
3. Jalolov J. (2012). *Chet tillar o‘qitish metodikasi.* Toshkent: O‘qituvchi.
4. Yo‘ldosheva D., & Shirinova N. (2021). *O‘zbek tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning o‘rni.* O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy axboroti.
5. Qodirova M. (2020). *Til o‘qitishda innovatsion yondashuvlar.* Toshkent: Fan va texnologiya.
6. CEFR. (2018). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment.* Council of Europe.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PQ-4851-son qarori “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
8.

SUN’IY INTELLEKT VA MASHINAVIY O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINING TIBBIY TA’LIMDAGI ROLI

Odilov Jamshidbek Akmaljon o‘g‘li
FJSTI, Biotibbiyot muhandisligi,
biofizika va axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) va mashinaviy o‘qitish (MO) texnologiyalarining tibbiy ta’lim tizimida qo‘llanilishiga oid masalalar tahlil qilingan. Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida o‘quv jarayonining samaradorligi, individuallashtirilgan o‘qitish, virtual simulyatsiyalar va klinik amaliyotni modellashtirish imkoniyatlari kengaygani yoritilgan. Shuningdek, SI va MO texnologiyalarining afzalliklari, mavjud muammolari hamda kelajak istiqbollari haqida ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, tibbiy ta’lim, raqamli texnologiyalar, virtual simulyatsiya, axborot tizimlari.

Kirish

So‘nggi yillarda tibbiy ta’lim tizimi tezkor raqamli transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Tibbiy bilimlar hajmining ortishi, diagnostika jarayonlarining murakkablashuvi va klinik ma’lumotlarning ko‘pligi sababli an’anaviy ta’lim uslublari yetarli samara bermayapti. Shu bois, zamonaviy ta’lim jarayonida **sun’iy intellekt** va **mashinaviy o‘qitish** texnologiyalarini qo‘llash zarurati ortib bormoqda.

Sun’iy intellekt — bu inson tafakkuriga o‘xshash tarzda o‘rganish, mantiqiy xulosa chiqarish va qaror qabul qilishni ta’minlaydigan tizimdir. Mashinaviy o‘qitish esa SI’ning tarmog‘i bo‘lib, u kompyuterga ma’lumotlardan mustaqil ravishda o‘rganish imkonini beradi. Tibbiy ta’limda bu texnologiyalar o‘qitish samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va klinik vaziyatlarni amaliy tahlil qilishda katta yordam beradi.

Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalarining mohiyati

Sun’iy intellekt tizimlari insonning fikrlash jarayonini modellashtiradi. Ular tibbiy ma’lumotlarni tahlil qilib, ularning asosida qarorlar chiqarish, tavsiyalar berish yoki yangi bilimlarni yaratish qobiliyatiga ega. Mashinaviy o‘qitish esa bu jarayonni avtomatlashtiradi, ya’ni tizim ma’lumotlar bazasidagi namunalar asosida o‘rganib boradi va yangicha algoritmlar ishlab chiqadi.

Tibbiyotda ushbu texnologiyalar quyidagi sohalarda qo‘llaniladi: diagnostika (kasallikni aniqlash), prognostika (kasallik rivojlanishini bashorat qilish), terapiya (muolaja usullarini tanlash) va tibbiy ta’lim (kadrlar tayyorlash va malaka oshirish). Ayniqsa, tibbiy ta’lim jarayonida sun’iy intellekt o‘quvchilarning o‘rganish tezligini tahlil qilib, ularga mos o‘quv modullarini taqdim etish imkonini beradi.

Tibbiy ta’limda sun’iy intellektning qo‘llanilish yo‘nalishlari

Adaptiv o‘qitish tizimlari. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan adaptiv platformalar talabalarning bilim darajasini baholab, ularning o‘rganish uslubiga mos materiallarni avtomatik taklif qiladi. Bu tizimlar individual yondashuvni ta’minlab, har bir talabaning o‘z sur’atida o‘qishiga imkon beradi.

Masalan, **Coursera**, **EdX**, va **Udemy** kabi global o‘quv platformalarida tibbiy kurslar SI algoritmlari asosida moslashtiriladi. Natijada, o‘quvchilar o‘z ehtiyojiga mos modullarni o‘rganadi, bu esa o‘quv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Virtual simulyatsiyalar va 3D o‘quv muhiti. Tibbiyotda nazariya bilan amaliyot uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi. An’anaviy darslarda bu har doim ham to‘liq ta’minlanmaydi. Sun’iy intellekt asosida yaratilgan **virtual bemor simulyatorlari** talabalarni xavfsiz muhitda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish imkoniyati bilan ta’minlaydi. Masalan, **Body Interact**, **Oxford Medical Simulation**, va **SimX** tizimlari orqali talabalar turli klinik holatlar bo‘yicha tibbiy qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

Tibbiy tasvirlarni tahlil qilish. Mashinaviy o‘qitish algoritmlari tasvirlarni tahlil qilishda juda samarali. Ular yordamida rentgen, MRT yoki KT tasvirlaridan kasallik belgilarini aniqlash, talabalarga diagnostika ko‘nikmalarini o‘rgatish mumkin. **Google DeepMind Health** yoki **IBM Watson Health** tizimlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Talabalar bu tizimlar orqali tasvir asosida tahlil, farqlash, va tashxis qo‘yish amaliyotini o‘zlashtiradi. Bu esa klinik amaliyotga yaqin o‘qitish modelini yaratadi.

Intellektual o‘qituvchi va baholash tizimlari. Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan avtomatik baholash tizimlari o‘quvchilarning natijalarini tahlil qiladi, kamchiliklarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Masalan, **AI Tutor** yoki **ChatGPT-based assistants** yordamida talaba o‘z savollariga tezkor javob olib, murakkab tibbiy tushunchalarni interaktiv shaklda o‘rganishi mumkin.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari. Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalarining tibbiy ta’limdagi asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **Individual yondashuv** – har bir talaba uchun alohida o‘quv strategiyasi shakllanadi;
- **Interaktivlik** – o‘quvchilar real holatlarni modellashtirish orqali faol ishtirok etadilar;
- **Xatolikdan o‘rganish** – tizim talabaning xatolarini tahlil qilib, to‘g‘ri javobni ko‘rsatadi;
- **Obyektiv baholash** – inson omilini kamaytirgan holda natijalar avtomatik aniqlanadi;
- **Masofaviy ta’lim imkoniyatlari** – istalgan joydan, istalgan vaqtda o‘qish imkonini beradi.

Bu omillar tibbiy ta’limda nafaqat o‘qitish sifatini, balki o‘quvchilarning motivatsiyasini ham sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa

Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalari tibbiy ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular yordamida o‘quv jarayonining individuallashtirilishi, amaliy mashg‘ulotlarning virtual shaklda o‘tkazilishi va tibbiy ma’lumotlarning tahliliy ishlovdan o‘tishi imkoniyatlari kengaymoqda. Bu texnologiyalar talabalarda analitik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va klinik tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, tibbiyot tizimi zamonaviy, raqamli, innovatsion fikrlaydigan mutaxassislar bilan ta’minlanadi.

Shunday ekan, sun’iy intellektni tibbiy ta’lim tizimiga joriy etish — bu faqat texnologik yangilik emas, balki sog‘liqni saqlash sohasining raqamli kelajagini shakllantiruvchi strategik omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odilov, J. (2024). Digital use of artificial intelligence in public administration. *International Journal of Law and Policy*, *2*(3), 7-15.

2. Одилов, Х. А., Эминов, Р. И., & Одилов, Ж. А. (2023). БОЛАЛАРДА БУЙРАКЛАР ИККИ ТОМОНЛАМА СИЙДИК ТОШ КАСАЛЛИГИ ДАВОЛАШ ТАКТИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Engineering problems and innovations.–2023*.

3. Odilov J. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN MEDICINE. Экономика и социум, (12-2 (127)), 639-642.

4. Odilov, J. (2024). Digital use of artificial intelligence in public administration. *International Journal of Law and Policy*, *2*(3), 7-15.

ANATOMIYA FANIDA SIMULYATSION TEHNALOGIYALARNI JORIY ETISH TAJRIBALARI. SIMULYATSION TIZIMLARDA ETIK VA XAVFSIZLIK MASALALARI.

Rahmatova Namunaxon Asatullo qizi

Ilmiy rahbar Madraximova Nigora Ravshanbek qizi

Farg`ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Mavzuning dolzarbligi: So‘nggi yillarda tibbiy ta’limda simulyatsion texnologiyalarni qo‘llash dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Anatomiya fani inson tanasining tuzilishini chuqur o‘rganishni talab qiladigan asosiy fanlardan biri bo‘lib, an’anaviy o‘quv usullari bilan bir qatorda zamonaviy simulyatsion texnologiyalarni joriy etish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Virtual anatomiya dasturlari, 3D-modellar va interaktiv simulyatorlar yordamida talabalarda fazoviy tafakkur, amaliy ko‘nikma hamda klinik fikrlashni rivojlantirish imkoniyati

yaratiladi. Bundan tashqari, simulyatsion tizimlardan foydalanishda etik va xavfsizlik masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv jarayonida inson jasadlaridan foydalanish o‘rniga raqamli va sun’iy modellarni qo‘llash axloqiy jihatdan maqbul va xavfsiz muqobil hisoblanadi. Shu bilan birga, simulyatsiya jarayonlarida ma’lumotlar maxfiyligi, foydalanuvchi xavfsizligi va texnik ishonchlilikni ta’minlash bugungi kunda tibbiy ta’lim tizimi oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Shunday qilib, anatomiya fanida simulyatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha tajribalarni o‘rganish va ularning etik hamda xavfsizlik tamoyillarini aniqlash bugungi kunda tibbiy ta’lim sifatini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — anatomiya fanini o‘qitishda simulyatsion texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-amaliy ahamiyatini tahlil qilish, ularning o‘quv jarayonidagi samaradorligini aniqlash hamda talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdagi rolini baholashdan iborat. Tadqiqotda anatomiya fanida qo‘llanilayotgan zamonaviy o‘quv texnologiyalari, jumladan 3D-modellar, virtual anatomiya dasturlari, interaktiv trenajyorlar va raqamli platformalarning imkoniyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, simulyatsion tizimlardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan etik, psixologik va texnik xavfsizlik masalalari tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ishlab chiqiladi. Tadqiqot maqsadi shuningdek, tibbiy ta’limda simulyatsion texnologiyalarni samarali joriy etish orqali anatomiya fanining o‘qitish sifatini oshirish, talabalarda klinik tafakkur va fazoviy idrokni rivojlantirish, hamda o‘quv jarayonini real klinik amaliyotga yaqinlashtirishga qaratilgan.

Tadqiqot materiali va usullari: Tadqiqot materiali sifatida anatomiya fanini o‘qitishda qo‘llanilayotgan zamonaviy simulyatsion texnologiyalar, virtual anatomiya dasturlari, 3D-modellar, interaktiv o‘quv platformalari hamda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining tajriba ma’lumotlari olindi. Shuningdek, anatomiya fanini o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi va amaliy ko‘nikmalarni shakllanish jarayonlari kuzatildi. Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:

Tahliliy-uslubiy yondashuv – mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va ilg‘or tajribalarni tahlil qilish orqali simulyatsion texnologiyalarning o‘quv jarayonidagi o‘rni o‘rganildi;

Kuzatuv va taqqoslash usuli – an’anaviy o‘qitish bilan simulyatsion o‘qitish natijalari solishtirildi;

So‘rovnoma va suhbat usullari – anatomiya fanini o‘qitayotgan professor-o‘qituvchilar va talabalarning fikrlari o‘rganildi;

Statistik tahlil usuli – olingan natijalar asosida ta’lim samaradorligi va xavfsizlik tamoyillari baholandi. Tadqiqot o‘tkazishda o‘quv laboratoriyalarida mavjud anatomiya simulyatorlari, kompyuter dasturlari hamda raqamli o‘quv modullari asosiy eksperimental material sifatida foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, anatomiya fanida simulyatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Virtual anatomiya dasturlari, 3D-modellar va interaktiv simulyatorlar yordamida talabalarda fazoviy fikrlash, murakkab anatomik tuzilmalarni to‘g‘ri tasavvur qilish va ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi. Tahlil jarayonida simulyatsion o‘qitish usullarini qo‘llagan guruhdagi talabalar anatomiya bo‘yicha test natijalari va amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘rsatkichlarida an’anaviy o‘qitish guruhiga nisbatan yuqori natijalarga ega bo‘lgani aniqlandi. Bu esa simulyatsion tizimlarning o‘quvchi faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishini ko‘rsatdi. Shuningdek, simulyatsion tizimlardan foydalanishda etik va xavfsizlik masalalarining muhimligi ta’kidlandi. Tadqiqot davomida o‘qituvchilar va talabalar tomonidan texnik xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, foydalanuvchi ma’lumotlarining maxfiyligini saqlash hamda o‘quv jarayonida inson jasadlaridan foydalanish o‘rniga raqamli modellarni tanlash maqsadga muvofiq ekani qayd etildi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari anatomiya fanida simulyatsion texnologiyalarni keng joriy etish o‘qitish sifatini yaxshilash, talabalarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va etik me’yorlarga rioya qilishni ta’minlashda samarali yo‘nalish ekanini isbotladi.

Xulosa: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, anatomiya fanida simulyatsion texnologiyalarni joriy etish tibbiy ta’limning zamonaviy bosqichida eng samarali o‘qitish usullaridan biri ekanligi aniqlandi. Virtual anatomiya dasturlari, 3D-modellar va interaktiv simulyatorlar talabalarda murakkab anatomik tuzilmalarni chuqur o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Simulyatsion tizimlardan foydalanish an’anaviy o‘qitish jarayonini to‘ldiradi, talabalarda real klinik vaziyatlarga yaqin tajriba hosil qiladi hamda o‘quv jarayonini xavfsiz va etik jihatdan maqbul shaklda olib borish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot davomida simulyatsion tizimlar bilan ishlashda etik me’yorlarga, foydalanuvchi xavfsizligiga va texnik ishonchlilikka qat’iy rioya etish zarurligi aniqlanib, bu yo‘nalishda metodik tavsiyalar ishlab chiqish ehtiyoji belgilandi. Umuman olganda, anatomiya fanida simulyatsion texnologiyalarni keng joriy etish tibbiy ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini innovatsion asosda tashkil etish va kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini yuqori darajaga ko‘tarishda muhim ahamiyatga ega.

INTERAKTIV MULTIMEDIA VOSITALARI ORQALI OLIY TA’LIMDA O‘QITISH NATIJALARINI BAHOLASH

Madraximova Nigora Ravshanbek qizi
FARG’ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI.

Mavzuning dolzarbligi: Ushbu tezisda oliy ta’lim tizimida interaktiv multimedia vositalaridan foydalanish orqali ta’lim sifatini baholashning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. An’anaviy baholash uslublariga nisbatan interaktiv texnologiyalarning afzalliklari ochib beriladi hamda ularning talabalarning o‘quv faolligiga, bilim sifati va tahliliy fikrlash ko‘nikmalariga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, interaktiv baholash, multimedia vositalari, raqamli ta’lim, LMS, gamifikatsiya, ta’lim natijalari.

Kirish: Bugungi kunda oliy ta’limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat o‘quv jarayonining interaktivligini oshiradi, balki o‘qitish natijalarini tez,

aniq va xolis baholash imkonini ham yaratadi. Ayniqsa, masofaviy ta’lim va gibrid o‘qitish modellarida interaktiv multimedia vositalari (taqdimotlar, video ma’ruzalar, onlayn testlar, simulyatsiyalar, LMS platformalari) ta’limning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu vositalar nafaqat ta’lim olishni yengillashtiradi, balki bilimni baholash sifatini ham yangi bosqichga olib chiqadi.

Asosiy qism: Oliy ta’lim tizimida ta’lim natijalarini baholashda interaktiv multimedia vositalaridan quyidagicha foydalaniladi:

Elektron baholash tizimlari (LMS) – Moodle, Google Classroom, Canvas kabi platformalarda testlar, topshiriqlar va muhokamalar orqali baholash amalga oshiriladi.

Gamifikatsiya elementlari bilan baholash – Kahoot, Quizizz kabi vositalar orqali talabalar bilimini qiziqarli va raqobatbardosh muhitda tekshirish mumkin.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar – Texnik va tibbiyot yo‘nalishlarida talabalarni amaliy ko‘nikmalarini baholashda keng qo‘llaniladi.

Audio-vizual feedback imkoniyatlari – Talabalar topshiriqlariga audio yoki video sharhlar orqali o‘qituvchining individual bahosi taqdim etiladi.

Afzalliklari:

O‘quv natijalarini real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyati.

Baholash jarayonida insoniy omil (subyektivlik) darajasining kamayishi.

Talabaning o‘z-o‘zini baholash va o‘zlashtirish darajasini mustaqil nazorat qilish imkoniyati.

O‘qituvchining ta’lim samaradorligini kuzatish va differensial yondashuv asosida baho qo‘yish imkoniyati.

Xulosa: Oliy ta’lim tizimida interaktiv multimedia vositalarini o‘qitish natijalarini baholashda qo‘llash ta’lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Bu vositalar nafaqat baholashning aniqligi va tezligini oshiradi, balki talabalarni faol o‘rganishga, mustaqil fikrlashga va o‘z bilimini tahlil qilishga undaydi. Kelgusida raqamli baholash vositalarini yanada takomillashtirish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

TIBBIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI VA UNING PEDAGOGIK-EVOLUTIONAR AHAMIYATI

Muallif: Hafizjonova Kamolaxon Azizjon qizi

Ilmiy rahbar: Madraximova Nigora Ravshanbek qizi

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Mavzuning dolzarbligi: Zamonaviy tibbiyotning rivojlanish bosqichida sun’iy intellekt (Artificial Intelligence – AI) texnologiyalari klinik va ta’limiy muhitlarda inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. AI asosidagi raqamli tizimlar diagnostik analitika, prediktiv algoritmlar, virtual klinik simulyatsiyalar, va kognitiv o‘qitish platformalari orqali tibbiy ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Меньше проколов пальца

Предупреждение о гипогликемии и гипергликемии

Улучшение гликемического контроля

Инсулинотерапия и инсулиновые помпы

Автоматизированные устройства для непрерывной подачи инсулина. Они имитируют работу поджелудочной железы.

Примеры:

• Medtronic MiniMed 780G – подключается к CGM и самостоятельно регулирует дозу инсулина.

• Omnipod DASH – беспроводная, не требует шлангов.

Преимущества:

Улучшенный контроль сахара

Меньше инъекций

Автоматический расчет дозировки

Искусственная поджелудочная железа (система “замкнутого цикла”)

Комбинирует CGM и инсулиновую помпу, автоматически регулируя уровень сахара.

Пример: Control-IQ от Tandem Diabetes Care.

Цифровые технологии

Помогают следить за уровнем сахара, считать углеводы, напоминать о приеме инсулина.

Популярные приложения:

- MySugr – ведет дневник диабета.
- Diabetes:M – анализирует данные и дает рекомендации.
- Glucose Buddy – интегрируется с глюкометрами.

Искусственный интеллект (ИИ) в лечении диабета

ИИ-алгоритмы анализируют данные пациента и помогают:

- Предсказывать скачки глюкозы.
- Рассчитывать дозу инсулина.
- Выявлять диабетические осложнения (например, ретинопатию).

Пример: Google DeepMind AI – анализирует глазное дно и выявляет диабетическую ретинопатию.

Перспективные технологии лечения диабета

Генная терапия

Разрабатываются методы, которые позволят восстановить способность организма вырабатывать инсулин.

Бионическая поджелудочная железа

Идет разработка устройств, полностью заменяющих функцию поджелудочной железы.

Имплантируемые сенсоры

Будущи устройства смогут автоматически измерять сахар и подавать инсулин без участия пациента.

Благодаря новым технологиям пациенты с диабетом получают более удобные и эффективные методы лечения. Развитие CGM, инсулиновых помп, ИИ и биотехнологий приближает нас к моменту, когда диабет можно будет полностью контролировать без ежедневных уколов и ограничений.

Заключение

Инновационные технологии играют ключевую роль в диагностике и лечении сахарного диабета. Внедрение ИИ, носимых устройств, инсулиновых помп и телемедицины позволяет значительно улучшить контроль над заболеванием и повысить качество жизни пациентов.

Дальнейшие исследования и разработки в этой области могут привести к созданию новых методов, способных полностью изменить подход к лечению диабета.

Список использованной литературы

1. Атаханов, С., & Журабоева, Д. (2025). РАЗВИТИЕ МЕДИЦИНСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ БИОЛОГИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Наука и инновация*, *3*(10), 23-29.

2. Muminjonova, G. O., & Atakhanov, S. A. (2025). MODERN COMPUTER TECHNOLOGIES IN ADOLESCENT CARDIAC SURGERY: A STEP INTO

THE FUTURE. *Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing*, *3*(3), 419-422.

3. Anvarovich, A. S., & Qizi, Y. D. A. (2025). THE ROLE AND IMPORTANCE OF MODERN COMPUTER TECHNOLOGIES IN THE DIAGNOSIS AND TREATMENT OF AUTISM IN YOUNG CHILDREN.

4. ATAKHANOV, S., & MAKSUMOV, M. (2024). Technology for developing critical thinking in students through biological problem modeling in medical education.

5. Atakhanov, S. A., & Burieva, N. A. (2024). Developing Medical Competencies in Students Through the Use of Biological Modeling Technologies in Medical Education. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, *4*(12), 321-323.6. Атаханов, С., & Максумов, М. (2024). Технология развития критического мышления у студентов медицинских вузов через моделирование биологических проблем. *Общество и инновации*, *5*(11/S), 287-291.

QANDLI DIABET KASALLIGINI ANIQLASHDA VA DAVOLASHDA ZAMONAVIY KOMPYUTER TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Atahanov Sanjarbek Anvarovich
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot insitutining
"Biotibbiyot muhandisligi,biofizika va axborot texnologiyalari"kafedrasi assistenti
Akramjonova Maftunaxon Qobiljon qizi
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot insitutini,
Pediatriya fakulteti Farmatsiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qandli diabetni aniqlash va davolashda zamonaviy kompyuter texnologiyalari hamda sun'iy intellektning (AI) o'rni tahlil qilinadi.

Tadqiqotda ma’lumotlar tahlili va mashinaviy o‘rganish usullari, xususan Random Forest, CNN va LSTM algoritmlarining diagnostik aniqlikni oshirishdagi samaradorligi o‘rganilgan. Random Forest modeli 90 % aniqlik, CNN esa diabetik retinopatiya aniqlashda 93–95 % sezgirlik ko‘rsatgan. Adabiyotlar tahlili xalqaro miqyosda AI texnologiyalari erta tashxis va glyukoza monitoringini yaxshilashini ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida esa bu yondashuvlarni joriy etish uchun ma’lumot infratuzilmasi va klinik validatsiya tizimini rivojlantirish zarur. Natijalar sun’iy intellekt diabetni erta aniqlash va sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: qandli diabet, sun’iy intellekt, mashinaviy o‘rganish, CNN, Random Forest, diagnostika.

Dolzarbligi: Qandli diabet (diabetes mellitus) bugungi kunda butun dunyo tibbiyot tizimi uchun eng jiddiy surunkali kasalliklardan biridir. Yoshga bog‘liq holda, 20–79 yosh oralig‘ida bo‘lgan kattalar o‘rtasida diabet kasalligi tobora ko‘proq tarqalmoqda. Xalqaro ma’lumotlarga ko‘ra, 2024 yilda taxminan 589 million kattalar qandli diabetga chalingan, va bu ko‘rsatkich 2050 yilga kelib 852–853 million kishigacha yetishi taxmin qilinmoqda.

Maqsad: O‘zbekiston misolida ham vaziyat sezilarli darajada og‘irlashmoqda. “IDF Diabetes Atlas” ma’lumotlariga ko‘ra, 2011 yilda 20–79 yoshdagi kattalar orasida diabetga chalinganlar soni taxminan 812,9 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu raqam 1,5 million ga yetadi. So‘nggi statistikalar asosida, O‘zbekiston kattalar aholisining diabet kasalligiga ega bo‘lganlar ulushi 2021 yilda taxminan 7,0 % ga yetgan, bu ko‘rsatkich 2011 yilga nisbatan oshgan.

Shuningdek, “impaired glucose tolerance” (IGT – glyukoza chidamliligi pasayishi) kabi qon shakarining limiti yaqin holatlari ham keng tarqalgan. Masalan, Farg‘ona vodiysi semirural va shahar aholisi orasida 35 yoshdan yuqori shaxslarda semirural joylarda erkaklar orasida diabet kasalligi 9 %, ayollarda 5 %; shahar sharoitida esa erkaklarda 13 %, ayollarda 9 % ni tashkil etgani aniqlangan. Ushbu ma’lumotlar ko‘rsatadiki, diabet kasalligi nafaqat rasmiy tashxisga olingan bemorlar soni bilan,

balki diagnostika darajasi, shuningdek pre-diabet holatlari miqdori bilan ham o‘lchanishi kerak.

Erta tashxis qo‘yish diabet kasalligining asoratlarini oldini olish, davolash samaradorligini oshirish, sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytirishga imkon yaratadi. Biroq, amaliyotda quyidagi muammolar duch kelinadi:

– asimptomatik bosqich – Tip 2 diabet ko‘plab hollarda boshlanganida aniq simptomlar yetarlicha namoyon bo‘lmaydi yoki bemor tomonidan e’tiborsiz qoladi. Bu esa tashxis qo‘yilishini kechiktiradi;

– pre-diabet va glyukoza chidamliligi holatlarining aniqligi va monitoringi yetarli emasligi – ko‘plab bemorlar faqat qon glyukoza qiymatini yoki HbA1c testlarini muntazam bajarish imkoniyatiga ega emas. Ayniqsa aholining chekka hududlarida laboratoriya infratuzilmasi, diagnostika vositalari, malakali kadrlar yetishmasligi muammoni kuchaytiradi;

– ma’lumot va xabardorlik darajasi pastligi – aholi orasida diabet risk omillari, pre-diabet holatlari va kasallik belgilari to‘g‘risida ma’lumot yetishmovchiligi. Shu bilan birga, tibbiy xodimlar ham diagnostika usullarini yangilash va zamonaviy ko‘rsatmalarga rioya qilishda kechikishlar bo‘lishi mumkin;

– resurslar va sog‘liqni saqlash tizimi cheklovlari – tashxis qo‘yish, muntazam monitoring, asoratlarga qarshi profilaktika va davolash uchun zarur texnologiyalar, dori vositalari va kadrlar yetarli emasligi. Shu jumladan, qimmat asbob-uskunalar, maxsus laboratoriyalar, malakali endokrinologlar va diabetologlar yetishmasligi;

– ma’lumot maxfiyligi, standartlashtirilmagan ma’lumotlar va integratsiya kamligi – klinik ma’lumotlar turli tibbiyot muassasalari orasida to‘liq almashilmaydi; elektron sog‘liq yozuvlari (EMR) va milliy sog‘liq axborot tizimlari hali ham ko‘plab joylarda to‘liq ishlamaydi yoki standartlarga mos emas.

Bu muammolar erta tashxisni sekinlashtiradi, kasallik ko‘pincha allaqachon asoratlanish darajasiga yetgach aniqlanadi (masalan, buyrak yetishmovchiligi, ko‘z kasalliklari, yurak-qon tomir kasalliklari).

Kompyuter texnologiyalari va sun’iy intellekt sohasidagi yangilanishlar diabet diagnostikasi va davolashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Quyidagi asosiy jihatlar ko‘zga tashlanadi:

– big Data va ma’lumotlar bazalaridan foydalanish: Katta hajmdagi ma’lumotlar – klinik test natijalari, genetik ma’lumotlar, bemorlarning profilaktik ko‘rinish ma’lumotlari – analiz qilinib, risk faktorlari va pre-diabet holatlarini aniqlashda samarali modellar hosil qilinmoqda;

– mashina o‘rganish va chuqur o‘rganish algoritmlari diagnostika aniqligi ni oshirishga qaratilgan. Masalan, retina rasmiga asoslangan diabet retinopatiyasi skriningi yoki glyukoza darajasi prognozini berish modellari;

– telemeditsina va uzoqdan monitoring tizimlari: sensorlar (masalan, glukoza sensori, qurilmalar) orqali bemorning qondagi glyukoza darajasi real vaqtda kuzatiladi; buning yordamida dorilar dozasi, oziqlanish va hayot tarzi bo‘yicha tezkor takliflar berish mumkin.

– diagnostika qo‘llanmalari, qaror qabul qilish tizimlari, maslahat robotlari, virtual shifokorlar kabi vositalar bemorlar va shifokorlar o‘rtasidagi interaktsiyani kuchaytiradi hamda resurslar kam bo‘lgan hududlarda sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni oshiradi;

– individualizatsiyalashgan davolash – bemorning genetik profili, hayot tarzi, komorbid kasalliklari asosida davolashni moslashtirish; insulin takliflari, dori rejasi va ovqatlanish tavsiyalari kabi jihatlar aniqroq va samaraliroq bo‘ladi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari tibbiyotning deyarli barcha yo‘nalishlariga chuqur kirib bormoqda. AI nafaqat diagnostika jarayonlarini avtomatlashtirish, balki klinik qaror qabul qilish, kasallik xavfini prognozlash, bemor monitoringi va individual davolash strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim o‘rin egallamoqda.

Tibbiy diagnostikada AI eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa mashinaviy o‘rganish va chuqur o‘rganish usullari orqali katta hajmdagi tibbiy ma’lumotlardan (tasvirlar, laborator natijalar, elektron tibbiy yozuvlar, genetik profillar va boshqalar) foydali naqshlarni aniqlash imkoniyati mavjud. Masalan, konvolyutsion neyron tarmoqlar diabet retinopatiyasini aniqlashda inson oftalmologlari bilan teng darajadagi aniqlikka erishgan. Shuningdek, va modellari yordamida glyukoza darajasining dinamik o‘zgarishlarini bashorat qilish tajribasi ijobiy natijalar bermoqda.

AI tibbiyotda yana bir muhim yo‘nalish – prognostik modellar yaratishdir. Bunda bemorning fiziologik ko‘rsatkichlari, hayot tarzi, dori vositalariga javobi va kasallik tarixi asosida diabetning rivojlanish ehtimoli yoki asoratlar xavfi (masalan, nefropatiya, retinopatiya yoki yurak kasalliklari) oldindan baholanadi. Bu yondashuv shifokorlarga kasallikni individual tarzda boshqarish, ya’ni shaxsiy davolash rejasini tuzishda yordam beradi.

Telemeditsina va AI integratsiyasi ham tibbiyotda yangi bosqich boshlab berdi. Masalan, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan mobil ilovalar va sensor qurilmalar bemorning glyukoza darajasini real vaqt rejimida kuzatib boradi, natijalarni tahlil qiladi va xavfli holatlar paydo bo‘lishidan avval ogohlantirish beradi. Bu, ayniqsa, uzoq hududlarda yashovchi yoki tibbiyot muassasasiga tez-tez bora olmaydigan bemorlar uchun katta yordamdir.

Shuningdek, AI asosida ishlab chiqilgan qaror qabul qilish tizimlari (Decision Support Systems) shifokorlarga tashxis qo‘yish va dori dozasini tanlashda yordam beradi. Bu tizimlar statistik tahlil, bemor holatining tarixiy ma’lumotlari va ilgari o‘rganilgan klinik tajribalarga asoslanadi. Natijada, shifokorlar inson xatosi xavfini kamaytirgan holda aniqroq qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Sun’iy intellektning tibbiyotdagi qo‘llanishi faqat texnik jihat bilan cheklanmaydi. AI yordamida sog‘liqni saqlash siyosatini rejalashtirish, kasalliklarning tarqalish dinamikasini bashorat qilish, sog‘liqni saqlash resurslarini optimallashtirish kabi sohalarda ham sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Shu sababli, AI texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat shifokorlarning mehnatini yengillashtiradi, balki butun sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshiradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – sun’iy intellekt texnologiyalarining qandli diabetni aniqlash va davolash jarayonlaridagi amaliy samaradorligini tahlil qilish, ularning afzalliklari va cheklovlarini ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

– qandli diabet diagnostikasida qo‘llanilayotgan AI modellarining asosiy turlari (mashinaviy o‘rganish, chuqur o‘rganish, neyron tarmoqlar)ni tahlil qilish;

– AI yordamida erta tashxis va glyukoza darajasi monitoringi tizimlarining samaradorligini aniqlash;

– AI asosida ishlab chiqilgan klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlarning afzallik va kamchiliklarini baholash;

– O‘zbekiston sharoitida AI texnologiyalarini diabet diagnostikasi va davolash jarayonlariga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganish;

– kelgusida AI asosida milliy diabet monitoring tizimini yaratish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, sun’iy intellektning tibbiyotda joriy etilishi kasalliklarni erta aniqlash, bemorlar hayot sifatini yaxshilash va sog‘liqni saqlash tizimida resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Diabet kabi surunkali kasalliklarda esa bu yondashuv hayotiy ahamiyatga ega – u diagnostika aniqligini oshiradi, asoratlar xavfini kamaytiradi hamda davolash natijalarini yaxshilaydi.

Xalqaro adabiyotlarda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarining diabetga oid bir nechta asosiy qo‘llanilishi doimiy ravishda ajratilgan: tasviriy diagnostika (masalan, diabetik retinopatiya skriningi), qon glyukoza darajasini bashorat qilish va real-vaqt monitoringi, va klinik qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimlari.

Google va hamkasblari tomonidan amalga oshirilgan klassik tadqiqot AI asosida retina fundus tasvirlarini tahlil qilib, ni aniqlashda yuqori sezgirlik va o‘ziga xoslik ko‘rsatgan algoritmni tasvirlaydi; ushbu ish tibbiy tasvirlarda chuqur o‘rganish usullarining samaradorligini ilgari surgan va keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lgan

Glyukoza bashorati va real-vaqt monitoring sohasida LSTM, RNN va boshqa mashinaviy o‘rganish yondashuvlari keng qo‘llanilmoqda. On-line yoki CGM ma’lumotlariga asoslangan modellardan olingan natijalar 15–60 daqiqalik progonozlarda yuqori aniqlikni ko‘rsatgan; bu nazoratni avtomatlashtirish va gipoglikemiya yoki giperglikemiyani oldindan aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, zamonaviy adabiyotlarda multimodal modellarning (tasvir, klinik ma’lumot, genetik va sensornag ma’lumotlarni birlashtiruvchi) samaradorligi qayd etilgan; bunday yondashuvlar bemorning umumiy holatini kompleks baholash va individual davolash tavsiyalarini takomillashtirish imkonini beradi.

Empirik tadqiqotlar AI modellari diagnostik aniqlikni oshirish mumkinligini ko‘rsatadi, ammo ularning klinik amaliyotga tatbiq etilishi bir qator cheklovlar bilan bog‘liq. Masalan, retina tasvirlarida chuqur tarmoqlar oftalmolog bilan teng yoki unga yaqin natija ko‘rsatgan bo‘lsa-da, modelning umumiylashuv qobiliyati, kamera modellari va tasvir sharoitlari) muhim omil bo‘lib qoladi. Gulshan va hamkasblarining ishlari bu jihatlarni ochiq tan oladi va klinik integratsiya uchun qo‘shimcha validatsiya zarurligini ta’kidlaydi.

Glyukoza bashoratiga oid tadqiqotlar o‘rganilgan ma’lumotlar sifati, sensorning niqoblanishi va bemorning kundalik xatti-harakatlari (ovqatlanish, jismoniy faollik) kabi omillarga sezgir ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, modellarning real-hayot sharoitida barqaror ishlashi uchun kengroq va xilma-xil ma’lumotlar to‘plamlari, hamda tashqi validatsiya talab etiladi.

Meta-tahlillar va so‘nggi sharh maqolalarida AIga asoslangan yopiq-aylanma insulin yetkazib berish tizimlari va qaror qabul qilish tizimlarining glyemik nazoratga ijobiy ta’siri qayd etilgan, ammo xavfsizlik, regulyator talablar va uzoq muddatli klinik natijalarni baholash zarurati qayd etiladi.

Xalqaro tajriba rivojlangan mamlakatlarning sog‘liqni saqlash infratuzilmasi, keng klinik ma’lumot bazalari va texnologik investitsiyalar tufayli AI modellarini muvaffaqiyatli sinash va qisman joriy etishga yo‘naltirilgan. Masalan, Britaniya va AQShda ECG yoki retina tasvirlarini AI orqali skriningga qo‘llash va katta miqyosda pilot loyiha sinovlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida esa mavjud adabiyotlar va milliy tahlillar diagnostika va skrining samaradorligini oshirish zarurati, ammo infratuzilma va ma’lumotlarning markazlashmaganligi kabi muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Tadbirkorlik va ilmiy loyihalar doirasida telemeditsina va ba’zi pilot-ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda; ammo keng ko‘lamli AI integratsiyasi uchun data standardizatsiyasi, regulyator asoslar va malaka oshirish dasturlari kerak. Milliy tadqiqotlar diabetning aniqlanish chastotasiga oid statistik jihatlarni aniqlab bergan bo‘lsa-da, AI texnologiyalarini amalda qo‘llash bo‘yicha keng qamrovli nashrlar kam.

Adabiyotlarda AIning samaradorligi bilan bir qatorda – ma’lumot maxfiyligi, algoritmik adolatsizlik va regulyator standartlarga rioya qilish masalalari keng

muhokama qilinadi. Bu jihatlar, ayniqsa mahalliy kontekstda (chekka hududlar, kam resursli klinikalar) muhim bo‘lib, AI tizimlarini joriy etishdan avval texnik va etik baholash hamda mahalliy validatsiya talab etiladi.

Xalqaro tadqiqotlar sun’iy intellektning diabet diagnostikasi va monitoringida katta potentsialga ega ekanligini ko‘rsatadi ayniqsa retina skriningi, CGM asosida glyukoza prognozi va AI-qo‘llab-quvvatlangan qaror tizimlari sohalarida. Biroq, ularning klinik tatbiqi uchun ma’lumotlarning xilma-xilligi, tashqi validatsiya, regulyator moslik va mahalliy tizimga integratsiya jihatlari hal etilishi lozim. O‘zbekiston kontekstida AIni joriy etish uchun avvalo milliy ma’lumot infratuzilmasini mustahkamlash, lokal validatsiya tadqiqotlarini o‘tkazish va sog‘liqni saqlash mutaxassislari malakasini oshirish zarur bo‘ladi.

Qandli diabetni aniqlash va davolashda zamonaviy kompyuter texnologiyalari, xususan sun’iy intellekt (AI) yondashuvlaridan foydalanish ushbu tadqiqotning asosiy yo‘nalishini tashkil etdi. Tadqiqotda ma’lumotlar tahlili, mashinaviy o‘rganish algoritmlari hamda neyron tarmoqlarga asoslangan modellar sinovdan o‘tkazildi..

Tadqiqotning dastlabki bosqichida mavjud klinik va laborator ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, tozalash va tayyorlash ishlari olib borildi. Ma’lumotlar diabet bilan og‘rigan va sog‘lom nazorat guruhidagi shaxslar haqidagi demografik, fiziologik hamda biokimyoviy ko‘rsatkichlardan iborat bo‘ldi.

Tahlil quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi:

Deskriptiv tahlil: bemorlarning yoshi, jinsiy taqsimoti, BMI, qon bosimi, glyukoza, HbA1c, insulin va boshqa parametrlarning o‘rtacha, median va dispersiya qiymatlari hisoblandi.

Qandli diabetni aniqlash va davolashda zamonaviy kompyuter texnologiyalari, xususan sun’iy intellekt (AI) yondashuvlaridan foydalanish ushbu tadqiqotning asosiy yo‘nalishini tashkil etdi. Tadqiqotda ma’lumotlar tahlili, mashinaviy o‘rganish algoritmlari hamda neyron tarmoqlarga asoslangan modellar sinovdan o‘tkazildi. Quyida har bir metod ilmiy asosda batafsil tavsiflanadi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida mavjud klinik va laborator ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, tozalash va tayyorlash ishlari olib borildi. Ma’lumotlar diabet

bilan og‘rigan va sog‘lom nazorat guruhidagi shaxslar haqidagi demografik, fiziologik hamda biokimyoviy ko‘rsatkichlardan iborat bo‘ldi.

Tahlil quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi:

Deskriptiv tahlil: bemorlarning yoshi, jinsiy taqsimoti, BMI, qon bosimi, glyukoza, HbA1c, insulin va boshqa parametrlarning o‘rtacha, median va dispersiya qiymatlari hisoblandi.

Korrelyatsion tahlil: glyukoza darajasi bilan boshqa o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik Pearson va Spearman koeffitsientlari yordamida o‘rganildi.

Normalizatsiya va tozalash: ekstremal (outlier) qiymatlar aniqlanib, statistik asosda chiqarib tashlandi; yetishmayotgan qiymatlar mos matematik usullar bilan to‘ldirildi.

Vizual tahlil: matritsali korrelyatsiya grafigi, histogramma va qiyosiy qutichalar (box plots) yordamida ma’lumotlarning umumiy taqsimoti ko‘rsatildi.

Ushbu bosqich natijasida modelni o‘qitish uchun barqaror, muvozanatli va ishonchli ma’lumotlar bazasi tayyorlandi.

Tadqiqotda qandli diabetni erta bosqichda aniqlash, glyukoza darajasini prognozlash va bemor holatini baholash uchun mashinaviy o‘rganishning bir nechta ilg‘or usullari tanlandi. Quyida asosiy algoritmlar va ularning tadqiqotdagi roli yoritiladi.

Random Forest – bu bir nechta qaror daraxtlaridan (decision trees) tashkil topgan ansambl modeli bo‘lib, u klassifikatsiya va regressiya vazifalarini samarali bajaradi. Har bir daraxt ma’lumotlarning tasodifiy tanlangan kichik to‘plamida o‘qitiladi, bu esa modelni overfittingdan himoya qiladi va umumiy natijani barqarorlashtiradi.

Tadqiqotda Random Forest algoritmi diabet mavjudligini aniqlash uchun ishlatildi. Modelga kiritilgan o‘zgaruvchilar: yosh, jins, BMI, qon bosimi, glyukoza miqdori, insulin darajasi, HbA1c va oilaviy anamnez.

Natijada modelning o‘rtacha aniqlik (accuracy) darajasi 0.90, AUC (Area Under Curve) ko‘rsatkichi esa 0.87 atrofida qayd etildi.

Bu usulning afzalligi – xususiyatlarning (features) muhimligini avtomatik baholash imkoniyatida. Ya’ni model diabet tashxisiga eng katta ta’sir qiluvchi omillarni aniqlab bera oladi.

CNN (konvolyutsion neyron tarmoq) - bu asosan tasvir ma’lumotlarini tahlil qilishda ishlatiladigan chuqur o‘rganish (deep learning) modeli. Ushbu tadqiqotda CNN diabetning ko‘zdagi asoratlari - diabetik retinopatiyani aniqlash uchun qo‘llanildi.

Model retina fundus tasvirlari asosida o‘qitildi. CNN arxitekturasi quyidagicha shakllantirildi:

3 ta konvolyutsion qatlam – tasvirdagi to‘r pardadagi o‘zgarishlarni (mikroanevrizma, qon quyilish, eksudatlar) aniqlash uchun;

2 ta pooling qatlam – shovqinni kamaytirish va parametrlarni optimallashtirish uchun;

1 ta to‘liq bog‘langan qatlam– yakuniy tasniflash uchun.

Model ReLU aktivatsiya funksiyasi va Adam optimizer yordamida o‘qitildi, natijalari cross-entropy loss asosida baholandi. CNN yordamida diabetik retinopatiya aniqligida 93–95 % sezgirlik (sensitivity) va 90 % aniqlik qayd etildi. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, chuqur o‘rganish asosidagi vizual diagnostika tibbiyot amaliyotida shifokor ko‘rigining aniq va tezkor yordamchisi bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qandli diabetni erta aniqlash va samarali davolashda sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumotlar tahlili va mashinaviy o‘rganish algoritmlari yordamida bemorlarning klinik ko‘rsatkichlarini chuqur o‘rganish, xavf guruhlarini aniqlash hamda glyukoza darajasini prognozlash imkoniyati mavjud. Random Forest, CNN va LSTM kabi modellar yuqori aniqlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, ularni amaliy tibbiyotda qo‘llash diagnostika sifatini oshiradi va inson xatosi ehtimolini kamaytiradi.

Shuningdek, telemeditsina, sensor qurilmalar va qaror qabul qilish tizimlari bilan integratsiyalashgan AI yondashuvlari bemor holatini real vaqt rejimida nazorat qilish, dori dozalarini moslashtirish hamda asoratlarni oldini olishda katta

samaradorlik beradi. O‘zbekiston sharoitida bu texnologiyalarni tatbiq etish uchun ma’lumotlarni standartlashtirish, milliy sog‘liq ma’lumotlar bazasini yaratish va tibbiyot xodimlarining raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Umuman olganda, AI asosidagi tizimlar diabet diagnostikasi va davolashda yangi bosqichni boshlab beradi. Ular tibbiy qarorlarni yanada aniqroq, tezkor va shaxsga yo‘naltirilgan shaklda amalga oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Diabetes Federation (IDF). IDF Diabetes Atlas, 10th edition. Brussels, Belgium: International Diabetes Federation; 2023.

2. World Health Organization (WHO). Global Report on Diabetes. Geneva: WHO Press; 2022.

3. Gulshan, V., Peng, L., Coram, M., et al. (2016). Development and validation of a deep learning algorithm for detection of diabetic retinopathy in retinal fundus photographs. JAMA, 316(22), 2402–2410.

4. Xie, J., Wang, Y., Zhang, J., & Li, Y. (2021). AI-based glucose prediction systems: A review of algorithms and applications. IEEE Access, 9, 145128–145142.

5. Ting, D. S. W., Cheung, C. Y., Lim, G., et al. (2017). Development and validation of a deep learning system for diabetic retinopathy and related eye diseases using retinal images from multiethnic populations with diabetes. JAMA, 318(22), 2211–2223.

USE OF MODERN COMPUTER TECHNOLOGIES IN THE TREATMENT AND DIAGNOSIS OF DENTAL DISEASES

Ataxanov Sanjarbek Anvarovich

Fergana Institute of Public Health,

Assistant Lecturer,

Uzbekistan

Ruzieva Rahnamo Behzod qizi
Fergana Medical Institute of Public Health,
1st-year student, Faculty of Pediatrics,
Uzbekistan

Abstract:

This article discusses how modern computer technologies help dentists treat teeth, take accurate dental images, detect hidden diseases, design crowns and prostheses, use lasers instead of drills, make diagnoses, as well as print teeth and models on 3D printers. The main methods are described: digital X-ray, 3D imaging, lasers, systems for manufacturing crowns and prostheses. An example of a practical assignment for students is given, as well as recommendations on using these technologies in education and practice. All of this makes treatment fast, accurate, and almost painless. The article explains how exactly computers assist dentists, provides an example of a practical assignment for students, and offers advice on using technologies in study and work.

Keywords: dentistry, computer, digital X-ray, 3D model, CAD/CAM, 3D printing, laser, telemedicine, diagnostics, treatment.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada zamonaviy kompyuter texnologiyalari stomatologlarga tishlarni davolashda, aniq suratlarni olishda, yashirin kasalliklarni aniqlashda, koronka va protezlarni loyihalashda, burg‘ilash mashinasi o‘rniga lazerlardan foydalanishda, tashxis qo‘yishda, shuningdek, tishlar va modellarni 3D-printerda chop etishda qanday yordam berishi ko‘rib chiqiladi. Asosiy usullar ta’riflangan: raqamli rentgen, 3D-suratlar, lazerlar, koronka va protezlarni tayyorlash tizimlari. Talabalar uchun amaliy topshiriq misoli keltirilgan, shuningdek, ta’lim va amaliyotda texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha maslahatlar berilgan. Bularning barchasi davolash jarayonini tez, aniq va deyarli og‘riqsiz qiladi. Maqolada kompyuterlarning stomatologlarga qanday yordam berishi tushuntiriladi, talabalar uchun amaliy

topshiriq misoli keltiriladi hamda o‘qish va ishlashda texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: stomatologiya, kompyuter, raqamli rentgen, 3D-model, CAD/CAM, 3D-chop etish, lazer, telemeditsina, diagnostika, davolash.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются способы, как современные компьютерные технологии помогают стоматологам лечить зубы, делать точные снимки зубов, находят скрытые болезни, проектируют коронки и протезы, используют лазеры вместо бормашины, ставить диагноз, а также печатают зубы и модели на 3D-принтере. Описаны основные методы: цифровой рентген, 3D-снимки, лазеры, системы для изготовления коронки и протезов. Приведен пример практического задание для студентов, а также советы по использованию технологий в учебе и работе. Все это делает лечение быстрым, точным и почти безболезненным. В статье объясняется, как именно компьютеры помогают стоматологам, приведен пример практического задания для студентов, а также советы по использованию технологии в учебе и работе.

Ключевые слова: стоматология, компьютер, цифровой рентген, 3D-модель, CAD\CAM, 3D-печать, лазер, телемедицина, диагностика, лечение.

Introduction

Modern medicine and biology are among the most dynamically developing areas of science. Information technologies play an important role in their development. Accordingly, the need to teach students how to use these technologies is also increasing. Dentistry today is not only the treatment of teeth using traditional methods but also the use of an entire complex of computer technologies. Modern developments have made this branch of medicine much more precise, safe, and comfortable for the patient. Modeling biological problems in medicine helps not only to absorb theoretical knowledge but also to develop practical skills. Modeling clinical situations with the use of computer technologies contributes to a better

understanding of educational material, the development of practical skills, and critical thinking among students. This article examines the main directions of digital technologies in dentistry and their importance for the training of specialists of a new generation.

Main Part

The use of computer technologies in dentistry has become an important direction in modern medicine. Today, digital tools are applied at almost every stage of dental care: from diagnosis and planning to treatment and follow-up. Their use allows doctors to increase accuracy, shorten treatment time, and make procedures safer and more comfortable for patients. For dental students, learning these technologies is especially important because they are becoming the basis of their future professional work.

1. Computer technologies in diagnostics

iagnosis is the first and most important stage of treatment. Modern digital technologies have completely changed this process. Previously, for diagnosing diseases of the teeth and jaws, doctors used conventional X-ray films. This method only allowed to see a flat image, and often some details remained invisible.

Digital radiography

Today, digital radiography is used more and more often. Digital radiography is a modern diagnostic method that has gradually completely replaced film-based X-ray images. Unlike the old technology, where the image had to be developed on film, digital X-ray uses special sensors. They immediately transmit the information to a computer, and the doctor receives a ready image within a few seconds.

Advantages of digital radiography:

1. High image quality. The image can be enlarged, rotated, brightness and contrast adjusted. This makes it possible to see even the smallest defects: the onset of caries, inflammation at the root tip, small cracks, or changes in bone tissue.

2. Minimal radiation dose. With digital X-ray, radiation exposure is 5–10 times lower than with traditional images. This is much safer for the patient, especially if several studies are needed in a short period of time.

3. Speed and convenience. The image appears on the computer screen immediately after shooting, so the doctor can instantly evaluate the result and, if necessary, take another image.

4. Archiving and data accessibility. All images are saved in the patient's electronic record. This is convenient for subsequent visits: the doctor can compare new and old images and track treatment dynamics.

5. Compatibility with other technologies. Digital images can be easily used together with computer programs for implant planning, orthodontic treatment, or surgical operations.

6. Environmental friendliness. With digital radiography, there is no need for chemical processing of film, as before. This eliminates the use of harmful reagents and makes the method safer for the environment.

Cone-Beam Computed Tomography (CBCT)

Cone-beam computed tomography is a modern diagnostic method that allows obtaining a three-dimensional image of teeth, jaws, and surrounding tissues. Unlike conventional X-rays, which show only a flat projection, CBCT shows the object from different sides and makes it possible to examine it in all details.

Features and advantages of CBCT:

1. Three-dimensional visualization.

The doctor receives a volumetric model of the teeth and jaws. This helps not only to see the overall picture but also to evaluate the depth, shape, and position of roots, to detect hidden pathologies that cannot be seen on a conventional image.

2. Accuracy of diagnosis.

With CBCT it is possible to detect inflammatory processes at the root apex, cysts, granulomas, microcracks, and changes in bone tissue. This is especially important in complex cases when standard X-rays do not provide complete information.

3. Treatment planning.

Implantation. Tomography allows accurate measurement of bone volume and density, determining the optimal place for implant placement, and minimizing the risk of complications.

Wisdom tooth extraction. Thanks to the 3D image, the doctor sees the position of the tooth relative to nerves and blood vessels, which makes the operation safer.

Orthodontics and surgery. CBCT helps assess the structure of the jaw, the position of tooth buds, and bite anomalies.

4. Educational value. For students of dental faculties, CBCT is a valuable learning material. 3D images help to better understand the anatomy of the maxillofacial area, study rare pathologies, and analyze clinical cases.

5. Comparison with classical X-ray. A regular X-ray gives only one projection, and some details may remain hidden. CBCT forms a full 3D image that can be rotated, enlarged, and viewed from any angle. At the same time, the radiation dose of CBCT is lower than that of conventional medical CT, which makes the method more gentle for the patient.

6. Digital data processing. The obtained images can be stored in the patient's electronic record, used for computer modeling of treatment, and demonstrated to the patient.

Computer programs for the analysis of radiographic and tomographic images

Modern technologies are actively being introduced into dental practice, and computer programs for processing and analyzing images occupy a special place here. Such programs work with digital X-ray images and CBCT data, helping the doctor to make diagnoses faster and more accurately.

The main features of such programs include highlighting suspicious areas on images and automatically recognizing possible diseases. This reduces the chance of mistakes and makes diagnostics more reliable. In addition, software is used for treatment planning and also plays an educational role by allowing students to learn from real cases. An important advantage is integration with patients' digital records, which ensures convenient storage and access to medical information.

2. Digital technologies in treatment

After making an accurate diagnosis, the next stage begins — treatment, and here digital technologies have significantly changed dental practice. Modern methods allow working faster, more precisely, and more comfortably both for the patient and for the doctor.

CAD/CAM systems

CAD/CAM (Computer-Aided Design / Computer-Aided Manufacturing) are technologies that have made prosthetics maximally accurate and fast.

Previously, to make a crown or an inlay, traditional impressions were taken using silicone or alginate materials. This process was unpleasant for the patient (causing gag reflex and discomfort) and not always accurate. Today, instead of impressions, an intraoral scanner is used. It is a small camera that creates a three-dimensional (3D) model of teeth and jaws. Based on this digital model, the program calculates the exact shape of the future crown or inlay.

Then, a special milling machine or 3D printer manufactures the construction from ceramics or other materials. The entire process takes only a few hours, and the patient can receive a finished crown the same day, without repeated visits.

Laser technologies

Lasers are increasingly used in dentistry, gradually replacing the traditional dental drill in some procedures. They are applied in many areas of treatment. With their help, decayed tissue can be removed without drilling, making the procedure more comfortable for patients. In surgery, lasers are used to work with soft tissues, such as gum reshaping or removal of growths. They are also used to sterilize root canals during endodontic treatment, reduce tooth sensitivity, and speed up healing of tissues after interventions.

3D printing in dentistry

3D printing in dentistry is a modern technology that allows creating precise and comfortable products for patients. With its help, dentists can produce crowns, bridges, surgical templates, clear aligners, and educational jaw models. Such devices make treatment more accurate and faster, and doctors can prepare better for procedures in advance.

For education, 3D printing is also very useful. Students can practice on copies of teeth and jaws, improving their skills without risk for patients. This makes training safer and more effective. As a result, the technology improves both treatment quality and the professional training of future specialists.

3. Online courses and webinars in dentistry

In modern dentistry, online courses and webinars are becoming increasingly widespread. This format gives students access to advanced knowledge and the experience of specialists from around the world.

The self-study method allows choosing a convenient time, filling in knowledge gaps, and learning modern diagnostic and treatment approaches.

Online courses and webinars provide not only theoretical knowledge but also introduce the latest technologies and methods, making training more flexible and effective.

Laboratory classes. Laboratory classes in biological modeling give students the chance not only to deepen their theoretical knowledge from lectures but also to see how it is applied in practice. This form of learning helps to better understand the structure of living systems, study the laws of their functioning, and find solutions in different situations.

Practical experiments allow students to develop skills in analyzing data, drawing conclusions, and applying knowledge to solve real tasks. Such classes also help to develop research skills and important professional qualities. Work in the lab teaches accuracy, attention, responsibility, and independence, as well as showing how modern technologies can be used to study biological processes.

Group work is also important: students learn to interact, share ideas, assign roles, and reach common goals.

Thus, biological modeling plays an important role in the educational process. It helps students not only strengthen knowledge and critical thinking but also develop creativity, research ability, teamwork, and practical skills that will be useful in future professional and scientific work.

Conclusion. Studying biological modeling allows students to achieve several important results that make education more complete and practice-oriented.

Integration of theory and practice.

Modeling helps connect theoretical knowledge with real examples. Students can better understand biological processes and medical procedures, as well as see how they appear in practice. This makes learning easier and more effective. It also gives students confidence in applying knowledge and prepares them for practical work.

Development of analytical skills.

During modeling, students learn to work with data, analyze results, make decisions in different situations, and develop critical thinking. These skills are essential for future specialists in medicine and biology. They also learn to search for and compare different solutions, which is important when dealing with unusual cases and clinical problems.

Innovative approach.

The use of modeling in education introduces students to modern technologies and methods. It helps them not only to master new tools but also to develop flexible thinking, which is vital in healthcare where new approaches and solutions constantly appear. Another advantage is the ability to adapt to changes and be ready to use new technologies in professional practice.

Therefore, modeling biological processes plays a key role in student training. It develops critical thinking, the ability to work with modern technologies, apply knowledge in real situations, and solve complex professional tasks. This experience makes education more interesting and motivating, and better prepares students for real professional work.

Recommendations

1. Integration of modeling technologies into educational programs.

Including biological modeling in the curriculum will help students better understand complex topics and processes that cannot be fully explained only with words or textbooks. Such technologies make learning more visual, engaging, and practical.

2**. Support from teachers.**

Teachers play a key role in learning new methods. It is important not only to explain how to use modeling, but also to help students adapt to new forms of study. Teacher support increases student confidence, interest, and motivation. Teachers can also encourage independent learning by showing the direct connection of new knowledge to futurprofessional work.

3**. Development of teamwork methods.**

Group work during modeling helps students learn to collaborate, share responsibilities, and find solutions together. This approach teaches them to listen to others, respect different opinions, and find common ground. Team activities develop both critical thinking and communication skills, which are very important for professional practice.

4**. Use of additional resources.**

It is recommended to combine laboratory modeling with online courses, webinars, and modern digital platforms. This gives students more opportunities to strengthen their knowledge and revise material at any convenient time. Such a comprehensive approach makes learning more flexible and effective.

References

1. Kulakov, A. A. Modern Technologies in Dentistry / A. A. Kulakov, S. V. Petrov. – Moscow: GEOTAR-Media, 2021. – 320 p.

2. Zhulev, E. N. Digital Dentistry: Textbook / E. N. Zhulev, M. V. Ivanova. – St. Petersburg: SpetsLit, 2020. – 280 p.

3. Martynenko, T. V. Application of CAD/CAM Technologies in Prosthetic Dentistry // Russian Dentistry. – 2019. – No. 4. – P. 45–50.

4. Pashkov, A. N. Use of Laser Technologies in Dental Practice // Modern Problems of Science and Education. – 2020. – No. 2. – P. 112–117.

5. Belikov, V. A. Cone-Beam Computed Tomography in Dentistry / V. A. Belikov, A. I. Yuryev. – Moscow: Practical Medicine, 2019. – 198 p.

6. Shillingburg, H. T. Fundamentals of Prosthodontics / H. T. Shillingburg. – Moscow: MedPress-Inform, 2018. – 512 p.

7. Davydov, B. N. Digital Technologies in Dental Practice / B. N. Davydov, N. A. Sergeeva // Dental Bulletin. – 2021. – No. 3. – P. 15–21.
8. Romanov, A. V. Biomedical Modeling in Medicine and Dentistry / A. V. Romanov. – Kazan: KFU, 2020. – 240 p.
9. Kiseleva, I. O. Laser Technologies in Modern Dentistry / I. O. Kiseleva // Institute of Dentistry. – 2019. – No. 1. – P. 33–37.
10. Levchenko, V. N. Modern Materials and Digital Technologies in Dental Education / V. N. Levchenko. – Moscow: Academia, 2022. – 256 p.

O‘QITUVCHILARNI RAQAMLI SAVODXONLIGINI OSHIRISH, ULARNING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Nosirov Nodirbek Valijonovich
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya. Maqolada o‘qituvchilarni raqamli savodxonligini oshirish, ularning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishning turli usullari, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va zamonaviy texnologiyalarni talabalarga taqdim etish orqali bilim olish samaradorligini yaxshilash yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Аннотация. В статье рассматриваются различные пути повышения цифровой грамотности педагогов, развития у них навыков эффективного использования цифровых технологий, их значение в образовательном процессе, а также пути повышения эффективности обучения путем предоставления учащимся современных технологий.

Annotation. The article examines various ways to improve teachers' digital literacy, develop their skills in the effective use of digital technologies, their importance in the educational process, and ways to improve the effectiveness of learning by providing students with modern technologies.

Kalit so‘zlar. Raqamli savodxonlik, raqamli texnologiyalar, axborot texnologiyalari, internetdan foydalanish, ma’lumotlarni izlash, onlayn resurslar, ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Ключевые слова. Цифровая грамотность, цифровые технологии, информационные технологии, использование интернета, поиск информации, интернет-ресурсы, развитие навыков.

Keywords. Digital literacy, digital technologies, information technologies, internet use, information search, online resources, skills development.

Ta’lim tizimining hozirgi holatida raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘rni katta ahamiyatga ega. Talabaning raqamli texnologiyalar bilan bilimlarni o‘zlashtirishi an’anaviy texnologiyalarga qaraganda bir muncha tezroq amalga oshadi. Raqamli texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Demak, oldimizga quyidagi savolni qo‘yaylik, Raqamli texnologiya - o‘zi nima? Raqamli texnologiya bu – xo‘jalik yuritishning zamonaviy shakli bo‘lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an’anaviy ho‘jalik yuritish shakllariga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi.

Raqamli savodxonlik nafaqat texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasi, balki ulardan samarali va xavfsiz foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va tajribani ham o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilarni raqamli savodxonligini oshirish ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, kasbiy rivojlanish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada o‘qituvchilarga zamonaviy texnologiyalarini o‘rgatish, internet resurslaridan samarali foydalanish, axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, shuningdek, raqamli madaniyatni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari va samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Shu orqali raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni joriy etishning ahamiyati yoritiladi.

Ta’lim jarayonida interaktiv texnologiyalardan foydalanish, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv onlayn platformalar, video darslar, virtual sinflar, raqamli resurslar va materiallardan foydalanish orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini yanada mustahkamlashlari mumkin. Ushbu jarayonlar o‘quvchilarga ta’lim olishni qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi.

Interaktiv onlayn platformalar, masalan: Kahoot va Quizizz talabalarning raqamli savodxonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu platformalar orqali talabalar o‘yinlar va viktorinalar yordamida bilim olishadi. Talabalar bilan dars davomida viktorinalar o‘tkazib, talabalarning bilim darajasini baholash va ularni rag‘batlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu platformalar talabalarning diqqatini jalb qilib, o‘rganish jarayonini qiziqarli qiladi. Talabalar raqobatlashish orqali o‘z bilimlarini yanada mustahkamlashadi va o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishadi.

Video darslar va vebinarlar ta’lim jarayonida murakkab mavzularni tushuntirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘qituvchilar o‘z darslarini video formatda tayyorlab, talabalarga taqdim etishlari mumkin. Bu usul talabalarga darsni istalgan vaqtda qayta ko‘rish imkoniyatini beradi. Video darslar orqali talabalar murakkab mavzularni sodda va tushunarli tarzda taqdim etishlari mumkin. Vebinarlar esa interaktiv muloqot imkoniyatini yaratadi, bunda talabalar savollar berish va muhokama qilish orqali darsda faol ishtirok etishadi. Bu jarayon talabalarning diqqatini jalb qilish va ularni yanada faol ishtirok etishga undaydi.

Virtual sinflar tashkil etish orqali talabalar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish mumkin. Talabalar bir-birlari bilan onlayn platformalar orqali muloqot qilib, birgalikda muammolarni hal qilishadi. Bu yondashuv talabalarning jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularni raqamli savodxonliklarini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, virtual sinflar talabalarga darslarni yanada interaktiv va qiziqarli o‘tkazish imkonini beradi. Talabalar bir-birlaridan o‘rganish, fikr almashish va yangi g‘oyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Talabalarda raqamli fikrlashni rivojlantirish uchun bir qator muhim yondashuvlar mavjud. Kritik fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, talabalarga

raqamli resurslardan qanday foydalanishni o‘rgatish juda muhimdir. O‘qituvchilar talabalarga ma’lumotlarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlashga undash orqali ularning raqamli savodxonligini oshirishlari mumkin.

O‘qituvchilar talabalarga muammolarni hal qilish vazifalarini berib, ularga raqamli texnologiyalar yordamida yechimlarni izlashni o‘rgatishlari mumkin. Bu usul talabalarning ijodkorligini rivojlantirishga va ularni raqamli muhitda muvaffaqiyatli ishlashga tayyorlashga yordam beradi.

O‘quv materiallarini raqamlashtirish o‘qituvchilarga darsliklarni va qo‘shimcha materiallarni raqamlashtirib, o‘quvchilarga onlayn ravishda taqdim etish imkonini beradi. Raqamlashtirish jarayoni nafaqat o‘quvchilarga dars materiallarini oson topish imkoniyatini beradi, balki o‘qituvchilarga darslarni tayyorlashda vaqtni tejashga yordam beradi. Talabalar raqamli formatda taqdim etilgan materiallardan foydalanib, o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Bu jarayon talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar uchun raqamli kutubxonalar yaratish, ularni raqamli resurslardan foydalanishga o‘rgatish, ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Raqamli kutubxonalarda turli xil resurslar, maqolalar, kitoblar va video materiallar mavjud bo‘lib, talabalar o‘z qiziqishlariga mos ravishda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday kutubxonalar talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va ularning bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ta’lim jarayonida interaktiv texnologiyalarni qo‘llash va raqamli fikrlashni rivojlantirish talabalarning o‘z bilimlarini mustahkamlash, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu jarayonlar talabalarlarning raqamli savodxonligini oshirish, ularni zamonaviy ta’lim muhitida muvaffaqiyatli ishlashga tayyorlash va kelajakda raqamli dunyoda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘z darslarini interaktiv va qiziqarli o‘tkazish orqali talabalarning bilim olish jarayonini yanada samarali qilishlari mumkin.

Raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida yangi imkoniyatlarni ochib beradi va talabalarga yanada kengroq bilim olish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish – bu faqat zamonaviy texnologiyalarni o‘rgatish emas, balki ularni xavfsiz va samarali foydalanishga o‘rgatish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Ta’lim tizimida raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan yangicha yondashuvlar, interaktiv metodlar va maxsus o‘quv dasturlari yordamida bu jarayon samarali amalga oshirilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlar to‘plami – T., 2017 y.

2.Nosirov N.V. “Bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanishning ahamiyati” Central asian research journal for inter disciplinary studies (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 |ISSUE 4| 2022. DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-81-85 O‘zbekiston 4-son 82-85 betlar. 2022 yil.

3.Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb-hunar ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishi”. Monografiya. - T.: Fan, 2004 y. 126-128 betlar.

4.Muslimov N.A. “Kasb ta’limi o‘qituvchilari amaliy kompetentligini shakllantirishda ixtisoslik fanlarini o‘rni”. Pedagogik ta’lim (ilmiy-nazariy va metodik jurnal) 2012 yil, 61-64 betlar.

5. Nosirov, N. (2023). Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 207-207.

6. Valijonovich N. N. (2023). PREPARING FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS FOR METHODOLOGICAL-INNOVATIVE ACTIVITY. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *10*(10), 300-303.

7. Valijonovich Nosirov Nodirbek. “Future Teachers of Technology Methodological Competence Formation Factors”.*European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices* 1.2 (2023): 32-37.

MASOFAVIY TA’LIM TIZIMINI JORIY ETISH

Qurbonov Pahlavon Sirojiddin o‘g‘li
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta’lim va uni tushunchasini Tibbiyot talabalari bilan birgalikda Tibbiyot xodimlariga ham chuqur mohiyatini yoritish uni barcha uchun sodda, tushunarli va albatta foydali tomonlarini tadbiq etishdan iborat. Masofaviy ta’lim tizimining tamoyillari asosiy vazifalari va amaliy ko‘nikmalarini hosil qilish bo‘yicha ishlar olib borilgan hamda tibbiyot xodimlari va talabalarni masofadan o‘qitishning dolzarb mavzulari ko‘rib chiqilgan.

Annotation: This article explores the concept of distance learning, emphasizing its essence and benefits for both medical students and healthcare professionals. The goal is to present it in a simple, comprehensible, and practical manner for everyone. The principles, primary tasks, and practical skills development within the distance learning system have been discussed. Additionally, pressing issues related to the remote education of healthcare professionals and students have been reviewed.

Аннотация: В данной статье рассматривается концепция дистанционного обучения с акцентом на её сущность и преимущества как для студентов-медиков, так и для медицинских работников. Цель заключается в том, чтобы представить её в простой, понятной и, конечно, полезной форме для всех. Рассмотрены принципы, основные задачи и формирование практических навыков в системе дистанционного обучения. Также проанализированы актуальные вопросы дистанционного обучения медицинских работников и студентов.

Kalit so‘zlar: Masofadan o‘qitish, masofaviy ta’lim, masofaviy ta’lim texnologiyasi, zamonaviy tibbiy texnikalar.

Keywords: Distance education, distance learning, distance learning technology, modern medical techniques.

Ключевые слова: Дистанционное обучение, дистанционное образование, технологии дистанционного обучения, современные медицинские технологии.

Tibbiy bilimlarni tibbiyot oliygohlari talabalariga o‘rgatishda zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanilgan holda o‘rgatish zamonaviy kasb bo‘lgan axborot texnologiyalaridan foydalanib amalga oshirish ta’lim sifati va samaradorligiga yuqori hissa qo'shadi va buni natijaviyligi ortadi navbatdgi maqolamizda ham yuqoridagilar kabi samarodorlik jihatidan faol bo‘lgan mavzulardan mujassam bo‘lgan ushbu maqolani havola etamiz. Bugungi zamonaviy sharoitlardan kelib chiqqan holda Tibbiyot xodimlari va ularning talaba yoshlari uchun yurtimiz prezidenti muhtaram SH.M.Mirziyoyev tomonidan judayam yuqori sifatga ega bo‘lgan zamonaviy tibbiy texnikalar olib kelindi va ular yurtimizning deyarli har bir hududiga yetib bordi va bunday zamonaviy tibbiy texnikalardan foydalangan holda yurtimiz fuqoroloriga sifatli tibbiy tashxislar qo‘yilmoqda va malakali shifokorlarimiz tomonidan bunday davolash usullarini va tashxislash jarayonlarini boshqa joydan turib ham tibbiyot talabalari malakaviy amaliyot sifatida undan foydalanish ko‘nikmalarini qo‘shimcha o‘rganishib kelishmoqda bu esa o‘z navbatida talabalar bilimini oshirish bilan bir qatorda ularning vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash va uzoq masofalarini yaqin qilishdan iborat bo‘lgan muhim jabhalarida yordam bo‘lib kelmoqda hamda ushbu masofaviy ta’lim tizimini tadbiq etishda har bir tibbiyot xodimi yoki uning talabasi o‘z bilimlarini va malakalrini boshqa Oliy ta’lim muassasasi talabalaridan yoki Tibbiyot xodimlaridan yetarli tajribalarni almashishmoqda bu esa masofali o‘qitish zamonaviy ta’limning eng muhim va tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Zamonaviy sharoitda axborot kommunikatsion texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta’lim jarayonida ularning imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda yetakchi xorijiy mamlakatlar masofadan o‘qitish borasida boy tajriba to‘plagan.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari - bu ta’lim oluvchi va pedagog xodimning to‘liq yoki qisman masofadan o‘zaro faoliyatida asosan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llab amalga oshiriladigan ta’lim texnologiyalari tushuniladi.

Masofaviy ta’lim sohasida nufuzli nazariy ishlanmalar mavjudligiga qaramasdan, ta’lim jarayonini tashkil qilish shakli sifatida hozirda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kengroq hisoblanadi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llashda ta’lim oluvchi mashg‘ulotda qatnashmaydi, lekin topshiriqlarni bajaradi va tyutor bilan elektron pochta orqali muloqot qiladi yoki tyutor ta’lim oluvchilarga darsdan tashqari vaqtda blog yoki sayt orqali konsultatsiya beradi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari kunduzgi, sirtqi, kunduzgi-sirtqi; eksternat shakllarida; ta’limning ma’lum bosqichlarida; asosiy va qo‘shimcha ta’lim dasturlarini amalga oshirishda qo‘llanilishi mumkin.

Masofaviy ta’lim texnologiyalarida qo‘ llaniladigan aloqa usuli har biri turli bo‘ lishi mumkin. Ular elektron pochta orqali yozishmalar, shaxsiy saytlar/bloglar orqali muloqotlar, materiallarni turli elektron resurslar yordamida o‘rganish va boshqalardan iborat.

Shunday qilib, masofaviy ta’lim texnologiyalariga lokal o‘rnatilgan dasturlar va trenajyorlar bo‘yicha o‘qitish ham kiradi. Ba’zan masofaviy ta’limning eskirayotgan texnologiyalariga axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanmasdan amalga oshiriladigan o‘zaro faoliyat (teleradioeshittirish, telefoniya, materiallarni pochta orqali jo‘natish) ham kiritiladi.

“Masofaviy o‘qitish” atamasi, yuqorida aytilganlarning eng birinchi bo‘g‘ini bo‘lib, Viskonsin shtati Universiteti tomonidan 1892-yildan boshlab sirtqi (korrespondentlik) kurslarda qo‘llanilgan. *Masofaviy* deb masofadan turib tashkil qilingan ta’lim tushunilgan. Unga “korrespondentlik o‘qitish”, “uyda o‘qish” va boshqalar sinonim hisoblangan.

Xorijiy davlatlarda masofaviy o‘qitish bo‘yicha bir qator muassasalar va olimlar tomonidan izlanishlar olib borilgan va masofaviy o‘qitish haqida turlicha fikrlarni bildirishgan.

Amerikaning masofaviy o‘qitish assotsiatsiyasi mutaxassislari (The United States Distance Learning Association — USDLA) masofaviy o‘qitish deganda - ta’lim oluvchi va tyutorning turli geografik makonda bo‘lganlari holda, o‘quv

jarayonini tashkil etish uchun elektron vositalar va nashr qilingan qo‘ llanmalardan foydalanib o‘qitishni tushunishgan.

Masofaviy o‘qitish sohasi bo‘yicha xorijlik mutaxassislardan biri “distance education” atamasini tushuntirish borasida masofaviy o‘qitish jarayonining ikki asosiy belgisini ko‘rsatadi: ta’lim berishning nashr shaklida va video yoki audio-yozma usulda bo‘lishini, shu bilan birga, kommunikatsiyaning tashkil etilishi masofaviy turib turli xil zamonaviy texnika vositalari bilan aloqa qilish ekanini ta’kidlaydi.

Shuningdek, MDH davlatlari olimlari va yetakchi mutaxassislari A.A.Andreev, E.S.Polat, A.M.Bershadskiy, V.M.Monaxov, V.A.Slastenin, V.P.Tixomirov, I.K.Shalaev, A.V.Xutorskiy, M.V.Moiseeva kabi mutaxassislar tomonidan masofaviy o‘ qitish tushunchasi va u bilan bog‘liq boshqa atamalar keng tahlil qilingan.

E.S.Polat masofaviy o‘qitishni tyutor va ta’lim beruvchilarning hamda ta’lim oluvchilarning bir-birlari bilan o‘zaro faoliyatlari masofaviy amalga oshiriladigan va internet texnologiyalar yoki boshqa interfaol texnologiyalarga xos maxsus vositalar orqali amalga oshiriladigan o‘quv jarayoniga xos bo‘lgan barcha komponentlarni (maqsadlar, mazmun, metodlar, tashkiliy shakllar, ta’lim vositalari)ni aks ettiradigan mustaqil ta’lim shakli sifatida ta’kidlaydi.

A.A.Andreev turli ta’riflarni tahlil qilib, masofaviy o‘qitish ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilarning o‘zaro va ta’lim vositalari bilan birgalikdagi faoliyati ularning makon va zamonda joylashishlariga invariant bo‘lgan o‘ziga xos maxsus didaktik tizimda amalga oshiriladigan interfaol faoliyatlarining maqsadga yo‘naltirilgan, tashkil qilingan jarayoni, degan xulosaga keladi.


Eydos Markazi mutaxassislari A.V.Xutorskiy va boshqalar masofaviy o‘qitish tushunchasini shunday talqin qilishadi: o‘qitish sub’ektlari (ta’lim oluvchilar, pedagoglar, tyutorlar va boshqalar) makon va vaqt bo‘yicha bir-birlaridan uzoqda turib telekommunikatsiya vositalari yordamida umumiy o‘quv jarayonini amalga oshiradi.

MESI mutaxassislari V.P.Tixomirov va boshqalar tomonidan masofaviy o‘qitish deganda shunday ta’lim texnologiyasi tushuniladiki, bunda tyutor va ta’lim

oluvchi turli joylarda joylashgan bo‘ ladi hamda o‘qitish vositasi sifatida keys-texnologiya, TV-texnologiya va tarmoq texnologiyalaridan foydalaniladi.

M.V.Moiseevaning ishida masofaviy o‘qitish sirtdan o‘qishning bir turi, ya’ni kompyuter telekommunikatsiyalari, zamonaviy yangi axborot texnologiyalari vositalaridan maksimal darajada foydalanish va o‘quv jarayonining barcha qatnashuvchilari orasida faol axborot almashish nazarda tutilishi kerakligi tushuntiriladi.

Mazkur fikrlarni umumlashtirilgan holda mutaxassislar masofaviy o‘qitishni tyutor bilan ta’lim oluvchilar orasidagi munosabatlar masofadan turib amalga oshiriladigan va o‘quv jarayoniga xos bo‘lgan internet texnologiyalarining spetsifik vositalari yoki interfaollikni ko‘ zda tutadigan boshqa vositalar bilan amalga oshiriladigan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalari)nio‘zida aks ettiradigan ta’lim shakli sifatida ta’kidlaydilar. Masofaviy talim quyidagi model bo‘yicha bajariladi:



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

2. Qurbonov P., Ataxonov S., Sharofiddinov S. MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 43-47.

8. Pahlavon Q. TIBBBIYOTDA MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI //GERMANY SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 24-28

9. Mirzakarimov , B., & Qurbonov , P. (2023). TIBBBIYOTDA MASOFAVIY TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK TA’MINOTINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI. Research and Implementation. извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/745

10. Qurbonov , P., Minavarjonov, S., & Raxmonaliyeva, F. (2023). TIBBIYOT XODIMLARINI MASOFADAN O‘ QITISHDA AVTOMATLASHGAN DIDAKTIK TA’MINOTNING UMUMIY TUZILISHI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(3), 52–55. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/11562

11. **www.fjsti.uz**

12. https://tktishf.edu.uz/

13. **https://dist.edu.uz**

DMED MOBIL ILOVASI VA UNDAN AMALIY JARAYONLARDA FOYDALANISH

Qurbonov Pahlavon Sirojiddin o‘g‘li

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada DMED tizimi va uni tushunchasini Tibbiyot talabalari bilan birgalikda Tibbiyot xodimlariga ham chuqur mohiyatini yoritish uni barcha uchun sodda, tushunarli va albatta foydali tomonlarini tadbiq etishdan iborat. DMED tizimining asosiy vazifalari va amaliy ko‘nikmalarini hosil qilish bo‘yicha

ishlar olib borilgan hamda tibbiyot xodimlari va talabalarni bu tizimning dolzarb tomonlari ko‘rib chiqilgan.

Annotation: This article focuses on explaining the DMED system and its concept to medical students and healthcare professionals, aiming to provide a clear, simple, and beneficial understanding for everyone. Efforts have been made to highlight the main functions of the DMED system and develop practical skills related to its use. Additionally, the article examines the relevant and urgent aspects of the system for both medical staff and students.

Аннотация: В данной статье рассматривается система DMED и её понятие совместно со студентами-медиками и медицинскими работниками с целью глубокого освещения её сути, чтобы сделать её понятной, простой и, безусловно, полезной для всех. Проведена работа по выявлению основных задач системы DMED и формированию практических навыков её применения. Также в статье рассмотрены актуальные стороны системы для медицинских работников и студентов.

Kalit so‘zlar: DMED, DMED tizimi, mobil ilovalar, zamonaviy texnologiyalar

Keywords: DMED, DMED system, Mobile applications, Modern technologies

Ключевые слова: DMED, Система DMED, Мобильные приложения, Современные технологии

DMED (Digital medicine) Raqamli tibbiyot O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida “DMED” deb atalgan yagona tibbiy axborot tizimi qo‘llanilmoqda. Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan UZINFOCOM hamkorligida bunday yagona tibbiy tizim joriy qilinmoqda. 2024 yil 17 dekabrda sog‘liqni saqlash bo‘yicha №384 buyrug‘i asosida birlamchi tibbiy muassasalarda DMED tizimini keng joriy etish boshlangani ma’lum qilingan. Hozirgi kunda ko‘plab poliklinikalar va birlamchi tibbiy muassasalarda DMED tizimi o‘rnatilgan. Tizim ichiga 24 million kishining elektron tibbiy kartalari yozilishi maqsad qilingan. DMED tizimida “Elektron retsept” modulini joriy qilish orqali dori retseptlari nazorati, shaffoflikni oshirishga intilish. Mobil ilovalar orqali bemorlar va tibbiyot xodimlariga qulayliklar taqdim etilmoqda: recept, analiz natijalari, shaxsiy kabinet.

Ayni kunlarda yurtimizning 15 ta tuman (shahar)ida sog‘liqni saqlashning yangi modelini joriy qilish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasi boshlandi. Bu UZINFOCOMning DMED tibbiyot raqamlashtirish loyihasi.

Ushbu dasturning ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, tibbiyotni raqamlashtirish borasida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi birlamchi tibbiyot muassasalariga tashrif tadbirlari uyushtirildi. DMED tizimining qanday ishlashini ilk marta Samarqand shahridagi 2-oilaviy poliklinikada kuzatdim bu – qog‘ozsiz, navbatsiz qulaylik edi. Faqat shugina emas. Bu tizimda shifokor yoxud bosh shifokorni tanishingizning ahamiyati yo‘q, tizim sizning ID raqamingizni taniydi, xolos. Va, to‘g‘risini aytsam, men shu yerda raqamlashtirishning eng katta ahamiyatini his qildim: u tizimdagi boshboshdoqlikning oldini oladi.

Ayni paytda 55 ming nafardan ziyod aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatayotgan mazkur shifo maskani zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta’minlanib, DMED



axborot tizimi to‘liq ishga tushirilgan.

Raqamlashtirish qanday qulayliklar beradi?

Raqamlashtirish faqat qulaylik emas, qonuniylik demak. Ya’ni «qo‘ldan qo‘lga» o‘tadigan ma’lumotlar yo‘q – bu degani, manipulyasiya uchun yo‘llar kesiladi.

DMED ilovasi orqali nimalardan xabardor bo‘lish mumkin?

Mijoz tarixining to‘liq elektron bazasi shakllanadi, dori-darmon aylanmasini shaffof nazorat qilish imkoni paydo bo‘ladi, yo‘llanma, navbat, diagnostika va natijalar bir tizimga solinadi, «qo‘shimcha to‘lov»lar uchun joy qolmaydi...

DMED shifokorning har bir harakatini qayd etadi: qayerda qabul qildi, nimani yozdi, qaysi doriga yo‘llanma berdi. Bu tizim orqali «hamma uchun bir xil qoida» bo‘ladi.

DMED haqida yanada to‘liqroq ma’lumotlarga ega bo‘lish maqsadida Samarqand viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazida ham bordik.

Ma’lumot o‘rnida aytish lozimki, 350 o‘ringa mo‘ljallangan ushbu shifo maskanida ayni chog‘da 28 turdagi tor soha mutaxassislari aholiga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Muassasaning Maslahat poliklinikasi kunlik 250 qatnovga mo‘ljallangan bo‘lib, bu yerda bemorlarga to‘liq DMED tizimi orqali tibbiy xizmat ko‘rsatiladi.

Kasalxonaga sayohat asnosida ushbu axborot dasturini joriy etish holati, uning qaysi modullari izchil yo‘lga qo‘yilgani, bemor va shifokorlar uchun qulayliklari, shu jumladan, tibbiyot muassasalarida uzundan-uzoq navbatlarning oldini olishdagi ahamiyati xususida batafsil ma’lumotga ega bo‘ldik.

Ayniqsa, har bir shifokor eshigi oldiga qo‘yilgan QR-kodli «shikoyat daftari» shaffoflikning ramzidek ko‘rindi: ilgari ayrim shifoxonalarda «shikoyat daftari» bo‘lardi. Uni kim o‘qiydi, kim e’tibor beradi bilmas edik.

– Endilikda har bir qabul, har bir yo‘llanma, har bir tashxis DMED (Davlat tibbiy elektron ma’lumotlar tizimi) ya’ni raqamlar orqali qayd etiladi, tom ma’noda ish jarayonini baholaydi. Bemorning yoshlikdagi kasallik tarixi, barcha-barchasi kiritilgan bo‘ladi bu tizimga, – deydi Lutfullo Raxmonov, Samarqand viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi rahbari. – Albatta, bu tizimni yo‘lga qo‘yishda qarshiliklar, to‘siqlarga duch kelishimiz mumkin. Chunki qo‘l yozuviga o‘rgangan shifokorlar elektron tizimga qiynalib moslashyapti. Tizimni to‘liq ishlatish uchun

bizga juda ko‘p ayti xodimlari kerak bo‘ladi. Ayti hamshiralarni o‘qitdik. Bu tizimning eng muhim jihati: nafaqat bemorni, balki shifokorni ham himoya qiladi. Chunki adolatli ishlayotgan shifokor ham ba’zan asossiz tuhmatga uchrashi mumkin. QR-kod tizimi doimiy ravishda ijobiy va salbiy fikrlarni yig‘ib boradi. Ya’ni, inson haqida emas, ish uslubi haqida umumiy tasavvur shakllanadi. Shifokor qaysi kuni, nechada, qayerda bemor qabul qilgani qayd etiladi. Qanday tashxis qo‘ygani, qaysi laboratoriyaga yo‘llagani, qanday davo muolajasini yozgani – hammasi tizimda saqlanadi. Har qanday ma’lumot yoki «ortiqcha harakat»ni qayd etib boradi. DMED – tizimlilik va inson haq-huquqi kafolati...



Mana bu har bir eshik yoniga qo‘yilgan QR-kod orqali bevosita fikr qoldirish mumkin ekan. Bu esa real nazorat tizimidir.

Bemor shifokorni, xizmat ko‘rsatishni istasa anonim, istasa o‘z ismi sharifi bilan baholashi mumkin, va shifokor ham turli gumondan qutuladi. QR-kod fikrlari orqali haqiqiy kasbga sadoqat ko‘rinadi. Ya’ni men 12 yil Rossiyada ishlab kelgan mutaxassis sifatida aytamanki, boshqa joylarda allaqachon bu tizim o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Siz endi falonchi tavsiya qilgan shifokorga bormaysiz, mana shunday elektron qoldirilgan baholar tufayli sizni davolovchi shifokorni tanlaysiz. Tabiiyki, bu jarayonlar har bir mutaxassisni o‘z ustida ishlashga majbur qiladi.

Buxoro viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi bir kunda 200-300 bemorni qabul qiladi. Bu yerga shoshilinch bemorlardan tortib og‘ir kasallargacha keltiriladi, ana shunday paytda DMED tizimining qulayligi yaqqol ko‘rinadi. Ya’ni, bunda bemor

qayta qon topishirish uchun navbat kutib qolmaydi. Topshirgan qon tahlillari esa o‘sha zahotiyoq aniqlanadi.



DMED tibbiy tizimi nafaqat zamonaviy raqamli texnologiyalarni sog‘liqni saqlash sohasiga joriy etish namunasi, balki inson haq-huquqlarini himoya qilish, bemorlar hayotini yengillashtirish va tibbiy xizmatlarga shaffof, adolatli yo‘l bilan erishishning muhim vositasiga aylanmoqda. Ushbu ilova orqali odamlar navbat kutmasdan, qo‘shimcha xarajatlarsiz, o‘z vaqtida zarur ma’lumotga ega bo‘lish imkoniga erishmoqda. Qolaversa, har bir fuqaroning tibbiy ma’lumotlari xavfsiz saqlanishi va qayd etilishi orqali ularning sog‘liqqa bo‘lgan munosabatida mas’uliyat hissi kuchaymoqda. DMED – bu shunchaki raqamlashtirish emas, balki inson qadri va tibbiyot sohasidagi shaffoflik uchun tashlangan muhim qadamdir.

Maqsadi va vazifalari

Tibbiy xizmat sifatini oshirish, hujjat aylanishini optimallashtirish va byurokratiya kamaytirish;

Bemorlar va shifokorlar o‘rtasida shaffoflikni oshirish, retsept yozish va nazorat qilishni avtomatlashtirish;

Tizim ichida barcha tibbiy muassasalarni birlashtirish, ma’lumot almashish va monitoring imkoniyatini yaratish;

Hamma aholining tibbiy kartalarini elektron shaklga o'tkazish, ma’lumotlarni markazlashtirish;

Qulayliklari (afzalliklari)

Shaxsiy ma’lumotga tez va qulay kirish: bemorlar o‘z analiz natijalari, retseptlari va tibbiy tarixini mobil ilova orqali ko‘ra oladi.

Retsept nazorati: dorilarni noto‘g‘ri retseptsiz tarqatilishining oldini olish, dorilarni kuzatish imkoniyati.

Hujjat aylanishini kamaytirish: qog‘oz hujjatlar ishlatilishi kamayadi, ma’lumotlar elektron shaklda saqlanadi.

Tibbiy muassasalararo integratsiya: turli poliklinikalar, shifoxonalar va laboratoriyalar o‘rtasida ma’lumot almashish.

Nazorat va audit imkoniyati: retsept yozilishi, dori chiqarilishi va tibbiy xizmatlar monitoring qilinishi mumkin.

Yo‘qolgan vaqt va resurslarni tejash: bemorlar navbatda kutmasdan, internet orqali buyurtma qilish, vaqti tejash.

Kamchiliklari va muammolari

Texnik muammolar va infrastrukturaga ehtiyoj: barcha muassasalarda kerakli kompyuterlar, internet, serverlar bo‘lishi shart. Agar infratuzilma yetarli bo‘lmasa, tizim ishlamay qolishi mumkin.

Xodimlarni o‘qitish va malaka: shifokorlar va boshqa xodimlar tizimdan foydalanishni o‘rganishi kerak — bu qo‘shimcha vaqt va xarajat talab qiladi.

Ma’lumot xavfsizligi va maxfiylik: elektron ma’lumotlar tizimida xavfsizlik muammolari bo‘lishi mumkin (kirib qolish, ma’lumotlar o‘g‘irlanishi).

Texnik nosozliklar va uzilishlar: serverlarning ishdan chiqishi, tarmoq uzilishi, dastur xatolari.

Ba’zi hududlarda qamrov cheklanganligi: ayniqsa chekka hududlarda yoki viloyat poliklinikalarida tizim hali joriy qilinmagan bo‘lishi mumkin.

Ma’lumotlar noto‘liq yoki noto‘g‘ri kiritilishi: xodimlar noto‘g‘ri ma’lumot kiritishi, kodlash xatolari bo‘lishi mumkin.

Tashqi tizimlar bilan integratsiya muammolari: agar boshqa tizimlar (xastaxona ichidagi kasalxona tizimi, laboratoriya tizimi) bilan integratsiya bo‘lmasa, ma’lumot almashishda qiyinchilik bo‘lishi mumkin.

Raqobat va qarshilik: ayrim shifokor yoki muassasalar yangi tizimni qabul qilmasligi mumkin, eski odatdagi ishlash usullaridan voz kechish qiyin bo‘lishi mumkin.

Amalda DMED qanday ishlamoqda — misollar va holatlar

DMED tizimi hozirga qadar 24 million aholining elektron tibbiy kartasini shakllantirish imkonini berdi.

2 571 birlamchi tibbiy muassasadan 2 475 tasida tizim joriy qilingani ma’lum.

Kattaqo‘rg‘on shahrida DMED to‘liq tatbiq qilingan va har bir fuqaro uchun yagona raqamli tibbiy pasport yaratilgan.

“Elektron retsept” moduli joriy etilgan: dorilar dozalari va shakllari hisobga olinadi, retseptlar elektron shaklda yoziladi, markirovka va sotilish nazorat qilinadi.

Nukusdagi poliklinikalarda navbatga onlayn yozilish mumkinligi va kutish vaqti qisqargani aytilmoqda.

Samarqanddagi poliklinikada quyidagicha: “qaysi shifokorga kiraman, qayerga boraman” degan noaniqliklar yo‘q, bemorning tahlillari va tarixlari elektron tizimda saqlanadi va istalgan muassasada foydalaniladi.

Biroq ayrim poliklinikalarda ma’lumotlar vaqtida kiritilmasligi, xodimlar kompyuter texnikasi bilan to‘liq ta’minlanmasligi kabi muammolar ham aniqlangan.

Bu misollar orqali ko‘rish mumkinki, DMED tizimi joriy qilingan joylarda bemor va tibbiyot xodimlari uchun sezilarli yengilliklar yaratmoqda, lekin hamma joyda uning ishlashi barobar emas.

Kamchiliklari — duch kelinayotgan muammolar

Amalda quyidagi cheklovlar va muammolar sezilib qolmoqda:

Texnik jihozlar yetishmasligi

Ba’zi muassasalarda kompyuterlar, serverlar yoki internet tezligi yetarli emasligi, ma’lumotlarni to‘liq kiritish uchun resurslar yetishmasligi.

Xodimlarning malakasi va o‘qitilishi

Elektron tizimga o‘rganmagan shifokor yoki hamshiralar uchun foydalanish qiyin bo‘lishi; dastlabki yo‘lga solish davri muammolar bilan kechishi.

Ma’lumotlarning kechikmasi / noto‘liq kiritilishi

Bazi muassasalarda ma’lumotlar va hujjatlar tizimga kech yoki noto‘liq kiritilishi, bu ma’lumotlar izchilligini zaiflashtiradi.

Tizim qamrovi va tatbiq etilmagan joylar

Har bir viloyat va chekka hududlarda DMED hali ham to‘liq joriy etilmagan; ba’zi poliklinikalarda tizim ishlamayapti.

Ma’lumot xavfsizligi va maxfiylik xavotirlari

Elektron ma’lumotlar tizimida kirib qolish, huquqbuzarlik, ma’lumotlarning noto‘g‘ri ishlatilishi ehtimoli mavjud. Tizimga ruxsatsiz kirishning oldini olish, shifokor va bemor huquqlarini himoya qilish talab qilinadi.

Qonuniy va ma’muriy muammolar

Ma’lumot almashish uchun shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qonunlari, ruxsat va litsenziyalar, ma’muriy nazorat mexanizmlari va javobgarlik masalalari.

O‘zgarishga qarshilik

Ba’zi shifokorlar yoki muassasalar eski odatlarni, qog‘oz hujjatlash tizimini afzal ko‘rishi mumkin, yangi usullarga moslashishda kechikishi mumkin.

Texnik nosozliklar / uzilishlar

Serverlar ishlamashi, internet uzilishi, dasturiy xatolar tizimga kirishga yoki ma’lumot almashishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Qo‘shimcha xarajatlar

Joriy etish bosqichida investitsiyalar (kompyuterlar, tarmoqlar, xodimlarni o‘qitish) talab qilinadi, buning uchun mablag‘ tayyor bo‘lishi zarur.

Qanday qilib DMED tizimini samaraliroq ishlatish mumkin — maslahatlar

Quyidagi tavsiyalar DMED tizimining afzalliklarini maksimal darajada olish va muammolarni kamaytirishga yordam beradi:

Infratuzilmani mustahkamlash

Har bir tibbiyot muassasasida yetarli kompyuter, server, barqaror internet ta’minoti bo‘lishi zarur.

Xodimlarni keng qamrovli o‘qitish

Shifokorlar, hamshiralar, administratorlar uchun tizimdan foydalanish bo‘yicha treninglar, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘llanmalar tayyorlash.

Bosqichma-bosqich tatbiq qilish

Avval pilot hududlarda (masalan, shaharda, viloyatda) sinovdan o‘tkazish, muammolarni aniqlab, tuzatib, keyin kengaytirish.

Monitoring va audit mexanizmlari

Tizim ishlashini muntazam tekshirish, xatoliklarni aniqlash, tizimda noto‘g‘ri ma’lumot kiritish hollari va korrupsiyani aniqlash. QR-kodli fikrlar va shikoyat tizimini faol ishlatish

Ma’lumot xavfsizligini ta’minlash

Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kirish nazorati, shifrlash, server xavfsizligi choralarini kuchaytirish.

Integratsiya bilan ishlash

Laboratoriyalar, rentgen bo‘limlari, aptekalar, shifoxona ichidagi boshqa tizimlar bilan yaxlit integratsiya qilish, ma’lumot almashinuvini yagona standartda tashkil etish.

Foydalanuvchi fikrlarini doim qabul qilish

Bemor va xodimlardan foydalanuvchi tajribasi (UX) bo‘yicha fikrlar yig‘ish, takliflar asosida tizimni takomillashtirish.

Zaxira rejalar va uzilishlarga tayyorgarlik

Tizim uzilganda qanday muqobil ishlash yo‘lini belgilash — ma’lumotlarni yaxlit saqlash, zaxira serverlar, offline rejimlarda ishlash imkoniyati.

Jamoatchilikni xabardor qilish

Aholiga tizimning qanday ishlashi, qanday foyda berishi haqida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish, bemorlarni tizimga jalb qilish.

Qonunchilik va me’yoriy huquqiy asosni takomillashtirish

Ma’lumotlarni himoya qilish qonunlari, shifokorlar va muassasalar majburiyatlari, javobgarlik mexanizmlari aniq bo‘lishi.

F**oydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Qurbonov P., Ataxonov S., Sharofiddinov S. MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING USLUBIY ASOSLARI //Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 43-47.
2. Pahlavon Q. TIBBBIYOTDA MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI //GERMANY SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 24-28
3. Mirzakarimov , B., & Qurbonov , P. (2023). TIBBBIYOTDA MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK TA'MINOTINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI. Research and Implementation. извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/745
4. Qurbonov , P., Minavarjonov, S., & Raxmonaliyeva, F. (2023). TIBBIYOT XODIMLARINI MASOFADAN O‘ QITISHDA AVTOMATLASHGAN DIDAKTIK TA'MINOTNING UMUMIY TUZILISHI. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 3(3), 52–55. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/11562

Foydalanilgan internet saytlari

www.fjsti.uz

https://tktishf.edu.uz/

https://dist.edu.uz

http://m.xabar.uz/uz/insayder/dmed-tizimlilik-va-inson-haq-huquqi-kafolati

TIBBIYOT TALABALARINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINI SHAKLLANTIRISHDA INDIVIDUALIZATSIYA QILISH PRINSIPLARI
PRINCIPLES OF INDIVIDUALIZATION IN FORMING THE PSYCHOPHYSIOLOGICAL STATE OF MEDICAL STUDENTS
ПРИНЦИПЫ ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ

Abdurahimova Manzura Shokirjon qizi

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o‘qituvchisi
ORCID ID 0009-0005-9389-7308
Abdurahimova772@gmail.com. 998905602128
Davolash ishi yo‘nalishi 3125-guruh talabasi Turdialiyeva Nurgul

Annotatsiya

Mazkur maqolada tibbiyot ta’lim jarayonida talabalarning psixofiziologik holatini shakllantirishda individualizatsiya qilishning nazariy asoslari, psixopedagogik yondashuvlar hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda individual yondashuvning shaxsning emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi va kognitiv faolligini oshirishdagi roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: psixofiziologik holat, individualizatsiya, tibbiyot talabalari, stress, kognitiv faollik, shaxsiy rivojlanish, psixogigiyena.

Kirish

Zamonaviy tibbiyot ta’limi sharoitida talabalarning psixofiziologik holatini shakllantirish, ularning shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish hamda o‘quv faoliyatini individuallashtirish dolzarb masalalardan biridir. Tibbiyot talabalarining o‘qish yuklamasi yuqori, stress omillari kuchli, shuning uchun ularning psixofiziologik muvozanatini saqlash ta’lim sifati va kasbiy tayyorgarlik samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Psixofiziologiya atamasi aslida psixologiya sohasiga tegishli bo‘lib, psixik va fiziologik jarayonlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi sohadir. Bu termin 1830-yilda fanga olib kirilgan. Bugungi kunda bu atamadan nafaqat psixologlar, balki fanning boshqa soha vakillari ham foydalanib kelmoqda. Jumladan, adabiyotshunoslar tomonidan badiiy asar qahramonlarining xarakteri, ichki ruhiyatini ochib berishda muhim rol o‘ynashi mumkinligi aytilmoqda. Qahramon xarakterini ochib berishda psixofiziologik holatning ishlatilishi adabiyotshunoslarimizdan Y.Solijonov va M.Qo‘chqorova nazariyalarida kengroq yoritilgan. E.Wassiliwizky, S.Koelsch, V.Wagner,

T.Jacobsen, W.Menninghauslarning maqolasida[7] she’riy asarlarning psixofiziologiyaga ta’siri o‘rganilgan bo‘lsa-da, psixofiziologik belgilar to‘g‘risida noyob ma’lumotlar beradi va ular adabiy tahlillarda foydalanish uchun imkon yaratishi bilan ahamiyatli sanaladi.

Tadqiqotda kompleks yondashuv asosida psixologik diagnostika (S.D. Deryabo, V.M. Rusalov, A.N. Leontyev testlari), fiziologik kuzatuv (yurak urish tezligi, EEG, stress-indeks) va shaxsiy refleksiya metodlari qo‘llanildi. Individualizatsiya prinsiplari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi: H.Umurov, D.Quronov, G.Imomova, M.Qo‘chqorova, Y.Solijonov, A. Alimuhammedov, M.Boboxonov, Sh. Botirova, A.Qayumov, O.Ahmadjonova singari o‘zbek adabiyotshunoslarining ilmiy ishlariga alohida tayanildi.

- Kognitiv individualizatsiya — talabaning o‘quv uslubi va bilish tezligiga mos metodlarni tanlash;
- Emotsional individualizatsiya — stressni boshqarish, autogen mashqlar, psixogigiyena elementlarini joriy etish;
- Motivatsion individualizatsiya — ichki motivlarni rivojlantirish, kasbiy qadriyatlar tizimini shakllantirish.

Natijalar va muhokama

O‘tkazilgan psixodiagnostik tahlillar natijasida tibbiyot talabalarida individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni quyidagi ijobiy o‘zgarishlarga olib kelgani aniqlandi:

- stress-indeksning o‘rtacha 17–22% kamayishi;
- diqqat va ish qobiliyatining 15–18% oshishi;
- o‘z-o‘zini boshqarish darajasining sezilarli yaxshilanishi ($p<0.05$).

Bu natijalar individualizatsiya prinsiplari asosida o‘qitish jarayonining talabalarning psixofiziologik barqarorligiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek,

[7] **Wassiliwizky, E., Koelsch, S., Wagner, V., Jacobsen, T., & Menninghaus, W. (2017, August 1).** *The emotional power of poetry: neural circuitry, psychophysiology and compositional principles.* Social Cognitive and Affective Neuroscience, 12(8), 1229–1240.

talabalar orasida psixologik moslashuv darajasi yuqori, konfliktlilik darajasi past bo‘ldi.

Tibbiyot ta’limida individualizatsiya prinsiplari asosida psixofiziologik holatni shakllantirish — nafaqat o‘quv samaradorligini oshiradi, balki kelajak shifokorlarning emotsional intellekti, stressga chidamliligi va kasbiy motivatsiyasini mustahkamlaydi. Shu sababli o‘quv jarayonida individual pedagogik yondashuv, psixologik monitoring va refleksiv metodlarni tizimli joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Wassiliwizky, E., Koelsch, S., Wagner, V., Jacobsen, T., & Menninghaus,W. (2017, August 1).** *The emotional power of poetry: neural circuitry, psychophysiology and compositional principles.* Social Cognitive and Affective Neuroscience, 12(8), 1229–1240.

2.Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадиий нутқнинг роли: Филол.фан.номз.... дисс. –Тошкент. 1993 й. – 135 б. Имомова Г. Ўзбек ҳикояларида бадиий синтез шакллари ва ижодкорнинг поэтик концепцияси: Филол.фан.док.... дисс. автореф. – Қарши, 2022.

3. Алимуҳаммедов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир // Ўзбек адабий танқиди: антология. – Тошкент: Турон-иқбол, 2011. – 543 б

4. Ботирова Ш. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий психологизм. (У.Ҳамдамнинг “Мувозанат”, “Исён ва итоат”, “Сабо ва Самандар” романлари мисолида): Филол.фан.бўйича фалс.д-ри (PhD)....дисс. – Қарши, 2019.

5. Қаюмов А. Ҳозирги ўзбек насрида миллий характер ва бадиий маҳорат (Ўткир Ҳошимов ва Наби Жалолиддин ҳикоялари мисолида): Филол.фан.б-ча фалс.д-ри... дисс. – Фарғона, 2018.

RAQAMLI O‘QUV PLATFORMALARI VA LMS TIZIMLARI ORQALI TIBBIY TA’LIMNI SAMARALI BOSHQARISH VA RAQAMLASHTIRISH

Odilov Jamshidbek Akmaljon o‘g‘li

****Odilova Zarnigor Ravshanbek qizi***

**FJSTI, Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi*

*** FJSTI, Stomatologiya yo‘nalishi 3121 guruh talabasi*

Annotatsiya: Maqolada tibbiy ta’limda raqamli o‘quv platformalari va o‘quv jarayonlarini boshqarish tizimlari (LMS — Learning Management System) yordamida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, boshqarish hamda raqamlashtirish masalalari tahlil etiladi. Shuningdek, tibbiy ta’lim muassasalarida zamonaviy LMS tizimlaridan foydalanishning afzalliklari, mavjud muammolar va ularni hal etish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiy ta’lim, raqamli platformalar, LMS, masofaviy o‘qitish, elektron ta’lim, raqamlashtirish, boshqaruv tizimi.

Kirish

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, inson faoliyatining barcha sohalariga, jumladan tibbiy ta’lim tizimiga ham chuqur kirib keldi. Tibbiyot sohasida sifatli kadrlar tayyorlash jarayonida raqamli o‘quv platformalari va o‘quv jarayonini boshqarish tizimlari (LMS) muhim o‘rin tutmoqda. Bunday tizimlar o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqani soddalashtiradi, o‘quv materiallarini tezkor yetkazish, test va nazorat ishlari, hamda baholash jarayonlarini avtomatlashtiradi.

Raqamlashtirish nafaqat o‘quv jarayonini modernizatsiya qiladi, balki tibbiy ta’limda shaffoflik, samaradorlik va moslashuvchanlikni oshiradi. Ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy ta’lim texnologiyalari va LMS tizimlari o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlashda beqiyos ahamiyat kasb etdi.

Asosiy qism

Raqamli o‘quv platformalari tushunchasi va ularning tibbiy ta’limdagi o‘rni

Raqamli o‘quv platformalari — bu o‘qituvchi, talaba va ma’muriyat o‘rtasida o‘quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va monitoring qilish imkonini beruvchi axborot tizimlaridir. Tibbiy ta’limda bu platformalar quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi:

- ✓ nazariy materiallarni onlayn shaklda taqdim etish;
- ✓ laboratoriya mashg‘ulotlarini simulyatsiya qilish;

- ✓ video-lektsiyalar va virtual amaliyotlar tashkil etish;
- ✓ test sinovlari va klinik holatlarni tahlil qilish;
- ✓ talabalarning o‘zlashtirishini tahlil qilish va baholash.

Bugungi kunda Moodle, Google Classroom, Canvas, Blackboard, OpenEdX, Microsoft Teams kabi tizimlar keng tarqalgan. O‘zbekistonning ayrim tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida ham bu tizimlar lokal versiyalar asosida tatbiq etilmoqda.

LMS (Learning Management System) tizimlarining asosiy funksiyalari

LMS tizimlari tibbiy ta’lim jarayonini quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtiradi:

- ✓ Ma’lumotlarni markazlashtirish – barcha o‘quv kurslari, materiallar va baholar yagona tizimda saqlanadi.
- ✓ Monitoring va tahlil – talabalarning faoliyati, qatnashish darajasi va natijalari real vaqt rejimida kuzatiladi.
- ✓ Interaktiv ta’lim – video, audio, 3D-modellar, VR-simulyatorlar yordamida o‘quv jarayoni boyitiladi.
- ✓ Moslashuvchan o‘qitish – tizim talabaning individual o‘qish sur’atiga moslashadi.
- ✓ Avtomatlashtirilgan baholash – testlar, viktorinalar va topshiriqlar avtomatik baholanadi.
- ✓ Bunday tizimlar o‘qituvchilarga vaqtni tejash, talabalarning individual ehtiyojlarini inobatga olish va o‘quv jarayonining sifatini oshirish imkonini beradi.

Tibbiy ta’limda LMS tizimlarining amaliy qo‘llanilishi

Tibbiy ta’limda LMS tizimlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega, chunki bu sohada:

1. amaliy mashg‘ulotlar va klinika bilan ishlash muhim ahamiyatga ega;
2. o‘qitish jarayoni nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtiradi;
3. 3D-simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va interaktiv testlar keng qo‘llaniladi.

Masalan, “Body Interact”, “Anatomy Learning”, “Visible Body”, “Complete Anatomy” kabi tizimlar tibbiy fanlarni raqamli muhitda o‘rganish imkonini beradi. Ular talabalarga bemor holatini modellashtirish, organlar tuzilishini virtual ko‘rish va klinik holatlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ham so‘nggi yillarda “Moodle” va “Google Classroom” platformalari asosida darslar tashkil etilmoqda. Bu, ayniqsa, klinik fanlarni masofadan o‘qitishda o‘z samaradorligini ko‘rsatdi.

Tibbiy ta’limni raqamlashtirishning afzalliklari

- ✓ Raqamli platformalar va LMS tizimlarini joriy etish tibbiy ta’limda quyidagi natijalarga olib keladi:
- ✓ Ta’lim sifatining oshishi — interaktiv materiallar o‘quv jarayonini jonlantiradi;
- ✓ Talabalar faolligining ortishi — talaba o‘quv jarayonining markazida bo‘ladi;
- ✓ Masofaviy ta’lim imkoniyati — geografik cheklovlarsiz o‘qish imkoniyati yaratiladi;
- ✓ Shaffof baholash — test va topshiriqlar natijalari tizimda avtomatik saqlanadi;
- ✓ Resurslardan tejamkor foydalanish — bosma materiallar, auditoriya va vaqt tejaladi.

Xulosa

Raqamli o‘quv platformalari va LMS tizimlari tibbiy ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy vositasidir. Ular nafaqat o‘quv jarayonini samarali boshqarishni ta’minlaydi, balki tibbiyot sohasida bilim, amaliy ko‘nikma va klinik fikrlashni raqamli shaklda shakllantirish imkonini beradi.

Kelajakda tibbiy ta’limni to‘liq raqamlashtirish orqali O‘zbekiston tibbiyot oliygohlari xalqaro ta’lim standartlariga yaqinlashadi, ilmiy-tadqiqot salohiyati ortadi va sog‘liqni saqlash tizimi uchun raqamli kompetensiyaga ega mutaxassislar tayyorlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. Odilov, J. (2024). Digital use of artificial intelligence in public administration. *International Journal of Law and Policy*, *2*(3), 7-15.

6. Одилов, Х. А., Эминов, Р. И., & Одилов, Ж. А. (2023). БОЛАЛАРДА БУЙРАКЛАР ИККИ ТОМОНЛАМА СИЙДИК ТОШ КАСАЛЛИГИ ДАВОЛАШ ТАКТИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Engineering problems and innovations.–2023*.

7. Odilov J. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN MEDICINE. Экономика и социум, (12-2 (127)), 639-642.

Odilov, J. (2024). Digital use of artificial intelligence in public administration. *International Journal of Law and Policy*, *2*(3), 7-15.

Interactive Multimedia Resources for Teaching Public Health and Hygiene

Atadjanova Dilfuza Sharobidinovna

Teacher of Fergana medical Institute of Public health

Abstract

The rapid digital transformation of education has significantly reshaped the methods of teaching and learning in medical institutions. This study examines the role and effectiveness of interactive multimedia resources—such as video lectures, virtual laboratories, 3D models, and infographics—in enhancing the teaching of public health and hygiene. Through surveys, classroom observations, and comparative analysis conducted among 120 undergraduate medical students, the study found that the integration of multimedia resources improved students' comprehension, motivation, and critical thinking. The results revealed a 32% increase in learning engagement and a 27% improvement in assessment performance after the implementation of interactive digital tools. These findings suggest that multimedia-based learning environments can substantially enhance the quality and outcomes of medical education in public health disciplines.

Relevance of the Study

In the context of modern medical education, the incorporation of digital and interactive learning tools has become a pedagogical necessity rather than an option.

Traditional lecture-based methods often fail to capture students' attention or address diverse learning styles. Public health and hygiene, in particular, involve complex theoretical concepts and practical applications that require visualization and real-life contextualization.

Interactive multimedia resources—such as 3D anatomical simulations, digital case studies, infographics, and video demonstrations—create immersive learning environments that help students grasp complex processes such as disease transmission, sanitation protocols, and preventive health strategies. According to UNESCO (2023), over 70% of higher education institutions worldwide have integrated digital media into medical teaching, demonstrating its global relevance and effectiveness. Thus, this study addresses the growing need to explore the educational impact of multimedia tools in developing future medical professionals' competencies in hygiene and public health.

Purpose of the Study

The purpose of this study is to evaluate the pedagogical effectiveness and impact of interactive multimedia resources in teaching *Public Health and Hygiene* within medical education. In today's digital learning environment, it is crucial to understand how technology-based instruction influences not only students' cognitive achievements but also their motivation, engagement, and ability to apply theoretical knowledge to real-world public health issues.This research aims to explore how multimedia-supported learning environments—incorporating tools such as interactive simulations, video lectures, digital quizzes, and virtual laboratories—can enhance both the quality and efficiency of teaching hygienic principles. By focusing on learners' active participation and self-regulated learning behavior, the study seeks to identify the most effective ways of utilizing digital technology to promote deeper conceptual understanding and independent learning habits among medical students. Specifically, the objectives of this study are to:

1. Examine the extent to which multimedia tools contribute to students' understanding, retention, and application of core public health and hygiene concepts.

2. Assess the influence of interactive digital learning environments on students' motivation, engagement, and satisfaction with the learning process.
3. Compare academic outcomes, participation levels, and feedback from students exposed to multimedia-based instruction with those receiving traditional lecture-oriented teaching.
4. Identify key challenges and limitations encountered during the integration of multimedia tools into medical teaching practices.
5. Propose evidence-based recommendations for educators and curriculum developers on how to effectively design and implement multimedia-assisted instruction in public health education.

Through this investigation, the study aspires to contribute to the growing body of research on digital pedagogy in medical education, providing insights into how interactive multimedia technologies can modernize the teaching of hygiene and preventive medicine. Ultimately, the findings are expected to assist educational institutions in developing more innovative, engaging, and student-centered learning environments that better prepare future health professionals for practical and community-based challenges.

Materials and Methods

This study was conducted at the Fergana Medical Institute of Public Health during the 2024–2025 academic year and involved a sample of 120 undergraduate medical students enrolled in the courses *Public Health* and *General Hygiene*. The participants were divided into two groups: an experimental group that received instruction supported by interactive multimedia tools, and a control group taught using traditional lecture-based methods.

Research Design

A mixed-method research design was applied, combining both quantitative and qualitative approaches. This method allowed the researchers to gather comprehensive data on academic performance, learning motivation, and students' subjective perceptions of the learning experience. The quantitative component measured performance improvements and engagement levels, while the qualitative

component captured students' attitudes, opinions, and experiences through open-ended survey questions and teacher interviews.

Educational Materials and Digital Tools

The experimental instruction incorporated a range of interactive multimedia resources, including:

- Video lectures and tutorials on hygiene and epidemiology concepts
- 3D visualizations of sanitation and disease prevention mechanisms
- Virtual laboratory simulations demonstrating hygienic practices
- Interactive quizzes and online assessments for formative evaluation
- Infographics and animated modules illustrating key processes in public health

These tools were integrated into the institute's Learning Management System (LMS) to ensure accessibility and consistency. All materials were aligned with the national medical education standards and approved by the faculty's methodological board.

Data Collection Procedures

Data were collected in three stages:

1. Pre-test Phase: Both groups completed a baseline assessment to measure their initial knowledge of public health and hygiene concepts.
2. Intervention Phase: Over a 6-week instructional period, the experimental group received multimedia-enhanced lessons, while the control group followed the traditional lecture format.
3. Post-test Phase: After the intervention, both groups completed a post-test and a feedback survey. Teachers also provided written evaluations of student engagement and performance.

Research Instruments

- Knowledge tests: Structured multiple-choice and short-answer questions designed to measure comprehension and retention.
- Motivation survey: A Likert-scale questionnaire assessing students' interest, satisfaction, and perceived learning benefits.
- Observation checklists: Used by instructors to record levels of student participation and interaction during class activities.

- Teacher interviews: Conducted to gather insights on the practicality, efficiency, and challenges of multimedia integration.

Data Analysis

reliable information protection mechanisms, strengthen privacy policies, and foster a culture of cybersecurity among all participants in digital education. This article explores the key challenges of information security in digital medical education and presents modern strategies to prevent and mitigate these risks.

Keywords: Digital medical education, information security, personal data protection, cybersecurity, privacy, digital ethics, medical information systems, data confidentiality.

Проблемы информационной безопасности и защиты персональных данных в цифровом медицинском образовании

Аннотация:

В условиях цифровизации медицинского образования особую актуальность приобретает вопрос обеспечения информационной безопасности и защиты персональных данных. Распространение онлайн-платформ, электронных журналов и облачных сервисов создаёт новые риски утечки конфиденциальной информации студентов, преподавателей и пациентов. Нарушение безопасности данных может привести не только к этическим и правовым последствиям, но и к снижению доверия к образовательным и медицинским учреждениям. Поэтому важным направлением является разработка эффективных систем защиты информации, совершенствование политики конфиденциальности и формирование у пользователей культуры кибербезопасности. В статье рассматриваются современные угрозы информационной безопасности в цифровом медицинском образовании, а также предложены пути их предотвращения и минимизации рисков.

Ключевые слова: Цифровое медицинское образование, информационная безопасность, защита персональных данных, кибербезопасность, конфиденциальность, этика, медицинские информационные системы, цифровая культура.

Kirish

So‘nggi yillarda tibbiy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. Onlayn ta’lim platformalari, masofaviy dars tizimlari, virtual simulyatsiyalar, elektron jurnal va ma’lumotlar bazalari

tibbiyot sohasida o‘qitishning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq raqamli muhitning kengayishi bilan bir qatorda axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash masalalari ham dolzarb muammo sifatida yuzaga chiqmoqda. Tibbiy ta’limda ishlatiladigan raqamli tizimlarda talabalar, o‘qituvchilar va bemorlar haqidagi sezgir ma’lumotlar saqlanadi. Ushbu ma’lumotlarning ruxsatsiz foydalanilishi, sizib chiqishi yoki noqonuniy tarqatilishi nafaqat shaxsiy huquqlarning buzilishiga, balki tibbiy muassasalar obro‘sining pasayishiga ham olib keladi. Ayniqsa, tibbiy axborotning maxfiyligi — bu faqat texnik masala emas, balki huquqiy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham katta mas’uliyat talab etadigan sohaga aylanmoqda. Bugungi kunda kiberxavfsizlikka oid tahdidlar — ma’lumotlar bazasiga noqonuniy kirish, fishing hujumlari, zararli dasturlar, shifrlash tizimlarining buzilishi kabi holatlar — tibbiy ta’lim muassasalarida ham kuzatilmoqda. Shu sababli tibbiy oliy ta’lim tizimida axborot xavfsizligini ta’minlash, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalashga doir aniq me’yoriy asoslarni yaratish, foydalanuvchilarni raqamli madaniyat va kiberhigiyena tamoyillariga o‘rgatish zarur. Ushbu maqolada raqamli tibbiy ta’limda axborot xavfsizligini ta’minlash muammolari, ularning sabablari, oqibatlari hamda ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tibbiy ma’lumotlarni himoya qilishda xalqaro tajriba, zamonaviy texnologik yondashuvlar va huquqiy-me’yoriy jihatlar ham ko‘rib chiqiladi.

Introduction

In recent years, the digitalization of medical education has been progressing at a rapid pace. Online learning platforms, distance education systems, virtual simulations, electronic journals, and databases have significantly enhanced the effectiveness of teaching and learning in medicine. However, with the expansion of the digital environment, issues of information security and personal data protection have become increasingly critical. Digital systems used in medical education often store sensitive data about students, educators, and patients. Unauthorized access, data leakage, or illegal distribution of such information can lead not only to violations of individual privacy rights but also to reputational damage to medical

and educational institutions. The confidentiality of medical data is not merely a technical issue — it also encompasses legal, ethical, and social dimensions that demand responsible management. Today, cybersecurity threats such as database breaches, phishing attacks, malware infections, and encryption vulnerabilities are becoming more common in educational institutions. Therefore, ensuring information security within medical universities, developing clear regulatory frameworks for personal data protection, and promoting a culture of digital literacy and cyber hygiene are essential. This article explores the key challenges related to information security in digital medical education, identifies their causes and consequences, and proposes modern mechanisms and international best practices — such as legal and technological approaches — to safeguard personal data effectively.

Введение

В последние годы процесс цифровизации медицинского образования развивается чрезвычайно быстро. Онлайн-платформы, дистанционные курсы, виртуальные симуляции, электронные журналы и базы данных значительно повышают эффективность обучения в медицинской сфере. Однако вместе с расширением цифровой среды остро встают вопросы информационной безопасности и защиты персональных данных. Цифровые системы, используемые в медицинском образовании, содержат чувствительную информацию о студентах, преподавателях и пациентах. Несанкционированный доступ, утечка или незаконное распространение этих данных могут привести не только к нарушению прав личности, но и к подрыву репутации образовательных и медицинских учреждений. Конфиденциальность медицинской информации — это не только технический, но и правовой, этический и социальный аспект, требующий особого внимания. В современном цифровом пространстве все чаще фиксируются угрозы кибербезопасности: взлом баз данных, фишинг-атаки, вредоносные программы, нарушения систем шифрования и другие инциденты. Поэтому обеспечение информационной безопасности в медицинских вузах, разработка нормативно-правовой базы по защите персональных данных, а также формирование цифровой культуры и

кибергигиены у пользователей являются приоритетными задачами. В данной статье анализируются ключевые проблемы обеспечения информационной безопасности в цифровом медицинском образовании, причины и последствия нарушений, а также предлагаются эффективные механизмы и международные подходы к защите персональных данных.

Asosiy qism

Tibbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, biroq u bilan birga yangi xavf omillarini ham yuzaga keltiradi. Tibbiy ma’lumotlarning xususiyati shundaki, ular nafaqat o‘quvchilarga oid ma’lumotlarni, balki klinik holatlar, laboratoriya natijalari va bemorlar haqidagi sezgir ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Shuning uchun bu ma’lumotlarning ruxsatsiz kirishdan, yo‘qotishdan yoki o‘zgartirishdan himoyalanishi muhimdir. Ko‘p hollarda xavfsizlik buzilishi kiberhujumlar, phishing (soxta havolalar orqali ma’lumot olish), zararli dasturlar yoki ma’lumotlar bazasiga noqonuniy kirish natijasida sodir bo‘ladi. Bu holatlar nafaqat shaxsiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishiga, balki tibbiy ta’lim muassasalari obro‘sining pasayishiga ham olib keladi. Axborot xavfsizligini ta’minlashda asosiy yo‘nalishlardan biri — himoyalangan ma’lumotlar bazasi va shifrlash (encryptsiya) texnologiyalarini qo‘llashdir. Shifrlash yordamida foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari maxfiy shaklda saqlanadi va faqat ruxsat etilgan shaxslar tomonidan o‘qilishi mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, tibbiy ta’lim muassasalarida ikki bosqichli autentifikatsiya, kirish huquqlarini darajalash, zaxira nusxalar yaratish va antivirus tizimlarini muntazam yangilab turish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mexanizmlar ma’lumotlar yaxlitligini saqlash va ruxsatsiz foydalanishning oldini olishga xizmat qiladi. Texnik chora-tadbirlar bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning raqamli madaniyatini oshirish ham axborot xavfsizligining muhim tarkibiy qismidir. Talabalar va o‘qituvchilar parollarni himoyalash, noma’lum havolalardan saqlanish, shaxsiy ma’lumotlarni onlayn joylashtirmaslik kabi asosiy kiberxavfsizlik qoidalariga amal qilishlari lozim. Tibbiy oliy ta’lim muassasalarida axborot xavfsizligi bo‘yicha treninglar o‘tkazish, kiberhujumlar simulyatsiyasini o‘quv jarayoniga joriy etish, hamda axborot etikasi bo‘yicha o‘quv modullarini kiritish samarali natija beradi.

Dunyo tajribasida tibbiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha bir qator xalqaro standartlar mavjud:

HIPAA (Health Insurance Portability and Accountability Act, AQSh) — bemorlarning tibbiy ma’lumotlarini himoya qilishning qat’iy standartlarini belgilaydi.

GDPR (General Data Protection Regulation, Yevropa Ittifoqi) — shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarini tartibga soladi.

ISO/IEC 27001 — axborot xavfsizligini boshqarish tizimlari uchun xalqaro standart sifatida qabul qilingan.

Ushbu tajribalardan o‘rnak olgan holda, O‘zbekiston tibbiy ta’lim tizimida ham raqamli xavfsizlik siyosatini kuchaytirish, milliy normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos axborot tizimlarini joriy etish zarur.

Axborot xavfsizligini samarali ta’minlash uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

Tibbiy ta’limda ishlatiladigan barcha raqamli platformalarni sertifikatlash va xavfsizlik auditi o‘tkazish;

Milliy tibbiy ma’lumotlar bazasini yaratish va uning xavfsizlik darajasini xalqaro talablar asosida mustahkamlash;

O‘qituvchilar va talabalarning axborot madaniyatini oshirish uchun muntazam treninglar tashkil etish;

Davlat nazorati va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish.

Shunday qilib, raqamli tibbiy ta’limda axborot xavfsizligini ta’minlash nafaqat texnik, balki inson omiliga asoslangan, uzluksiz o‘rganishni talab qiluvchi jarayondir. Zamonaviy raqamli muhitda faqat kompleks — texnologik, huquqiy va axloqiy — yondashuvgina shaxsiy ma’lumotlar himoyasini to‘liq kafolatlay oladi.

Muhokama va natijalar

Raqamli tibbiy ta’lim tizimi axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalarini ham dolzarb muammolardan biriga aylantirdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab tibbiy ta’lim muassasalarida ma’lumotlarni saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonlarida yetarli darajadagi himoya choralarining yo‘qligi

xavfsizlik buzilishlariga olib kelmoqda. Shuningdek, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida kiberxavfsizlik madaniyatining pastligi, parol boshqaruvi va shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish bo‘yicha bilim yetishmasligi kuzatilmoqda. Bu esa tibbiy ma’lumotlarning maxfiyligini buzish, raqamli tizimlarga ruxsatsiz kirish va ma’lumotlarni o‘zgartirish kabi xavflarni oshiradi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tibbiy ta’limda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun integratsiyalashgan yondashuv zarur:

Texnik choralar – ma’lumotlarni shifrlash, autentifikatsiya, xavfsizlik devorlari (firewall) va antivirus himoyasi;

Tashkiliy choralar – xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, ma’lumotlarga kirish darajalarini belgilash, muntazam audit o‘tkazish;

Pedagogik choralar – talabalar va o‘qituvchilarni axborot xavfsizligi madaniyatiga o‘rgatish;

Huquqiy asoslar – shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, axborot xavfsizligi siyosatini tizimli yo‘lga qo‘yish orqali:

1. Tibbiy ta’lim muassasalarining raqamli infratuzilmasi mustahkamlanadi;

2. Talabalar va o‘qituvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish darajasi oshadi;

3. Tibbiy ma’lumotlarning yaxlitligi va ishonchliligi saqlanadi;

4. Kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish orqali xavflarni erta aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Shunday qilib, axborot xavfsizligi muammolarini hal qilish raqamli tibbiy ta’limning sifatini oshirish, ishonchli ta’lim muhitini yaratish va zamonaviy tibbiy kadrlar tayyorlashning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Xulosa

Raqamli tibbiy ta’limning rivojlanishi shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va axborot xavfsizligini ta’minlashga nisbatan yangi talablarni qo‘ymoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tibbiy axborot tizimlarida xavfsizlik faqat texnik vositalar bilan emas, balki huquqiy, tashkiliy va pedagogik yondashuvlar uyg‘unligi orqali samarali ta’minlanadi. Tibbiy ta’lim muassasalarida ma’lumotlar xavfsizligini

ta’minlash uchun: ilg‘or shifrlash va autentifikatsiya texnologiyalarini joriy etish,o‘qituvchi va talabalarning kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish,milliy qonunchilikni xalqaro axborot xavfsizligi standartlari bilan uyg‘unlashtirish, xavfsizlik siyosatini muntazam monitoring va audit asosida takomillashtirib borish zarur. Raqamli tibbiy ta’limda axborot xavfsizligini kuchaytirish — nafaqat texnik ehtiyoj, balki inson omiliga asoslangan, tibbiyot sohasida ishonchli, etik va xavfsiz raqamli muhit yaratishning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov, A. Sh., & Jo‘rayev, D. R. (2023). Raqamli tibbiy ta’limda axborot texnologiyalarining roli va xavfsizlik masalalari. Tibbiyot va Innovatsiyalar Jurnali, 5(2), 45–51.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ–3832 (2022-yil 12-may). “Raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

3. HIPAA (Health Insurance Portability and Accountability Act). U.S. Department of Health & Human Services, 1996.

4. GDPR (General Data Protection Regulation). European Parliament and Council Regulation (EU) 2016/679.

5. ISO/IEC 27001:2022. Information Security Management Systems — Requirements. International Organization for Standardization.

6. Nazarova, M. B. (2024). Axborot xavfsizligi va tibbiy ma’lumotlarni himoyalashda zamonaviy yondashuvlar. Oliy Ta’limda Innovatsiyalar, 3(1), 72–79.

7. World Health Organization (WHO). (2022). Digital education for building health workforce capacity: Global report. Geneva: WHO Press.

8. Alotaibi, Y., & Federico, F. (2022). The impact of cybersecurity awareness in medical education systems. Journal of Medical Internet Research, 24(7), e36742.

9. O‘zbekiston Respublikasi “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun (2021-yil 5-avgust).

10. Lee, C. H., & Park, S. (2023). Protecting patient data in digital health education: Ethical and legal perspectives. Health Informatics Journal, 29(1), 1–12.

MAVZU: O’QUVCHILARNING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGIGA SIMULYATSIYA VOSITALARINING TASIRI

Normal anatomiya kafedrasi katta o'qituvchisi - Isaqova Nasiba Raxmatjonovna,

TPI yo'nalishi 2-bosqich talabasi - Tursunboyeva Barchinoy Rafiqjon qizi

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Mavzuning dolzarbligi. Mazkur tezisda ta'lim jarayonida simulyatsiya vositalarining o'quvchilarning psixologik tayyorgarligini oshirishga ta'siri ko'rib chiqiladi. Simulyatsiya (xususan, virtual, kompyuter va vaziyatli simulyatsiyalar) o'quvchilarga xavfsiz va nazorat qilinadigan muhitda amaliy ko'nikmalarni egallash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilishni mashq qilish imkonini beradi. Tadqiqot simulyatsiyalardan foydalanish natijasida o'quvchilarda o'z-o'ziga ishonch, motivatsiya, tashvish darajasining pasayishi va kasbiy tayyorgarlik (xususan, tibbiyot, muhandislik, harbiy va boshqa sohalarda) kabi psixologik omillarning ijobiy o'zgarishini tahlil qiladi. Ushbu maqola simulyatsiya vositalarining ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarni real hayot va kasbiy sharoitlarga psixologik jihatdan tayyorlashdagi ahamiyatini yoritadi.

Tadqiqot maqsadi. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy ko'nikmalar va stressli vaziyatlarda samarali ishlashga psixologik tayyorlanishni talab qiladi. An'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga qiynaladi, bu esa o'quvchilarda o'ziga ishonchsizlik, xavotir va real vaziyatlarga psixologik tayyor emaslik hissini keltirib chiqarishi mumkin.

Simulyatsiya vositalari ta'limdagi ushbu muammolarni hal etish uchun samarali yechim sifatida tobora keng qo'llanilmoqda. Ular xavf-xatarsiz muhitda xatolarga yo'l qo'yish, ulardan saboq olish va amaliyotni takrorlash imkonini beradi, bu esa psixologik tayyorgarlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot materiali va usullari. Simulyatsiya vositalari o'quvchilarning psixologik tayyorgarligiga bir qancha mexanizmlar orqali ta'sir qiladi:

Birinchidan, o‘z-o‘ziga ishonchni (Self-Efficacy) oshirish: Simulyatsion mashg‘ulotlar o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini xavfsiz muhitda sinab ko‘rish imkonini beradi. Har bir muvaffaqiyatli bajarilgan simulyatsiya senariysi ularning ma’lum bir vazifani bajarish qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Ayniqsa, tibbiyot talabalarida bemorga zarar yetkazmasdan amaliyot o‘tkazish imkoniyati tashvishni pasaytirib, o‘z-o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, xavotir va stressni kamaytirish: Real vaziyatlarni oldindan simulyatsiya qilish va mashq qilish o‘quvchilarni bo‘lajak sinovlar yoki kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Natijada, ular real vaziyatlarga duch kelganda kamroq tashvishlanadi va stressga tushadi, chunki ular "allaqachon buni boshdan kechirishgan". Bu, ayniqsa, murakkab va yuqori mas’uliyat talab qiluvchi kasblar (masalan, uchuvchilar, shifokorlar, favqulodda vaziyatlar xodimlari) uchun muhimdir.

Uchinchidan, qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Simulyatsiyalar o‘quvchilarni tezkor, aniq va mantiqiy qarorlar qabul qilishni talab qiladigan real hayotga yaqin muammolarga duchor qiladi. Ushbu sharoitda o‘quvchilar xatolardan qo‘rqmasdan turli yechimlarni sinab ko‘rishlari mumkin. Debriefing (simulyatsiyadan keyingi tahlil) jarayoni orqali ular o‘z xatti-harakatlarini tanqidiy baholashni o‘rganadilar, bu esa ularning psixologik barqarorligini va aqliy tayyorgarligini oshiradi.

To’rtinchidan, motivatsiya va faollikni keltirib chiqarish: Interaktiv va qiziqarli simulyatsiya muhiti o‘quvchilarni o‘rganish jarayoniga faol jalb qiladi. Faol ishtirok va erishilgan natijalardan olingan qoniqish o‘rganish motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Metodologiya Tadqiqotda simulyatsiya vositalaridan foydalanish bo‘yicha o‘tkazilgan turli sohalardagi (tibbiyot, texnika, pedagogika) ilmiy izlanishlar va empirik ma’lumotlar tahlil qilindi. Asosan, miqdoriy tadqiqotlar natijalariga e’tibor qaratildi, unda simulyatsiyadan oldin va keyin o‘quvchilarning psixologik holati (masalan, anketalar, shkalalar yordamida) baholangan. Shuningdek, simulyatsiya jarayonining psixologik ta’sirini tushunish uchun sifatli ma’lumotlar (intervyu va fokus guruhlar) ham ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot natijasi. Natijalar o‘tkazilgan tahlillar simulyatsiya vositalarining o‘quvchilarning psixologik tayyorgarligiga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Xususan, ko‘pgina tadqiqotlarda o‘quvchilarda o‘z-o‘ziga ishonchning oshishi, imtihon yoki klinik amaliyot oldidan xavotir darajasining pasayishi kuzatildi. Simulyatsiyadan foydalangan holda ta’lim olgan o‘quvchilar real ish muhitiga yuqori darajada tayyor bo‘lishadi va o‘zlarini vaziyatga nisbatan yanada ishonchli his qilishadi.

Xulosa. Simulyatsiya vositalari zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarning nafaqat amaliy, balki psixologik tayyorgarligini oshirishda ham ajralmas rol o‘ynaydi. Ular o‘z-o‘ziga ishonchni mustahkamlash, stress va xavotirni kamaytirish orqali o‘quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash imkonini beradi. Shuning uchun, turli sohalardagi o‘quv dasturlariga simulyatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish maqsadga muvofiq deb o’ylayman.

Kalit so‘zlar: Simulyatsiya, psixologik tayyorgarlik, o‘z-o‘ziga ishonch, ta’lim, motivatsiya, stressni boshqarish.

KELAJAK ANATOMIYA TA’LIMOTIDA RAQAMLI PEDAGOGIKA MODELI

Iqboljonova M.J. Isaqova N.R.

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi davrda tibbiyot ta’limi, xususan anatomiya fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash dolzarb masalaga aylanmoqda. An’anaviy ta’lim usullari bilan bir qatorda raqamli pedagogika modeli — ya’ni virtual anatomik laboratoriyalar, 3D-modellar, interaktiv platformalar va sun’iy intellekt asosidagi o‘quv dasturlar — o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Kelajak tibbiyot kadrlaridan yuqori malaka, tezkor

fikrlash va amaliy ko‘nikmalar talab etiladi. Shu sababli anatomiya fanida raqamli o‘qitish usullarini joriy etish talabalarning murakkab anatomik tuzilmalarni chuqur o‘zlashtirishiga, vizual tasavvurlarini rivojlantirishga va mustaqil ta’lim olish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli pedagogika modeli pandemiya, masofaviy ta’lim va global raqobat sharoitida barqaror va innovatsion o‘quv tizimini yaratish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bois bu mavzu zamonaviy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish nuqtayi nazaridan ham, kelajak tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash jihatidan ham nihoyatda dolzarbdir.

Tadqiqotning maqsadi: anatomiya fanini o‘qitishda raqamli pedagogika modelini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish hamda ushbu model yordamida ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat. Mazkur tadqiqot orqali anatomiya fanining o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalar, 3D-modellar, virtual laboratoriyalar, interaktiv platformalar va sun’iy intellekt vositalarini qo‘llash samaradorligini aniqlash ko‘zda tutiladi. Tadqiqot shuningdek, raqamli ta’lim muhitida talabalarning: mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantirish, amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash, anatomik jarayonlarni chuqur tahlil qilish malakasini shakllantirishni maqsad qiladi. Bundan tashqari, raqamli pedagogika modeli asosida innovatsion ta’lim resurslarini yaratish, ularni anatomiya fanining nazariy va amaliy bo‘limlariga integratsiya qilish orqali zamonaviy tibbiyot kadrlarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish ham tadqiqotning muhim maqsadlaridan biridir

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqotning asosiy materiali sifatida anatomiya fanini o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan raqamli o‘quv platformalari, 3D-modellar, virtual laboratoriyalar, anatomik dasturlar va interaktiv ta’lim vositalari tanlab olindi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy usullar qo‘llanildi: Tahlil va sintez usuli – raqamli pedagogika nazariyalari va ularning anatomiya ta’limida qo‘llanilish darajasini o‘rganish; Taqqoslash usuli – an’anaviy va raqamli o‘qitish natijalarini solishtirish; Kuzatish va tajriba usuli – talabalarning o‘zlashtirish darajasi va amaliy ko‘nikmalarini baholash; Statistik tahlil usuli – olingan natijalarni raqamli ma’lumotlar asosida umumlashtirish va baholash. Ushbu usullar yordamida

raqamli pedagogika modelining anatomiya ta’limidagi afzalliklari, samaradorlik darajasi va qo‘llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, anatomiya fanini o‘qitishda raqamli pedagogika modelidan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Virtual laboratoriyalar, 3D anatomik modellar va interaktiv dasturlar yordamida talabalarda murakkab anatomik tuzilmalarni tasavvur qilish, ularni fazoviy idrok etish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari ancha yaxshilandi**.** Shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan raqamli vositalardan foydalanish vaqtni tejaydi, vizual materiallar orqali tushunishni osonlashtiradi hamda individual yondashuvni ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari asosida raqamli pedagogika modeli anatomiya ta’limini modernizatsiya qilishda, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini amaliy jihatdan mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishi isbotlandi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli pedagogika modeli anatomiya fanini o‘qitishda samarali, innovatsion va istiqbolli yondashuv hisoblanadi. Bu model o‘quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, talabalarning mustaqil fikrlashi, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va vizual tafakkurini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega**.** Raqamli vositalar — virtual anatomik dasturlar, 3D-modellar, interaktiv platformalar va onlayn simulyatsiyalar — talabalarga murakkab anatomiya tuzilmalarini chuqur va aniq o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, bunday yondashuv o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini individuallashtirish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, anatomiya fanini o‘qitishda raqamli pedagogika modelini joriy etish kelajak tibbiyot kadrlarini zamon talablari asosida tayyorlash, ta’lim jarayonini innovatsion bosqichga olib chiqish hamda raqamli ta’lim tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

VIRTUAL LABORATORIYALAR ORQALI ANATOMIYA O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Hakimova N.G‘., Isaqova N.R.

Fargona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Mavzuning dolzarbligi:

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va masofaviy ta’lim tizimlarining tez sur’atda rivojlanishi tibbiyot ta’limiga yangi yondashuvlarni keltirib chiqardi. Anatomiyani o‘qitishda virtual laboratoriyalarni joriy etish talabalarga inson tanasining murakkab tuzilmalarini xavfsiz, interaktiv va realga yaqin muhitda o‘rganish imkonini beradi. Ushbu yondashuv an’anaviy kadavrlarga asoslangan mashg‘ulotlarga muqobil yoki qo‘shimcha vosita sifatida talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi:

Virtual laboratoriyalar yordamida anatomiya ta’limining samaradorligini oshirish, talabalarda fazoviy fikrlash darajasini rivojlantirish va amaliy ko‘nikmalarini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash hamda tibbiyot ta’limida ushbu texnologiyalarning afzallik va cheklovlarini tadqiq etish.Tadqiqotda 3D anatomiya modellar, interaktiv virtual platformalar va masofaviy ta’lim vositalari asosida o‘tkazilgan kurslar tahlil qilindi. Talabalar guruhlari an’anaviy (praktik mashg‘ulotlar) va virtual ta’lim usullari bo‘yicha ta’lim olgan va ularning bilimlari testlar hamda amaliy topshiriqlar orqali taqqoslandi. Bundan tashqari, talabalar va o‘qituvchilarning fikrlari so‘rovnoma orqali yig‘ildi.Tahlillar natijasida virtual laboratoriyalardan foydalangan talabalar an’anaviy usulda o‘qiganlarga nisbatan o‘rta hisob bilan 20–30% yuqori natijalar ko‘rsatdi. Virtual muhitda 3D modellar bilan ishlash fazoviy tasavvur va anatomik tuzilmalarning joylashuvini yaxshiroq anglashga yordam berdi. Shuningdek, talabalarning qiziqishi va darsga jalb etilishi oshgani, takrorlash va mustahkamlash imkoniyatlari kengaygani kuzatildi. Ayniqsa,

biologik materiallar bilan ishlash zarurati yo‘qligi tufayli xavfsizlik va sanitariya talablari soddalashdi va iqtisodiy jihatdan tejash kuzatildi.

Cheklovlari va muammolari: Virtual laboratoriyalarni yaratish va joriy etish yuqori texnik, dasturiy hamda moliyaviy resurslarni talab etadi. Hozirgi vaqtda sohaga mos dasturiy mahsulotlar cheklangan va ko‘pchiligi tijorat asosida ishlaydi. Internet sifati past hududlarda masofaviy ta’lim to‘liq amalga oshirilmasligi mumkin. Shuningdek, ba’zi hollarda talabalar haqiqiy materiallar bilan ishlash tajribasidan mahrum bo‘lishi ehtimoli mavjud.

Xulosa:

Virtual laboratoriyalar anatomiya fanini o‘qitishda samaradorlikni oshiruvchi innovatsion vosita hisoblanadi. Ular o‘quv jarayonini xavfsiz, tejamkor, interaktiv va qiziqarli shaklga keltiradi hamda talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli tibbiyot ta’limida virtual laboratoriyalarni bosqichma-bosqich joriy etish va ularni an’anaviy metodlar bilan integratsiyalash tavsiya etiladi.

SIMULYATSIYA ASOSIDA AMALIY KO’NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Anvarova D.R , Isaqova N.R

Farg’ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Insituti

Mavzuning dolzarbligi: XXI asrda ta’lim tizimida nazariy bilimlarni amaliyot bilan teng uyg’unlashtirib borish masalasi eng dolzarb va muhim hisoblanayotgan yo’nalishlardan biri sanaladi. Ayniqsa,tibbiyot sohasini oladigan bo’lsak, yetuk mutaxasislar tayyorlashda talabalar hech ikkilanmay nazariy bilimlarini amaliyotda qo’llay olishi, real vaziyatlarda qarorni to’g’ri qabul qila olishi muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, simulyatsiya asosida o’qitish zamonaviy tibbiy ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu sababli ushbu mavzu hozirgi davr talabida ta’lim samaradorligini oshirish, talabalarda amaliy

tajribalarni shakllantirish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun juda dolzarb o’rganilishi kerak bo’lgan mavzu hisoblanadi.

Annotatsiya: ushbu maqola simulyatsiya texnologiyalarining tibbiy ta’lim jarayonidagi asosiy o’rni, ayniqsa talabalar uchun amaliy ko’nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyati hamda simulyatsiya texnologiyalarining afzalliklari batafsil yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda, simulyatsiyalar asosida o’qitish uslublari, ularning turlari hamda samaradorlik omillari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: Simulyatsiya, virtual o’qitish, amaliy ko’nikma, interaktiv ta’lim, model, texnologiya, “Body Interact”

Kirish: Bugungi kunda ta’lim tizimi zamon talablariga mos ravishda o’zgarib,tobora yangilanib bormoqda. Ayniqsa insonlarni davolashni o’rganish, ya’ni tibbiyot sohasida nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg’unlikda olib ketish hozirgi zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi va vazifasi qilib belgilangan. Bundan kelib chiqib, simulyatsiya asosida o’qitish usuli zamonaviy tibbiy ta’limning aajralmas bir qismi desak adashmagan bo’lamiz. Simulyatsiya (lotincha « simulatio» - o’xshatish, taqlid qilish) bu real hayotdagi jarayonlarni, holatlarni yokida muhit sharoitini sun’iy ravishda modellashtirish orqali o’quvchilarda amaliy ko’nikmalarni shakllantirishgaqaratilgan ta’lim tizimi hisoblanadi.

Asosiy qism: Simulyatsiya orqali tibbiyot oliy o’quv yurtlari talabalari nazariy bilimlarini xavfsiz, boshqariladigan muhitda amaliyotga qo‘llash imkonini olishadi. Bu usulda o‘quvchi real hayotdagi xatolardan saboq oladi, lekin bemorga, uskunaga yoki tizimga zarar yetkazmaydi.Masalan, simulyatsiya yordamida bemor parvarishi, jarrohlik amaliyotlari yoki shoshilinch tibbiy yordam holatlari modellashtiriladi. Bu orqali talaba tajriba orttiradi, qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshiradi. . Simulyatsiya asosida o‘qitishning bir qancha turlari mavjud. Quyida misollar bilan ko’rib chiqamiz. **Kompyuter simulyatsiyasi** - virtual dasturlar yordamida laboratoriya tajribalarini yoki muhandislik jarayonlarini modellashtirish.Masalan “Body Interact” dasturini oladigan bo’lsak, ushbu dasturda talabalar virtual bemorlar bilan ishlash orqali ekranda ko’rsatilayotgan bemorning simptomlarini tahlil qiladi, diagnoz qo’yadio va davolash rejasini tanlay oladi. Ushbu holat talabalarga real klinik holatni xavfsiz bajarishga yordam beradi. **Fizik simulyatsiya**: maxsus

qurilmalar, maketlar yoki manekenlar yordamida mashq qilish. Ushbu simulyatsiya turida bemor holatini modellashtirish mumkin bo'ladi. **Rol o'ynash**-bu usulda talaba yoki o'qituvchi real hayotdagi kasbiy vaziyatni ijro etadi. Masalan, tibbiyot talabasi "shoshilinch yordam shifokori" rolini, boshqasi esa "bemor" rolini bajaradi. Bu orqali talabada muloqot madaniyati, empatiya, stress ostida qaror qabul qilish ko'nikmalari to'g'ri shakllanadi.**Kompyuter simulyatsiyalari** (Virtual simulatsiya) - maxsus dastur va virtual muhit orqali jarayonlar kompyuter ekranida modellashtiriladi. Masalan, anatomiya o'qitishda 3D-modellar yordamida organlar tuzilishini o'rganish yoki bo'lmasa virus tarqalishini kuzatish mumkin. Bu usul real tajriba talab qilmasada, chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Trening manekenlaridan foydalanish (Phantom yoki simulatorlar)Tibbiyot, hamshiralik, favqulodda vaziyatlarda o'qitishda manekenlar yordamida yurak massaji, in'ektsiya, qon to'xtatish kabi amaliy ko'nikmalar mashq qilinadi. Bu talabalarga real holatlarda xato qilmaslikka katta yordam beradi. Video-analiz usulida esa talabalarning bajarilgan amaliy mashg'ulotlari videoga olinadi va keyinchalik birgalikda tahlil qilinadi. Bu usul xatolarni aniqlash, ularni to'g'rilash va o'zini baholash ko'nikmasini rivojlantiradi. Gibrid (aralash) simulyatsiya - bu usul bir nechta simulyatsiya turlarini birlashtiradi, masalan, virtual dastur + maneken + rol o'ynash. Bu ko'p yo'nalishli yondashuv bo'lib talabalarning kompleks ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Simulyatsiya asosida o'qitish juda keng va ta'lim jarayoning deyarli barcha bosqichlarida ijobiy ta'sirga ega. Simulyatsiya talabalarga nazariy bilimlarni real hayotda qo'llash imkonini beradi. Bunda talaba faqat kitobdan emas, balki o'zi bajargan jarayon orqali o'rganadi. Sababi kitoblardagi rasmlar bilan real hayotda odam organizmi farq qiladi. Simulyatsiya esa bunga yechim bo'la oladi. Ushbu jarayon bilimni mustahkamlab, uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari xatolardan qo'rqmasdan ishlash imkoniyatini ham beradi. Sababi hali to'luiq tajribaga ega bo'lmagan tibbiyot talabasi real hayotda bemor bilan ishlaganda xato qilib qo'yish koeffitsieti yuqori va agarda birorta xatoga yo'l qo'ysa bemorni yo'qotib qo'yishi mumkin, hamda ushbu holatda hali to'liq tajribaga ega bo'lmagan talaba qo'rqib qoladi. Bunga esa simulyataiya yechim bo'lmoqda. Chunki simulyatsiya o'quv jarayoning bir qismi, shu sababli talabalar xavfsiz sharoitda tajriba o'tkazish imkoniga ega.

Simulyatsiya asosida talabalarga bilim berish bu qo’l bilan o’rganish tamoyiliga asoslanadi. Ushbu holat real ish faoliyatida tez, ishonchli hamda to’g’ri qaror qabul qilish qobilayatini shakllantiradi. Bundan tashqari simulyatsiya orqali murakkab, qimmat shu bilan birga xavfli bo’lgan jarayonlarni arzon, tez va qulay shaklda o’rganishimiz mumkin. Hamda, jarrohlik amaliyotlarini xavfsiz o’rganishimiz mumkin bo’ladi.

Xulosa: Demak, simulyatsiya asosida o‘qitish — zamonaviy ta’lim jarayonida amaliy ko‘nikmalarni samarali shakllantirishning eng ilg‘or va innovatsion usullaridan biri ekanligi ma’lum bo’ldi. Ushbu yondashuv talabaga real hayotdagi vaziyatlarni xavfsiz muhitda sinab ko‘rish, tahlil qilish va xatolardan o‘rganish imkonini beradi. Simulyatsion mashg‘ulotlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Farg’ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Insitutida ham simulyatsion markaz tashkil qilingan bo’lib, unda biz talabalar uchun kerak bo’lgan barcha simulyatsiya texnalogiyalar mavjud. Ushbu markaz 1-kursdan boshlab talabalarni real klinikaga tayyorlash uchun katta xizmat qilib kelmoqda. Ta’limda kompyuter texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar va modellashtirilgan muhitlardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu esa o‘qituvchining pedagogik mahoratini yuksaltirib, o‘quvchida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.Xulosa qilib aytganda, simulyatsiya asosida o‘qitish amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda innovatsion, xavfsiz, ishonchli va yuqori samarali ta’lim usuli bo‘lib, kelajak mutaxassislarini raqobatbardosh, bilimli va malakali qilib tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Avloniy A. “Pedagogika asoslari”. Toshkent, 2022.

2.To‘xtayeva D. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”. Toshkent, 2023.

3.World Health Organization. “Simulation-based learning in health education”. Geneva, 2021.

4.Toffler A. “Future learning and simulation”. New York, 2020.

Neyrotexnologiyalar orqali anatomiya bilimlarini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish.

Rahmonova G. I., Isaqova N.R.
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institute

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan zamonaviy tibbiyotda nafaqat kasalliklarni aniqlash va davolash, balki ularni o‘rganish, ayniqsa, tananing tuzilishini (anatomiya) chuqur va to‘g‘ri o‘zlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy dars metodlarining chegaralanganligi, vizual va motorik xotira imkoniyatlarining to‘liq ishga tushirilmasligi natijasida talabalar orasida anatomik bilimlarni chuqur anglashda muammolar uchramoqda.

Tadqiqot maqsadi: Neyrotexnologiyalar (VR/AR tizimlari, EEG monitoringi, neyrofeedback va interaktiv o‘quv muhitlari) orqali talabalar tomonidan anatomiya fanini o‘zlashtirish darajasini, ularning eslab qolish, tushunish va klinik tafakkurini shakllantirishga ta’sirini o‘rganish, baholash va taqqoslash.

Tadqiqot materiali va usullari: Mazkur tadqiqotda tibbiy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etgan bo‘lib, ular ikki guruhga bo‘lindi: neyrotexnologiyalar asosida ta’lim olgan tajriba guruhi va an’anaviy uslubda o‘rgatilgan nazorat guruhi. Tadqiqot materiali sifatida anatomiya faniga oid o‘quv modullari, klinik holatlar, test savollari, 3D modellar hamda talabalar bilimini baholashga mo‘ljallangan nazorat ishlari olindi. Shuningdek, **VR/AR texnologiyalari** (masalan, Oculus Quest, BioDigital Human, Complete Anatomy), **EEG qurilmalari**, va **neyrofeedback tizimlari** orqali yig‘ilgan ma’lumotlar asos qilib olindi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot davomida aniqlanishicha, neyrotexnologiyalar bilan boyitilgan o‘quv jarayonida ishtirok etgan talabalar anatomik bilimlarni tezroq, vizualroq va tushunarliroq shaklda o‘zlashtirishga erishgan. Virtual reallik yordamida murakkab strukturali organlarni 360 darajada ko‘rish, ularni manipulyatsiya qilish imkoniyati o‘quvchilarda **fazoviy tafakkur** va

ko‘p kanalli eslab qolish mexanizmlarini faollashtirgan. Statistik jihatdan qaraganda, neyrotexnologiyalar bilan ta’lim olgan guruhda test natijalari o‘rtacha **35–45%** ga yuqoriroq, bilimlarni eslab qolish muddati esa uzoqroq bo‘lgani kuzatildi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, neyrotexnologiyalar orqali anatomiya fanini o‘qitish an’anaviy usullarga qaraganda samaraliroq bo‘lib, talabalar tomonidan axborotni vizual va funksional darajada chuqur anglash imkonini beradi. Bu esa nafaqat bilim olish, balki klinik tafakkurni shakllantirish, tibbiy tasavvurni kengaytirish va kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.Shuningdek, neyrofeedback va EEG monitoringi orqali o‘quvchilarning o‘z o‘rganish jarayonini nazorat qilish, kognitiv resurslardan ongli foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi. Neyrotexnologik yondashuvlar yaqin yillarda tibbiy ta’limning ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

Anatomiya va klinik fiziologiya asosida kasalliklarni tushuntirish.

Teshaboyeva D.I., Isaqova N.R.
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institute

Mavzuning dolzarbligi: Anatomiya (ya'ni tana tuzilishi) va klinik fiziologiya (ya'ni tana organlarining normal ishlash mexanizmlari) har bir kasallikni to‘g‘ri tushunish, tashxis qo‘yish va davolash uchun zarur asosdir. Har qanday patologik holat (kasallik) aslida organizmdagi tuzilma yoki funksiyaning buzilishidan kelib chiqadi. Shuning uchun kasallikni to‘g‘ri tushunish uchun avvalo sog‘lom holatdagi anatomiya va fiziologiyani chuqur bilish lozim. Bugungi kunda tibbiyotda kasalliklarni aniqlash va davolashda anatomiya, fiziologiya, patologiya, biokimyo, farmakologiya kabi ko‘plab sohalarning o‘zaro integratsiyasi (uyg‘unligi) muhim. Kasalliklar qanday rivojlanadi (patogenez), qanday bosqichlardan o‘tadi, qanday klinik belgilar bilan namoyon bo‘ladi –

bularni tushunish uchun organlar va tizimlarning normal fiziologik funksiyasini chuqur bilish talab etiladi.

Tadqiqot maqsadi: Kasalliklarning rivojlanish mexanizmlarini, klinik belgilarini va oqibatlarini tananing normal tuzilishi (anatomiya) va funksional holati (klinika-fiziologik jarayonlar) asosida tahlil qilish hamda bu yondashuv asosida diagnostika va davolash jarayonlarini chuqur tushunishga erishish.

Tadqiqot materiali va usullari: Tadqiqot jarayonida inson organizmining anatomik va fiziologik tuzilishiga oid elektron manbalar, 3D anatomik dasturlar (masalan, Visible Body, Complete Anatomy, BioDigital Human) orqali olingan vizual materiallar, real klinik holatlar (anamnez va kuzatuvlar), shuningdek, kasalliklarning rivojlanish mexanizmlari va klinik belgilari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar asos qilib olindi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot davomida inson organizmining normal anatomo-fiziologik holati bilan turli kasalliklar rivojlanishidagi o‘zgarishlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik aniqlab berildi. Xususan, yurak-qon tomir, nafas, ovqat hazm qilish va asab tizimi kasalliklarining patogenezi ularning tuzilishi va funksiyasiga bevosita bog‘liq ekani isbotlandi. Statistik tahlillar natijasida, an'anaviy dars uslubiga nisbatan interaktiv va vizual usullardan foydalangan guruhlarda kasalliklarning rivojlanish mexanizmini tushunish darajasi 30–40% ga yuqori bo‘lgani aniqlandi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, anatomiya va fiziologiyani amaliy klinik holatlar bilan bog‘lab o‘rganish o‘quvchilarning klinik tafakkurini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa: “Anatomiya va klinik fiziologiya asosida kasalliklarni tushuntirish” mavzusi tibbiyotning asosiy poydevorini tashkil etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, organizmning tuzilishi (anatomiya) va uning funksional holati (fiziologiya) haqidagi chuqur bilimlar kasalliklarning kelib chiqishi, rivojlanish mexanizmlari va klinik belgilanishini to‘g‘ri tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Mobil ilovalar yordamida anatomiyani mustaqil o‘rganish

Muhammadaminov O.T., Isaqova N.R.

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Mavzuning dolzarbligi

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Xususan, tibbiyot yo‘nalishidagi fanlardan biri bo‘lgan anatomiya fanini o‘rganishda mobil ilovalar o‘quv jarayonini samarali va interaktiv qilish imkonini bermoqda. An’anaviy atlaslar va maketlardan farqli o‘laroq, mobil ilovalar 3D modellar, animatsiyalar va testlar orqali inson tanasining murakkab tuzilishini chuqur tushunishga yordam beradi. Shu bois bu mavzu hozirgi kunda juda dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi mobil ilovalar yordamida anatomiya fanini mustaqil o‘rganish samaradorligini aniqlash hamda talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligi va qiziqishiga ta’sirini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot materiali va usullari

Tadqiqot obyekt sifatida tibbiyot fakulteti talabalari tanlandi. Tadqiqot jarayonida quyidagi mobil ilovalar qo‘llanildi: Complete Anatomy, Human Anatomy Atlas, Essential Anatomy va AnkiDroid. Tadqiqotda kuzatish, so‘rovnoma, taqqoslash va tahlil usullari qo‘llanildi. Talabalarning an’anaviy o‘qish usuli va mobil ilovalar yordamida mustaqil o‘rganish natijalari solishtirildi.

Tadqiqot natijalari

Mobil ilovalar yordamida o‘qigan talabalar ko‘rish va eslab qolish ko‘rsatkichlari bo‘yicha 25–30% yuqori natijalarni ko‘rsatdilar. Talabalarning fan bo‘yicha qiziqishi va motivatsiyasi oshdi. Mobil ilovalar anatomik tuzilmalarni realistik va 3D shaklda ko‘rsatgani sababli murakkab bo‘limlar (asab tizimi, mushaklar)ni

osonroq tushunishga yordam berdi. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari shakllandi va bu ularning kelgusidagi amaliy faoliyatida ijobiy natija berdi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mobil ilovalar yordamida anatomiyani mustaqil o‘rganish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi va vizual eslab qolish jarayonini yaxshilaydi. Kelajakda bunday texnologiyalarni ta’lim tizimiga kengroq joriy etish orqali tibbiyot sohasida zamonaviy, malakali va mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yanada kengayadi.

VIRTUAL ANATOMIK KONFERENSIYALAR: TAJRIBA VA FORMATLAR

Raxmatova J., Isaqova N.R.
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Mavzuning dolzarbligi:So‘nggi yillarda anatomiya fanida ta’lim jarayonlarini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish jarayoni jadal rivojlanmoqda. An’anaviy anatomik o‘qitish usullari — kadavr preparatlari va atlaslardan foydalanish — o‘quvchilarning vizual va fazoviy idrokini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ular zamonaviy sharoitda to‘liq imkoniyat bermaydi. Shu sababli virtual konferensiyalar, 3D modellar, VR/AR texnologiyalar hamda interaktiv onlayn muhitda o‘tkaziladigan ta’lim shakllari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Virtual anatomik konferensiyalar orqali talabalar nafaqat yangi ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘ladilar, balki global ilmiy hamjamiyat bilan bevosita muloqotda bo‘lish imkoniga ham ega bo‘ladilar.

Tadqiqot maqsadi:Virtual anatomik konferensiyalarning anatomiya fanidagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish, ularning ilmiy, pedagogik va amaliy samaradorligini

tahlil qilish, shuningdek, bu formatlarning tibbiyot ta’limidagi afzallik va kamchiliklarini aniqlash.

Tadqiqot materiali va usullari:Tadqiqot davomida xalqaro miqyosda o‘tkazilgan virtual anatomiya konferensiyalari (World Virtual Anatomy Congress, Global Medical 3D Forum) materiallari, onlayn ishtirokchilarning tahlillari va ilmiy hisobotlari o‘rganildi. Qiyosiy-pedagogik tahlil, kontent tahlili va kuzatuv metodlari qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari:Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, virtual konferensiyalar anatomiya fanini o‘qitishda samarali vosita hisoblanadi. Ular talabalar o‘rtasida fazoviy tafakkurni rivojlantiradi, muloqot madaniyatini oshiradi va yangi texnologik fikrlashni shakllantiradi. Ishtirokchilar 3D modellar orqali murakkab anatomik tuzilmalarni aniq tasavvur qilish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, virtual konferensiyalar orqali talabalarning ilmiy faolligi 25–30% ga oshgani kuzatildi. Onlayn muhitda olib borilgan muhokamalar talabalar mustaqil fikrlashini va ilmiy nutqini rivojlantiradi.

Xulosa:Virtual anatomik konferensiyalar anatomiya fanini o‘qitishda zamonaviy innovatsion yondashuv bo‘lib, talabalarning bilimini chuqurlashtiradi, ilmiy salohiyatini oshiradi va global tibbiy ta’lim tizimida integratsiyani kuchaytiradi. Bunday formatlar kelajakda anatomiya fanining interaktiv, multimediya asosidagi yangi bosqichini shakllantiradi. Virtual konferensiyalar nafaqat o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi masofani qisqartiradi, balki tibbiyot ta’limini ilg‘or texnologiyalar asosida rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Innovative Pedagogy: The Use of AI and AR Technologies in Teaching the History of Medicine

Rustamov Umidjon Maxsudali ogli
Lecturer, Department of Social Sciences, FMIPH

Iqboljonova Moxichehra Javlon qizi
2nd year Student, FMIPH

Abstract: This article analyzes the application of artificial intelligence (AI) and modern digital technologies in the process of teaching the history of medicine. It highlights the role and importance of medical history in the education system, as well as the opportunities for improving the learning process in the context of digital transformation. The paper demonstrates how AI-based tools—particularly interactive conversational models, automated testing systems, and AR/VR (augmented and virtual reality) technologies—encourage active student participation, bringing historical materials to life and making them more understandable and engaging for learners.

Keywords: Artificial intelligence, history of medicine, digital education, AR/VR technologies, innovative pedagogy, interactive learning, virtual laboratory, digital transformation, medical education, ChatGPT.

INTRODUCTION

In recent years, digital technologies and artificial intelligence (AI) systems have brought about profound changes in the field of education. This transformation has opened new opportunities, particularly in medical education and, more specifically, in teaching the history of medicine. The history of medicine is not only a source of historical knowledge but also a discipline that shapes modern medical thinking and provides a foundation for scientific inquiry. Therefore, the use of advanced pedagogical and technological approaches in teaching this subject has become a necessity of the modern era.

Traditionally, the history of medicine has been taught through lectures, textual sources, and historical analyses. However, today, artificial intelligence (AI), augmented reality (AR), and virtual reality (VR) technologies have made it possible to teach this subject in an interactive, visual, and learner-centered manner. Such technologies allow students to “see” historical periods vividly, virtually experience ancient medical practices, and engage in simulated conversations with famous physicians of the past. As a result, the history of medicine is becoming not only a

theoretical field of study but also a vital component of practical medical reasoning and historical interpretation.

In Uzbekistan's medical education system, significant steps have also been taken in this direction. In recent years, the use of digital learning platforms, virtual laboratories, and electronic textbooks in higher education institutions has expanded considerably. From this perspective, the integration of artificial intelligence into the teaching of medical history represents not only an innovative pedagogical approach but also an effective means of improving educational quality, deepening historical understanding, and studying national medical heritage in a modern format.

RELEVANCE OF THE TOPIC

Since the beginning of the 21st century, artificial intelligence (AI) and digital technologies have penetrated nearly every aspect of human life. The education system, in particular, has been one of the sectors most affected by this transformation. Medical education, with its scientific, practical, and historical components, is a complex field where the implementation of AI allows for a deep reform of the learning process.

3. Raqamli laboratoriya va virtual mashg‘ulotlarning asosiy afzalliklari

- 1. Xavfsizlik

Talabalar murakkab yoki xavfli tajribalarni zarar yetkazmasdan o‘tkazishi mumkin. Bu ayniqsa biokimyo, jarrohlik, yoki farmakologiya sohalarida muhim.

- 2. Tejamkorlik

Raqamli tajribalar uchun kimyoviy moddalar, asbob-uskunalar, yoki klinik joylar kerak emas. Bu o‘quv yurtiga ham, talabaga ham iqtisodiy foyda keltiradi.

- 3. Qulaylik va moslashuvchanlik

Talabalar istalgan joyda va vaqtda onlayn tarzda tajriba o‘tkazishlari mumkin. Bu masofaviy o‘qitish (teleta’lim) uchun juda muhim.

- 4. Interaktivlik va vizuallik

Virtual tizimlar yordamida o‘quvchi jarayonni nafaqat o‘qiydi, balki ko‘radi, tinglaydi va o‘zi boshqaradi. Bu bilimni uzoq muddatli xotirada saqlanishiga yordam beradi.

- 5. Xatolardan o‘rganish imkoniyati

Real amaliyotda bir marta xato qilish katta muammoga olib kelishi mumkin, ammo virtual muhitda talaba xatoni ko‘p marta takrorlab, saboq oladi.

- 6. Natijalarni tahlil qilish va baholash qulayligi

Raqamli tizimlar avtomatik ravishda natijalarni tahlil qiladi, baho beradi va o‘quvchi faoliyatini monitoring qiladi. Bu o‘qituvchi uchun ham yengillik yaratadi.

4. Tibbiy ta’limdagi amaliy ahamiyati

Tibbiyotda o‘qish jarayonining katta qismi amaliy mashg‘ulotlarga to‘g‘ri keladi.

Raqamli laboratoriyalar bu jarayonni xavfsiz, samarali va takrorlanadigan shaklga keltiradi.

Masalan:

Anatomiya darslarida 3D modellar yordamida inson organlarini real o‘lchamda ko‘rish va o‘rganish mumkin.

Biokimyo fanida ferment reaksiyalari yoki metabolik yo‘llar simulyatsiya orqali tahlil qilinadi.

Jarrohlik yo‘nalishida talabalar VR simulyatorlarda murakkab operatsiyalarni mashq qilishadi.

Terapiya fanida esa “virtual bemor” dasturlari orqali kasalliklarni aniqlash, suhbat olib borish, davolash rejasini tuzish o‘rgatiladi.

Natijada talaba real klinikaga kirishdan oldin yetarli tayyorgarlikka ega bo‘ladi, bu esa kelajakdagi xatoliklarni kamaytiradi.

5. Kamchiliklar va yechimlar

Albatta, raqamli ta’limning ayrim cheklovlari ham mavjud:

Qurilmalar va dasturlar narxining yuqoriligi;

Internet sifati va texnik infratuzilmaning yetishmasligi;

Ba’zan insoniy muloqotning yetishmasligi.

Ammo bu muammolarni hal etish uchun davlat, oliygohlar va IT sohasi o‘rtasida hamkorlik rivojlantirilmoqda.

Ko‘plab xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni qo‘llash tibbiy ta’limni ancha samaraliroq qiladi.

Xulosa

Raqamli laboratoriyalar va virtual amaliy mashg‘ulotlar tibbiy ta’limda innovatsion burilish yasamoqda.

Ular yordamida o‘qitish jarayoni xavfsiz, qulay, tejamkor va interaktiv shaklga keldi.

Talabalarning kasbiy tayyorgarligi oshadi, amaliy ko‘nikmalar mustahkamlanadi, nazariya esa tajriba bilan uyg‘unlashadi.

Kelajakda raqamli ta’lim tibbiyot oliygohlarining ajralmas qismiga aylanadi. Shu bois, har bir ta’lim muassasasi raqamli laboratoriyalar, simulyatsion markazlar va virtual o‘qitish tizimlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishi lozim.

MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA ANATOMIYANI MUSTAQIL O‘RGANISH

Muhammadaminov O.T., Isaqova N.R.

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Mavzuning dolzarbligi

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Xususan, tibbiyot yo‘nalishidagi fanlardan biri bo‘lgan anatomiya fanini o‘rganishda mobil ilovalar o‘quv jarayonini samarali va interaktiv qilish imkonini bermoqda. An’anaviy atlaslar va maketlardan farqli o‘laroq, mobil ilovalar 3D modellar, animatsiyalar va testlar orqali inson tanasining murakkab tuzilishini chuqur tushunishga yordam beradi. Shu bois bu mavzu hozirgi kunda juda dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi mobil ilovalar yordamida anatomiya fanini mustaqil o‘rganish samaradorligini aniqlash hamda talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligi va qiziqishiga ta’sirini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot materiali va usullari

Tadqiqot obyekt sifatida tibbiyot fakulteti talabalari tanlandi. Tadqiqot jarayonida quyidagi mobil ilovalar qo‘llanildi: Complete Anatomy, Human Anatomy Atlas, Essential Anatomy va AnkiDroid. Tadqiqotda kuzatish, so‘rovnoma, taqqoslash va tahlil usullari qo‘llanildi. Talabalarning an’anaviy o‘qish usuli va mobil ilovalar yordamida mustaqil o‘rganish natijalari solishtirildi.

Tadqiqot natijalari

Mobil ilovalar yordamida o‘qigan talabalar ko‘rish va eslab qolish ko‘rsatkichlari bo‘yicha 25–30% yuqori natijalarni ko‘rsatdilar. Talabalarning fan bo‘yicha qiziqishi va motivatsiyasi oshdi. Mobil ilovalar anatomik tuzilmalarni realistik va 3D shaklda ko‘rsatgani sababli murakkab bo‘limlar (asab tizimi, mushaklar)ni osonroq tushunishga yordam berdi. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari shakllandi va bu ularning kelgusidagi amaliy faoliyatida ijobiy natija berdi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mobil ilovalar yordamida anatomiyani mustaqil o‘rganish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi va vizual eslab qolish jarayonini yaxshilaydi. Kelajakda bunday texnologiyalarni ta’lim tizimiga kengroq joriy etish orqali tibbiyot sohasida zamonaviy, malakali va mustaqil fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yanada kengayadi.

TIBBIY TA’LIMDA INFOGRAFIKA VA ANIMATSIYALARNING O’RNI

Komilova X.Q, Isaqova N.R

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Insituti

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda tibbiy ta’limni olib borish jarayonida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida o‘quv materiallarini vizual shaklda

yetkazishning samarali vositalaridan biri sifatida infografika va animatsiyalar keng qo‘llanilmoqda. Eski tuzumdan qolgan ma’ruza va matnli o‘quv qo‘llanmalar o‘rniga axborotni grafik, dinamik va interaktiv shaklda taqdim etish talabalarning mavzuni tezroq tushunishiga, eslab qolishiga va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishiga katta yordam bermoqda.Tibbiyot sohasi murakkab terminlar, biologik jarayonlar va anatomiya kabi vizual idrokni talab etuvchi bilimlardan iborat bo‘lgani sababli infografika va animatsiyalardan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga kasb etadi. Bunday texnologiyalar orqali talabalar inson organizmi tuzilishi, kasallik patogenezini yoki davolash mexanizmini interaktiv tarzda kuzatishi mumkin.

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali tibbiyotda ta’lim jarayonini olib borishda infografika va animatsiyalardan foydalanishning ahamiyati, ularning o‘quvchilarning bilim olish samaradorligiga ta’siri hamda amaliyotda qo‘llash usullari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan ta’lim vositalari orqali murakkab tibbiy jarayonlarni vizual shaklda ifodalash talabalarning tushunishini osonlashtiradi, klinik tafakkurni shakllantiradi va tibbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Shuningdek, infografika va animatsiyalar yordamida masofaviy ta’limda ham talabalarni faol o‘qitish imkoniyati yaratildi. Bu esa tibbiy ta’limni zamonaviylashtirish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga mos o‘quv jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

Kalit so’zlar: infografika, animatsiya, visual, multimedia tadqiqotlari, laboratoriy aprotseduralari, diagnostika, masofaviy ta’lim

Kirish: Hozirgi jadal sur’atda rivojlanayotgan XXI asr tibbiy ta’lim tizimi tezkor rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishni talab qilmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari bilan bir qatorda interaktiv o‘quv vositalari – infografika, animatsiya, simulyatsiya va virtual laboratoriyalar ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, tibbiyot fanlarda murakkab biologik jarayonlar, anatomiya, fiziologiya yoki farmakologiyani o‘rganishda vizual taqdimot vositalari o‘quvchilarning diqqatini jalb etib, bilimni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi.

Asosiy qism: O’zi infografika nima? Infografika shunday sohaki, unda murakkab ma’lumotlarni visual shaklda ya’ni turli xil rasmlar, grafiklar, diogrammalar hamda belgilar bilan

sodda, shu bilan birgalikda tushunarli holatda ifodalanadi. Zamonaviy tibbiyot ta’limini olib borishda infografikalar o’quv jarayonini samarali, tushunarli shu bilan bir qatorda esda qolarli qilishda muhim ahamoiyatga ega. Infografikaning tibbiy ta’limdagi o‘rni

Infografika — bu murakkab ma’lumotlarni vizual shaklda, ya’ni rasmlar, grafiklar, diagrammalar va belgilar yordamida sodda va tushunarli tarzda ifodalash vositasidir. Tibbiy ta’limda infografikalar o‘quv jarayonini samarali, tushunarli va esda qolarli qilishda muhim o‘rin tutadi. Tibbiy ta’limda infografikaning ahamiyatini ko’rib chiqadigan bo’lsak,tibbiyot sohasi ko‘p miqdorda murakkab terminlar, jarayonlar va tizimlarni o‘z ichiga olganligi sababli infografika shu murakkab ma’lumotlarni soddalashtirib ko‘rgazmali shaklda tez idrok etiladigan tarzda taqdim qilish imkonini beradi.Masalan, ko’radigan bo’lsak,inson yurak-qon tomir tizimi, immun javob yoki dori ta’sir mexanizmini tushuntirishda infografikalar juda qulay vosita sanaladi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning e’tiborini jalb etish ya’ni infografikalar ranglar, shakllar va belgilar orqali o‘quvchilarda vizual xotirani faollashtiradi. Natijada talabalarda darsdagi faollik oshadi,motivatsiya kuchayadi, uzoq muddatli eslab qolish osonlashadi.Murakkab jarayonlarni tushuntirishda qulaylik keltirib chiqaradi. Anatomik tuzilma, fiziologik jarayonlar yoki patologik o‘zgarishlarni so‘z bilan izohlashdan ko‘ra, infografika orqali aniq va tez tushunish mumkin. Misol uchun qon aylanishi jarayoni, hujayra ichidagi metabolik yo‘llar, infeksiya tarqalish zanjiri. Tibbiy axborotni ommaga yetkazishda infografikalar nafaqat o‘quvchilar, balki bemorlar va keng jamoatchilik uchun ham foydalidir. Masalan: vaksina foydasi haqida aholiga ma’lumot berish, gigiyena qoidalari, sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalar. Zamonaviy tibbiy ta’limda infografikalar: onlayn darlar, elektron o‘quv qo‘llanmalar, multimedia taqdimotlar va mobil ilovalarda keng qo‘llaniladi. **Animatsiyalar** — bu murakkab tibbiy jarayonlar, fiziologik mexanizmlar va anatomiya tuzilmalari kabi mavzularni jonli, ko‘rgazmali tarzda tushuntirish imkonini beruvchi zamonaviy ta’lim vositasidir. Ayni paytda tibbiy ta’limda animatsiyalardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.Tibbiyot fanlari ko‘p hollarda inson tanasidagi murakkab jarayonlarni o‘rganishni talab qiladi. Animatsiyalar yordamida hujayra ichidagi biokimyoviy reaksiyalar, yurak faoliyati, qon aylanishi yoki nerv impulslarining o‘tishi kabi jarayonlar dinamik tarzda ko‘rsatiladi. Bu esa tibbiyot talabalari ayniqsa 1-bosqich talabalari uchun tushunishni yengillashtiradi.Ko‘rgazmali o‘rganish inson xotirasida uzoq muddat saqlanadi. Animatsion

videolar orqali o‘rganilgan ma’lumotlar oddiy matnga qaraganda 60–70% samaraliroq o‘zlashtirilishi aniqlangan. Talabalar ko‘rgan obrazlarni eslab qolish orqali tibbiy bilimlarni tezroq qayta tiklay oladi. Bundan tashqari animatsiyalar klinik amaliyotda zarur bo‘lgan muolajalarni — jarrohlik operatsiyalari, laboratoriya protseduralari yoki diagnostika usullarini xavfsiz tarzda o‘rgatishda qo‘llaniladi. Bu usul talabaga real vaziyatda xato qilish xavfisiz mashq qilish imkonini beradi.Rangli, interaktiv va jonli animatsiyalar tibbiy fanlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. Talabalar darsga faolroq jalb etadi, bu esa ta’lim sifati va o‘rganish samaradorligini oshiradi.Onlayn ta’lim tizimlarida animatsiyalar o‘qituvchi ishtirokisiz ham murakkab mavzularni tushunish imkonini beradi. Masofadan o‘qiyotgan talabalar uchun bu vosita ayniqsa katta qulaylik tug’diradi.Animatsion materiallar simulyatsion o‘qitish bilan birgalikda zamonaviy tibbiy ta’limning ajralmas qismiga aylib bormoqda. Bu esa o‘quv jarayonini real klinik muhitga yaqinlashtiradi.

Xulosa: Umuman olganda tibbiy ta’limda infografika va animatsiyalardan foydalanish o‘qitish samaradorligini oshiruvchi zamonaviy yondashuvlardan biri ekanligini oliy o’quv yurtlarida yaqqol ko’rishimiz mumkin. Bu usullar orqali tibbiyot tizimi kundan kungfa jadal tusda rivolanib bormoqda. Ular murakkab tibbiy jarayonlarni soddalashtirib, vizual tarzda tushunarli ko‘rinishga keltiradi hamda talabalarda mavzuga nisbatan qiziqish va faol ishtirokni kuchaytiradi. Infografika yordamida nazariy ma’lumotlar ixcham va tizimli tarzda taqdim etilsa, animatsiyalar esa amaliy jarayonlarni real holatga yaqin ko‘rsatib, klinik fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini samarali tarzda rivojlantiradi. Shu bois, tibbiy ta’lim jarayonida infografika va animatsiyalarni qo‘llash talabalarning bilimni chuqur o‘zlashtirishini, xotirada uzoq saqlashini va amaliy faoliyatga samarali tayyorgarligini ta’minlaydi. Bu orqali juda ham ko’p talabalar yaxshi o’zlashtirishbko’rsatkichlariga ega bo’lishmoqda. Xulosa qilib aytganda tibbiy ta’limni rivojlantirishda talabalar uchun eng ommaviy samarali usullarga aylanib bo’lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mayer, R. (2021). Multimedia Learning: Principles for Designing Effective Instruction. Cambridge University Press.

2.To‘xtayeva M., Karimova S. (2023). Tibbiy ta’limda axborot texnologiyalarining o‘rni. Toshkent: TTA nashriyoti.

3.WHO (2022). Digital Learning in Medical Education. Geneva: World Health Organization.

4.Morrison, G., Ross, S. & Kemp, J. (2020). Designing Effective Instruction. John Wiley & Sons.

Tashkiliy qo’mitaning manzili

150100, O’zbekiston Respublikasi, Farg’ona shahri, Yangi Turon ko’chasi 2

Telefon: (33) 570-43-83

Elektron manzili: h000078275@gmail.com

Murojaat uchun: +998948645004 (Komilova X.Q)

MUSTAQILLIK YILLARIDA **O‘ZBEKISTONDAGI MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT**

Saliev Ulug‘bek Abdullaevich
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot insti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Muhammadjonova Muxlisa
Tibbiy profilaktika ishi va jamoat salomatligi fakulteti
525guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng mamlakatda kechgan ma’naviy va madaniy islohotlar jarayoni yoritilgan. Mustaqillik davrida milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analar tiklandi, ma’naviy yangilanish g‘oyasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Shuningdek, madaniyat muassasalari faoliyati rivojlantirildi, tarixiy merosni asrash va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashga katta e’tibor berildi. Maqolada O‘zbekistonning ma’naviy mustahkamligi va madaniy yuksalishining asosiy yo‘nalishlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, ma’naviyat, madaniyat, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, an’ana, urf-odat, ma’rifat, milliy o‘zlik, madaniy meros.

Kirish:

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng jamiyat hayotining barcha jabhalarida, xususan, ma’naviy va madaniy sohada tub o‘zgarishlar yuz berdi. Milliy o‘zlikni anglash, qadimiy merosni tiklash va ma’naviyatni yuksaltirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylandi.

Asosiy qism

1. Ma’naviy yangilanishO‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ma’naviyat masalasi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlari, “Ma’rifatparvarlar jamiyati” va “Yoshlar ishlari agentligi” kabi tashkilotlar orqali jamiyatda yuksak axloq, vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik va bag‘rikenglik g‘oyalari keng targ‘ib qilinmoqda.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarni asrash, ularni zamonaviy talqin asosida yoshlar ongiga singdirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Atoqli mutafakkirlar — Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bahouddin Naqshband kabi buyuk ajdodlar merosini o‘rganish va targ‘ib qilish ishlari yanada jonlandi.

Shuningdek, “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch” g‘oyasi asosida milliy mafkurani shakllantirish, insonni o‘z Vataniga, xalqiga va tiliga sadoqatli qilib tarbiyalash maqsadida har yili respublika miqyosida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, anjumanlar va o‘quv seminarlar o‘tkazilmoqda. Bu esa jamiyatda milliy o‘zlikni anglash, o‘z tarixiga va madaniyatiga hurmat tuyg‘usini kuchaytirmoqda.

2. Madaniyat sohasidagi yuksalish Madaniyat jamiyatning ma’naviy ko‘zgusi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasida chuqur islohotlar amalga oshirildi. Teatr, kino, muzey, kutubxona va galereyalar faoliyati modernizatsiya qilinib, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlandi.

San’atkorlar, yozuvchilar, rassomlar, bastakorlar va aktyorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat mukofotlari, ijodiy uyushmalar, grant va tanlovlar joriy

qilindi. O‘zbekistonning ko‘plab tarixiy shaharlari — Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va Toshkent shaharlari UNESCO tomonidan Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. Bu esa milliy tariximiz va me’morchiligimizni butun dunyoga tanitdi.

“O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlarida” loyihasi orqali xalqimizning tarixiy boyligi — qo‘lyozmalar, san’at asarlari, qadimiy yodgorliklar to‘plamlari xalqaro miqyosda namoyish etilmoqda. Shu bilan birga, xalq amaliy san’ati, milliy kiyim-kechak, musiqa va raqs madaniyatini rivojlantirish, ularni yoshlar orasida targ‘ib qilish maqsadida ko‘plab festival va anjumanlar tashkil etilmoqda.

3. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishMustaqillik yillarida yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Prezident tashabbusi bilan qabul qilingan “Yoshlar — kelajagimiz” davlat dasturi, “Yangi O‘zbekiston yoshlari” harakati hamda “Yoshlar daftari” loyihalari yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy darslar, “Kitobxonlik madaniyati”, “Ma’naviyat soati” kabi tashabbuslar orqali yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, kitob o‘qishga qiziqish, san’at va adabiyotga mehr ruhida tarbiyalashga katta e’tibor berilmoqda.

Shuningdek, yosh ijodkorlar, talaba va o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilayotgan “Zakovat”, “Yosh kitobxon”, “Eng faol yoshlar yetakchisi” kabi respublika tanlovlari ularning tafakkurini kengaytirib, ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda yoshlar nafaqat ta’limda, balki madaniyat, sport, fan va texnologiya sohalarida ham faol ishtirok etib, mamlakatimizning ma’naviy yuksalishiga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Xulosa:

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston xalqining ma’naviy va madaniy hayotida yuksak o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Milliy qadriyatlar tiklandi, tarixiy meros asrab-avaylandi, yosh avlod ongida Vatanga sadoqat, insonparvarlik va g‘urur tuyg‘ulari shakllandi.

Bu yutuqlar O‘zbekistonning ma’naviy mustaqilligini yanada mustahkamlab, milliy rivojlanishning poydevorini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlari va nutqlari to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. “Ma’naviyat va ma’rifat” jurnali, 2023-yil sonlari.
5. www.gov.uz, www.president.uz, www.lex.uz rasmiy manbalari.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЕЙШИХ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЛЕЧЕНИИ И ДИАГНОСТИКЕ ЗАБОЛЕВАНИЙ В ОБЛАСТИ НЕЙРОХИРУРГИИ У ДЕТЕЙ

Атаханов Санжарбек Анварович

Ферганский институт общественного здравоохранения, Преподаватель-ассистент, Узбекистан

Исмоилова Нуршода Масрурхон кизи

Ферганский медицинский институт общественного здравоохранения, 1-й курс факультета педиатрии, Узбекистан

Аннотация: В данной статье представлен комплексный анализ современных технологий в детской нейрохирургии, демонстрирующий революционные изменения в диагностике, хирургическом лечении и реабилитации пациентов. Материал представляет интерес для специалистов в области нейрохирургии, педиатрии и медицинских технологий.

Ключевые слова: МРТ 3 Тесла, трехмерная трактоволоконная томография, нейронавигация, GPS для мозга, ИОМ, роботизированные хирурги(ROSA), ПЭТ, МРТ, внутриутробная хирургия, , КиберНож(CyberKnife) , Гамма нож(Gamma knife), транскраниальная ультрасонография, гибрыдные комплексы, артериовенозные мальформации АВМ, гемангиомы.фетальныая нейрохирургя, УЗИ, реабилитация, гибридные операционные, генная терапия, телемедицина .

Введение

Современные технологии в детской нейрохирургии играют решающую роль — от их уровня напрямую зависит не только успех операции, но и дальнейшая жизнь ребенка: его интеллектуальное развитие, двигательные возможности, способность к обучению, социальной адаптации и, в конечном итоге, благополучие всей семьи.

Детская нейрохирургия — одна из самых тонких и ответственных областей медицины. Мозг ребенка продолжает формироваться, и малейшая ошибка хирурга может привести к необратимым последствиям. Поэтому современные технологии здесь не просто инструмент, а гарантия точности, безопасности и гуманного подхода к лечению.

Прежде всего, инновации позволяют значительно повысить точность операций. Нейронавигация, своего рода «GPS для мозга», создает трехмерную модель мозга ребенка на основе данных МРТ или КТ и в реальном времени помогает хирургу ориентироваться. Благодаря этому удается выбрать

максимально щадящий путь к патологическому очагу, четко различить пораженные и здоровые ткани, а также избежать повреждения важных сосудов и нервов. Не менее значимым является интраоперационный нейромониторинг — система, которая в ходе операции отслеживает работу мозга, нервов и проводящих путей. При малейшей опасности повреждения критически важных структур хирург получает мгновенный сигнал и может скорректировать свои действия, сохранив жизненно важные функции ребенка.

Второе направление прогресса — снижение травматичности операций и сокращение периода восстановления. Эндоскопическая нейрохирургия, позволяющая выполнять вмешательства через крошечные разрезы с применением микроинструментов, стала золотым стандартом при лечении гидроцефалии, кист и некоторых опухолей, особенно в области гипофиза. Такой подход значительно уменьшает кровопотерю, риск осложнений и время пребывания в стационаре. Роботизированные системы, например ROSA, обеспечивают хирургу сверхточность движений и исключают дрожание рук, что особенно важно при установке электродов для глубокой стимуляции мозга или проведении биопсий.

Еще одно достижение — возможность оперировать ранее считавшиеся неоперабельными заболевания. Эндоваскулярная хирургия позволяет лечить сосудистые патологии, такие как аневризмы и артериовенозные мальформации, без вскрытия черепа, через небольшой прокол в бедренной артерии. Современные методы визуализации и мониторинга дают возможность точно локализовать очаг эпилепсии и удалить его, избавляя ребенка от приступов. А фетальная (внутриутробная) хирургия позволяет проводить операции еще до рождения — например, при спинальной расщелине, предотвращая повреждение нервной системы еще в утробе матери.

Главная цель современной детской нейрохирургии — не просто удалить патологию, а сделать это так, чтобы сохранить и улучшить качество жизни ребенка. Для этого используются функциональная МРТ, показывающая активные зоны мозга при выполнении определенных действий, и

трактоволоконная томография, позволяющая визуализировать пути белого вещества и обходить критически важные зоны.

Технологии открыли новые возможности и в лечении врожденных патологий, таких как краниосиностоз. С помощью 3D-моделирования хирурги заранее планируют реконструктивные операции, которые восстанавливают форму черепа и обеспечивают пространство для дальнейшего роста мозга.

Современная детская нейрохирургия — это не просто внедрение новых устройств, а совершенно иной подход к лечению. Здесь точность, деликатность и сохранение качества жизни пациента стоят на первом месте. 3D-визуализация и нейронавигация с элементами дополненной реальности помогают хирургу видеть «сквозь» ткани, выбирая самый безопасный путь. Интраоперационный нейромониторинг контролирует функции мозга в реальном времени, предотвращая даже минимальные риски. Минимально инвазивные и робот-ассистированные методы позволяют проводить вмешательства без внешних разрезов, а радиохирургические технологии — такие как «КиберНож» и «Гамма-нож» — разрушать опухоли с ювелирной точностью, не прибегая к вскрытию черепа.

Так формируется новое лицо детской нейрохирургии — высокотехнологичное, точное и гуманное, где каждый шаг направлен на то, чтобы ребенок после операции мог жить полноценной, здоровой жизнью.

Инновационная диагностика

Современные технологии полностью меняют представления о возможностях диагностики в детской нейрохирургии. Сегодня врачи способны не просто видеть структуру мозга ребёнка, но и наблюдать, как он функционирует в реальном времени. Это даёт шанс спланировать лечение максимально точно и безопасно, сохраняя все важные функции развивающегося организма.

Магнитно-резонансная томография мощностью 3 Тесла открывает новый уровень визуализации. Если раньше аппараты с силой поля 1,5 Тл можно было сравнить с обычным телевизором, то 3 Тл — это изображение в

формате Ultra HD, где различимы мельчайшие детали. Такой МРТ показывает границы опухолей, очаги эпилептической активности и структуры, которые прежде оставались невидимыми. Функциональная МРТ позволяет увидеть, какие участки мозга активируются при движении, речи или даже во сне. Трактография, в свою очередь, создаёт своеобразную «дорожную карту» мозга, отображая проводящие пути, соединяющие его отделы. Для ребёнка это особенно важно: мозг ещё формируется и способен перестраиваться, поэтому врач может не только безопасно удалить опухоль, но и предсказать восстановление функций после операции.

Компьютерная томография даёт возможность получить трёхмерное изображение головы за считанные секунды. Это незаменимо при травмах и кровоизлияниях, когда дорога каждая минута. Современные мультиспиральные КТ-аппараты обеспечивают сверхбыстрое сканирование, а КТ-ангиография позволяет одномоментно рассмотреть сосудистую сеть и выявить аневризмы, мальформации или тромбы. В операционной такие аппараты дают возможность сразу же проверить результат вмешательства, не покидая стерильную зону. Это делает процесс безопаснее и снижает риск повторных операций.

Ультразвуковые методы также вышли на новый уровень. Нейросонография, проводимая через открытый родничок у младенцев, теперь обеспечивает разрешение, сравнимое с МРТ, но без необходимости анестезии. Цветовое допплеровское картирование позволяет наблюдать кровоток в режиме реального времени, выявлять спазмы сосудов, тромбы и другие нарушения, а трёхмерный и четырёхмерный режимы дают возможность получать объёмные изображения и отслеживать изменения структур мозга со временем. Этот метод незаменим для динамического наблюдения недоношенных детей и пациентов с гидроцефалией — он безопасен, безболезнен и информативен.

Когда родничок уже закрылся, на помощь приходит транскраниальная ультрасонография, которая позволяет «заглянуть» сквозь кость. Современные технологии обработки сигнала делают изображение чётким даже через

височную кость. Этот метод используется как во время операций, помогая контролировать кровоток и положение мозга, так и в палатах интенсивной терапии, где необходимо быстро оценить состояние ребёнка без транспортировки. Такое непрерывное наблюдение помогает врачу вовремя заметить осложнения и предотвратить их развитие.

Современная диагностика в детской нейрохирургии — это не просто набор технологий, а новый уровень понимания детского мозга. Эти методы дают возможность действовать точно, бережно и с глубоким уважением к жизни ребёнка, где каждый миллиметр и каждая секунда имеют значение.

Гибридные операционные комплексы

Современная детская нейрохирургия вступила в эпоху, когда границы между открытой хирургией и высокоточными эндоваскулярными технологиями стираются. Гибридная операционная — это не просто место, где проводят операции, а целая интеллектуальная система, объединяющая возможности хирургии, рентгенологии и нейровизуализации в одном пространстве. Здесь хирурги могут выполнить сложнейшие вмешательства «в один заход», не переводя пациента из кабинета в кабинет и не подвергая его повторной анестезии.

Главная особенность гибридной операционной заключается в её универсальности. Она оснащена ангиографом для высокоточной визуализации сосудов, современным хирургическим столом и интраоперационными системами КТ и МРТ, а также технологиями нейромониторинга, позволяющими контролировать состояние мозга в реальном времени. Вся информация выводится на интегрированные экраны, создавая единую картину происходящего.

Преимущества таких систем очевидны. Во-первых, они позволяют комбинировать разные методы лечения в рамках одной операции. Например, сначала эндоваскулярный хирург эмболизирует питающие сосуды артериовенозной мальформации, снижая риск кровопотери, а затем нейрохирург сразу же приступает к её открытому удалению. Всё происходит

в одной комнате, под одной анестезией — это экономит время и снижает стресс для ребёнка.

Во-вторых, гибридная операционная значительно повышает безопасность. При возникновении осложнений врач может мгновенно провести ангиографию, выявить источник кровотечения и устранить его эндоваскулярным способом. Это исключает потерю драгоценных минут и снижает риск серьёзных последствий. Кроме того, минимальная инвазивность вмешательств способствует быстрому восстановлению и сокращает срок пребывания ребёнка в больнице.

Третье преимущество — точность. Хирург может сразу проверить результат операции с помощью интраоперационного КТ или ангиографии. Это даёт возможность убедиться, что опухоль удалена полностью, сосуды не повреждены, а осложнений нет. Если что-то требует коррекции, всё можно исправить прямо на месте, не дожидаясь послеоперационного обследования.

В детской нейрохирургии гибридные комплексы стали особенно ценными при лечении сложных сосудистых мальформаций, опухолей, эпилепсии и краниофациальных аномалий. В каждом из этих случаев комбинированный подход позволяет минимизировать риски и повысить эффективность вмешательства. Например, при артериовенозных мальформациях сначала проводится частичная эмболизация сосудов, а затем безопасное открытое удаление. При опухолях — предварительная эмболизация кровоснабжения и последующая резекция под контролем интраоперационной КТ.

Таким образом, гибридная операционная — это символ новой философии нейрохирургии, где технологии служат продолжением рук хирурга, а точность и безопасность становятся главными критериями успеха. Для маленьких пациентов это шанс пройти через самые сложные операции с минимальным риском и максимальной надеждой на полное восстановление.

Фетальная нейрохирургия: лечение до рождения

Фетальная нейрохирургия — это одно из самых смелых и гуманистичных направлений современной медицины. Её цель — исправить

тяжёлые пороки развития нервной системы плода ещё до рождения, когда мозг и тело обладают уникальной способностью к восстановлению. Многие неврологические нарушения становятся необратимыми к моменту родов, но если вмешаться раньше, можно не только остановить разрушительный процесс, но и дать ребёнку шанс на полноценную жизнь.

Основной принцип этой области прост и гениален: исправить дефект тогда, когда он уже существует, но ещё не привёл к катастрофе. Такой подход требует высочайшего уровня технологий, опыта и тонкого понимания развития мозга.

Одним из наиболее частых вмешательств является коррекция spina bifida (миеломенингоцеле). При этом пороке позвоночник не смыкается, и часть спинного мозга оказывается без защиты, контактируя с амниотической жидкостью, что вызывает прогрессирующее повреждение нервов. Операция проводится на сроке между 19-й и 26-й неделями беременности и может быть выполнена открытым способом — через разрез матки, либо фетоскопически — через крошечные проколы с использованием миниатюрных инструментов. Исследование MOMS убедительно доказало: внутриутробное закрытие дефекта снижает необходимость последующего шунтирования мозга наполовину и вдвое повышает шансы ребёнка ходить самостоятельно, сохраняя при этом лучшее когнитивное развитие.

Другой вид вмешательства — вентрикулоамниотическое шунтирование. Оно применяется при тяжёлых формах обструктивной гидроцефалии, когда нарушается отток спинномозговой жидкости. Под контролем УЗИ в желудочек мозга устанавливается тонкий катетер, через который избыток жидкости отводится в амниотическое пространство. Это снижает внутричерепное давление и даёт мозгу возможность расти и формироваться без сдавления.

Ещё один пример — лечение крестцово-копчиковой тератомы. Опухоль в этой зоне способна вызывать сердечную недостаточность у плода из-за перераспределения кровотока. Вмешательство направлено на прекращение

кровоснабжения опухоли или её частичное удаление, что стабилизирует состояние ребёнка до родов.

Основа успешной фетальной хирургии — безупречная диагностика. Пренатальный УЗИ-скрининг выявляет первые признаки порока на 18–20 неделе, а МРТ плода с высокой точностью отображает анатомию мозга, степень гидроцефалии и другие особенности. Эхокардиография позволяет оценить работу сердца, а генетические тесты помогают исключить хромосомные аномалии, делающие операцию нецелесообразной.

Центры фетальной нейрохирургии — это не просто клиники, а высокотехнологичные комплексы, где трудятся специалисты высшего класса: фетальные и детские нейрохирурги, акушеры, неонатологи, анестезиологи, генетики и психологи. Их работа требует идеальной слаженности, ведь каждая операция затрагивает сразу две жизни — матери и ребёнка. Такие операции проводятся только в учреждениях, где есть оборудование для фетоскопии, интраоперационного мониторинга и высокопольного МРТ, а также этический комитет, который оценивает каждый случай индивидуально.

Перед вмешательством родители получают полную информацию о возможных рисках — преждевременных родах, разрыве матки, вероятности осложнений у плода. Решение всегда принимается коллегиально и взвешенно.

Фетальная нейрохирургия — это не только медицина будущего, но и проявление глубочайшего гуманизма. Она соединяет новейшие технологии и веру в возможности человеческого организма, доказывая, что помогать можно даже тем, кто ещё не родился.

Реабилитация: где рождаются новые возможности

Этот этап — сердце лечения, где передовые технологии встречаются с человеческим теплом, помогая мозгу ребёнка заново переписать свою историю. Мы не просто возвращаем утраченные функции — мы открываем двери в новый мир, где настойчивость и любовь сильнее любых ограничений.

Главная сила реабилитации — в нейропластичности. Детский мозг гибок и жив, он способен создавать новые связи и маршруты, чтобы компенсировать

утраченные функции. Задача специалистов — направить эту энергию, показать мозгу обходной путь, помочь ему научиться заново.

Современные технологии делают этот процесс вдохновляющим. Экзоскелеты помогают детям снова почувствовать движение, виртуальная реальность превращает терапию в игру, а системы биологической обратной связи позволяют увидеть и осознать то, что раньше было скрыто от чувств. Всё это делает восстановление не скучной процедурой, а настоящим приключением.

Но реабилитация — это не только про технику. Это творчество, где каждое движение превращается в танец, каждое слово — в песню, а эмоции становятся красками, из которых складывается картина выздоровления.

Команда специалистов — неврологи, психологи, физиотерапевты, логопеды — работает как единое целое. Они не просто лечат, они создают атмосферу поддержки и веры. Самые важные участники этой команды — родители и ребёнок. Их любовь, терпение и ежедневный труд — это двигатель всего процесса.

Именно здесь случаются настоящие чудеса. Мы видим, как ребёнок делает первый шаг, произносит первое слово, улыбается после долгих месяцев борьбы. С каждым днём возвращаются движения, оживают эмоции, а вместе с ними — вера и надежда.

Реабилитация — это не пауза между больницей и домом. Это мост между болезнью и жизнью, путь от операции к новой реальности, где снова можно жить, мечтать и быть счастливым.

Заключение

Детская нейрохирургия совершила огромный шаг вперёд. Из сферы рискованных вмешательств она превратилась в тонкую, почти ювелирную науку, где главная цель — не просто спасти жизнь, а сохранить будущее ребёнка.

Современные достижения впечатляют: точная диагностика с помощью МРТ 3 Тесла и трактографии создаёт трёхмерные карты мозга; навигация и интраоперационный мониторинг делают операции безопаснее, а эндоскопия и

роботика позволяют обходиться без больших разрезов. Фетальная хирургия подарила шанс лечить ещё до рождения, а гибридные операционные объединили всё лучшее в одном пространстве.

Будущее нейрохирургии — это искусственный интеллект и большие данные, способные предсказывать исходы операций; биопринтинг, создающий индивидуальные импланты; нейроинтерфейсы, управляющие протезами силой мысли; генная терапия, корректирующая болезни на уровне ДНК, и телемедицина, стирающая расстояния между врачами и пациентами.

Мы вступаем в эпоху, когда нейрохирургия становится не только лечением, но и искусством восстановления человеческого потенциала. Это путь от страха к надежде, от боли к движению, от операции — к жизни.

BIOMEXANIKANI TIBBIYOT TEXNIKALARINI LOYIHALASHDAGI ROLI. SUN’IY YURAKNING YARATILISHI

Axmadaliyeva Gulnora Xamrakulovna
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi
Karimova Muxlisa Sherali qizi
Biotibbiyot muhandisligi 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Sun’iy yurakning yaratilishi — zamonaviy tibbiyot va muhandislikning yutuqlarini birlashtirgan muhim innovatsion yo‘nalishdir. Bu texnologiya yurak yetishmovchiligi bilan og‘rigan bemorlarning hayotini saqlab qolish, yurak transplantatsiyasiga muqobil yechim taklif etish maqsadida ishlab chiqilgan. Sun’iy yuraklar inson yuragining asosiy funksiyalarini — qon aylanishini ta’minlash va doimiy bosimni ushlab turish — sun’iy mexanizmlar yordamida amalga oshiradi. Ushbu maqolada sun’iy yuraklarning yaratilish tarixi, ishlash prinsipi, turlari va zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Nasos-sun’iy yurak, biologik yoki mexanik klapanlar, boshqaruv bloki-qurilmaning ritmi, puls to‘lqini, qon tomir elastikligi.

Sun’iy yurak-bu inson yuragining vazifasini bajara oladigan maxsus biomexanik qurilma bo‘lib, yurak yetishmovchiligi bilan og‘rigan bemorlarda qon aylanishini ta’minlash uchun ishlatiladi. Asosan u yurak transplantatsiyasi oldidan vaqtinchalik yoki ayrim hollarda uzoq muddatli yechim sifatida qo‘llaniladi. Sun’iy yurak asosan yurak yetishmovchiligi kasalliklari sonining ortishi, donor yuraklar yetishmasigida, transplantatsiya qilinmagan holatlarda bemor hayotini saqlab qolish zaruratlari uchun yaratiladi. Qurilma robototexnika texnologiyalar asosida yaratilgan. Bu texnologiya tabiiy to‘qimalarga o‘xshash elastiklik va harakat qobiliyatini beradi. Sun’iy chap qorincha uch qavatdan iborat: epikardiyal, transmural va endokardiyal qatlamlar. Har bir qatlamda gidravlik filamentli sun’iy mushak tolalari joylashgan.

Harakatlarni boshqarish uchun suyuqlik tizim orqali har bir tolani alohida nazorat qilish mumkin, bu esa haqiqiy yurak mushaklarining qisqarishi va bo‘shashish mexanizmini taqlid qilish imkonini beradi. Qurilma sun’iy qon bilan to‘ldirilgan va uni haydash uchun kerakli bosim va hajmini nazorat qiluvchi tizim bilan jihozlangan.

Sun’iy yurakning yaratilishi tarixi: VII-asrlarda yurak va qon aylanishining mexanik xususiyatlarini anglash boshlanadi. William Harvey (1578-1657) qon aylanish tizimini kashf etib, yurakning asosiy vazifasini tasvirlab bergan. 1920-30-yillarda yurakni sun’iy ravishda ishlatishga urinayotgan ilk tajribalar boshlandi. Masalan Nikola Tesla mexanik yurak g‘oyasini ilgari surgan. Birinchi marta bemorga 1969-yilda Denton Kuli tomonidan transplantatsiya qilingan-bemor mos keladigan donor yurakni kutish vaqtida vaqtinchalik chora sifatida qurilma bemor hayotini saqlab turad. 1982 yilda birinchi doimiy ishlatiladigan sun’iy yurak — Jarvik 7 bemorga o‘rnatildi. Bu qurilma uning hayotini sezilarli darajada uzaytirdi va sun’iy yuraklar sohasida katta inqilob bo‘ldi. 1952-yilning 8-martida Baytilm shahrida yashovchi 41 yoshli po‘lat ishlab chiqaruvchi Piter Duering yuragiga jarrohlik amaliyoti o‘tkazishga muhtoj edi. 1931 yilda amerikalik kardiojarroh

Maykl DeBakey tomonidan ishlab chiqilgan peristaltik nasosga asoslangan qurilma bor edi. Qurilma qonning faqat bir qismini -1 daqiqada besh litr o‘rniga uch litrni pompalay oladigan tarzda o‘rnatildi. Dyuringni qutqarishning iloji bo‘lmasa-da, nasos tufayli u yana 80 daqiqa yashashga muvaffaq bo‘ldi.

Qurilmaning ishlash printsipi va tarkibiy qismlari: Qurilma yurakning chap va o‘ng qorinchasi funksiyalarini bajaradi. Qurilma sun’iy mushaklar yoki nasos mexanizmlari orqali qisqarib-bo‘shashadi, bu esa yurak urishini takrorlaydi. Klapanlar orqali qon faqat bitta yo‘nalishda oqadi-bu haqiqiy yurakdagi kabi to‘g‘ri qon oqimini ta’minlaydi. Qurilma ichida yoki tashqarisida joylashgan elektron boshqaruv tizimi yordamida ish ritmi, bosim va hajm avtomatik yoki qo‘lda boshqariladi. Energiya manbayi sifatida batareya qo‘llaniladi, ilg‘or modellar simsiz energiya uzatish texnologiyasidan foydalanadi.

Qurilmaning tarkibiy qismlari:

A. Nasos-sun’iy yurakning markaziy qismi bo‘lib, qon haydaydi. Bu tizim pnevmatik (havo bosimi), gidravlik yoki elektromexanik asosda ishlaydi.

B. Klapanlar-qon oqimini bir yunalishda saqlab turadi, sun’iy yurakda asosan biologik yoki mexanik klapanlar ishlatiladi.

C. Qorincha kamerasi (chap/o‘ng)-inson yuragidagi qorinchalar vazifasini bajaradi, ayrim modellarda uch qatlamli devor: epikardiyal, transmural va endokardiyal qatlamlar mavjud.

D. Boshqaruv bloki-qurilmaning ritmi, bosimi va ishlashini nazorat qiladi, ba’zi modellar real vaqt monitoring uchun tashqi displeyga ega.

E. Energiya manbai-ichki batareya yoki tashqi quvvat bloki orqali ishlaydi, zamonaviy modellar simsiz quvvat olish texnologiyasiga ega.

F. Sun’iy qon-qurilma ichida bosimni taqsimlash yoki sinov maqsadida maxsus suyuqlik (gemodinamik modda) ishlatiladi.

Shu sabab, kardiojarrohlik ko‘p yillar davomida rivojlanmoqda va eng murakkab yurak kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarga tezkor yordam beradi. Sun’iy yurak qurilmasining ishlashini inson fiziologiyasiga yuqori darajada yaqinlashtirisha puls

to‘lqinlari, qon tomirlarning elastikligi va sistolik-diastolik bosimlar o‘zgarishi muhim hisoblanadi.

1. Puls to‘lqini va qon tomir elastikligi : Inson yuragining sistola fazasida chap qorinchadan chiqarilgan qon yuqori bosim ostida aortaga va boshqa arteriyalarga kiradi. Shu paytda qon tomir devorlari o‘zining elastikligi sababli cho‘ziladi. Bu elastiklik quyidagi fiziologik mexanizmga olib keladi: Sistola (yurak qisqarishi) paytida yurak tomonidan chiqarilgan qonning bir qismi markazdan chetda joylashgan arteriyalarga o‘tishdan oldin aorta va yirik arteriyalar devorlarida vaqtincha saqlanadi. Bu jarayon natijasida tomir devorlari potensial energiya to‘playdi**.**

2. Diastola va kinetik energiyaga aylanish: Diastola (yurak bo‘shashi) davrida tomirlar bo‘shashadi va oldin cho‘zilgan devorlar o‘z holatiga qaytadi. Bu harakat tomirlarda bosimni saqlab turadi va yurak to‘xtagan lahzalarda ham qon oqimini davom ettiradi. Cho‘zilgan tomir devorlaridagi potensial energiya kinetik energiyaga aylanishi natijasida diastolik bosim ta’minlanadi.

3. Bosim ko‘rsatkichlari: Sistolik bosim odatda 16 kPa (120 mm Hg) atrofida bo‘ladi. Diastolik bosim esa taxminan 11 kPa (80 mm Hg) ga teng. Bu bosim farqi (puls bosimi) qon aylanishi samaradorligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichdir.

Sun’iy yurakda ishlatiladigan asosiy biomateriallar:

1**.** Polimerlar (sun’iy plastik materiallari) -yengil va elastik, yurak devorlari, qoplama va kameralar uchun ishlatiladi. Teflon-qon bilan yaxshi moslashadi, tromb hosil qilmaydi, ichki qoplamalarda qo‘llaniladi. Silikon-elastik, yumshoq toksik emas, nasoslar va valflarda qo‘llaniladi.

2. Metallar (titan) –yengil, mustahkam va biologik jihatdan tana bilan mos, struktura va klapan qismlarida ishlatiladi. Zanglamas po‘lat –mexanik chidamliligi yuqori, struktura va klapan qismlarida ishlatiladi.

3.Biologik materiallar (ba’zi modellarida) –sigir yoki cho‘chqa perikard to‘qimasi. Qon bilan tabiiy mosligi yuqori. Sun’iy yurak biomateriallari, elastiklik, qon bilan mosligi, uzoq ishlashi qobiliyati kabi talablar asosida tanlanadi. Ulardan polimer, titan, silikon ko‘p ishlatiladi.

Sun’iy yurakning yutuqlari: Sun’iy yurak yoki yurak asistenti qurilmalar yurak yetishmovchiligi bilan og‘rigan bemorlarning hayotini sezilarli darajada uzaytirdi. Ular transplantatsiya uchun vaqt yaratadi yoki vaqtinchalik almashtiruvchi sifatida ishlaydi. Zamonaviy sun’iy yuraklar yuqori aniqlikdagi sensorlar va boshqaruv tizimlari bilan jihozlangan bo‘lib ular yurakning tabiiy ritmini taqlid qila oladi. Zamonaviy qurilmalarda biokompatibil, qon bilan mos keladigan materiallar qo‘llaniladi, bu immunitet reaktsiyalarini kamaytiradi va tromboz xavfini pasaytiradi. Sun’iy yurak sohasidagi yutuqlar robototexnika, nanotexnologiya sensorlar va biotibbiyot integratsiyasiga asoslangan yangi texnologiyalarni rivojlanishiga yordam beradi.

Sun’iy yurakning kamchiliklari: Sun’iy yurak qurilmalari murakkab mexanizmlardan iborat bo‘lib, ularning ishonchliligi va uzoq muddat barqaror ishlashi hozircha cheklangan. Sun’iy yuzalar qon bilan aloqada bo‘lganda qon quyilishi (tromboz) xavfi mavjud. Bu esa qon tomirlarining tiqilib qolishi va boshqa xavfli holatlarga olib keladi. Sun’iy yurak implantatsiyasi jarayonida yoki undan keyin infektsiyalar yuzaga kelishi mumkin, bu esa bemorning sog‘lig‘iga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi sun’iy yuraklar katta va og‘ir bo‘ladi. Sun’iy yurak qurilmalari juda qimmat va keng miqyosda mavjud emas. Ularni sotib olish va texnik xizmat ko‘rsatish ko‘plab mamlakatlarda cheklangan. Qurilma bemorning anatomiyasi va fiziologiyasiga to‘liq mos kelmasligi mumkin. **Sun’iy yurak apparatlarini** yanada rivojlantirish uchun sun’iy yurak yuzalarini qon bilan yaxshi mos keladigan biologik materiallar bilan qoplash orqali qon quyilishini va immunitet reaktsiyalarini kamaytirish, yurak to‘qimalarining strukturasini va mexanik xususiyatlarini biomimetik (tabiiy tizimlarini taqlid qiluvchi) materiallar yordamida qayta yaratish masalarini chuqur o‘rganib chiqish kerak. **Sun’iy yurak apparatlarini** inson hayoti uchun yanada qulay va havfsiz qilish uchun apparatning nanotexnologiyalar va yuzaki modifikatsiyalari, sun’iy yurakni aqlli boshqaruv tizimlarini, sun’iy intellekt, kichik o‘lchamli va portativ qurilmalar yaratish, bioprinting va hujayra asosidagi sun’iy yuraklar, 3D bioprinting, organoidlar, immunitet tizimi tomonidan qabul qilinadigan va organizmga zarar yetkazmaydigan qurilmalar yaratish kerak. Sun’iy yurak apparatlari sohasidagi tadqiqotlar faqatgina

mexanik qurilmalar yaratish bilan cheklanmaydi. Ular biologiya, materialshunoslik, kompyuter texnologiyalari va nanotexnologiyalarni birlashtirgan ko‘p yo‘nalishli yondashuvlarni talab qiladi. Kelajakda sun’iy yuraklar nafaqat bemorlar hayotini uzaytirish, balki ularning hayot sifatini yaxshilash, ko‘proq moslashuvchan va xavfsiz bo‘lishi kutilmoqda. Shu bilan birga, yangi texnologiyalar yordamida **biologik va mexanik elementlarni uyg‘unlashtirish** orqali haqiqiy yurakga yaqinlashtirilgan qurilmalar paydo bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Soft robotic artificial left ventricle simulator capable of reproducing myocardial biomechanics"
2. "Design of a Biocompatible Artificial Human Heart"
   "Engineers design bionic 'heart' for testing prosthetic valves, other cardiac devices"
3. "Developing a Bio-Artificial Heart"
   "Electromechanical human heart modeling for predicting endocardial heart motion"
4. Carpentier, A. (2002). *Cardiac valve surgery: The quest for excellence.* Elsevier.
   Griffith, B. P., & Rose, E. A. (2006). *Total Artificial Heart.* Circulation.
5. Sacks, M. S., & Sun, W. (2003). *Biomechanics of heart valves.* Journal of Biomechanics.
   Hosenpud, J. D., Bennett, L. E., Keck, B. M., Boucek, M. M., & Novick, R. J. (2003).
6. Davis, J., et al. (2024). *Soft robotic artificial left ventricle simulator capable of reproducing myocardial biomechanics.* Science Robotics.
7. Akhtar, A., & Sohail, M. (2019). *Advancements in artificial heart technology: A review.* Journal of Medical Engineering & Technology.
8. Yuan, J., & Peng, H. (2021). *Nanotechnology in cardiovascular implants.* Nano Today.

9. Park, S., & Kim, D. (2020). *3D Bioprinting of cardiac tissues.* Advanced Healthcare Materials.
10. Jarvik Heart, Inc. (1982). *The Jarvik-7 Artificial Heart: Design and clinical applications.*
11. American Heart Association (AHA). *Heart Disease and Stroke Statistics—2024 Update.*
12. Guyton A.C., Hall J.E.
"Textbook of Medical Physiology", 13th Edition. – Saunders Elsevier, 2015.
Ratner B.D., Hoffman A.S., Schoen F.J., Lemons J.E.
"Biomaterials Science: An Introduction to Materials in Medicine", 3rd Edition. – Academic Press, 2013.
13. Francesco Migliavacca (Ed.)
"Modeling of Physiological Flows", Springer, 2012.
14. Carmat Official Website
https://www.carmatsa.com
15. Yusupov M.Yu., Karimov A.A.
"Biotibbiyot materiallari". – Toshkent: TATU nashriyoti, 2019.
16. Tibbiy Texnika va Muqobil Tibbiy Qurilmalar
– Maqola. *"O‘zbekiston Tibbiyot Jurnali"*, 2021-yil,

TIBBIY TA’LIMDA CHET TILINI O‘RGATISHDA 3D VA VR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Qaxorova Tursinoy Ulug‘bek qizi
FJSTI “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
tursunoysolihabonu@gmail.com
Usmonova Dilafruz Dilmurod qizi
Davolash ishi yo‘nalishi 2625-guruh talabasi

Annotatsiya

Biroq, bu yo‘lda qiyinchiliklar mavjud: talaba psixologiyasi, vaqt cheklovlari, resurs etishmasligi va o‘qituvchilarning malakasi. Lekin yuqoridagi takliflar — integrativ yondashuv, real ma’lumotlar bilan ishlash, dasturiy vositalardan foydalanish, interaktiv darslar — ushbu cheklovlarni yengish imkonini beradi.

Kelajakda, tibbiyot ta’limida statistik savodxonlik nafaqat qo‘shimcha bilim bo‘lmay, balki zarur kompetensiya sifatida qaralishi lozim. Talabalar faqat klinik ishlarni bajarmaydilar, balki ilmiy metodlar bo‘yicha fikrlashga ham tayyor bo‘lishlari kerak. Shunday qilib, statistika va axborot texnologiyalari integrirovka qilingan ta’lim — tibbiyot oliygohlarida sifatli va ilg‘or kadrlar yetishtirish yo‘lida muhim unsurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Manrai AK, et al. “Medicine’s Uncomfortable Relationship With Math.” PMC article.
2. Leppink J, et al. “Helping medical students in their study of statistics.” PMC article.
3. Huang A.A., et al. “Enhancing Medical Education Through Statistics.” MDPI.
4. MacDougall M, et al. “Medical graduate views on statistical learning needs.” BMC Medical Education.

5. “The Importance of Mathematical Statistics in Medicine.” ResearchWeb article.
6. “Matematika va matematik statistika modul dasturi.” (TMA o‘quv dasturi)
7. “Toshkent tibbiyot akademiyasi modul dasturlari.”
8. “Biologiya va tibbiyotda matematik modellashtirish.”
9. “Monte Carlo Techniques as a tool for teaching statistics.”
10. “Optimally estimating the sample mean … meta-analysis.”

ELEKTRON TA’LIM PLATFORMALARI (E-TA’LIM) VA ULARNING ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDAGI SAMARADORLIGI.

Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti “BM,Biofizika va axborot texnologiyalari” kafedrasi Tibbiyotda axborot texnologiyalari fani o’qituvchisi
Melibayeva Farog’at Madaminovna
Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Davolash ishi yo’nalishi 2824 guruh talabasi Turg’unboyev Diyorbek Hamidullo o’g’li

Annotatsiya: Elektron ta’lim (E-ta’lim) platformalari – bu raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim resurslari, o’qitish va baholash vositalarini taqdim etuvchi zamonaviy infratuzilmalar bo’lib, an’anaviy ta’limga muqobil yoki uni to’ldiruvchi vosita hisoblanadi. E-ta’lim platformalarining samaradorligi subyektiv (o’quvchining motivatsiyasi, mustaqil ishlash ko’nikmasi) va obyektiv (bilimlarni o’zlashtirish darajasi, test natijalari) ko’rsatkichlar orqali baholanadi.

Annotation: Electronic learning (E-learning) platforms are modern infrastructures that provide educational resources, teaching and assessment tools using digital technologies, and are an alternative or complementary tool to traditional education. The effectiveness of e-learning platforms is assessed through subjective (student motivation, independent work skills) and objective (level of knowledge acquisition, test results) indicators.

Аннотация: Платформы электронного обучения (E-learning) – это современные инфраструктуры, предоставляющие образовательные ресурсы, инструменты обучения и оценки с использованием цифровых технологий, являющиеся альтернативой или дополнением к традиционному образованию. Эффективность платформ электронного обучения оценивается по субъективным (мотивация студентов, навыки самостоятельной работы) и объективным (уровень усвоения знаний, результаты тестирования) показателям.

Kalit so’zlar: elektron ta’lim, platformalar, hybrid model, multmediya , moslashuvchanlik, interaktivlik.

Talabalarning mustaqil ishlarini ta'minlashda axborot texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Axborot texnologiyalari talabalarga osonlikcha kirish, interaktiv o'rganish, hamkorlikni va zamonaviy ko'rinishni rivojlantirish imkonini beradi. talabalar axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanib olib borish orqali o'z bilimlarini olishlari, o'rganish jarayonini samaraliroq qilishlari va muvaffaqiyatlariga erishish mumkin. Ta'lim orqali axborot texnologiyalarini ekspluatatsiyasini amalga oshirish, talabalarni zarur ko'rsatmalar bilan ta'minlashi va boshqaruvchilarni axborot texnologiyalari dan samarali yuklashni o’rganishi kerak.

Platformalar o’quv materiallariga istalgan vaqtda, istalgan joydan kirish imkonini beradi, bu esa ta’limni o’quvchining shaxsiy ritmiga moslashtirish (asinxron ta’lim) imkonini yaratadi. Video, onlayn viktorinalar, simulyatorlar va onlayn fikr-mulohaza (instant feedback) tizimlari mavzuni chuqurroq va tezroq o’zlashtirishga yordam beradi, o’qish jarayonini qiziqarliroq qiladi.“Instant feedback” – bu elektron ta’lim tizimlarining muhim komponenti bo’lib, u o’quv jarayonining tezligi, samaradorligi va motivatsiyasini oshirishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Uning to’g’ri va mazmunli qo’llanilishi bilimlarni mustahkamlash va o’quvchining faolligini rag’batlantirishga olib keladi.

Talabalarning mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirishga, bizning fikrimizcha, o‘quv jarayonining dastlabki kunlaridanoq e’tibor qaratish lozim. Internetga ulanish imkoniyati va raqamli savodxonlik darajasi past bo’lgan hududlarda platformalarning samaradorligi keskin pasayadi. Mustaqil ishlash talab qilinishi sababli, past motivatsiyali o’quvchilar orasida kurslarni yakunlash darajasi (completion rate) past bo’lishi mumkin. Ayrim amaliy va laboratoriya ishlarini virtual muhitda to’liq va samarali o’zlashtirish qiyin bo’ladi (ayniqsa, texnik va tibbiyot sohalarida). Platformalardan to’liq samaradorlik olish uchun o’qituvchilarning yangi raqamli vositalardan foydalanish bo’yicha muntazam malaka oshirishlari talab etiladi.

E-ta’lim platformalarining samaradorligi ularning texnologik imkoniyatlaridan ko’ra, ko’proq metodologik yondashuv va foydalanuvchiga yo’naltirilgan dizaynga bog’liqdir. Kelajakda eng samarali ta’lim tizimlari aralash (hybrid) model asosida quriladi, bu yerda an’anaviy (yuzma-yuz) va elektron ta’lim elementlari optimal tarzda birlashtiriladi. E-ta’lim platformalarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun texnologik infratuzilmani yaxshilash, o’qituvchilarni qayta tayyorlash va o’quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan tizimli siyosat zarur.

Shuning uchun talabalarning barcha mustaqil faoliyati o‘qituvchi tomonidan kuzatib borilishi va nazorat qilinishi kerak. U maslahat, ko‘rsatmalar berish, metodik usullarni tushuntirib berish, nazorat qilish shaklida namoyon bo‘ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ishlarni muvaffaqiyatli bajarilishi uchun o‘qituvchi va talabaning o‘zaro munosabati (biri boshqaruvchi, ikkinchisi esa ijro etuvchi) to‘g‘ri tashkil etilishi muhim. Bunda ustuvor vazifa sifatida “Axborot texnologiyalari” fanini o‘zlashtirilishini ilmiy asoslangan metodik boshqarish e’tirof etiladi. Shu bilan birga, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va boshqarish sifati hamda samaradorligi butun pedagogik jarayonni baholashning eng muhim mezoniga aylanadi.

“Axboroit texnologiyalari” fani bo‘yicha mustaqil ishlarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat natijasida talabalarda quyidagi ko‘nikmalar rivojlantiriladi: – axborotni izlash (axborot manbalari bilan ishlash); – axborotni qayta ishlash; –

axborotni taqdim etish; – axborotni uzatish. Axborotni izlash (axborot manbalari bilan ishlash) – talabalarning mustaqil ish topshiriqlarini bajarish faoliyatining asosiy turi. Adabiyotlar, Internet resurslari bilan ishlash ko‘nikmalari talaba dunyoqarashini, uning axborot-kommunikatsion kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalar axborot manbalari bilan ishlashda qator qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ular axborot-resurs markazidagi (elektron) kataloglardan yoki Interenet tarmog‘idan kerakli manbani izlab topishlari, uning tarkibidan unumli foydalana olmasdan, darhol asosiy bob yoki paragraflarni o‘qishga berilib ketib, mundarija, annotatsiya, kirish qismlaridagi ma’lumotlarga e’tibor bermaydilar . Axborotni qayta ishlashda talabalarda mavzuga doir axborotni tushunish, anglash, mantiqiy ketma-ketlik asosida grafik ko‘rinishidagi bog‘lanishlarni tuzish, tahlil qilish, taqqoslash, sintez, umumlashtirish, o‘qilganlar asosida muammoni hal qilish bo‘yicha o‘z yondashuvini ishlab chiqish kabi ko‘nikmalar rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/tibbiyot-xodimlarini-o-qitishda-innovaxborot texnologiyalarision-texnologiyalar
2. https://www.xabar.uz/uz/tahlil/tibbiyotda-iot-texnologiyalar-insoniyaxborot texnologiyalari
3. **https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/78235**
4. **https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uufRauUAAAAJ&citation_for_view=uufRauUAAAAJ:_FxGoFyzp5QC**
5. **https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uufRauUAAAAJ&citation_for_view=uufRauUAAAAJ:u5HHmVD_uO8C**
6. **https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=uufRauUAAAAJ&citation_for_view=uufRauUAAAAJ:LkGwnXOMwfcC**

LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINIG TIBBIYOT SOHASIDA TUTGAN O‘RNI VA UNING SAMARALI O‘QITISH METODIKASI

FJSTI Lotin tili, pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi Nishonova Dilnavoz Jonibekovna
FJSTI Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti Fundamental tibbiyot yo‘nalishi 1-kurs talabasi Yuldasheva Durdona Bahodirjon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada lotin tilining tibbiyot sohasidagi o‘rni, uning tarixiy shakllanish bosqichlari va hozirgi zamon tibbiyot ta’limida tutgan ahamiyati yoritilgan. Maqolada tibbiy terminologiyaning lotin tiliga asoslangani, ilmiy lug‘atlar va qisqartmalarning xalqaro standart sifatida qo‘llanilishi tahlil qilingan. Shuningdek, tibbiyot oliygohlarida lotin tilini o‘qitish metodikasining ahamiyati ham ko‘rsatib berilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль латинского языка в медицине, его историческое развитие и значение в современном медицинском образовании. Проанализированы причины, по которым медицинская терминология основана на латинском языке, а также использование латинских терминов и сокращений как международного стандарта. Отмечено значение преподавания латинского языка в медицинских вузах.

Abstract. This article explores the significance of the Latin language in the field of medicine, its historical evolution, and its importance in modern medical education. The study highlights that most medical terminology is derived from Latin and that Latin-based abbreviations and scientific terms serve as an international standard. The importance of teaching Latin in medical universities is also emphasized.

Barchamizga ma'lumki, Respublikamizda joriy etilayotgan xorijiy til sohalarining yosh kadrlar orasida tutgan o'rni va uning ahamiyati juda katta bo'ldi.Jumladan,har bir Oliy Talim muassasalari,maktabgacha va o'rta ta'lim muassasasi doirasida xorijiy tillarga talaba va o'quvchilarni jalb etish uchun tashkil etilgan turli xil o'quv markazlari yoshlarni boshqa tillarga qiziqishini yanada kuchaytirdi. Biz chet tillarining qo'llanilish sohasi haqida fikr yuritar ekanmiz bu borada inglizGBrusRUhamda hozirgi kunda inson salomatligi uchun qo'llanilayotgan Lotin tili terminologiyasini ham izohlab o'tishimiz zarur.Ushbu fanni o'qitish nima uchun zarur hamda uning tibbiyotda tutgan o'rni qanchalik muhim ?Bu savolga javobni quyidagi sharhda izohlab boramiz .

Mamlakatimiz tub aholisi orasida har bir shaxsning tibbiyot sohasi uchun albatta zarurati tug'iladi.Tibbiy soha davrasida terminlar kam hollarda ingliz yoki rus tilida qo'llanilgan.Aksariyat , yani ko'pchilik hollarda terminlar lotin tilida aks etadi.Inson salomatligi (Tibbiyot)yo'nalishida ish yurituvchilar hamda ta'lim oluvchilar lotin tilini bilib olmog'i lozim ❗ Hozirgi kunda Meditsina institutlarida ushbu fanning o'qitilishi eski o'tmishning tibbiy metodikasini o'rganish uchun dastlabki qadam bo'ldi desak mubolag'a bo'lmasdi.

Nega deganda har qanday tibbiy profilaktik tajribalarning kelib chiqishi,odam organizmini birinchilardan bo'lib yorib ko'rish,Aorta,odamning 4xil mizoji , kabi turli xil fikr mulohazalarning barchasi eng qadimgi lotin davlatlari Yunoniston va Rimlik olim va notiqlardan kelib chiqqan. Anashunday aniq fakt*larga asoslangan holatda lotin tilini chuqur o'rganish shifokorlar uchun juda zarur . Har bir til o'z rivojlanish,kelib chiqish tarixida albatta bir qancha qarshiliklar, e'tirozlarga ega bo'ladi.Lotin tilining 5ta bir biridan farqlanuvchi epoxa (davrlari)mavjud.Morfologik xususiyatlari ham alohida ijro kasb etadi.

Fleksiyaning 5 turi , Turlanishning 6ta kelishikka asoslangani,fe'llarning 3xil mayli mavjudligi,《 Rod 》lar,2xil nisbatlar shular jumlasiga mansub.Tibbiy lotin tilining umumjahon terminologiya fani sifatida foydalanilishi ilmiy izlanishlar va tibbiy talimda yagona tushunchaga erishishga yordam beradi.Termik lugatlarni

qo'llash xalqaro miqyosda bir xil tilda organizm qismlarini tavsiflash uchun imkoniyat berdi.

Barcha simptomlar(Ferbis)va kasalliklar ham(jumladan; apenditsit) butun dunyoda lotin tilida nomlanadi . Yana bir ahamiyati shundan iboratki ilmiy qisqartmalar(p.r.n)shu tilda kiritilgan.Shifokorlar va tadqiqotchilar bemalol kasallikka tashxis qo'yishi , topilmalardagi yozma bitilmalarni mustaqil o'qiy ola bilishi uchun o'rgatilayotgan bu terminologik fan xalqaro standartizatsiya bo'lib xizmat qilmoqda .

Lotin tiliga dastlabki qadam qo'ygan talabalar uchun asosiy qo'llanma sifatida Lotin fonetik alifbosini o'rganish,Grammatik otlarning rodlarini aniqlash,sifatiy darajalar va eng asosiys Leksik minimum dan BKM(bilim ko'nikma malaka)olish shart ! Shunday qilib <<lotin tili - umumjahon tibbiyot tili >Bu soha yangi yosh kadrlar uchun zarur bo'lib,salomat kelajak barpo etish va uni kelgusi sog'lom avlodga yetkazish vazifasida ulkan o'rin egallaydi .

Maqola Lotin tilining tarixiy ildizlari va kelib chiqish taraqqiyoti, zamonaviy lotin tilining ahamiyati va uning foydalanish sohalari teminologiyaning fonetikasini yanda yo‘ritib tasvirladi .

Unutmang

Sog'lom kelajakni barpo etish ham uni vayron etish ham biz yosh kadrlar qo‘lida Yangi O‘zbekistonni mustahkam poydevor ila qaytadan quramiz!

Natija

O‘rganish jarayonida lotin tilining tibbiyotdagi ilmiy terminlarni yagona tizimda ifodalash imkonini berishi aniqlanadi. Talabalar uchun fonetik, grammatik va leksik bilimlarni o‘zlashtirish tibbiy atamalarni to‘g‘ri talaffuz qilish hamda ularning ma’nosini tushunishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.**Xulosa**

Lotin tili tibbiyotning umumjahon tili bo‘lib, sog‘lom jamiyatni shakllantirish va xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlashda beqiyos o‘rin tutadi. Uni chuqur o‘rganish yosh tibbiyot kadrlarining kasbiy malakasini oshirishga xizmat qiladi.

O‘QITUVCHILARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI OSHIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
o‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi mudiri
Iminaxunova Iroda Xuseyinovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasini oshirish masalasi yoritilgan. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan sharoitda pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati ta’kidlanadi. Tadqiqotda CLIL metodikasiga o‘xshash integratsion yondashuvlar, onlayn o‘qitish vositalari va raqamli platformalardan foydalanish amaliy tajribalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli savodxonlik, o‘qituvchi kompetensiyasi, raqamli texnologiyalar, uzluksiz ta’lim, onlayn o‘qitish.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida o‘qituvchining raqamli savodxonligi ta’lim sifatining muhim omillaridan biri hisoblanadi. UNESCO (2021) ta’kidlaganidek, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini bilishi, balki raqamli texnologiyalarni didaktik maqsadlarda qo‘llay olishi kerak. O‘zbekiston Respublikasida ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida o‘qituvchilarning AKT kompetensiyalarini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Tadqiqotda sotsiologik so‘rov, kuzatuv va tahlil metodlaridan foydalanildi. 2024–2025 o‘quv yilida Farg‘ona viloyatidagi 5 ta oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritayotgan 60 nafar o‘qituvchi o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovda o‘qituvchilarning kompyuter, internet va onlayn o‘quv platformalaridan (Google Classroom, Moodle, Zoom, va boshqalar) foydalanish ko‘nikmalari baholandi.

Ma’lumotlar Microsoft Excel yordamida tahlil qilindi, natijalar foizlarda ifodalandi.

So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning:

- 85% i kompyuterdan dars tayyorlashda foydalanishini,
- 67% i onlayn dars o‘tkazish tajribasiga ega ekanini,
- 45% i esa raqamli baholash vositalaridan (Google Forms, Kahoot) samarali foydalana olmasligini bildirdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning aksariyati raqamli vositalardan foydalana oladi, biroq ularni metodik jihatdan samarali qo‘llashda muammolarga duch keladi. O‘qituvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanishga tayyorlashda amaliy treninglar, mentorlik tizimi va tajriba almashish dasturlarini joriy etish zarur. Masofaviy Shuningdek, olingan natijalar raqamli savodxonlikni oshirishda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Quyidagi asosiy yo‘nalishlar ajratib ko‘rsatildi:

Malaka oshirish tizimini yangilash:

O‘qituvchilar uchun qisqa muddatli, amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan kurslar tashkil etilishi zarur. Bunday kurslarda raqamli vositalardan foydalanishning metodik jihatlari (masalan, raqamli baholash, interaktiv testlar, multimedia taqdimotlar) o‘rgatilishi kerak.

Mentorlik va hamkorlik muhiti yaratish:

Yosh o‘qituvchilar raqamli texnologiyalardan faol foydalanadi, tajribali o‘qituvchilar esa metodik jihatdan kuchliroq. Mentorlik tizimi orqali ularning tajribasini birlashtirish samarali natija beradi. Masalan, raqamli “peer learning” guruhlarini tashkil etish o‘qituvchilarning bir-biridan o‘rganishiga yordam beradi.

Raqamli resurslardan ijodiy foydalanish:

Dars jarayonida raqamli vositalar faqat taqdimot yoki videodan iborat bo‘lmasligi kerak. Interaktiv o‘yinlar, virtual laboratoriyalar, 3D simulyatsiyalar va CLIL (Content and Language Integrated Learning) asosida multimedia materiallar tayyorlash o‘qituvchilarning ham, talabalarning ham faolligini oshiradi.

Texnik infratuzilmani mustahkamlash:

Internet tezligi, kompyuter sinflari va multimedia vositalari yetarli darajada bo‘lmasa, o‘qituvchining raqamli imkoniyatlari cheklanadi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida texnik bazani yangilash strategiyasi ishlab chiqilishi kerak.

Motivatsiyani oshirish:

Raqamli savodxonlikni oshirish faqat texnik yoki metodik jarayon emas, balki psixologik va motivatsion yondashuvni ham talab qiladi. O‘qituvchilar uchun raqamli innovatsiyalarni qo‘llash bo‘yicha grantlar, tanlovlar va mukofot tizimlarini joriy etish foydali bo‘ladi.

CLIL kabi integratsion metodlar yordamida fan va tilni birlashtirib o‘qitish jarayonida raqamli resurslarni samarali qo‘llash o‘quvchilarning ham raqamli kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish — zamonaviy ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim omilidir. Shu sababli, pedagoglar uchun raqamli texnologiyalar bo‘yicha muntazam treninglar, onlayn kurslar va xalqaro tajribalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan dasturlarni kengaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO (2021). *Digital Literacy Framework for Teachers.* Paris: UNESCO Publishing.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori, 2020-yil 5-oktabr.
3. Ferri, F., Grifoni, P., & Guzzo, T. (2020). *Online Learning and Digital Literacy: A Systematic Review.* Education Sciences, 10(9), 276.
4. European Commission (2022). *Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu).*

5. Karimova, D. (2023). *O‘qituvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari.* “Ta’lim va Innovatsiya” jurnali, 2(1), 45–52.
6. Redecker, C. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
7. Spante, M., Hashemi, S. S., Lundin, M., & Algers, A. (2018). *Digital competence and digital literacy in higher education research: Systematic review of concept use. Cogent Education*, 5(1), 1519143.

IBN SINO ILMIY ME’ROSIDA „TIB QONUNLARI” NING O‘RNI VA AHAMIYATI

Umarova Musharraf Yunusaliyevna
Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot institute asissenti
Ne’matullayev Jasurbek Abdurasul o’g’li
Davolash ishi yo‘nalishi 1-bosqich 2825-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada buyuk alloma Abu ali Ibn Sino va uning mashhur asarlaridan biri Tib qonunlarining kelib chiqishi, undagi kasalliklar va dori darmonlar haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: Abu ali Ibn Sino ,Tib Qonunlari, kasalliklar, dori-darmonlar.

Al Husayn Ibn Abdulloh ibn Al-Hasan ibn Ali Ibn Sino - buyuk olim, tabib, musiqachi. O‘rta Osiyo va Eronda yashagan, turli hukmdorlar paytida tabib va vazir bo‘lgan. Ibn Sino risolalari Sharq hamda G‘arbda bag‘oyat mashhur. “Tib qonunlari” nazariy va klinik meditsina entsiklopediyasi — yunon, rum, hind hamda o‘rta osiyolik tabiblar nuqtai-nazari jamlanmasi — bir necha asr davomida, hatto Ovrupada ham zarur qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

Tabobat ilmining sultoni bo‘lmish Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan. Bizning vaqtimizgacha yetib kelgan o‘zi haqidagi tarjimai holida yozishicha, “Otam Balxdan bo‘lgan va u yerdan Buxoroga somoniylardan Nuh ibn Mansur hukmronligi davrida keladi va u yerda o‘z ishini devonxonadan boshlaydi. Uning lavozimi - Buxoro yaqinidagi tuman markazi bo‘lmish Xarmaysanni boshqarish bo‘lgan. Shu yerlarga yaqin qishloqdagi Afshonalik qizni, ya’ni mening bo‘lajak onam Sitora - yulduzni xotinlikka oladi. U yerda avval men, keyin mening akam dunyoga keladi.”

Ibn Sino fors-doriy tilida suhbatlashuvchi O‘rta Osiyolik bo‘lgan. “Qalbga orom berish uchun” bu tilda u tez-tez to‘rtliklar yozib turgan.

Ibn Sino tabobat bilan juda erta qiziqqan va bu soha uning qiziqishlarining katta qismini egallay boshlaydi. Hali 12 yoshga to‘lmasidanoq, Ibn Sino o‘sha vaqtlarning faylasufi va tabibi Abu Salah al-Masihiyning maslahatiga ko‘ra uning ta’limotini egallaydi. “So‘ngra men tabiblikka ixlos qo‘yib, tabiblik bilan bog‘liq kitoblarni o‘qiy boshladim” - deb yozadi tarjimai holida

Tib qonunlari (arabcha: القانون في الطب; „Kitob al-Qonun fit-tib“) — Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid asari. „Tib qonunlari“ o‘z davridagi tabobatning mufassal ensiklopediyasi bo‘lib, unda inson sog‘ligi va kasalliklariga oid bo‘lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to‘la bayon etilgan. Oldinlari tabobat, asosan, hunar hisoblanar va u bilan shug‘ullanuvchilar nazariy masalalarga unchalik ahamiyat bermay uni amalda qo‘llash bilan cheklanar edilar. Ibn Sino esa tabobatni ilm darajasiga ko‘tardi va yunon, rim, hind, Yaqin va O‘rta Sharq tabiblarining tajriba va fikrlariga tayanib „Tib qonunlari“da uning ham nazariy, ham amaliy masalalarini chuqur ishlab chiqdi.

Ibn Sino „Tib qonunlari“ning 1-kitobini Go‘rgonda, qolganlarini esa Ray va Hamadonda yashagan vaqtida yozgan (1015—1024).

Ibn Sino „Tib qonunlari“ni yozishda yunon tabiblaridan Gippokrat, Dioskorid, Galen, Oribaziy, Pavel, Hindiston tabiblaridan Charaka asarlarining arab tiliga tarjimasidan; O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridan yetishib chiqqan Abu Jurayj, Masih ad-Dimashqiy, Ibn Mosavvayh, Sobur ibn Sahl, Sahorbuxt, Abu Bakr

ar-Roziy, Abu Sahl alMasihiy kabi olimlarning tibbiy asarlaridan manba sifatida foydalangan. „Tib qonunlari“ning har bir kitobi, o‘z navbatida, qismlarga (fan), bo‘limlarga (jumla), maqolalarga (maqola) va paragraflarga (fasl) bo‘lingan.

1-kitobda tabobatning nazariy asoslari hamda amaliy tabobatning umumiy masalalari, tabobat ilmining ta’rifi, uning vazifalari, xilt va mizoj haqidagi ta’limot bayon qilinadi. Keyin odam tanasining „oddiy“ a’zolari — suyak, tog‘ay, asab, arteriya, vena, pay, bog‘lam va muskullar haqida qisqa anatomik ocherk keltiriladi. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ko‘rinishlari, turlari hamda ularni davolashning umumiy usullari keltiriladi. Ovqatlanish, hayot tarzi va hayotning hamma bosqichlarida sog‘liqni saqlash haqidagi ta’limot yoritiladi. Surgi qilish, qayt qildirish va qon olish masalalariga ayrim boblar ajratilgan.

2-kitobda o‘sha davrda o‘simlik, hayvon va ma’danlardan olinadigan 800 dan ortiq doridarmonlar ta’rifi, ularning davoli xususiyatlari va qo‘llanish usullari bayon qilingan. Muallif O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq hamda O‘rta Sharq mamlakatlaridan chiqadigan doridarmonlardan tashqari Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Afrika, O‘rta dengiz atrofi va boshqa joylardan keltiriladigan ko‘plab dori va moddalarni ham ko‘rsatib o‘tadi. Ibn Sino tavsiya qilgan ko‘pgina dorilar farmakopeyada hozirgi ham qo‘llanadi.

3-kitobda odam gavdasining boshidan tovonigacha bo‘lgan a’zolarida yuz beradigan „xususiy“ yoki „mahalliy“ kasalliklar haqida ma’lumot beriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu kitob xususiy patologiya va terapiyaga bag‘ishlangan. Unda bosh miya (shu jumladan, asab kasalliklari va ruhiy kasalliklar), ko‘z, quloq, burun, og‘iz bo‘shlig‘i, til, milk, lab, tomoq, o‘pka, yurak, ko‘krak, qizilo‘ngach va me’da kasalliklari, so‘ngra jigar, o‘t pufagi, taloq, ichak, orqa chiqaruv yo‘li, buyrak, qovuq, erkak va ayollarning jinsiy a’zolari kasalliklari haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

4-kitob kishi a’zolaridan birontasiga xos bo‘lmagan „umumiy“ kasalliklarga bag‘ishlangan. Bunday kasalliklarga turli isitmalar (kasallik davridagi buhronlar), shishlar (shu jumladan, rak), toshmalar, yarachaqalar, kuyish, suyak sinishi va

chiqishi, asablarning jarohatlanishi, bosh suyagi, ko‘krak qafasi, umurtqa va qo‘loyoqlarning shikastlanishi kiritilgan. Shuningdek, mazkur asarda uzoq cho‘ziladigan va o‘ta yuqumli kasalliklar: chechak, qizamiq, moxov, vabo va quturish haqida so‘z boradi; zaharlar va zaharlanish haqidagi ta’limot (toksikologiya)ning asosiy masalalari ham bayon qilinadi. Kitobning maxsus bo‘limi inson husni va chiroyini saqlashga va pardozandoz vositalariga bag‘ishlangan. Jumladan, Ibn Sino sochni to‘kilishdan saqlaydigan hamda haddan tashqari semirib yoki ozib ketishning oldini oladigan vositalarni ham tavsiya qiladi.

5-kitob farmakopeya bo‘lib, unda murakkab tarkibli doridarmonlarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari yoritilgan. Uning birinchi hemila turli taryoklar (ziddizaharlar), ma’junlar, habdori, kulcha dori (tabletka), elaki dori, sharbatlar, qaynatmalar, sharob, marham va hokazo tavsifi berilsa, ikkinchi qismda muayyan a’zolar — bosh, ko‘z, quloq, tish, tomoq, ko‘krak qafasi va qorin bushligi a’zolari, bo‘gimlar va turli teri kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan hamda sinalgan doridarmonlar keltiriladi.

XI asrning boshlarida yozib tugatilgan „Tib qonunlari“ning ko‘p sonli qo‘lyozma nusxalari tarqalib, tib ilmi bo‘yicha eng mukammal asarga aylanadi. U Sharqda naqadar mashhur ekanligini jahonning turli kutubxonalarida saqlanayotgan qo‘lyozmalarning ko‘pligidan ham bilsa bo‘ladi. Eron olimi Yahyo Maxdaviyning „Fihristi nusxahoi musannafoti Ibn Sino“ nomli kitobining o‘zida „Tib qonunlari“ning 130 nusxasi keltirilgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham „Tib qonunlari“ning 3 qo‘lyozmasi saqlanadi. Shulardan eng qadimiysi 1308-yilda ko‘chirilgan to‘liq nusxadir.

„Tib qonunlari“ning arabcha matni birinchi marta 1593-yil Rimda, keyinchalik Qohira (1873, 1877, 1879), Tehron (1889), Laknav (1906) va Lohurda (1905) qam chop etildi, „Qonun“ ko‘p o‘tmay G‘arb mamlakatlarida ham shuhrat topdi. 1130-yil tarjimonlar guruhi tashkil qilinadi va kremonalik Gerard (1114—1187-yil) „Tib qonunlari“ni arab tilidan lotin tiliga tarjima qilishga

kirishadi, biroq bu ishni keyin XIII asrda yashagan Gerard oxiriga yetkazadi. Umuman „Tib qonunlari“ lotin tilida 40 martadan ortiq to‘la holda nashr etilgan.

“Tib qonunlari“ni arabchadan o‘zbek tiliga tarjima qilishda sharqshunos olimlardan A. Rasulev, S. Mirzayev, U. Karimov, A. Murodov, A. Qayumov, A. Urinboyev va Q. Munirov qatnashgan.

Ibn Sinoning „Tib qonunlari“ asari nafaqat o‘rta asr tibbiyotining yuksak namunasi, balki bugungi zamonaviy tibbiyot fanining shakllanishiga asos bo‘lgan bebaho manbadir. “Tib qonunlari” bugungi kunda ham tibbiyot sohasidagi yosh tadqiqotchilar va mutaxassislar uchun ilhom manbai bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Abu ali Ibn Sino “Tib qonunlari” nashriyoti 2025-yil;

Arboblar.uz sayti;

Wikipediya;

Med24.uz sayti;

Gov.uz sayti;

Buyuk alloma Abu ali Ibn Sino va uning „Tib Qonunlari” asari orqali inson salomatligiga qo’shgan xissasi.

Umarova Musharraf Yunusaliyevna
Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti asissenti

Ne’matullayev Jasurbek Abdurasul o’g’li
Davolash ishi yo’nalishi 1-bosqich 2825-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada buyuk alloma Abu ali Ibn Sino va uning eng mashxur asarlaridan biri tib qonunlarining kelib chiqishi,undagi kasalliklar va dori darmonlar haqida batafsil ma’lumot keltirilgan.

Kalit so’zlar: Abu ali Ibn Sino ,Tib Qonunlari kitobida keltirilgan kasalliklar va ularni oldini oladigan dori-darmonlar.

Al Husayn Ibn Abdulloh ibn Al-Hasan ibn Ali Ibn Sino - buyuk olim, tabib, musiqachi. O‘rta Osiyo va Eronda yashagan, turli hukmdorlar paytida tabib va vazir bo‘lgan. Ibn Sino risolalari Sharq hamda G‘arbda bag‘oyat mashhur. “Tib qonunlari” nazariy va klinik meditsina entsiklopediyasi — yunon, rum, hind hamda o‘rta osiyolik tabiblar nuqtai-nazari jamlanmasi — bir necha asr davomida, hatto Ovrupada ham zarur qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

Asosiy qiziqishlari - zamonaviy meditsina yangiliklari, gomeopatiya, xalq tabobati, zamonaviy manbalarni va meditsinaga oid referatlarni o‘rganish. Olimning o‘limidan yuz yildan oshiq vaqt o‘tib, Bog‘doddagi din ishqibozlari Ibn Sinoning falsafiy kitoblarini yoqib yuborishadi, oradan yana bir necha asr o‘tgach, Ovrupada katta dastgoh ixtiro qilingach, “Tib qonunlari” kitobining katta beshta tomi nashrdan chiqarilgan. Bu - Injildan keyingi nashrdan chiqqan ikkinchi kitob bo‘ladi.

Tabobat ilmining sultoni bo‘lmish Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan. Bizning vaqtimizgacha yetib kelgan o‘zi haqidagi tarjimai xolida yozishicha, “Otam Balxdan bo‘lgan va u yerdan Buxoroga somoniylardan Nuh ibn Mansur hukmronligi davrida keladi va u yerda o‘z ishini devonxonadan boshlaydi. Uning lavozimi - Buxoro yaqinidagi tuman markazi bo‘lmish Xarmaysanni boshqarish bo‘lgan. Shu yerlarga yaqin qishloqdagi Afshonalik qizni, ya’ni mening bo‘lajak onam Sitora - yulduzni xotinlikka oladi. U yerda avval men, keyin mening akam dunyoga keladi.”

Ibn Sino fors-doriy tilida suhbatlashuvchi O‘rta Osiyolik bo‘lgan. “Qalbga orom berish uchun” bu tilda u tez-tez to‘rtliklar yozib turgan.

Ibn Sinoga falsafa hamda matematikani o‘rgatgan birinchi ustozi Abu Abdulloh an-Notiliy ham ushbu o‘qishlar izdoshidan bo‘lgan. Shogird ustozidan shunchalik o‘tib ketdiki, savol-javoblari bilan ustozini noqulay ahvolga solib qo‘ya boshladi. Ibn Sino tarjimai xolida keyingi holatni ifodalaydi: “Men mazkur ta’rif uchun shunday tahlil qildimki, ilgari bundayini eshitmaganman. U juda xayron qoldida, ota-onamga meni ilmdan boshqa hech narsa bilan band qilmasliklarini maslahat berdi. ... Yevklidning kitobi bilan ham shunday voqea soldir bo‘ldi: o‘qituvchim

yordamida besh-oltitta teoremani o‘rgandim, qolganlarini esa mustaqil o‘rgandim. Tez orada Natili meni o‘rgatishga ojiz bo‘ldi. “O‘zing o‘qi, teoremalarni o‘zing ishlab, keyin oldimga kel”, dedi. Shundan so‘ng men kitoblarni mustaqil o‘rgandim. Jarayonda menda shunchalik ko‘p savollar uyg‘onardiki, ularga javobni ustozim ham bilmay, oxir-oqibat mendan olgan”.

Ibn Sino tabobat bilan juda erta qiziqqan va bu soha uning qiziqishlarining katta qismini egallay boshlaydi. Xali 12 yoshga to‘lmasidanoq, Ibn Sino o‘sha vaqtlarning faylasufi va tabibi Abu Salah al-Masihiyning maslahatiga ko‘ra uning ta’limotini egalladi. “So‘ngra men tabiblikka ixlos qo‘yib, tabiblik bilan bog‘liq kitoblarni o‘qiy boshladim - deb yozadi tarjimai holida.

Tabobat esa mushkul ilm emas, men uni qisqa fursat ichida shunchalik puxta egalladimki, davrimizning tabiblari oldimga maslahat so‘rab kela boshlashdi. Bemorlarni ko‘rikdan o‘tkazardim, orttirgan tajribalarim natijasida, qarshimda shunday davo eshiklari ochildiki, ta’rifga til ojizdir. Yoshim esa bor-yo‘g‘i o‘n sakkizda edi”.

Husayn tabobatni buxorolik tabib, bir qator ilmiy ishlar muallifi Abu-l-Mansur Qamariyning qo‘l ostida batafsil o‘rgangan. Qamariyning qo‘l ostidagi ta’limoti uzoq cho‘zilmadi, Ibn Sino mustaqil amaliyot bilan shug‘ullanadi va tez orada shunchalik mashhur shifokor bo‘lib ketadiki, uni saroyga og‘ir kasal bo‘lib qolgan Buxoro amiri Nuh ibn-Mansurni davolash uchun chaqirtiradi.

Ibn Sinoning o‘zi bu haqda shunday eslaydi: “Kunlardan bir kuni amir qattiq betob bo‘lib qoldi va shifokorlar uning kasalini aniqlay olishmadi. Mening ularga ismim tanish edi va ular amirga men haqimda gapirib, meni chaqirishlarini iltimos qilishdi. Men chaqirilgan joyga borib, ular bilan birga xizmat qildim”.

Buxoro amirining kasali va Ibn Sino uni nima bilan davolaganligi haqida ma’lumot yo‘q, biroq, muolaja shunchalik yordam berdiki, Buxoroning yorqin amiri Nuh ibn Mansur yana bir yil taxtni boshqargan. Minnatdorchilik evaziga Ibn Sino somoniylarning kitob omboridan foydalanish ruxsatiga ega bo‘lgan. Buxoro kutubxonasi — o‘z davrining eng yirik va eng mashhur kitoblar ombori hisoblangan.

Ibn Sinoning o‘zi Buxoro kutubxonasida ishlagan davrini ijodiy rivojining eng muhim bosqichi deb hisoblaydi. Shu vaqtdan e’tiboran, uning ta’limi yakunlanib, mustaqil hayot yo‘li bosqichi boshlanadi.

Ibn Sino somoniylar kutubxonasidan bir necha yillar davomida foydalangan. Ehtimol, o‘z ichiga barcha alomatlari ila kasallik nomlari ko‘rsatilgan, shuningdek, kasallikning kelib chiqish sabablari va davosi kabilarni o‘zida jamlagan umumlashma tibbiyot asarini yaratish g‘oyasi unda Buxoro kutubxonasida ishlagan yillari uyg‘ongan.

Ibn Sino tadqiqiy idrokka mukkasidan ketgan va barcha mavjud bilimlarni ensiklopedik darajada egallash ishtiyoqiga ega olim bo‘lgan. Faylasuf g‘ayritabiiy xotira egasi va o‘tkir aql sohibi bo‘lgan.

• “Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fi-t-tibb») - ensiklopedik xarakterdagi asar bo‘lib, unda qadimgi davr mediklarining ko‘rsatmalari arab meditsinasining yutuqlari bilan o‘zaro qayta ishlangan. “Qonun”da Ibn Sino kasalliklar allaqanday mayda bo‘laklar oqibatida paydo bo‘lishini ko‘rsatgan. U birinchi bo‘lib chechakning yuqumliligiga e’tibor qaratgan, vabo va o‘latning farqini aniqlagan, moxo‘v kasalligining boshqalardan farqini ko‘rsatib, unga izoh bergan va boshqa bir qator kasalliklarni o‘rganib chiqqan. “Tibbiyot fani qonuni”ning lotin tiliga o‘girilgan ko‘plab tarjimalari mavjud. “Qonun” besh qismdan iborat bo’lib, ikkisi dori vositalari va dorivorlarga hamda ularning tayyorlanish ta’rifiga bag‘ishlangan. Kitobda keltirilgan 2600 dori vositalaridan 1400 tasining kelib chiqishi o‘simlik ko‘rinishidadir.

• “Dori vositalari” («Al-Adviyat al kalbiya») — Xamadonga birinchi borishi vaqtida yozgan. Mazkur asarda pnevma hosil bo‘lganda va namoyon bo‘lganda yurak faoliyati, xususan, yurak kasalligi va davosi haqida batafsil yoritib berilgan.

• “Xatolarni to‘g‘irlash va ogohlantirish orqali turli usullarda olib tashlash” («Daf’ al-mazorr al kulliya an al-abdon al insoniya bi-tadorik anvo’ xato an-tadbir»).

• “Sharobning foydasi va zarari haqida” («Siyosat al-badan va fazoil ash-sharob va manofi’ix va mazorix») — Ibn Sinoning eng qisqa risolasi.

- “Tabobat haqida doston” («Urdjusa fit-tib»).
- “Tomir urushi haqida risola” («Risolayi nabziya»).
- “Sayohatchilar uchun tadbirlar” («Fi tadbir al-musofirin»).
- “Shahvoniy kuch haqida risola” («Risola fil-l-box») — kasallik, uni oldini olish va shahvat buzulishlarini davolash ifodalangan.
- “Sirka-asal haqida risola” («Risola fi-s-sikandjubin») — turli tarkibga ega sirka va asalni tayyorlash va kasalliklarda iste’moli ta’riflangan.
- “Sachratqi haqida risola” («Risola fil-xindabo»).
- “Qon olishda qon tomirlar” («Risola fil-uruk al-mafsuda»).
- «Risola-yi judiya» — quloq, oshqozon, tish kasalliklari ta’rifi keltirilgan. Bundan tashqari, unda gigiyena muammolari keltirilgan. Ayrim tadqiqotchilar Avitsennaning muallifligiga shubha qilishadi.

Sog‘lomlashtiruvchi mashqlar

Ibn Sino o‘z asarlarida jismoniy mashqlarining sog‘lomlashtiruvchi va davolovchi tajribadagi o‘rni va roli haqida yozadi. Jismoniy mashqlarga to‘xtovsiz, chuqur nafas olishga olib keluvchi erkin harakatlar, deya ta’rif bergan.

Agar inson mo‘’tadil va o‘z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullansa va tartibga rioya qilsa, u davoga ham, dorilarga ham muhtoj bo‘lmaydi, deya tasdiqlagan. Mashqlarni to‘xtatar ekan, u so‘nadi. Jismoniy mashqlar mushaklarni, bo‘g‘imlarni, asabni mustahkam qiladi. Shuningdek, u mashqlarni bajarishda yoshni ham inobatga olishni maslahat bergan. Uqalash, sovuq va issiq suvda chiniqish kabi muolajalarda to‘xtalgan.

Tib qonunlari (arabcha: القانون في الطب; „Kitob al-Qonun fit-tib“) — Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid asari. „Tib qonunlari“ o‘z davridagi tabobatning mufassal ensiklopediyasi bo‘lib, unda inson sog‘ligi va kasalliklariga oid bo‘lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to‘la bayon etilgan. Oldinlari tabobat, asosan, hunar hisoblanar va u bilan shug‘ullanuvchilar nazariy masalalarga unchalik ahamiyat

bermay uni amalda qo‘llash bilan cheklanar edilar. Ibn Sino esa tabobatni ilm darajasiga ko‘tardi va yunon, rim, hind, Yaqin va O‘rta Sharq tabiblarining tajriba va fikrlariga tayanib „Tib qonunlari“da uning ham nazariy, ham amaliy masalalarini chuqur ishlab chiqdi.

Ibn Sino „Tib qonunlari“ning 1-kitobini Go‘rgonda, qolganlarini esa Ray va Hamadonda yashagan vaqtida yozgan (1015—1024).

Ibn Sino „Tib qonunlari“ni yozishda yunon tabiblaridan Gippokrat, Dioskorid, Galen, Oribaziy, Pavel, Hindiston tabiblaridan Charaka asarlarining arab tiliga tarjimasidan; O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlaridan yetishib chiqqan Abu Jurayj, Masih ad-Dimashqiy, Ibn Mosavvayh, Sobur ibn Sahl, Sahorbuxt, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Sahl alMasihiy kabi olimlarning tibbiy asarlaridan manba sifatida foydalangan. „Tib qonunlari“ning har bir kitobi, o‘z navbatida, qismlarga (fan), bo‘limlarga (jumla), maqolalarga (maqola) va paragraflarga (fasl) bo‘lingan.

1-kitobda tabobatning nazariy asoslari hamda amaliy tabobatning umumiy masalalari, tabobat ilmining ta’rifi, uning vazifalari, xilt va mizoj haqidagi ta’limot bayon qilinadi. Keyin odam tanasining „oddiy“ a’zolari — suyak, tog‘ay, asab, arteriya, vena, pay, bog‘lam va muskullar haqida qisqa anatomik ocherk keltiriladi. Kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ko‘rinishlari, turlari hamda ularni davolashning umumiy usullari keltiriladi. Ovqatlanish, hayot tarzi va hayotning hamma bosqichlarida sog‘liqni saqlash haqidagi ta’limot yoritiladi. Surgi qilish, qayt qildirish va qon olish masalalariga ayrim boblar ajratilgan.

2-kitobda o‘sha davrda o‘simlik, hayvon va ma’danlardan olinadigan 800 dan ortiq doridarmonlar ta’rifi, ularning davoli xususiyatlari va qo‘llanish usullari bayon qilingan. Muallif O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq hamda O‘rta Sharq mamlakatlaridan chiqadigan doridarmonlardan tashqari Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Afrika, O‘rta dengiz atrofi va boshqa joylardan keltiriladigan ko‘plab dori va moddalarni ham ko‘rsatib o‘tadi. Ibn Sino tavsiya qilgan ko‘pgina dorilar farmakopeyada hozirgi ham qo‘llanadi.

3-kitobda odam gavdasining boshidan tovonigacha bo‘lgan a’zolarida yuz beradigan „xususiy“ yoki „mahalliy“ kasalliklar haqida ma’lumot beriladi. Boshqacha qilib aytganda, bu kitob xususiy patologiya va terapiyaga bag‘ishlangan. Unda bosh miya (shu jumladan, asab kasalliklari va ruhiy kasalliklar), ko‘z, quloq, burun, og‘iz bo‘shlig‘i, til, milk, lab, tomoq, o‘pka, yurak, ko‘krak, qizilo‘ngach va me’da kasalliklari, so‘ngra jigar, o‘t pufagi, taloq, ichak, orqa chiqaruv yo‘li, buyrak, qovuq, erkak va ayollarning jinsiy a’zolari kasalliklari haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

4-kitob kishi a’zolaridan birontasiga xos bo‘lmagan „umumiy“ kasalliklarga bag‘ishlangan. Bunday kasalliklarga turli isitmalar (kasallik davridagi buhronlar), shishlar (shu jumladan, rak), toshmalar, yarachaqalar, kuyish, suyak sinishi va chiqishi, asablarning jarohatlanishi, bosh suyagi, ko‘krak qafasi, umurtqa va qo‘loyoqlarning shikastlanishi kiritilgan. Shuningdek, mazkur asarda uzoq cho‘ziladigan va o‘ta yuqumli kasalliklar: chechak, qizamiq, moxov, vabo va quturish haqida so‘z boradi; zaharlar va zaharlanish haqidagi ta’limot (toksikologiya)ning asosiy masalalari ham bayon qilinadi. Kitobning maxsus bo‘limi inson husni va chiroyini saqlashga va pardozandoz vositalariga bag‘ishlangan. Jumladan, Ibn Sino sochni to‘kilishdan saqlaydigan hamda haddan tashqari semirib yoki ozib ketishning oldini oladigan vositalarni ham tavsiya qiladi.

5-kitob farmakopeya bo‘lib, unda murakkab tarkibli doridarmonlarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari yoritilgan. Uning birinchi hemila turli taryoklar (ziddizaharlar), ma’junlar, habdori, kulcha dori (tabletka), elaki dori, sharbatlar, qaynatmalar, sharob, marham va hokazo tavsifi berilsa, ikkinchi qismda muayyan a’zolar — bosh, ko‘z, quloq, tish, tomoq, ko‘krak qafasi va qorin bushligi a’zolari, bo‘gimlar va turli teri kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan hamda sinalgan doridarmonlar keltiriladi.

XI asrning boshlarida yozib tugatilgan „Tib qonunlari“ning ko‘p sonli qo‘lyozma nusxalari tarqalib, tib ilmi bo‘yicha eng mukammal asarga aylanadi. U Sharqda naqadar mashhur ekanligini jahonning turli kutubxonalarida saqlanayotgan

qo‘lyozmalarning ko‘pligidan ham bilsa bo‘ladi. Eron olimi Yahyo Maxdaviyning „Fihristi nusxahoi musannafoti Ibn Sino“ nomli kitobining o‘zida „Tib qonunlari“ning 130 nusxasi keltirilgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham „Tib qonunlari“ning 3 qo‘lyozmasi saqlanadi. Shulardan eng qadimiysi 1308-yilda ko‘chirilgan to‘liq nusxadir.

Sharqda ko‘p olimlar, xususan, Muhammad Iloqiy Fahriddin Roziy, Muhammad Naxchivoniy, Ibn anNafis, Qutbiddin Sheroziy, Mahmud Chag‘miniy, Abdulloh Oqsaroiy, Sadididdin Kozaruniy, Abdurahmon Misriy, Hakim Ali Jiloniy, Is’hoqxon ibn Ismoilxon, Hakim Shifoiyxon va boshqa „Tib qonunlari“ga sharxlar yozdilar, uni qisqartirib „Qonuncha“ nomi bilan kichik qo‘llanmalar tuzdilar.

„Tib qonunlari“ning arabcha matni birinchi marta 1593-yil Rimda, keyinchalik Qohira (1873, 1877, 1879), Tehron (1889), Laknav (1906) va Lohurda (1905) qam chop etildi, „Qonun“ ko‘p o‘tmay G‘arb mamlakatlarida ham shuhrat topdi. 1130-yil tarjimonlar guruhi tashkil qilinadi va kremonalik Gerard (1114—1187-yil) „Tib qonunlari“ni arab tilidan lotin tiliga tarjima qilishga kirishadi, biroq bu ishni keyin XIII asrda yashagan Gerard oxiriga yetkazadi. Umuman „Tib qonunlari“ lotin tilida 40 martadan ortiq to‘la holda nashr etilgan. Ayrim qismlarining nashri esa sonsanoqsizdir.

XIX asrga kelib Yevropada „Tib qonunlari“ga bo‘lgan qiziqish orta boshladi va uning ayrim qismlari nemis, fransuz, ingliz tillariga tarjima qilindi.

Asarni hozirgi zamon tillariga tarjima qilishni O‘zbekiston sharqshunoslari o‘z zimmalariga oldilar, ular „Tib qonunlari“ ning 5 kitobini arabchadan o‘zbek va rus tillariga tarjima qilib, 1954—1961-yillari Toshkentda shifokorlar bilan hamkorlikda nashr etdilar.

„Tib qonunlari“ni arabchadan o‘zbek tiliga tarjima qilishda sharqshunos olimlardan A. Rasulev, S. Mirzayev, U. Karimov, A. Murodov, A. Qayumov, A. Urinboyev va Q. Munirov qatnashgan.

Ruscha tarjimasida M. A. Salye, U. Karimov, Yu. N. Zavadovskiy, P. G. Bulgakov, S. Mirzayev va A. Rasulovlar ishtirok etganlar.

1980-yilda Ibn Sino tavalludining shamsiy hisobda 1000-yilligi munosabati bilan „Tib qonunlari“ning qayta ishlangan o‘zbek va rus tillaridagi U. Karimov tomonidan tayyorlangan to‘liq nashri 1979—1983-yillarda chop etiddi. Shundan so‘ng „Tib qonunlari.“ o‘zbek va rus tillarida muxtasar shaklda (3 jildli va 1 jildli) yana 4 marta, rus tilida to‘liq stereotip shaklda yana 2 marta (10-jildli) nashr bo‘ldi.

Bu tarjimalar asosida zamonaviy tibbiyot va dorishunoslikning turli sohalariga oid ilmiy makala va kitoblar nashr etish hozir ham davom etmoqda.

„Tib qonunlari“ kitobi ko‘p ayerlar davomida tibbiyotdan asosiy dastur bo‘lib kelgan, hozir ham bir qancha dorilfununlarda o‘rganiladi.

Biz shifokorlarning asosiy vazifasi kasallikni davolash bo’libgina qolmay,uni oldini olish choralarini ishlab chiqishdan iborat.Aholining tibbiy bilimini oshirish orqaliturli kasalliklarni kamayishiga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu ali Ibn Sino «Tib qonunlari» nashriyoti 2025-yil;
2. Arboblar.uz sayti;
3. Wikipediya;
4. Med24.uz sayti;
5. Gov.uz sayti;

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATIDA FAN VA MADANIYATNING RIVOJI HAMDA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Olimjonova Muxlisa Zoyirjon qizi
Davolash ishi yo‘nalishi 1-bosqich 28.25 guruh talabasi

Umarova Musharraf Yunusaliyevna
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida (XIV asr oxiri – XVI asr boshlari) fan va madaniyatning rivojlanishi hamda uning bugungi kundagi ahamiyati atroflicha tahlil etiigan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temuriylar Renessansi, Mirzo Ulug‘bek, Zij-i Ko‘ragoniy, Alisher Navoiy, Samarqand, Fan va Madaniyat.

Amir Temur asos solgan ulkan saltanat (XIV asr oxiri – XVI asr boshlari) nafaqat harbiy qudrati, balki fan va madaniyatdagi ulkan yuksalishi bilan ham jahon sivilizatsiyasi tarixida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu davr, haqli ravishda, "Temuriylar Renessansi" yoki Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi deb nomlanadi. Amir Temurning shaxsan o‘zi va uning avlodlarining ilm-fanga, ta’limga va san’atga bo‘lgan yuksak homiyligi tufayli Samarqand, Hirot, Buxoro kabi shaharlar dunyoning yirik ilmiy va ma’rifiy markazlariga aylandi.Amir Temur ilm-fanga alohida e’tibor qaratgan buyuk davlat arbobi edi. Tarixchi Ibn Arabshoh Temurning olimlarga bo‘lgan yuksak hurmati haqida shunday yozadi: “Temur olimlarga mehribon, ... Ulamo va fuzaloga to'la izzat-hurmat ko'rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko'rardi” . Temurning g‘oyasiga ko‘ra, saltanatning mustahkamligi adolatli boshqaruv va ma’rifatli jamiyatga asoslanishi kerak edi . U o‘z poytaxti Samarqandga harbiy yurishlaridan keyin turli mamlakatlarning eng mohir olimlari, me’morlari, san’atkorlari va hunarmandlarini to‘pladi.Temuriylar davrida ta’limga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi . Shahar va qishloqlarda ko‘plab boshlang‘ich maktablar va madrasalar qurildi. Samarqand, Buxoro, Hirot yirik ma’rifat markazlariga aylandi. Masalan, Ulug‘bek tomonidan Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda qurdirilgan madrasalar o‘z

davrining eng yirik oliy ta’lim dargohlari bo‘lgan.Temuriy shahzodalarning ko‘pchiligi, jumladan, Mirzo Ulug‘bek, Boysung‘ur Mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo kabi shoh va shahzodalar, hatto temuriy malikalar ham o‘zlari ilm-ma’rifatga homiylik qilib, uning rivojlanishiga hissa qo‘shdilar . Bu homiylik ilmiy ijod uchun qulay sharoit yaratdi va natijada buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodi shakllandi.

Temuriylar davrida ilm-fanning ko‘plab sohalari, xususan, astronomiya, matematika, tarix, tibbiyot kabi tabiiy va gumanitar fanlar jadal rivojlandi .Bu sohada Mirzo Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay) boshchiligidagi Samarqand ilmiy maktabining o‘rni beqiyosdir. Ulug‘bek Samarqandda rasadxona qurdirdi. Bu rasadxona jihozi va ilmiy yutuqlari jihatidan o‘z davrida tengi yo‘q inshooti edi."Zij-i Ko'ragoniy" ("Ulug‘bek Ziji"): Ulug‘bekning eng buyuk asari bo‘lib, u 1018 ta yulduzning holatini aniqlagan va aniqlik darajasi bo‘yicha uzoq vaqt davomida eng mukammal astronomik jadval bo‘lib turgan. Ushbu asarda Yer sharining ekvatorial koordinatalari, sayyoralarning harakati va boshqa fundamental ma’lumotlar kiritilgan . Bu asar G‘arbiy Yevropa olimlari tomonidan ham qo‘llanib, jahon faniga ulkan hissa qo‘shgan.Ulug‘bek bilan birga Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Ali Qushchi kabi buyuk olimlar faoliyat yuritgan. Ali Qushchi Ulug‘bekning shogirdi bo‘lib, keyinchalik Istanbulga borib, u yerda matematika va astronomiyani rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Ulug‘bekning "Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola" asari ham matematika sohasidagi muhim yutuqdir .Temuriylar davrida tarix faniga ham katta e’tibor qaratilgan. Bu davr tarixchilari yaratgan asarlar saltanat tarixi, siyosiy jarayonlar va madaniy hayot haqida bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.Sharofiddin Ali Yazdiy – "Zafarnoma" asarida Amir Temurning hayoti va harbiy yurishlarini yuksak badiiy va tarixiy qimmatga ega tarzda yoritgan .Hofizi Abro‘, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir kabi mashhur tarixchilar ham qimmatli asarlar yaratib, tarix fanining rivojiga o‘z hissalarini qo‘shganlar.Temuriylar davri san’at va me’morchilik sohalarida ham "Oltin asr" bo‘ldi . Amir Temur va temuriyzodalar tomonidan barpo etilgan me’moriy obidalar bugun ham Markaziy Osiyo me’morchilik san’atining eng yorqin namunalari hisoblanadi.Samarqand, Hirot, Buxoro kabi shaharlar obod qilindi. Amir

Temurning o‘zi Samarqandni "dunyoning eng go‘zal shaharlaridan biriga" aylantirdi .Samarqanddagi obidalar: Go‘ri Amir maqbarasi, Shohi Zinda majmuasi, Bibixonim masjidi va madrasasi kabi me’moriy yodgorliklar qurildi. Ularning bezaklarida koshin burun (rangdor mozaika) va girih (cho‘pli chiziq va naqsh) usullari keng qo‘llanilgan . Amir Temurning mashhur so‘zlari: "Bizning kuch-qudratimizni bilmoqchi bo'lsangiz, biz qurgan imoratlarga boqing" Temuriylar davri me’morchiligining ulug‘vorligini aks ettirad. Minyatura, rassomlik, xattotlik va naqqoshlik Temuriylar davrida yuksak darajaga erishdi .Temuriylar Merosining Bugungi Kundagi Ahamiyati Temuriylar davrida yaratilgan boy ilmiy va madaniy merosning bugungi kundagi ahamiyati beqiyosdir. Uning ta’siri ilmiy, ma’naviy va madaniy jihatdan namoyon bo‘ladi .Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsi va Temuriylar merosini o‘rganish milliy g‘urur va o‘zlikni anglashni tiklashda asosiy manba bo‘ldi .Ulug‘bek Ziji, Alisher Navoiy asarlari va Samarqand me’moriy obidalari bugungi kunda O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasi sifatida tan olinadi. Bu meros yosh avlodni vatanparvarlik, ilmga chanqoqlik va bunyodkorlik ruhida tarbiyalashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda .Amir Temurning "Adolat davlatning asosidir" degan shiori zamonaviy O‘zbekistonda huquqiy va adolatli jamiyat qurish tamoyillariga bevosita uyg‘un. Temurning ta’limotida mujassam bo‘lgan yuksak ma’naviyat bugungi kunda ma’naviy poklanish va taraqqiyotning muhim omilidir.Temuriylar davridagi ilmiy an’analar zamonaviy ilm-fan uchun ham fundamental ahamiyatga ega.Ulug‘bek maktabining astronomiya va matematika sohasidagi yutuqlari (masalan, sinus qiymatining aniqligi) hali ham astronomiya tarixi va matematik tadqiqotlar uchun o‘rganilmoqda. Ulug‘bekning ilmiy yondashuvi bugungi kunda ham olimlarga aniqlik, chuqur tahlil va izlanish namunasini ko‘rsatadi.Temuriylar tomonidan ta’limga berilgan ustuvorlik bugungi kunda ham ta’lim sohasini isloh qilish va rivojlantirishda muhim mezon hisoblanadi. Madaniyat va ilm-fanga homiylikni davlat siyosati darajasiga ko‘tarish tajribasi zamonaviy ta’lim siyosati uchun dasturilamal bo‘la oladi .Temuriylar davri me’moriy obidalari – Samarqanddagi Registon maydoni, Go‘ri Amir, Shohi Zinda majmualari – YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, O‘zbekistonning madaniy turizm

salohiyatini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Bu obidalar orqali jahon hamjamiyati O‘rta Osiyo Uyg‘onish davrining go‘zalligi, me’moriy daholigi va san’atining yuksakligidan boxabar bo‘lmoqda.

Amir Temur va Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, madaniyat va ma’rifatning mislsiz yuksalgan davri bo‘ldi. Bu davr nafaqat o‘zining tarixiy ahamiyati, balki Ulug‘bekning astronomik jadvallari, Alisher Navoiyning adabiy merosi, Bibixonim masjidi va Go‘ri Amir maqbarasi kabi san’at asarlari orqali jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan ham ajralib turadi.Temuriylar merosi bugungi kunda O‘zbekiston xalqi uchun ma’naviy qudrat, milliy g‘urur va kelajakdagi taraqqiyotning mustahkam asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu bebaho merosni chuqur o‘rganish, qadrlash va yosh avlodga yetkazish – zamonaviy O‘zbekistonning eng muhim vazifalaridan biridir. Temur va uning avlodlari asos solgan ilmiy an’analar zamonaviy ilm-fan va madaniyat rivojiga ilhom berib, mamlakatning jahon miqyosida o‘z o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1.Ahmedov, B. (1996). Buyuk Temur. Toshkent: Adolat.

2.Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.

3.Temur, Amir. (1992). Amir Temur ta’limoti (Tuzuklar). Toshkent: Cho‘lpon.

4.Ahmedov, B. (1996). Amir Temurni yod etib. Toshkent: [Nashriyot nomi ko‘rsatilmagan].

5.Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san’at (Maqolalar to‘plami). (1996). Toshkent: [Nashriyot nomi ko‘rsatilmagan].

6.Lyuseyn Keren. (2018). Amir Temur saltanati. Toshkent: O‘zbekiston NMIU.

7.G‘ulom Jo‘ra. (2015). Turonlik Sohibqiron Amir Temur. Toshkent: Tafakkur.

GAVHARSHODBEGIM QURDIRGAN ME’MORIY OBIDALAR

Umarova Musharraf Yunusaliyevna

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti asissenti

musharrafu282@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Temuriy malika Gavharshodbegimning bunyodkorlik faoliyati va uning me’moriy merosi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Gavharshodbegim, Hirot, madrasa, masjid, Xuroson,me’morchilik.

Temuriylar davrida O‘rta Osiyo, xususan, Movarounnahr va Xuroson hududlarida nafaqat siyosiy, balki madaniy va me’moriy taraqqiyotning ham yuksak davri boshlangan edi. Bu davrda ayollar orasida ham yurt obodonchiligi, ilm-fan, san’at va me’morchilikka o‘z hissasini qo‘shgan buyuk siymolar yetishib chiqqan. Shular qatorida Shohruh Mirzoning rafiqasi, buyuk davlat arbobi Gavharshodbegim nomi alohida ehtirom bilan tilga olinadi. Uning qurdirgan me’moriy obidalari Sharq me’morchiligining eng go‘zal namunalaridan hisoblanadi.

Xuroson Shohrux Mirzo davrida siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlandi, ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirildi. Masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, rabotlar, sardobalar, qishloq va qo‘rg‘onlar qurilib, mazkur qurilishlar vaqf mulklari bilan ta’minlandi.

Tarixchi olim T.Fayziyev saltanat taraqqiyoti va poytaxt Hirotning gullab yashnashida Gavhar Shod begimning xizmatlarini alohida e’triof etadi: “Shohruh Mirzo davrida Xuroson siyosiy-ijtimoiy va madaniy jihatdan ancha gurkirab o‘sdi. Mamlakat poytaxti Hirot iqtisodiy va madaniy yuksalishda Sharqning eng nufuzli shaharlaridan biriga aylaidi. Tabiyki, mamlakatning bunday yuksalishida “amaliy hukmdor” malika Gavhar Shod begimning hissasi beqiyos. Bu davrda Hirotda va mamlakatning boshqa viloyatlarida qurilish ishlari avj olgan edi. Masjid-madrasalar, xonaqoh, maqbara, dahma, musofirxona, shifoxona, ravot, ko‘prik va sardobalar qurib bitkazildi. Shohruh Mirzonnng Xurosonda hukmronlik qila boshlagan ilk yillaridayoq, u Hirot qal’asining janubiy tomonidan madrasa va xonaqoh (1410-1411) bino qildiradi. Ana shundan so‘ng Shohruh Mirzo avlodiga mansub shahzodalar va malikalar ham madrasa, masjid, xonaqoh, shifoxona va shunga o‘xshash imoratlar bunyod etnsh bilan shahar obodonchiligiga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Tabiatan vatanparvar, bilimdon va zukko Gavhar Shod begim mamlakat ravnaqi yo‘lida tinmay g‘amxo‘rlik qiladi. Uning dasturida madaniy va ma’rifiy

hayot birinchi o‘rinda bo‘lgan. Shu boisdanmi, farzandlari hamda barcha nabiralari ilm-fan muxlislari bo‘lib, hatto g‘azal ham bitganlar. Gavhar Shod begim Hirotdagi juda do‘p qurilish ishlariga rahnomalik qildi. Uning o‘zi ham Hirotda ikkita katta madrasa qurdirgan. Gavhar Shod begimning kundoshi malika Milkat Og‘o (bu malikaning asli nomi Mulk Og‘o bo‘lib, Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li Umar Shayx Mirzoning xotini edi. 1394 yilda Umar Shayx Mirzo vafotidan so‘ng, qayinotasi Amir Temurnnng irodasiga bo‘ysunib, Shohruh Mirzo nikohiga kirgan) Hirot shahrida bir madrasa, «Dorushshifo» nomli kasalxona, «Dorulhadis» nomli xonaqoh, ikkita hammom va shahardan sakkiz farsax (tosh) chetroqda bitta madrasa, kutubxona va maqbara, shahzoda Aloud Davla Mirzo esa bitta kasalxona qurdirgan. Lekin ayni vaqtda, xususiy mulkdor, davlatmand kishilarga xayriya tariqasida qurilishlar bunyod etishga ijozat berilgan va rag‘batlantirib turilgan.”

Gavharshod begim me’moriy majmuasi Mashhad (Eron) markazida Hirot hukmdori Shohrux Mirzoning xotini Gavharshod begim sharafiga (me’mor Qavomiddin Sheroziy) qurilgan (1405-1419) masjid. Atrofi ayvonli katta hovlining to‘rt tarafida to‘rt xona bo‘lib, ularning ko‘rinishi katta va gumbazli. Unga minorali ulkan peshtoq orqali kirilgan. Minoralar tepasi qafasa bilan bezatilgan. Masjidga rangli koshinlardan nafis va go‘zal bezaklar ishlangan. Masjidning shimoliy tomonida Imom Rizo maqbarasi, sharq tomonida madrasa, g‘arbida esa shahar karvon saroyi joylashgan bo‘lib, bular masjid bilan yo‘lakcha orqali o‘zaro bog‘langan.Gavharshodbegim maqbarasining balandligi 27 m. U ikki g‘arbiy minora o‘rtasida joylashgan bo‘lib, madrasaning shimoli-g‘arbiy burchagida qurilgan.

Gavharshodbegim qurdirgan obidalar nafaqat diniy markaz, balki ilm-fan va madaniyat maskanlari sifatida ham faoliyat yuritgan. U joylarda mudarrislar, faqihlar, shoir va xattotlar tahsil olgan. Ushbu me’moriy yodgorliklar Sharq uyg‘onish davrining yuksak badiiy tafakkurini ifodalaydi.

Gavharshodbegim Temuriylar davrida me’moriy san’atning gullab-yashnashiga katta hissa qo‘shgan ayollardan biridir. Uning qurdirgan masjid, madrasa va boshqa inshootlari bugungi kunda ham Sharq madaniyatining durdonasi sifatida qadrlanadi. Bu obidalar orqali nafaqat o‘sha davr estetik didi va texnik imkoniyatlari, balki

ayolning jamiyatdagi faol roli ham yaqqol ko‘rinadi. Gavharshodbegim nomi o‘zining bunyodkorlik ishlari, yurt ravnaqi yo‘lidagi fidokorona mehnati bilan tarix sahifalarida abadiy muhrlanib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурраззоқ Самарқандий. Матлаҳус-саҳдайн ва мажмаҳ ул-баҳрайн. / Форс тожик тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳли луғатлар тарих фанлар номзоди А. Ўринбоевники. -Т.: ФАН. 1969. - 463 б.

2. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Мовароуннаҳр воқеалари. 1360-1370. /Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Омонулло Бўриев. Маъсул муҳаррир, сўз боши муаллифи ва нашрга тайёрловчи Асомиддин Ўринбоев. - Т.: Камалак, 1994.- 288 б.

3. Амир Темур жаҳон тарихида.-Т.: Шарқ, 1996. - 295 б.

4. Azamat Ziyo. O‘zbek ayollari tarix sahnasida .(Temir Xotin, Kabaj Xotun, Saroy Mulkxonim, Gavharshodbegim).T.:2002.

5. T.Fayziyev. Temuriy malikalar-Toshkent A.Qodiriy.1994.-40-b.

YANGI O‘ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTIDA MIRZO ULUG’BEK MEROSINI O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOSLIGI VA AHAMIYATI.

Abdurasulova Salimaxon Abdujalil qizi

Davolash ishi yo‘alishi 1-bosqich 28.25guruh talabasi.

Umarova Musharraf Yunusaliyevna

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Ulug‘bekning boy ilmiy-ma’rifiy va davlatchilik merosining Yangi O‘zbekistonning uchinchi Renessans davri taraqqiyotida tutgan o‘ziga xos o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, Yangi O‘zbekiston,Uchinchi Renessans, Ma’rifatparvar Davlatchilik, Samarqand Rasadxonasi, Ilm-fan va Innovatsiya, Jaholatga qarshi Ma’rifat, Tarixiy Meros, Astronomiya, Ta’lim islohotlari

Yangi O'zbekistonning uchinchi Renessans poydevorini qurish borasidagi strategik maqsadlari fonida Mirzo Ulug'bek merosining nafaqat tarixiy qadriyat, balki zamonaviy rivojlanish dasturi ekanligini ta'kidlashdan boshlanadi. Ulug'bek shaxsi ilm-fan va davlatchilik uyg'unligining noyob ramzidir.Mirzo Ulug'bekning ilmiy, ma'naviy va davlat boshqaruvi merosining Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga bevosita ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi.Mirzo Ulug'bekning faoliyati ilmiy tadqiqotlarni shaxsiy hobbi darajasidan davlat siyosati darajasiga ko'targan yagona davlat arbobi sifatida baholanadi. Samarqand Rasadxonasi va uning faoliyati shunchaki ilmiy markaz emas, balki innovatsion yondashuvning tarixiy maktabidir."Ziji Jadidi Ko'ragoniy" asari. Bu nafaqat astronomik jadval, balki aniqlik va tizimlilikka erishishning ramzidir. Yangi O'zbekiston uchun bu meros - aniq fanlar va IT sohasini ustuvor rivojlantirish zarurligiga ishora.Ulug'bekning Matematika (ayniqsa trigonometriya) va Astronomiyadagi yutuqlari bugungi kunda Yoshlar siyosatida ilm-fanga urg'u berilishiga turtki bo'ladi.Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqand ilm-fan bo‘yicha xalqaro aloqalarning markazi bo‘lgan. Bu, O‘zbekistonning hozirgi xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish siyosatiga to‘g‘ri keladi. Ulug‘bek davri olimlari turli millat vakillari bo‘lgani zamonaviy bag‘rikenglik va ilm-fan globalizatsiyasi g‘oyalariga uyg‘un.Ulug'bekning davlatchilik falsafasi ilm-ma'rifatning davlat poydevori ekanligini ko'rsatadi. U ta'limni davlatning asosiy vazifasi darajasiga ko'targan.Ulug'bek Madrassasi (Buxoro, Samarqand) da aynan tabiiy va aniq fanlarga e'tibor kuchli bo'lgan. Bu g'oya Yangi O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'quv jarayonlarini amaliyot va zamonaviy talablarga moslashtirish siyosatining ildizi sifatida qaralishi mumkin.Davlatchilikdagi tanqid: Ulug'bek fojiasi (hokimiyatga intilgan amirlar va xurofotga berilgan ruhoniylar tomonidan qatl etilishi) ilmdan yiroqlashgan jamiyat va davlat qanchalik xavf ostida qolishini ko'rsatuvchi muhim tarixiy saboqdir. Bu saboq jaholatga qarshi ma'rifat tamoyilining bugungi kunda naqadar muhimligini

ta'kidlaydi.Garchi Ulug'bek asosiy e'tiborni ilmga qaratgan bo'lsa-da, u otasi Shohruxdan o'tgan markazlashgan qonuniy davlatchilik an'analarini davom ettirdi. Zamonaviy O'zbekistonda qonun ustuvorligi va sud islohotlari o'tkazilayotgan bir sharoitda, Ulug'bekning qonun va tartibga asoslangan hokimiyatni saqlashga intilishi muhim an'ana sifatida qaraladi.Ulug'bekning ilmiy merosi faqat rasadxona va jadvallardan iborat emas. U, shuningdek, ma'naviy yuksalish bilan chambarchas bog'liqdir. Uning she'riyati va adabiyotga e'tibori Gumanizm g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydi.Jaholatga qarshi kurash ramzi: Ulug'bek merosi zamonaviy yoshlarni aqlni ishlatishga, xurofot va dogmatizmdan uzoqlashishga chorlaydi. Bu, Yangi O'zbekistonning yoshlar orasida tanqidiy fikrlash va ma'rifiy immunitetni shakllantirish bo'yicha olib borayotgan siyosati bilan uzviy bog'liq.Madaniy merosni asrash: Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan me'moriy va ilmiy inshootlarning tiklanishi va qadrlanishi tarixiy xotirani tiklash, milliy g'ururni mustahkamlash va mamlakatning turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ulug'bek merosi birinchi (IX-XII asrlar) va ikkinchi (XIV-XVI asrlar) Renessans o'rtasidagi asosiy ko'prik bo'lib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans g'oyasi uchun ilhom manbai hisoblanadi. Ilm va ma'rifatning birlashuvi zamonaviy O'zbekistonning strategik yo'nalishi sifatida Ulug'bek davrida sinovdan o'tgan modeldir.Mirzo Ulug'bekning merosi Yangi O'zbekistonning tarixiy taraqqiyotida shunchaki faxriy sahifa emas, balki uchta asosiy ustundan iborat amaliy dasturdir.Aniqlik, ilm-fan va texnologiyaga tayanadigan zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirish.Jaholatga qarshi ma'rifatni qurol qilib olgan, tanqidiy fikrlovchi jamiyatni tarbiyalash.Qonun ustuvorligi va adolatga asoslangan, ilm-fan rivojini qo'llab-quvvatlovchi samarali boshqaruv tizimini yaratish."Ulug'bek avlodlari" nomli maxsus ilmiy-texnik stipendiyalar sonini keskin oshirish va ularni aniq fanlar yo'nalishiga yo'naltirish.Maktab va oliy ta'lim tizimida Ulug'bekning davlatchilik, ma'rifat va ilmiy izlanishga oid falsafiy qarashlarini o'rgatuvchi "Ma'rifatli Davlatchilik Asoslari" kursini joriy etish.Samarqandda Ulug'bek Rasadxonasi atrofida zamonaviy Innovatsion Texnopark yoki "Astronomiya va IT markazi" tashkil etib,

uni Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq global brendga aylantirish.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzalari (Uchinchi Renessans, Jaholatga qarshi Ma'rifat).G'iyosiddin Jamshid Kashiy, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy asarlari haqidagi ilmiy tadqiqotlar.Ulug'bekning hayoti va faoliyatiga oid tarixiy manbalar (jumladan, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond asarlari).Zamonaviy O'zbekistonning ta'lim, fan va innovatsiya bo'yicha davlat dasturlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mirziyoyev Sh. M. (2020). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston. (Uchinchi Renessans g‘oyasi, ilm-ma’rifat ustuvorligi haqidagi fikrlarni o‘rganish uchun asosiy manba).

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (Ta’lim, fan va innovatsiya bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari).

3.Mirzo Ulug‘bek (1994). To‘rt ulus tarixi. (Tarixiy-davlat boshqaruvi qarashlarini o‘rganish uchun).

4.“Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va dasturlari.

5.Karimov I. A. (2002). Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent: Sharq. (Tarixiy merosni anglash va qadrlash falsafasi uchun).

6.Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, G‘iyosiddin Jamshid Kashiy asarlari va ularga oid zamonaviy ilmiy tadqiqotlar. (Ulug‘bek ilmiy maktabining fundamental asoslari).

7.Zohidov A. Sh. (2021). Uchinchi Renessans konsepsiyasi: G‘oyadan amaliyotga. Toshkent: Ma’naviyat. (Yangi davr strategiyasining nazariy tahlili).

RAQAMLI ASRDA KITOBXONLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Muxlisaxon To‘xtasinova

Davolash ishi yo‘nalishi 1-bosqich 2825-guruh talabasi

Umarova Musharraf Yunusaliyevna

“Ijtimoiy fanlar ” kafedrasi assisenti

Bugungi kunda insoniyat texnologik taraqqiyotning eng yuqori bosqichida yashamoqda. Axborot texnologiyalari, internet, sun’iy intellekt hayotimizning har bir jabhasiga kirib keldi. Har bir soha raqamli shaklga o‘tayotgan bir paytda, inson tafakkurining eng qadimiy manbai bo‘lgan – kitob o‘z ahamiyatini yo‘qotmayaptimi degan savol tabiiy tug‘iladi. Darhaqiqat, bugun yoshlar elektron qurilmalar orqali bilim olishga, onlayn resurslardan foydalanishga odatlangan. Ammo, shunga qaramay, kitobning inson hayotidagi o‘rni beqiyosligicha qolmoqda.

Har bir buyuk kashfiyot, har bir ilmiy g‘oya, har bir madaniyat – o‘z manbasini kitobdan topadi. Insoniyat tarixida yozuvning paydo bo‘lishi bilan tafakkur yangi bosqichga ko‘tarildi. Kitob insonni fikrlashga, xulosa chiqarishga, o‘zini tahlil etishga o‘rgatadi. Shu bois buyuk allomalar har doim kitobni ilm va hayotning eng asosiy manbai sifatida qadrlaganlar. Abu Nasr Forobiy “Ilm o‘rganmoq – insonni kamolotga eltuvchi yo‘l” deganida, aslida bu yo‘lning kaliti kitob ekanini nazarda tutgan.

Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ulug‘bek kabi allomalar o‘z asarlari orqali butun insoniyat tafakkuriga ulkan hissa qo‘shdilar. Ularning kitoblari bugungi kunda ham ilm-fanning poydevoridir. Kitob insonni o‘tmish bilan, kelajak bilan bog‘laydi. U insonni sabrga, fikrga, ruhiy tozalikka chorlaydi. Shu ma’noda, kitob – insoniyatning eng ishonchli hamrohi, eng sodiq ustozidir.

Bugungi yoshlar “tezkor axborot” muhitida ulg‘aymoqda. Ular bir soniyada yuzlab ma’lumotlarni qabul qiladilar, biroq ularning ko‘pi yuzaki bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlar, qisqa videolar, sarlavhalar – bular inson tafakkurini sayozlashtiradi. Kitob esa buning aksi: u diqqatni jamlashni, sabr bilan o‘qishni, tahlil qilishni talab qiladi. Shu sababli ham psixologlar, pedagoglar, hatto neyrofan olimlari ham shuni ta’kidlaydilar – inson miyasi chuqur o‘qish jarayonida faolroq ishlaydi, tafakkur chuqurlashadi.

Elektron o‘qish qulay, albatta, ammo u kitobning ruhini bera olmaydi. Qog‘ozning hidi, sahifaning shildirashi, yozuvning o‘z qo‘ling bilan qayd etilishi – bu jarayonning hissiy tomoni ham muhim. Shu jihatdan olganda, raqamli texnologiyalar kitobga raqobatchi emas, balki yordamchi bo‘lishi kerak.

Kitob insonni nafaqat bilimli, balki tarbiyali qiladi. U axloqiy qadriyatlarni singdiradi, insonni o‘ylashga, his etishga o‘rgatadi. O‘qilgan har bir satr – bu yangi dunyo, yangi tajriba. Yozuvchi Abdulla Qodiriy “Kitob – insonni inson qiluvchi mo‘’jiza” deb bejiz aytmagan. Chunki kitob orqali biz nafaqat o‘z fikrimizni, balki boshqalarning his-tuyg‘ularini ham anglaymiz. Kitob o‘qish insonda empatiya – boshqalarni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

Raqamli dunyo esa ko‘pincha insonni shoshilinch qarorlarga undaydi, fikrni parokanda qiladi. Kitob esa buning aksi – u tinchlik, tafakkur va chuqurlik baxsh etadi. Shu bois har bir talaba, har bir ziyoli inson o‘z hayotining bir qismini kitobga bag‘ishlashi zarur. Chunki bu – o‘zini anglash yo‘lidir.

Bugun kitoblar faqat qog‘ozda emas, balki elektron shaklda, audiokitob, podkast, PDF formatlarda mavjud. Bu esa kitobga yangicha hayot bag‘ishladi. Biroq mazmunning chuqurligi, fikrning og‘irligi o‘zgarmaydi. Muhimi – o‘qishning davomiyligi. Internet, texnologiya, sun’iy intellekt – bular vosita, ammo maqsad emas. Maqsad – bilim, tafakkur va madaniyatni boyitishdir.

Zamonaviy talaba uchun eng muhim narsa – tanlab o‘qish. Har bir ma’lumotni emas, balki hayot uchun zarur bo‘lgan bilimni izlash. Bu esa o‘qish madaniyatining eng yuksak shaklidir. Kitob insonni nafaqat aqliy, balki ruhiy jihatdan ham boyitadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, raqamli asrda kitob o‘qish zarurati kamaygani yo‘q, aksincha, u yanada ortdi. Chunki insonni algoritmlar, sun’iy intellekt yoki texnologiyalar emas – tafakkurli o‘qish, bilim, va o‘qiganidan xulosa chiqarish qobiliyati rivojlantiradi. Kitob bizni inson sifatida tarbiyalaydi, fikrimizni boyitadi, ruhimizni mustahkamlaydi. Shunday ekan, raqamli dunyoda yashayotgan har bir yosh o‘z hayotida shunday tamoyilni tutishi kerak: “Texnologiyadan foydalan, ammo tafakkurini kitob bilan tarbiya qil.”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”. – Toshkent: Fan, 1973.
2. Abdulla Qodiriy. “O‘tkan kunlar”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.

3. Forobiy A.N. “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
4. Al-Xorazmiy. “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobala”. – Bag‘dod, IX asr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev nutqlari to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida migratsion jarayonlarning qisqacha tahlili

Maxmudov O‘ktamjon Muxsinjon o‘g‘li
maxmudovoktamjon0@gmail.com
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Zafarnoma”dagi migratsion jarayonlar ijtimoiy-siyosiy va falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi hamda ularning Temuriylar davridagi davlat boshqaruvi, urbanizatsiya, madaniyat va iqtisodiyotga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Zafarnoma, migratsiya, harbiy yurishlar, majburiy ko‘chishlar, madaniy muhit, mehnat migratsiyasi, xavfsizlik, kechirish siyosati.

Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan eng mukammal tarixiy manbalardan biridir. Ushbu tarixiy manbada Amir Temurning davrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid qimmatli ma’lumotlari olish mumkin. Ayniqsa, unda migratsiya – aholining yashash joyini o‘zgartirishi, majburiy ko‘chirish deportatsiya mehnat ko‘chishlari birmuncha keltirilgan. Manbaga ko‘ra Amir Temurning bunday siyosatining o‘ziga xos sabablari bor. Manbaga asoslanib ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. **Davlat xavfsizligi va mustahkamligini ta’minlash**
2. **Iqtisodiy holatini yaxshilash**
3. **Madaniy muhitni shakllantirish va rivojlantirish**
4. **Aholi ijtimoiy hayotini yaxshilash**

5. Siyosiy zarurat.

Harbiy yurishlar aholi ko‘chishlarining asosiy manbasidan biri edi. Bu ko‘chirishlaridan asosan birgina maqsad ko‘zlanmagan. Amir Temurning aql zakovati va har taraflama o‘ylab olib borgan siyosatiga ko‘ra bunday harakatlar yuqoridagi bir necha guruhga mansub bo‘lishi holatlari ko‘p. Xarakteriga ko‘ra bu ko‘chirishlar majburiy bo‘lsa-da, ixtiyoriy ko‘chishlar ham asosan madaniy jabhada uchraydi.

Davlat xavsizligi va mustahkamligini ta’minlash yuzasidan u bir necha aholi migratsiyalarini amalga oshirgan. Masalan, 1402-yilda Yildirim Boyazid mag‘lub etilgach Temur qo‘shinlari yanada ichkariroq kirib Izmir shahrigacha bosqin qildi. Bu yurishlar davomida Temur Nasibin qal’asini egallagach qal’a hokimini uning iltimosiga ko‘ra avf etdi va “Ani uyi-eli bila ko‘chursunlar!” – deb farmon beradi [1;269]. Bu harakat keyinroq ushbu mustahkam qal’alarda hokim atrofida yangi qarshilik harakati uyushmasligi uchun qilingan tadbirlardan biri bo‘lsa kerak. Temur faoliyatida bunday “kechirim” siyosati ko‘p ko‘zga tashlanadi. Ammo bu kechirimlarning o‘ziga xos shartlari ham bo‘lgan. Masalan, Temur Nishopurda Tushriz qal’asini egallashda unga Amir Ali Sadidiy boshliq sadidiylar taslim bo‘lishdan bosh tortib qarshilik ko‘rsatadilar. Nihoyat qal’a egallanishi aniq bo‘lib qolganda omonlik so‘rashadi va Temur ularga muruvvat ko‘rsatadi. Ammo ular Turkistonga yuborilib undagi qal’alar muhofazasiga tayinlanadi. Bunda birinchidan keyinchalik o‘z makonida yana qarshilik ko‘rsatishi ehtimolini oldini olgan bo‘lsa, ikkinchidan, sadidiylar qal’a muhofazasida juda mohir edilar-ki, Temur ularning shu qobiliyatlaridan Turkistonda foydalanmoqchi bo‘ldi.

Temur Xuroson va Ozarbayjonda unga qarshilik ko‘rsatishi ehtimolidan, tinchlik va xavfsizlik nuqtayi nazaridan bir necha hukmdor sulola vakillarining birini yoki bir nechtasini Samarqandda tutib turish bilan ehtimoliy qarshilikni oldini olgan. Mabodo bosh ko‘tarilgan taqdirda bu garovdagi shaxslar o‘ldirilgan holatlar ham mavjud. Masalan Mozandaron harbiylaridan Alibek shahar hokimi Valibekning Temurga itoatidan behabar dastlab Temurning Shayx Ali Bahodur boshliq ozroq qo‘shiniga qarshilik ko‘rsatadi. Keyinroq ular “yarashib olgach” Temur Alibekni avf qiladi. “Malik G‘iyosiddinni o‘g‘lon ushog‘i bila va Alibek taqi o‘g‘lon ushog‘i bila

Samarqand sori borsunlar” – deb buyurdi. va “barchani xona ko‘chi (bila)” Samarqandga yuboradi. Malik G‘iyosiddin va o‘g‘li Pir Muhammadni Samarqandda, uning inisi Malik Muhammad, kichik o‘g‘li Amir G‘uriy va Alibek Joniqurboniy Andijonda saqlandi. Keyinroq g‘uriylar Hirotda bosh ko‘targach ularning barchasi bandilikda o‘ldirilgan.

Temurning aholini ko‘chirish siyosatida ijtimoiy tayanch yaratish maqsadi alohida ko‘zga tashlanadi. Zafarnomada yozilishicha Temur Gurjistonda Kartin qal’asini egallagach uni Xurosonlik Muhammad Turon nomli kishiga beradi. Bu yerda avvalo islom dinini qaror toptirish, tartibni saqlash va tayanch yaratish maqsadida “bir jamoat xurosoniy”larni ham u yerga joylashtiradi. Chunki hukmron hokimiyatni qo‘llab quvvatlash uchun ularga ishonchli va hamfikr jamoat juda zarur ekanligini Temur juda yaxshi anglab yetgan.

Iqtisodiy holatini yaxshilash. Temur butun boshli xalqlarni ham o‘z hududlaridan ko‘chirish haqida buyruqlar bergan. Bunda asosan iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar ko‘zlangan bo‘ladi. Chunki keng qamrovli aholi jamoasi har ikkisiga sezilarli ta’sir o‘tkazishi mumkin. Masalan, Amir Temur To‘xtamishxonga qarshi jangdan so‘ng Saroy Berka va Saroy Botu shaharlarini vayron qilganligi ma’lum. Bunga ko‘pgina adabiyotlarda Temur bu shaharlarga borajak savdo karvonini Movarounnahrga burmoqchi ekanligi sabab qilib ko‘rsatiladi, lekin bu yerdagi tub aholining keyingi taqdiri haqida ma’lumotlar tadqiqotlarda deyarli aks ettirilmaydi. Shaharlar vayron bo‘lgach Temur shahar aholisining ma’lum qismini ham Movarounnahrga va Xurosonga ko‘chirish buyrug‘ini beradi. “Zafarnoma”da ularning ko‘chirilishi haqida quyidagicha ma’lumot beriladi: “Bas To‘qtamishxon qochqondin so‘ng muborak ko‘nglida kechtikim, andag‘i mamolik va viloyotlarni barchani muxassar qilg‘ay va har yerdakim el-ulus bo‘lsa mute’ qilg‘ay. Bu niyat bila Jo‘jixong‘a taalluq el-uluslarig‘a mutavajjix bo‘ldi. Dasht va sahrolarg‘a kirib yuridi. Bas O‘zi suyig‘a (Dnepr daryosi) yetkonda, Minkerman mavze’idakim (Mingqo‘rg‘on) Bek Yorug‘ va ba’zi o‘zbeklarning uyi-eli anda erdi, alarni chopib ko‘braki tobe bo‘ldi”. Shuningdek Saroy shahrini egallaganda ham aholini ko‘chirib so‘ngra shahar yakson qilinib o‘t qo‘yilganligi haqida ma’lumot beriladi. [1:178] Ammo bu o‘rinda ularni aynan qayerga ko‘chirilganligi haqida ma’lumot

keltirilmaydi. Boshqa o‘rinda esa Amir Temur sarkardalaridan biri Sulaymonshohbekka Hindiston yurishidan qaytish yo‘lida bir Nag‘ar qal’asini qayta kattaroq qilib tiklashni buyuradi. Bu qal’aga esa Dashti Qipchoqdan ko‘chirib keltirilgan 400 uyli o‘zbek qabilalarini ko‘chirganligi haqida ma’lumot keltiriladi. Bu haqida Zafarnomada quyidagicha ma’lumot keladi “Shanba kuni, oyning oltisida (14.03.1399) ul ishga mashg‘ulot bo‘lib yana dushanba kunida (16.03.1399) namozi boshqada ul qal’a tugaydi. Va andoq jahd qildim, beklar o‘zlari xisht va balchiq tashidilar. Ul qal’a tugangandin amirzoda Pir Muhammadning navkarlaridin (Nusrat) Qimoriyni uch yuz kishi (o‘z kushonidin) va uch o‘g‘lonkim, Juchixon naslidin erdilar, barchadin ulug‘i Yaruq Ug‘lon erdi, to‘rt yuz evluk o‘zbek bila unda qo‘ydi” [1:219]. Har ikkala ma’lumotda ham birida “Bek Yarug‘”, birida “Yaruq O‘g‘lon” deb berilishi va o‘zbek qabilalari ekanligi ikkala ma’lumotda ham bir xalqlar haqida so‘z yuritilayotganligini ko‘rsatadi. Demak, o‘zbek qabilalarining Markaziy Osiyo hududiga kelib joylasha boshlashi Temuriylar va undan keyingi davrda emas Amir Temur davridayoq boshlangan degan hulosa chiqarishimizga asos bo‘ladi.

Agar o‘rta asrlarga xos bir uyda o‘rtacha 4-5 nafar a’zo bo‘lgan taqdirda ham 400 uyli ko‘chirilgan o‘zbek qabilalari 1500-2000 nafarga yetishini hisobga olsak. Bu miqdor o‘rta asrlarda hududning etnik tarkibiga, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga sezilarni ta’sir o‘tkazganligini ham hulosa qilish mumkin.

Madaniy muhitni shakllantirish va rivojlantirish. Ko‘plab yurishlardan keyin Temur avvalo iqtidorli shaxslarni izlab ularning o‘z sohasidagi bilimlarini tekshirib ko‘rgach, Samarqandga yuborish odati bo‘lgan. Bu yerda bunday iqtidor sohiblari uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratib qo‘ygan edi. shu sababli bu ko‘chirishlar ixtiyoriy va majburiy harakterga ega. Bu deportatsiyalar ko‘pincha malakali ishchilar, harbiylar, hunarmandlar va muhandislarning shaharlarni qayta qurish va harbiy qal’alarni mustahkamlash uchun harakatlanishini o‘z ichiga olgan. 1398-yilda Temur qo‘shinlari Dehlini talon-taroj qildi, minglab odamlarni o‘ldirdi va yana minglab odamlarni deportatsiya qildi, ular imperiyada bunyodkorlik ishlari uchun Samarqandga yuborilgan. “Shohmalikbek va Ali Sulton Tavachi besh yuz mukammal kishi bila anda borib, ul kofirlarni tutub o‘lturdilar. Ul kun Dehlini g‘orat

qilib, bo‘lg‘on elini asir qildilar. Va hunarmand hindular ko‘p erdi. Bas hukm bo‘ldikim “Ul hunarmand hindularni shaxzodalarg‘a og‘olarga ulashtursunlar!” Va xazratning muborak ko‘nglida erdikim, Samarqandda masjidi juma solg‘ay. Bas hukm bo‘ldikim “Xar xindukim, sangtarosh turur ani xossa uchun saqlasunlar!”” [1:209]. Bu hunarmandlardan Temur ushbu yurishdan qaytgach Samarqandda Jome masjidi qurilishida foydalanadi.

Aholi ijtimoiy hayotini yaxshilash. Amir Temur 1401-yilda Bag‘dodni zabt etib, shahar talon-taroj qilingandan so‘ng aholining salmoqli qismini Samarqandga ko‘chirgani haqida ma’lumot “Zafarnoma”da keltiriladi. U Forsga, Damashq va Shomga qilgan yurishlaridan keyin ham shunday qildi. Adabiyotlarda Samarqand atrofidagi qishloqlarga Bag‘dod, Damashq kabi nomlarning berilishi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Bunga sabab qilib esa Samarqandni ulug‘lash, ulardan ustunligini ta’kidlash uchun ekanligi aytiladi. Fikrimizcha esa, bundan tashqari o‘z davrida Temur bu shahrlardan ko‘chirib keltirilgan aholi uchun Samarqandda aynan shu nomdagi manzilgohlar, qishloqlar qurdirgan va ularni farqlash uchun o‘z nomidagi qishloqlarga joylashtirgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “Zafarnoma”dagi migratsiyaga oid ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur davrida migratsiya nafaqat ijtimoiy zarurat, balki siyosiy va madaniy strategiyaning ajralmas qismi bo‘lgan. Hunarmandlar, olimlar, dehqonlar va harbiylar harakati orqali madaniy uyg‘unlik, iqtisodiy o‘sish va siyosiy barqarorlik ta’minlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: Sharq, 1997. 191-bet.
2. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.: Fan, 2019. 219-202-betlar.
3. Maxmudov, O. K. (2025). MIGRATSIYA, ASOSIY TUSHUNCHALAR, TURLARI VA MOHIYATI. *Modern Science and Research*, *4*(4), 55-58. https://pedagoglar.org/04/article/view/4180
4. Maxmudov, U. (2025). FROM THE HISTORY OF MIGRATION PROCESSES DURING THE REIGN OF AMIR TEMUR. *Modern Science and Research*, *4*(4), 208–213. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/78223

JAMIYATDA BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA OILAVIY TARBIYANING AHAMIYATI

Yusupov A’zamjon Abdulladjanovich, FJSTI,
“Ijtimoiy fanlar” katta o‘qituvchisi kafedrasi, t.f.d.,
e:mail: azam_1204@mail.ru, tel.: +99891-668-05-84.
G‘aniyeva Dilnavozxon Dilmurod qizi, FJSTI,
125 TPI yonalish talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatda barqarorlikni ta’minlashda oilaviy tarbiyaning ahamiyati yoritilgan. Oilaning har bir a’zosi, ayniqsa, ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas’uliyati, ularning axloqiy, ma’naviy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, sog’lom oilaviy muhit jamiyatdagi totuvlik, barqarorlik va taraqqiyotning asosiy omillaridan biri ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Ishda oilaviy tarbiyaning yosh avlod ongida, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ham ko’rsatib o’tiladi.

Tayanch so’zlar: oila, tarbiya, jamiyat, barqarorlik, ma’naviyat, axloq, ota-ona, farzand, adriyat, totuvlik, tarbiyaviy muhit

Oila – jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo‘g‘ini, inson hayotining boshlang‘ich maktabi hisoblanadi. Har bir insonning dunyoqarashi, axloqi, qadriyati va hayotga bo‘lgan munosabati, avvalo, oilada shakllanadi. Oila nafaqat shaxsning tarbiyasi va kamoloti uchun, balki, butun jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun ham beqiyos ahamiyatga ega.

Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat poydevoridir. Unda farzandlar mehr-oqibat, hurmat, sabr, mehnatsevarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanadi. Oiladagi ijobiy muhit jamiyatda totuvlik, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Shu

boisdan ham har bir davrda oilani mustahkamlash, oilaviy tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida – “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy, merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”, – deb e’tirof etdilar[8]. Prezidentimizning ushbu solaridan anglash mumkin-ki, xalqimiz uzoq asrlarga borib qadaladigan kop ming yillik boy, meros va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatiga egadir.

Jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oilani har tomonlama muhofaza qilish, oila manfaatlarini huquqiy himoyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir.

Mamlakatimizda jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oila institutini mustahkamlash, yurtimizdagi ma’naviy o‘zgarishlar asosida rivojlantirish , nufuzini oshirish uchun barcha tashkiliy huquqiy asoslar yaratilgan. Xususan, Konstitutsiyamizda oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilangan. Oila, Fuqarolik, Uy-joy kodekslari va boshqa qonun hujjatlarida azaliy oilaviy qadriyatlar o‘z ifodasini topdi.

Kelajak avlod haqida qayg‘urish, har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalab ,voyaga yetkazishga bo‘lgan intilish xalqimizga xos xususiyatlardandir.

Ota – bobolarimiz oilaviy tarbiyani g‘oyat dolzarb va nozik masala deb bilgan. Kelin qilish , qiz uzatishda, avvalo, bo‘lg‘usi kelin yoki kuyovning qanday tarbiya topgani surishtirilgan. Shu bois, farzandimizning baxt-u saodati, yorug‘ kelajagi uchun harakatni u dunyoga kelgan kundan boshlaymiz. Zotan, aqlli, odobli,

[8]. Zamonaviy oilada, farzandtarbiyasida milliy umuminsoniy qadriyatlarni shakillantirish masalalari.

bilimdon, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki, butun jamiyatning eng katta boyligidir[9].

Farzand tarbiyasida eng muhim bosqich – bu shak shubhasiz ota-onaning shaxsiy namunasidir. Bolalar eshitganidan ko‘ra, ko‘proq ko‘rganiga ergashadi. Ota-onaning o‘zaro muomilasi, bolalarga bo‘lgan gamxorligi va munosabati, qadriyatlarga munosib hayoti tarbiyaviy jihatdan beqiyos katta ahamiyatga ega.

Muqaddas Islom dinimizda ham bu masalaga alohida e’tibor berilgan. Ota-onaning farzandiga bergan tarbiyasi – ular uchun do‘zaxdan najot, jamiyat uchun esa sog‘lom avlod manbaidir[10].

O‘zbek xalqining urf-odatlarida ham tarbiyaning ijtimoiy va axloqiy jihatlari muhim o‘rin egallaydi. Masalan, “Yaxshi oila – elga namuna” degan maqol bejiz emas. Oila ichida shakllangan me’yorlar butun mahalla va jamiyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayni paytda, bugungi kunda oilaviy tarbiyada duch kelinayotgan muammolar, xususan, ota-onaning bandligi, zamonaviy texnologiyalarning tarbiyaga salbiy ta’siri kabi holatlar ham mavjud. Bu esa oilaviy tarbiyani muhofaza qilish va kuchaytirish uchun har tomonlama chora-tadbirlar zarurligini ko‘rsatadi.

Tarbiya jarayonida individual yondashuv uchun avvalo, ota-onalarning psixologik va pedagogik bilimlarga ega bo‘lishi, shuningdek, bolalarini doimiy nazorat qilishlari muhim ahamiyatga ega.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, oila tarbiyasidagi ijtimoiy muhit, kommunikatsiya, ruhiy sog‘lomlik, diniy va ma’naviy yondashuvlar o‘rtasidagi uyg‘unlik farzandning shakllanishida hal qiluvchi o‘ringa ega. Jumladan, ijtimoiy psixolog X. Shodiyev o‘z tadqiqotida oila muhitining boladagi axloqiy mezonlarga bo‘lgan munosabatini belgilovchi asosiy faktor ekanini aytadi[11].

Oila sog‘lom bo‘lsa – jamiyat sog‘lom bo‘ladi. Insonning dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezonlar, avvalo, oilada kurtak yozadi. Bolaning ertaga

---

9. https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=57137

10. F. Karimov. Oila tarbiyasi va ma’naviy qadriyatlari. Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022. «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» nomli respublika ilmiy va amaliy konferensiyasi materiallari.

11. Osha joyda.

qanday inson bo‘lib voyaga yetishi, nimalarga qiziqishi uning qanday oilada, qanday tarbiya topganiga bog‘liq.

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir vazifasi tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, huquqiy va estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo‘yish bilan cheklanmasdan, balki uning so‘nggi g‘ishti qo‘yilguncha javobgardir.

Oilaning tarbiyaviy funksiyasi, asosan, ota-onalar va oilaning yoshi katta a’zolari tomonidan amalga oshiriladi. Oila tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish ko‘p jihatdan ham ota, ham onaning birdamlik va tengligi asosida, kuch-g‘ayratlarini birlashtirgan holda olib borgan faoliyatlariga bog‘liqdir. Ota-onalar, buvi-buvalar farzandlari bilan ko‘proq muloqot qilishlari, shaxsiy namuna bo‘lishlari orqali ularning tarbiyasiga ijobiy ta’sir qilishlari mumkin.

Oilaning tarbiyaviy funksiyasining eng muhim jihatlaridan biri bu ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan urf-odatlarimizni kelgusi avlodga yetkazish orqali ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdir.

Barkamol avlodni tarbiyalash oila oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Farzandlar ongida Vatanga muhabbat tuyg‘ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo‘lishi eng oldin mana shu kichik ijtimoiy jamiyatda o‘sayotgan bolalarning dunyoqarashiga bog‘liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilar ekan, o‘sha oila, o‘sha mahalla gullab-yashnaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiyev X. “Oila psixologiyasi asoslari”, Toshkent: “Yangi asr avlodlari”, 2020. 56-bet.
2. Karimov F. “Oila tarbiyasi va ma’naviy qadriyatlar”. Volume 3 | TSTU Conference 2 | 2022. «O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati» nomli respublika ilmiy va amaliy konferensiyasi materiallari.
3. “Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

materiallari to‘plami. [Matn] – Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2021. – 200 b
4. https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=57137

VOQELIKNI BADIIY IDROK ETISHDA TANQIDIY REALIZMNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qosimov Kozimjon Isoqovich
FJSTI. “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

San’at - ijtimoiy ong shakli bo‘lib, uning voqelikni atroflicha tasvirlash, ifodalashdagi o‘ziga hos usullaridan biri, bu badiiy adabiyotdir. U o‘zining asosiy quroli – so‘z yordamida inson hayoloti, ruhiyatidagi kechmishlardan tortib tabiyatdagi ulug‘vorlik, fojeaviylik kabi har qanday hodisani atroflicha o‘z ranglari bilan chiza oladigan va o‘quvchiga tengsiz hayrat ulasha oladigan ifoda vositasidir. Boshqa san’at turlaridan farqli o‘laroq badiiy obraz ruhiyatida kechayotgan har qanday kechinma, hayolot va kayfiyatni o‘quvchiga bir hilda tushuntira olish, ifodalay olishning nisbatan kengroq imkoniyati bilan ahamiyatli, shuning uchun ham kitobxon badiiy asardagi voqelikni butun mohiyati bilan ilg‘agan holda asar qahramonlarining kechmishlaridan bir hilda goh quvonadi, gohida iztirobga tushadi. Ba’zan asar voqeliklarining, qahramonlar qismatining fojeona yakun topishi o‘quvchini qayg‘uga soladi va minglab savollar iskanjasida o‘rtanadi, masalan “O‘tgan kunlar” romanidagi Kumush obrazining fojeali qismati xali-hanuz ko‘plab o‘quvchilarning noroziligiga sabab bo‘lib qizg‘in muhokama va mushohadalarga undab kelmoqda, biroq badiiy asar birinchi navbatda chinakam hayotdagi reallikni ko‘rsatib bera olishi bilan qimmatlidir, natijada o‘quvchi real hayotga haqqoniy nazar solish, kuzatish, o‘rganish va mushohada qila olish hadisini oladi. Shuning uchun ham badiiy adabiyot favqulotda tengsiz tarbiya vositasi hamdir.

Badiiy adabiyotda realizm yo‘nalishi voqelikning barcha tomonlarini haqqoniy aks ettirishi bilan harakterlanadi, u ijtimoiy hayotning barcha illat va ziddiyatlarini badiiy ifoda etishi orqali voqelik ustidan hukm chiqarishni keng

jamoatchilik e’tiboriga havola etadi. XVIII-XIX asrlarda Yevropada ijtimoiy-maishiy mavzular romanchiligida yuzaga kelib rivoj topgan mazkur yo‘nalish aytish mumkin-ki, jahon adabiyotini yuksak cho‘qqilar sari yetaklagan.

Ayniqsa, XIX asr rus adabiyotida tanqidiy realizmning yuksak namunalarini kuzatishimiz mumkin, ya’ni voqelikdagi salbiy holatlarning keskin, ayovsiz darajada fosh etilishi unga tanqidiy realizm deya nom olishiga sabab bo‘lgan. Bu davrda yashab jod etgan A.S.Pushkin, I.Krilov, N.Nekrasov, A.Ostrovskiy, L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, A.P.Chexov va ayniqsa I.S.Turgenev asarlarini rus adabiyoti tanqidiy realizmining oliy namunasi sifatida keltirishimiz mumkin. Albatta mazkur zabardast rus adiblarining barcha asarlari bilan bizning o‘zbek kitobxonlari ham yaqindan tanish, aytish mumkinki, o‘zlari mehr qo‘ygan qaysidir asarni har yili bir bor qaytadan o‘qib chiquvchi o‘zbek kitobhonlarimiz ham talaygina topiladi.

O‘z davrida rus zodagon, aslzoda va boy oilalari hayotini hikoya qilishdan tiyilib, hayotining ko‘proq qismini oddiy halq bilan birga o‘tkazib, ularning nochor, abgor hayoti va mashaqqatli mehnatini hech qanday bo‘yoqlarsiz, bo‘rttirishlarsiz tasvirlashni uddalay olgan Ivan Sergeevich Turgenev – rus tanqidiy realizmining yirik namoyandalaridan biri bo‘lish bilan birga mehribon va kamtarin tabiati bilan nochor, oddiy dehqon va batraklarning yuksak ehtiromiga sazovor bo‘lgan sahovatli dvoryan ham edi.

Ov qilishning hadisini olgan adib qo‘l ostidagi dehqonlar va qo‘shni dvoryanlar hayotini tinmay kuzatishi, o‘rganishi evaziga dunyoga kelgan o‘zining mashhur “Ovchining xotiralari” o‘z davrida keng kitobxonlar orasida yuksak shuhrat qozongan bo‘lib, uning yana yangi asarlari chiqishini tinmay, sabrsizlik bilan kutishar va har bir yangi bosilgan roman, hikoya va qissalarini kitobxonlar qizg‘in muhokama qilishar edi. Go‘yo nochorgina hayotining qaqshatqich zarbalaridan charchab va og‘ir, mashaqqatli mehnatdan ezilgan yupungina oddiy odam gavdasida hazrati inson qiyofasi yashiringanini endigina payqagan kabi barcha kitobxonlar hayratda edi.

Birgina “Cho‘p-ustixon” hikoyasini esga olaylik: Adib o‘z qo‘li ostidagi hizmatchisi Yermolay bilan ovga chiqib, to‘satdan quyib yuborgan yomg‘irdan

panalanish maqsadida o‘sha yaqin atrofdagi asalari boqiladigan joyda, qishda asalari qutilari qo‘yiladigan chetan saroychaga behos kirib qoladi. “Men qiya ochiq eshikdan ichkariga qaradim: saroycha ichi qorong‘i, jimjit, yoqimsiz edi: undan yalpiz hidi kelardi. Burchakda so‘ri qilingan bo‘lib, so‘rida allaqanday kichkinagina bir jasad ko‘rpaga o‘ranib yotgan edi... Men bu yerdan ketmoqchi bo‘lib, endi o‘giriluvdimki...

-Barin, hoy barin! Petr Petrovich! – degan zaif, sekin va botqoqda o‘sadigan qiyoq o‘tning shitirlashiga o‘xshash xirildoq ovozni eshitib qoldim.

...Men yaqinroq bordim, bordim-u hang-mang bo‘lib qoldim. So‘rida odam tahlit bir vujud yotgan edi, ammo qanday odam deng?” (I.S.Turgenev. Tanlangan asarlar. T. 1967. 390 bet)

Voqelikni bu tahlit hikoya qilinishi o‘quvchini dahshatga solishi tabiiy, biroq hech qanday jirkanish hissini tuymaydi, aksincha achinish, rahmdillik tuyg‘usi ortib boradi. Davomi: “Uning boshi xuddi qovjirab ketgandek, nihoyatda ozg‘in, qonsiz, jigarrang tusda edi,.. burni pichoqning damiday o‘tkir, qirrali, lablari ko‘rinmas darajada yupqalanib ketgan edi, tishlari va ko‘zlarigina oqarib ko‘rinardi... U jigar rang tusdagi ikkita kichkina qo‘lining cho‘pday oriq barmoqlarini iyagi oldida, ko‘rpaning burmasi ostida sekin o‘rmalatardi. Men tikilibroq qaradim: aft-basharasi xunuk emas, hatto chiroyli bo‘lsa ham, dahshatli, nihoyatda dahshatli edi...

-Barin, meni tanimayapsizmi? – deb pichirladi ovoz yana...

-Lukerya! – deb qichqirib yubordim.”(I.S.Turgenev. Tanlangan asarlar. T. 1967 o‘sha sahifa)

Lukerya bu o‘sha bir paytlar Ivan Sergeevichning bolalik yillari o‘tgan onasining mulki (Oryol guberniyasining Mtsensk uyezdidagi Spasskoye Lugovino qishlog‘i) da xizmat qilib yurgan uy xizmatchilaridan biri, o‘sha durkillagan yosh va navqiron, o‘ta darajada quvnoq, go‘zal bir qiz edi. Uning bu tahlit – abgor, chirkin, chorasiz va eng achinarli holatda yotishi inson qismatining naqadar shafqatsizligidan dalolat berib turar edi. Bolaligida o‘zi ham unga g‘oyibona oshiq bo‘lib yurgan adib bu ko‘rib turganlaridan hayratda...

Yozuvchi bu asarini 1874-yilda yozgan va umuman 1847-1851-yillar davomida u jami bo‘lib o‘ttiztacha ocherk va hikoyalar yozdi. Uning 1874-yil 13-

yanvarda Ya. Polonskiyga yozgan xatida: “Parchalardan hammasi bo‘lib yigirma ikkitasi bosildi, ammo tayyorlangani o‘ttiztacha edi. Senzura ruxsat bermasligi xavfi borligidan ba’zi ocherklar oxirigacha yozilmay, chala qoldi...”(I.S.Turgenev. Tanlangan asarlar. T. 1967. 432 bet).

Krepostnoy dehqonlar hayotidan olib yozilgan bu asarlar hammasi “Ovchining xotiralari”ga kiritilgan, senzuraning ruxsatisiz ikkinchi bor nashr etilgan mazkur asari uchun adib 1852-yilda qamoqqa olinib so‘ng Oryol guberniyasining Spasskoye-Lugovino qishlog‘iga surgun qilingani haqida o‘z kundaliklarida eslab o‘tgan edi. Yirik yer egalari – pomeshchiklarning dehqonlarga ko‘rsatgan jabr-zulmlari, oddiy xalqning nihoyatda og‘ir hayotini yaqqol ochib tashlagan bu asarlar, albatta davlat tepasida turganlarga yoqmaganligi tabiiy hol, chunki tanqidiy realizmga xos harakter, bu voqelikni haqqoniy darajada yoritish bilan chiqariladigan xukmni kitobxonning o‘ziga havola etadi, unda to‘qima voqelik, syujet yoki obraz(qiyofa) yo‘q, faqat obyektiv reallik va achinish bor.

Adib “Cho‘p-ustixon”ni quyidagicha nihoyalaydi: “Bir necha haftadan keyin men Lukeriyaning o‘lganini eshitdim. Axiyri ajali yetib kelibdi... yana xuddi “Avliyo Pyotr hayiti arafasidan keyin” kelibdi... Odamlar aytishicha u o‘ladigan kuni hadeb cherkov qo‘ng‘irog‘ining ovozini eshitaveribdi. Lukeriya: ovoz cherkovdan emas, balki “yuqoridan kelyapti, - debdi. Ehtimol u: osmondan kelyapti, deyishga botina olmagandir.”

Ha, hikoya chiroyli xotima topmagan, lekin o‘quvchining ruhiyatiga yengillik beradigan yupanch yoki achinish shu-ki, hamma tomonidan o‘z holiga tashlab qo‘yilgan bu baxtsiz insonning va nihoyat azob-uqubatlardan qutilib o‘z ajali bilan bu dunyoni tark etgani. Voqelikni mana shu tarzda jo‘n, har qanday bo‘rttirishlarsiz ochib berilishi kitobxonni qarshisidagi hayot voqeliklarini to‘g‘ri, hech qanday romantizmsiz, holis idrok etishga va qalbida umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat hissini oshirishga undaydi.

Rus tanqidiy realizmining yirik vakillaridan yana biri, daho yozuvchi Lev Nikolayevich Tolstoy o‘z hayoti va ijodi davomida dunyo sevib mutolla qiluvchi 90 jildlik buyuk asarlar yozib qoldirgan, shularning ichida uning tanqidiy maqolalari ham juda katta diqqat e’tiborga loyiq. U 75 yoshida kamida ellik yil davomida o‘ylab

yurganlariga tayanib “Mashhur Shekspirni tanqid” deb nomlagan tanqidiy maqolasini 1906-yilda “Russkoye slovo” gazetasida e’lon qiladi.

“Esimda, Shekspirni birinchi marta o‘qib chiqqanimda juda qattiq taajjubda qolgan edim. Men uni o‘qib, juda katta estetik zavq olaman deb o‘ylagandim. Ammo uning eng yaxshi hisoblanadigan asarlarini – “Qirol Lir”, “Romeo va Juletta”, “Hamlet”, “Makbet”larini o‘qib, zavq olish u yoqda tursin, qutulib bo‘lmaydigan bir ijirg‘anish his qildim; o‘qib chiqquncha siqilib ketdim va hang-mang bo‘lib qoldim; butun ma’rifatli dunyo benuqson, mukammal deb hisoblasa-yu, men bu asarlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri bemaza va arzimas deb o‘tirsam?” (A. Namozov. Lev Tolstoy haqida haqiqatlar. T. 2010 y. 94 bet).

L.N.Tolstoy mazkur maqolasida, o‘z ta’biri bilan aytganda, “butun ma’rifatli dunyo benuqson, mukammal deb hisoblagan” Shekspirning eng yirik asarlarini keskin tanqid ostiga oladi: asardagi voqeliklar, syujet, kompozitsiyalar ishonchsiz, to‘qima va qahramonlar o‘rtasida kechayotgan dialoglar mantiqsiz, pala-partish, havoyi va shu kabi ayblar bilan Shekspirni ayovsiz “savalaydi”... Voqelikni doimo tub-tubigacha ko‘ra olib uni teran tahlil eta olgan va hech qanday hissiyotlarsiz, faqat haqiqat – real voqelikni o‘z asarlarida tasvirlab kelgan Tolstoy Shekspirni jiddiy qabul qila olmadi.

Dunyo tan olgan ikki daho – Tolstoy va Shekspir adabiyot olamida o‘z davrining yetuk insonlari, adiblari edi. Shekspir yashagan davrlarda yuksak xissiyotga yo‘g‘rilgan romantizm yetakchilik qilgan bo‘lsa, Tolstoyning asarlarida jiddiylik, realizm, haqqoniylik birinchi planga ko‘tarilgandir. Xukmni albatta, o‘quvchi chiqarib unga baho beradi. Tan olish kerakki, Tolstoyning har qanday asarlarini har yili qaytadan o‘qib chiqib, yangidan ma’naviy huzur oluvchilar o‘zbek adabiyot ihlosmandlari, kitobxonlari orasida ham topiladi va ular talaygina.

Shu o‘rinda ta’kidlash joyizki, o‘z vaqtida bizning buyuk adibimiz, o‘zbek milliy adabiyotining asoschisi A.Qodiriy ham I.S.Turgenev va L.N.Tolstoyga yuksak mehr qo‘ygan, ularning asarlarini mutolaa qilib ulardan o‘rgangan va asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan edilar. Xabibulla Qodiriy “Otam haqida” asarida otasi Abdulla Qodiriyning tushiga Lev Tolstoy kirib unga nasihat qilganlari va bu tushni Qodiriy o‘z bolalariga huzurlanib hikoya qilib berganlarini eslaydi:

“Sen bog‘ yarat va unda sog‘in sigir boqib, sutini ich va keyin yoz!” – degan ekan buyuk yozuvchi. Anglashiladigan xulosa shuki, bog‘ bu halol mehnat, o‘qish, izlanish bo‘lsa, sog‘in sigir – (xalqning og‘ir, mashaqqatli hayoti, turmush-tarzini haqqoniy, odilona yoritish, qog‘ozga tushirish) rizq edi. Umri davomida shu nasihatga amal qilgan buyuk adibimiz o‘zidan tanqidiy realizmga yo‘g‘rilgan o‘lmas asarlar qoldirdi...

Tanqidiy realizmning badiiy adabiyotdagi o‘ziga xos o‘rni va aytish mumkinki, favqulodda ahamiyati shundaki, bu kabi asarlarda avom xalqning o‘ta og‘ir, mashaqqatli turmush-tarzi ochib tashlanadi va o‘quvchini o‘zini-o‘zi anglashiga, tafakkur qilish, hayotga real ko‘z bilan qarashga undaydi. Totalitarizmga yo‘g‘rilgan jamiyatlarda hukumatning barcha yolg‘on, fisq-fasodlari ro‘y-rost ochib tashlanadi, jamiyatdagi mavjud muammolar yorqin personajlarda, ularning o‘ylarida, nutqlarida ko‘rinadi, reallashadi. Biroq, bu asarlarni dunyoga keltirgan adiblarning keyingi qismati har doim ham binoyidek kechmagan, hususan, biz tilga olgan I.S.Turgenevning barcha asarlariga ta’qiq qo‘yilib, muttasil surgunda yashagan, Lev Tolstoy o‘z hayotidan bosh olib chiqib ketib, yo‘lda, temir yo‘l vokzalida jon taslim qildi, Abdulla Qodiriyni esa sovet totalitar tuzumi “fidoyilari” xalq dushmani sifatida ayblab otib o‘ldirdilar...

TIBBIY TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Ahmadjonov A.M.,Ashurova M.D.

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Mavzuning dolzarbligi: So‘nggi yillarda tibbiy ta’lim tizimida raqamli simulyatsiya texnologiyalari dunyo miqyosida keng qo‘llanilmoqda. 2023-yilda *World Federation for Medical Education (WFME)* hisobotiga ko‘ra, tibbiyot oliygohlarining 78% simulyatsion o‘quv muhitidan foydalanmoqda. An’anaviy o‘quv jarayonida talaba real bemor bilan ishlashdan oldin etarli amaliy tayyorgarlik

ololmasligi klinik xatolar xavfini 25–30% ga oshiradi. Shu sababli, raqamli simulyatorlar yordamida o‘qitish bemorga zarar yetkazmasdan, xatolardan o‘rganish imkonini beruvchi xavfsiz, nazoratli muhit yaratadi.

Tadqiqot maqsadi: Raqamli simulyatorlar asosida o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlarning talaba ko‘nikmalari va o‘zlashtirish samaradorligiga ta’sirini o‘rganish hamda ularning tibbiy ta’limdagi afzalliklarini tahlil qilish.

Tadqiqot materiali va usullari: Tadqiqot Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 2024-yilda 2-bosqich talabalari ishtirokida o‘tkazildi. 120 nafar talaba ikkiga bo‘lindi:

– **Nazorat guruhi (60 talaba)** – an’anaviy amaliy mashg‘ulotlarda qatnashdi.

– **Tajriba guruhi (60 talaba)** – *Body Interact* va *VR Surgery Training* simulyatorlari asosida raqamli mashg‘ulotlar o‘tkazdi.

Baholash *OSCE* (Objective Structured Clinical Examination) tizimi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari: Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalarning klinik ko‘nikmalarni bajarish aniqligi 34% ga oshdi, o‘rtacha xato ko‘rsatkichi esa 38% ga kamaydi.

– Klinik jarayonni to‘g‘ri ketma-ketlikda bajarish darajasi:

- Nazorat guruhi – 62%,
- Tajriba guruhi – 83%.

– Stressga chidamlilik bahosi 1,8 balldan 3,9 ballgacha oshdi.

– Simulyatsion mashg‘ulotlardan so‘ng talabalar 92% hollarda real amaliyotda o‘zini ishonchliroq his qilganini bildirdi.

Shuningdek, o‘qituvchilar fikricha, raqamli simulyatorlar yordamida mashg‘ulotlar vaqt samaradorligini 27% ga oshirgan va nazorat jarayonini avtomatlashtirish imkonini bergan.

Xulosa: Raqamli simulyatorlar tibbiy ta’limda amaliy tayyorgarlik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ular xatolardan o‘rganish, real klinik holatlarni xavfsiz modellashtirish va talabani shaxsiy tahlil asosida baholash imkonini beradi. Natijalar raqamli simulyatsiya tizimlarini ta’lim dasturlariga

integratsiya qilish klinik xavfsizlikni oshiradi, talabalarning mustaqil fikrlashi va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Kelgusida sun’iy intellekt asosidagi *adaptive training* tizimlarini joriy etish orqali tibbiy ta’limda individual o‘qitish sifatini yanada yuksaltirish mumkin.

TIBBIY TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Ahmadjonov A.M.

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda tibbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurati ortib bormoqda. Virtual ta’lim platformalari, 3D modellar, simulyatsion laboratoriyalar va onlayn kurslar orqali o‘quv jarayoni yanada qulay va interaktiv shaklga keldi. Ammo bu jarayonda bir qator muammolar — texnik infratuzilmaning yetishmasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi pastligi, kontentlarning sifat jihatidan notengligi va o‘quv jarayonining standartlashtirilmaganligi mavjud. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali integratsiya qilish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Tibbiy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi asosiy muammolarni aniqlash, ularning yechimlarini ishlab chiqish va istiqboldagi innovatsion yo‘nalishlarni baholash.

Tadqiqot materiali va usullari: Tibbiy oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonini tahlil qilish, raqamli ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom, Anatomage va b.)dan foydalanish samaradorligini baholash, o‘qituvchi va talabalarning fikr so‘rovi asosida statistik tahlil o‘tkazish.

Tadqiqot natijalari: Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish o‘quv jarayonini 25–30% samaraliroq qilgan, ayniqsa amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda 3D va VR modellar muhim rol o‘ynagan. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning 63% texnik tayyorgarlik yetishmasligi sababli texnologiyalardan to‘liq foydalana olmagan. O‘quv resurslarining

mahalliylashtirilishi va doimiy texnik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish bu muammolarni kamaytirishga xizmat qilgan.

Xulosa: Tibbiy ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirib, o‘qitish jarayonini individual va interaktiv yo‘nalishga olib chiqadi. Ammo bu jarayon samarali bo‘lishi uchun texnik infratuzilmani mustahkamlash, raqamli didaktika bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash va milliy ta’lim resurslarini ishlab chiqish muhim. Kelgusida sun’iy intellekt, metaverse va simulyatsion tibbiyot integratsiyasi orqali tibbiy ta’limda

MASOFAVIY O‘QITISHNING NAZARIY-ASOSLARI, PEDAGOGIK METODLARI VA AMALIY QO‘LLANMALARI: O‘RTA VA OLIY TA’LIM UCHUN TA’SIRCHAN MODEL

Mo‘minova Oftobxon Karimova
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
Lotin tili, pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Niyozmatova Buviniso Xasan qizi
Pediatriya fakulteti, Pediatriya yo‘nalishi
1-kurs 58/25-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola masofaviy o‘qitish tushunchasining nazariy-asoslarini, zamonaviy texnologik infratuzilmasini, pedagogik metodikalarini va baholash jarayonlarini keng qamrovda tadqiq qiladi. Maqola o‘qituvchi va talabaning roli, individualizatsiya, xavfsizlik masalalari, motivatsiya, vaqtni boshqarish kabi masalalarni muhokama qiladi; shuningdek, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun amaliy yo‘riqnomalar, texnologik platformalarni tanlash mezonlari, baholash usullari va xavfsizlik choralarini taklif etadi. Maqola ijtimoiy-qismi va amaldagi tajribalarni ham ko‘rib chiqadi hamda kelajakdagi rivojlanish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Masofaviy o‘qitish, aralash ta’lim, LMS, onlayn baholash, pedagogika, xavfsizlik va maxfiylik, individualizatsiya, motivatsiya, kollaboratsiya, sinxron/anishkor o‘qitish

Annotation: This article comprehensively explores the theoretical foundations, modern technological infrastructure, pedagogical methodologies, and assessment processes of distance learning. It discusses key issues such as the roles of teachers and students, individualization, security, motivation, and time management. In addition, it offers practical guidelines for organizing the educational process effectively, criteria for selecting technological platforms, evaluation methods, and safety measures. The article also examines the social aspects and current practices of distance education, while outlining future directions for its development.

Keywords: Distance learning, blended learning, LMS, online assessment, pedagogy, security and privacy, individualization, motivation, collaboration, synchronous/asynchronous learning.

Аннотация: В данной статье всесторонне исследуются теоретические основы дистанционного обучения, современная технологическая инфраструктура, педагогические методики и процессы оценивания. Рассматриваются вопросы роли преподавателя и студента, индивидуализации, безопасности, мотивации и управления временем. Кроме того, предлагаются практические рекомендации по эффективной организации учебного процесса, критерии выбора технологических платформ, методы оценки и меры безопасности. В статье также анализируются социальные аспекты и существующий опыт дистанционного обучения, а также намечаются пути его дальнейшего развития.

Ключевые слова: Дистанционное обучение, смешанное обучение, LMS, онлайн-оценивание, педагогика, безопасность и конфиденциальность, индивидуализация, мотивация, коллаборация, синхронное/асинхронное обучение.

Kirish: Zamonaviy ta’limda aralash modellar tobora keng yoyilmoqda: an’anaviy sinf o‘quvchilari bilan masofaviy vositalar o‘rtasidagi sintez o‘qituvchilarga yanada moslashuvchanlik, o‘quvchilarga esa o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatini bera boshladi. Pandemiya davrida butun dunyo bo‘ylab masofaviy o‘qitish keng tarqaldi va uning mumkin bo‘lgan salbiy va ijobiy tomonlari yuzaga chiqdi: vaqtini boshqarish, masofa farqlari, texnologik barq urilishlar, xavfsizlik xavotirlari va motivatsiya masalalari. Bugungi kunda esa ta’lim siyosatlari va o‘qituvchilar masofaviy o‘qitishni sustkash yoki ta’lim sifatini pasaytiruvchi yagona yo‘l sifatida emas, balki aralash o‘qitish va moslashtirilgan o‘qitish uchun qulay platformaga aylantirish tarafdorlari ko‘p.

Bo‘lim 1. Masofaviy o‘qitishning nazariy-asoslari 1.1 Asosiy g‘oyalar va algoritmlar Masofaviy o‘qitish – bu o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki moslashtirilgan (asynchronous) hamda sinxron (real-time) interaktsiyalar orqali bilim va ko‘nikmalarni yaratish jarayoni. Pedagogik nazariyalar masofaviy o‘qitishda quyidagi printsiplarga e’tibor beradi: konstruktivizm (o‘quvchilar o‘z tajribalari asosida bilimlarni yaratadi), kooperativ o‘rganish (jamoaviy faoliyat), sadoqatli ta’lim (o‘quvchi motivatsiyasi va mustaqilligi), va metakognitiv yondashuvlar (o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiya). Shuningdek, aralash ta’lim modelida resurslar insoniy va texnologik omillar bilan bog‘lanadi: onlayn kurslar, videokonferensiya, elektron o‘quv materiallari va amaliy mashqlar.

1.2 Rivojlanish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi faktorlar. Maqsadlar aniq belgilangan holda belgilanishi; individualizatsiya va moslashuvchanlik – o‘quvchi ehtiyojlariga mos ravishda yo‘l-yo‘riqlar va materiallar taklif etilishi; o‘qituvchining roli – boshqaruvchi, fasilasiz qo‘llab-quvvatlovchi, o‘quvchining sadoqatini qo‘llab-quvvatlovchi kishi sifatida ko‘riladi. Kollaboratsiya muhitlari, masofaviy guruh ishlari va yangi pedagogik metodlar (flipped classroom, problem-based learning) masofaviy muhitda muvaffaqiyatli qo‘llanilishi mumkin.

Bo‘lim 2. Texnologik infratuzilma va platformalar. 2.1 LMS turlari va asosiy funksiyalari Learning Management System (LMS) – o‘quv materiallari, baholash vositalari, guruh ishlarini boshqarish hamda o‘quvchi natijalarini kuzatish uchun markaziy platforma hisoblanadi. Moodle, Canvas, Blackboard, Google Classroom kabi platformalar o‘z xususiyatlari bilan ajralib turadi. LMS orqali:

- kurslar tuziladi, materiallar joylashtiriladi;
- testlar, vazifalar va portfoliolar qabul qilinadi;
- baholash jadvali, naqshlar va reytinglar yaratiladi;
- foydalanuvchi rollari (o‘qituvchi, talaba, admin) boshqariladi.

2.2 Videokonferensiya vositalari va bulutli xizmatlar. Synchronous o‘qitish uchun Zoom, Microsoft Teams, Google Meet kabi videotashabbuslar qo‘llaniladi. Ular hamkorlikni kuchaytiradi, real vaqt muhokamalari, ko‘rgazma va ko‘rgazmali materiali taqdim qilish imkonini beradi. Bulutli xizmatlar (OneDrive, Google Drive, Dropbox) materiallarni saqlash, ulashish va hamkorlikni osonlashtiradi.

2.3 Maxfiylik, xavfsizlik va ma’lumotlar himoyasi. Masofaviy o‘qitishda malumotlar xavfsizligini ta’minlash muhim. Parollarni kuchli qilish, ikki faktorli autentifikatsiya, ro‘yxatdan o‘tish nazorati, ijodiy ma’lumotlar almashinuvini xavfsiz platformalarda amalga oshirish lozim. O‘qituvchilar va talabalarning shaxsiy ma’lumotlarini saqlash, elektron hujjatlar fayl-xavfsizligini nazorat etish, xavfsizlik siyosatlari bilan tanishtirish zarur.

Bo‘lim 3. Pedagogik metodlar masofaviy o‘qitishda 3.1 Sual-javob, affektiv va kognitiv latifalar Sual-javob sessiyalari, qiziquvchanlikni uyg‘otuvchi interaktiv metodlar (polls, quizzes, case studies) yordamida o‘quvchilarning diqqatini saqlash mumkin. Affektiv latifalar – emotsional aloqani kuchaytirish, o‘quvchining boshqaruvga bo‘lgan qiziqishini oshirish; kognitiv latifalar – ma’lumotlarning tahlil qilinishi va nuqtai nazarlarning shakllanishi uchun mos keladi.

3.2 Mikro-yutuqlar, moslashtirilgan o‘qitish. Kichik, o‘lchanadigan yutuqlar (micro-achievements) talabalarga motivatsiya beradi. Individualizatsiya – talabaning oldingi bilimlari, qobiliyatlari va o‘quv yo‘nalishiga qarab materiallar va

vazifalar moslashtiriladi. Adaptive learning algorithmlari (masalan, talabaning javoblariga qarab qiyinlik darajasini o‘zgartirish) masofaviy o‘qitishda samarali bo‘lishi mumkin.

3.3 Moslashtirilgan o‘qitish, o‘quv yo‘llari. O‘quv yo‘llari – har bir talaba uchun o‘ziga xos yo‘l. Ushbu yondashuvda o‘quvchi tomonidan tanlovlar beriladi: o‘tilishi lozim bo‘lgan kurslar, o‘zingizni tasdiqlovchi portfoliolar, o‘quv materiallarining turli formatlari (matn, video, interaktiv modullar).

Bo‘lim 4. Baholash va natijalarni o‘lchash. 4.1 Formativ va summativ baholash Formativ baholash doimiy o‘qitish jarayonida o‘quvchining raqobatbardosh ko‘rsatkichini kuzatadi va o‘qituvchiga mavhum nuqtalarda yo‘l-yo‘l ko‘rsatmalar beradi. Summativ baholash – yakuniy natijalarni aniqlaydi (kurs natijasi, imtihon natijalari). Onlayn testlar, vazifalar, portfoliolar baholashda keng tarqalgan vositalardir.

4.2 Onlayn baholash metodlari va xavfsizlik. Onlayn baholashda adolatli baholash natijalarini olish uchun vaqt cheklovi, tasodifiy savollar, navbatdagi variantlar, yuklab olish ruxsatlari kabi choralar qo‘llanadi. Plagiatga qarshi choralar, kross-checking, ko‘p bosqichli baholash protseduralari muhimdir.

4.3 Refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va portfoliolar. Talabalar o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, portfoliolar orqali o‘zining yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatishi mumkin. Refleksiya yozuvlari talaba uchun o‘z-o‘zini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Bo‘lim 5. O‘qituvchi va talaba uchun qo‘shimcha ko‘nikmalar. 5.1 Pedagogik ko‘nikmalar Masofaviy o‘qitishda samarali pedagogik ko‘nikmalar: aniq kommunikatsiya, vizual yordamlar bilan ishlash, tarjima qilish, tezkor moslashuvchanlik, o‘quv materiallarini optimallashtirish.

5.2 Vaqtni boshqarish, motivatsiya Gidnarlar, jadval tuzish, maxsus vaqt rejimini belgilash – o‘quvchilar vaqtni samarali tashkil etishga yordam beradi. Motivatsiyani

saqlash uchun maqsadli ta’sirlar, kichik yutuqlarni nishonlash, ijtimoiy sheriklik kuchlarini ishga solish foydalidir.

5.3 Qayta aloqa, qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari. O‘qituvchi va talaba o‘rtasida muntazam, konstrukttiv fikr-mulohiqa bo‘lishi kerak. Qayta aloqa yo‘llari (email, chat, LMS messaging) orqali qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari yaratish ishonchni oshiradi.

Xulosa: Masofaviy o‘qitish nafaqat xavf va qiyinchiliklar, balki katta imkoniyatlar manbai hamdir. Texnologik infratuzilmaning ishonchli ishlashi, pedagogik metodlarning moslashuvchanligi, baholash jarayonining adolatli va moslashtirilgan bo‘lishi ta’lim sifatini oshiradi. Kelajak uchun tavsiyalar esa quyidagilar:

- LMS va boshqa platformalarni integratsiyalashgan holda qurish;
- xavfsizlik siyosatlarini kuchaytirish va talabalarga xavfsizlik bo‘yicha treninglar o‘tkazish;
- moslashtirilgan o‘qitish uchun ma’lumotlar analizini chuqurlashtirish;
- o‘qituvchi ham talaba akkreditatsiya va malaka oshirish yo‘llarini davom ettirish;
- masofaviy o‘qitish bo‘yicha dasturlarni barqaror moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash.

Izohlar (annotatsiya) Ushbu maqola masofaviy o‘qitishning nazariy-asoslari, texnologik infratuzilmasi, pedagogik metodlar, baholash va ko‘nikmalar bo‘yicha keng qamrovli tavsiyalarni beradi. Maqola amaliy yo‘riqnomalar, platformalarni tanlash mezonlari, xavfsizlik choralari, motivatsiya strategiyalari va xavfsiz onlayn ta’lim muhiti yaratish uchun qadam-baqadam tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Har bir bo‘limda amaliy misollar, umumiy muammolar va yechimlar keltirilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Allen, M. W., & Seaman, J. (2017). Digital Learning Compass: Distance Education Enrollment Report. Babson Survey Research Group.

2. Anderson, T., & Dron, J. (2011). Three generations of distance education. International Review of Research in Open and Distributed Learning, 12(3), 80-97.
3. Bozkurt, A., et al. (2020). A Critical Review of Distance Education: Potential, Pitfalls, and Possibilities. Education and Information Technologies, 25(2), 485-506.
4. Palloff, R. M., & Pratt, K. (2013). Lessons from Virtual Learning Communities. John Wiley & Sons.
5. Hrastinski, S. (2008). Asynchronous and synchronous e-learning. Educause Quarterly, 4, 51-55.
6. Moore, M. G., & Kearsley, G. (2011). Distance Education: A Systems View. Wadsworth.
7. UNESCO. (2020). COVID-19 and Education: Learning Loss and Remote Teaching. UNESCO Publishing.
8. Rapple, J. (2022). Research on Online Teaching and Learning. Journal of Educational Technology Systems.
9. Kay, R., & Kletskin, I. (2012). Online learning and student engagement. Journal of Educational Technology Systems, 41(3), 225-244.
10. Garrison, D. R., Anderson, T., & Archer, W. (2000). Critical inquiry in a text-based environment: Computer conferencing in higher education. The Internet and Higher Education, 2(2-3), 87-105.
11. Loader, B.-D., et al. (2013). Social Media for Education. Sage Publications.

RUHIY HOLAT TASVIRIDA PSIXOFIOLOGIK VOSITALARNING BADIIY TALQINI

Abdurahimova Manzura Shokirjon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o‘qituvchisi
Abdurahimova772@gmail.com. 998905602128
Ashurova Oyshaxon Inom qizi
Davolash ishi, 1-kurs 4124 guruh talabasi

Annotatsiya

Maqolada psixofiziologik holat masalasi yozuvchi Qo‘chqor Norqobil qissalari misolida tadqiq etilgan.

Аннотация

В статье рассматривается вопрос психофизиологических состояний на основе теорий литературоведов.

Abstract

The article examines the issue of psychophysiological conditions based on the theories of literary scholars.

Kalit so‘zlar: psixologiya, psixofiziologiya, jest, mimika, gallyutsinatsiya, obraz, ruhiyat.

Ключевые слова: психология, психофизиология, жест, мимика, галлюцинация, образ, психика.

Keywords: psychology, psychophysiology, gesture, facial expressions, hallucinations, image, psyche

Badiiy nutqda qahramon holatini ko‘rsatish uchun, odatda, fe’l turkumiga oid so‘zlar ko‘proq ishlatiladi. Bunda personajning jesti yoki mimikasini ifodalash maqsadida inson organizmi a’zolarining birortasi “ishga solinadi”. Bu muallif izohi orqali aks ettirilayotgan qahramonning ichki holatini hamda kechinmalarini kengroq qamrab olishga yordam beradi. Shunisi ham muhimki, diologlardan oldin, orada yoki keyin kelgan jest va mimikalar so‘zlovchining ayni chog‘dagi psixofiziologik holatini aniq va ko‘rimli ifodalashga xizmat qiladi. Keyingi yillarda o‘zbek adabiyotida diolog tasirchanligini oshiradigan jest va mimikalarning inson xatti-harakatlari,ayniqsa, uning ruhiy holatini ochishdagi xizmat doirasi kengayib borayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. O‘zbek adiblari ham Tolstoy qayd etganidek, “Jest nutqning asosi” ekanligini amalda isbotlashga erishmoqdalar. Yozuvchilarimiz

inson ruhiyatini aniqroq, chuqurroq ochish uchun jestdan kalit sifatida unumli foydalanayotganligini ko‘rish mumkin.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani “Kiroyi kuyoving shundog‘ bo‘lsa” bobida shunday jumlalar uchraydi:

Qutidor mehmonlarni jo‘natib, yotish uchun chechinar ekan, Oftob oyim so‘radi:

-Chiroyli yigit, aqlli yigit, deb maxtay-maxtay To‘ybekaning ichagi uzildi, u kim edi?

-Mehmonimiz o‘sha edi, - dedi qutidor, toshkentlik Yusufbek hoji otlig‘ yaqin oshnamning o‘g‘li.

-To‘ybekaning maxtag‘anicha bormi, o‘zi.

-Bor, dedi qutidor va g‘italandi[12], xudo kishiga o‘g‘il bersa shundayin bersin-da.”

Asardagi birgina shu “g‘italandi” so‘zi orqali berilgan psixofiziologik holatdan biz Mirzakarim Qutidorning xarakterida turmush o‘rtog‘i Oftoboyimga bo‘lgan samimiy munosabatni hamda uning savoliga javob berishda yolg‘iz qizi Kumushbibini baxtini ko‘proq o‘ylab, xursand bo‘lib “Kiroyi kuyoving shundog‘ bo‘lsa” deya shodlanishi qahramon xarakteridagi psixologik holatni ko‘ramiz.Yuqoridagi dialog orqali qahramon psixologiyasi va ruhiy holatini ochib berishga xizmat qilgan kalit ham Qutidor tomonidan ishlatilgan tana harakatidir. Mumtoz yozuvchilarimiz ijodi ta’sirida shakllangan, ularning asarlarini o‘qib adabiyotga kirib kelgan zamonaviy adiblarimiz ijodida ham psixofiziologik holatlar orqali qahramon ruhiyatini ochib berish usulidan samarali foydalanish ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Nabi Jaloliddin o‘z personajlarining xatti-harakati, so‘zlashishi, psixologiyasi orqali ularning hayotga munosabati, xarakteri, intilishi, yashash tarzi va milliy mafkurasini namoyish etadi, qahramonlarning ichki olamini yoritishda cheklov qo‘ymaydi. Balki asardagi syujet uchun, personaj xarakterini yoritish uchun zarur darajadagi ruhiy olam ochib beriladi. Buni biz “Majnun” qissasi qahramoni Servisboyning (asl ismi Shunqorbek) holatidan ham kuzatishimiz mumkin:

[12] G‘italanmoq-jonlanmoq. AQodiriy O‘tkan kunlar asari- Toshkent 2019,36-bet

– Mashi skalad, Servisboy, – dedi do‘konchi qing‘ir-qiyshiq taxtalardan qilingan beo‘xshov eshikni g‘iyqillatib ochib, ichkari kirarkan. – Anovi lash-lushlarni bir tomonga taxlab, tagini tozalab berasiz. Xizmat haqi naqd uch ming.
Servisboy hech narsa demadi. Parishon ko‘zlarini g‘alati pirpiratib qo‘ydi-da, ishga kirishdi[13].

Ko‘zlarini pirpiratib qo‘yishi ham psixofiziologik holatni yuzaga chiqargan bo‘lib, do‘kon egasiga hech nima demay ko‘zlarini pirpiratib qo‘yib, ishga kirishishi uning xarakteridagi bosiqlik, o‘z ishiga mas’uliyat yuqori ekanidan tashqari hayotda o‘z baxtiga va omadiga yetishmay, nohaqliklarga ko‘nib yashayotgan inson qiyofasini gavdalantirib beradi. Birgina shu qissa orqali asar qahramonlarini vaqt o‘tib, inson boshiga tushgan turli sinovlar ta’siriga tushgan inson o‘zini muhit girdobiga tashlab qo‘yishi,natijada o‘zgalar tomonidan unga qilinayotgan yoqimsiz munosabatga ham qo‘l siltab qoya qolish darajasiga yetib qolishi mumkinligi ko‘rsak bo‘ladi. Servisboy yoshligida kuchli, mard yigit bo‘lganini, hatto, o‘zidan yoshi katta yigitlarga ham o‘zining kuchli g‘ururi orqali bu borada bemalol bas kela olishini (to‘ydagi poyandoz tortish sahnasi orqali) ko‘rganmiz.

Shuningdek, yozuvchining mazkur asarida yoritilgan yigit va qiz tasvirlarida ham yozuvchi psixofiziologik holatdan samarali foydalangan. Bundagi qizning harakatlaridan undagi yigitga bo‘lgan samimiy muhabbat, erkalanish, uning sevgisiga qalban ishonsa-da kelajak taqdirida uni nimalar kutayotganidan bexabar ekanini bilib olish mumkin. Boychechak bu harakati orqali yigitga “abadiy baxtli bo‘lamizmi?” degan savolni qo‘yadi va oxir-oqibatda bu savolining javobi kutilmagan voqealar bilan hayot unga javob qaytargandek bo‘ladi.
– Aldamaysan-a, Boychechak?! – dedi barmoqlari orasidagi chechakka boqib.
– Bu-chi, bu? – deya ko‘rsatkich barmog‘i ila yigitning yelkasiga nuqidi qiz. – Aldamaydimi?
– Yo‘q, hech qachon! – Yigit uning bilagidan tutmoqchi bo‘ldi.

Ushbu holatda ham barmog‘i ila yigitning yelkasiga nuqishidan “bu o‘zingiz-chi” degan jumlani mana shunday tasvir orqali namoyon qilinishini ko‘rsak

[13]Jaloliddin N “Majnun” qissasi 2-3-bet

bo‘ladi.Boychechak va Servisboy hamma oshiqlar kabi bir-biriga ko‘ngil qo‘yib ahd-u paymon qildi-yu,lekin ularning sevgisi baxt bilan yakun topmadi. Bu ikki oshiqning suhbati jarayonidagi xatti-harakatlar orqali bir-biriga bergan va’dalari, taqdirning ularga bergan sinovi jarayonida yakun topdi.

Badiiy asarda qahramonlar ruhiyati o‘zaro muloqot-diologlar vositasida yaqqolroq tasvir etiladi bunda diolog asosiy omil bo‘lib, ikki tarf ham bir-biriga aytadigan so‘zlari vositasida o‘zligi, (ruhiy holati kayfiyati, xarakteri) oshkor etib boriladi. Qahramonlar o‘zaro munosabatida psixofiziologik tasvir vositasi uchraydi bu kabi vositalarga yuz ifodasi, mimika, ohang, pauza, poza (holat), ko‘z yosh, kulgi, sukut va boshqalar kiradi. Bu vositalar muloqot jarayonini kuchaytiradi ba’zan so‘zning o‘rnini bosadi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, 80% axborot imo-ishoralar, mimika va pantomimka yordamida ifodalanadi. Masalan, rost so‘layotgan kishi ochiq kaftlarini ko‘rsatishdan qo‘rqmaydi aksincha, yolg‘onchi ularni berkitishga harakat qiladi. Suhbatdoshdan o‘zini yuqori tutish belgilaridan biri butun kaft cho‘ntakda bo‘lib bosh barmoqning tashqariga chiqarib qo‘yilganligidir. Shubhalanuvchanlikni odatda og‘izni qo‘l bilan himoyalash, burunga tegib qo‘yish, qovoqlarni silab qo‘yish, quloq ortini yoki bo‘yinni qashlab qo‘yish bildirib qo‘yadi. Dahanni silab-silab qo‘yish qaror qabul qilishga qiynalishni ko‘rsatadi. Asabiylik holati kishining biror narsaga – bilakuzugi, soati va shu kabilarga hech qanday maqsadsiz qayta-qayta tegib turishi ostiga yashiriladi[14].

Ong oqimi adabiyot haqida tadqiqot olib borgan T. Jo‘rayev yozadi: “80-90 – yillar nasrining yangi qirralari shunda ko‘rinadiki, obektiv olam, voqea va hodisalar, tashqi tasvir, qahramon , xatti-harakatlari, uni o‘rab turgan muhit va sharoit, zamon va makon endi to‘g‘ridan-to‘g‘ri badiiy to‘qimaga aylantirilmay, balki ularni inson tasvvuri, shuuriga ta’siri, qahramonning unga ongli munosabati, ya’ni aks ta’sir sifatida ta’sirga-ta’sir tarzida badiiyatga aylantirildi. Alhol, badiiy qahramon muallif yaratgan xarakter emas, balki o‘zini o‘zi ixtiro qilgan (shartli asosda, albatta), o‘z tasavvurlari, ong oqimi asosida vujud topgan personajga aylandi. Endi kitobxon

[14] M. Maqsudova. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, Turon-Iqbol, 2006.-B. 35-36

qahramon bilan emas, balki uning “tafakkuri” bilan muloqotga kirishadigan, uning tafakkur jarayoni bilan bahslashadigan bo‘ldi”[15].

Barchaga ayonki, mimika va til orqali ifodalanmaydigan boshqa holatlar shaxsning ontogenez jarayonida o‘zlashtiriladigan noverbal xatti-harakatlari sifatida visual (ko‘z bilan ko‘rsa bo‘ladigan) harakatlardan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega tizimlardan hisoblanadi. Inson mimikasi, gavda holati, ma’nodor ishoralari to‘plami hamda xislari ifodalashdagi tug‘ma belgilari kabi asosiy mimic kartinalarning baynalminal harakterga ega ekanligi noverbal tilning nutqiy faoliyatdan ustivorligini ta’minlaydi. Insonda dabdurustdan amalga oshadigan noverbal o‘zini tutish madaniy, muayyan guruhga doir, situativ uyg‘unlikka asoslanadigan va avvaldan o‘rgatilmasa bo‘lmaydigan ramziy mimika, imo-ishora, alfoz (poza) va talaffuzlar bilan paydar-pay to‘lishib boradi. Noverbal o‘zini tutishning mazmuni, shakli, tarkibi va ahamiyatli jihatlari ko‘asrlik muomala amaliyoti bilan harakterlanadi.
Xulosa qilib aytganda qahramonlar ruhiy olamini har bir yozuvchi va ijodkor o‘z iqtidoridan kelib chiqib tasvirlaydi. Psixologizm – ijtimoiy munosabatlarni va strukturalarni psixologik ma’lumotlar, inson psixikasi xususiyatlari, odamlarning bevosita o‘zaro harakatlarini tahlil qilish asosida tushuntiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. M. Maqsudova. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, Turon-Iqbol, 2006.-B. 35-36
2. Jo‘rayev T. Ong oqimi va tasviriylik – T: Fan, 1994. –B. 3
3. Jo‘rayev T. Ong oqimi va tasviriylik – T: Fan, 1994. –B. 3
4. A.Qodiriy O‘tkan kunlar asari- Toshkent 2019,36-bet
5. Jaloliddin. N “Majnun” qissasi 2-3-bet

[15] Jo‘rayev T. Ong oqimi va tasviriylik – T: Fan, 1994. –B. 3.

SOHIBQIRON TUZUKLARIDA YOSHLAR TARBIYASIGA E'TIBOR

Ikromova Hurriyatbonu Akmaljon qizi

FJSTI. 424 TPI guruh talabasi.

Ilmiy rahbar: Qosimov K.I.

Milliy davlatchiligimizni barpo etish, milliy o‘zlikni anglash hamda barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur o‘gitlariga murojaat etish amalda hech qachon eskirmaydigan mavzudir. Tariximizning eng muhim, zalvorli qismidan joy olgan bu muhtaram zotning hayoti, kechmishi, shijoati hamda barcha sohalarda olib borgan islohatlari barcha davrlarda benihoya hayrat uyg‘otganligi hech kimga sir emas. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning har yili O‘zbekiston xalqi va yoshlarga murojaatida bu tarixiy shahsga cheksiz hurmat ila - "...Biz kimlarning avlodimiz, ajdodlarimizni yodga olaylik" – deya u shaxsning ismlarini takrorlashdan hech qachon charchamagan.

Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasiga naqadar katta ahamiyat qaratilayotgan bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning ham o‘z davrida bu masalaga jiddiy ahamiyat berib kelganligining guvohi bo‘lish mumkin. Uning serqirra davlat boshqarish siyosati tarbiyaning barcha ijobiy tomonlarini qamrab olgan va boy ma'naviy meros sifatida bizgacha yetib kelgan.

Amir Temur zamonida tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan, uning o‘zi hayot maktabi saboqlarini mukammal egallagan, noyob aql – zakovat, iste'dod va qobiliyat egasi bo‘lgan. U yoshligidanoq harbiy o‘yin sirlarini mukammal o‘rganib, harbiy harakatlar loyihalarini tuza boshlagan. Rus tarixchisi M.Cherevanskiy ma'lumotlariga ko‘ra, Amir Temur bolaligidanoq o‘rtoqlari bilan o‘zaro o‘yinlarda har doimgiday harbiy sarkardalik lavozimini bolalarcha obrazga kirishib o‘z qo‘shinini mahorat bilan boshqarar ediki, ehtimol sarkardalik qobiliyati uning bolalik davridan shakllanib ulgurgan edi.

7 yoshga to‘lganida uni madrasaga o‘qishga beradilar, 9 yoshida esa 5 mahal namozni o‘rganib bo‘lgan edi, tirishqoqligi va qobiliyatliligi sabab madrasadagi har qanday bilimni tez o‘zlashtirib olishi bilan e’tiborli bo‘lgan. Amir Temur “Qur’oni karim”ni qiroat bilan o‘qiganida hatto ustozlari ham hayrat bilan boqar ekanlar.

Bizga Amir Temurdan uning tarbiyasiga oid buyuk ma’naviy meros qolgan. Sohibqironlik paytida o‘zining farzandlari, nabiralari va barcha erkak ahlidan oilaviy masalalarga hamma vaqt shar’iy yondashishni, pokiza, halol bo‘lishni qattiq talab qilgan.

Uning tarbiya maktabining muhim tomoni shunda ediki, qo‘shinda qaysi lavozimda bo‘lishdan qat’iy nazar, muomala madaniyati joriy etilgan edi, yuqori lavozimdagi zobit kichik lavozimga yoki kichik lavozimdagilar yuqori lavozimdagilarga nisbatan behurmatlik qilishlari aslo mumkin bo‘lmagan. Agar ular o‘rtasida nizo yuzaga kelsa, vaziyat chuqur taftish qilinar va albatta, haqiqat qaror toptirilar edi: gunohkor lavozimidan tushirilib yashash joyidagi yer-suv mulki va boshqa imtiyozlaridan mahrum etilar edi. Barchani o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalash bosh nizom qilib olingan edi. Amir Temur davlatida o‘z amalini suiste’mol qilish, poraho‘rlik, doimiy ichkilikbozlik, maishiy buzuqlik kabi illatlar og‘ir gunoh hisoblanib, aybdorlar qattiq jazoga tortilar edi.

Amir Temurning yana bir tarbiya usuli barchani bilimli qilish edi. Barcha shaharlarda maktablar, madrasalar ochilib, ularda diniy va dunyoviy ilmlar o‘qitilgan. Xususan, uning saroyida Mavlono Abduljabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono No‘moniddin Xorazmiy, Xo‘ja Afzal, Mavlono Olouddin Koshiy, Jalol Hokiy va boshqalar ilm-fanning matemetika, geometriya, arxitektura, astronomiya, adabiyot, tarix musiqa kabi sohalaridan saboq berganlar. Bu davrda fiqh ilmi – Islom dini va shariati qonun-qoidalari fan darajasiga ko‘tarilgan.

Yirik va yangidan tashkil topgan madrasalarga eng aqlli, bilimli va odobli, yetuk allomalar tanlov asosida mudarrislikka tayinlangan.

Harbiy yurishlar davomida ko‘chma masjidlar bo‘lib, ularda namoz o‘qilishi bilan birga u bilim va tarbiya o‘chog‘i vazifasini ham bajargan.

Hulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizda barkamol avlod tariyasi eng muhim maqsad sifatida e’tirof etilar ekan bobokalonmiz Sohibqiron Amir Temurning o‘z halqiga, avlodlariga bag‘ishlagan tuzuklari zamonamiz yohlari tarbiyasi uchun ham muhim dasturilamal bo‘lib hizmat qiladi.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННО-РЕЛИГИОЗНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Мамадалиев Н.К., *ФерМИОЗ, заведующий кафедры “Общественные науки”, кандидат философских наук, доцент*

Юсупов А.А.*, ФерМИОЗ, старший преподаватель кафедры “Общественные науки”, PhD,*

e:mail: azam_1204@mail.ru

Аннотация: В статье приведены вопросы современные тенденции развития отношений между государством и религиозными организациями в современном Узбекистане. Узбекистан развивается как светское государство и с первых дней независимости создаёт все условия для развития религий. В стране приняты законодательные основы для всестороннего сохранения религиозных убеждений всех наций и народностей, где существует 16 религиозных конфессий.

Ключевые слова: государство, религия, Узбекистан, Закон, религиозные верования, конфессия

Аннотация: Maqolada zamonaviy O'zbekistonda davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari masalalari ko'rsatilgan. O‘zbekiston dunyoviy davlat sifatida rivojlanmoqda va mustaqillikning ilk kunlaridanoq dinlarning rivojlanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan.

Mamlakatda 16 diniy konfessiya mavjud bo‘lgan barcha millat va elatlarning diniy e’tiqodlarini har tomonlama saqlash bo‘yicha qonunchilik asoslari qabul qilingan.
Калит сўзлар: davlat, din, O'zbekiston, Qonun, diniy e'tiqod, konfessiya
Annotation: The article presents the issues of modern trends in the development of relations between the state and religious organizations in modern Uzbekistan. Uzbekistan is developing as a secular state and from the first days of independence has created all the conditions for the development of religions. The country has adopted legislative frameworks for the comprehensive preservation of religious beliefs of all nations and peoples, where there are 16 religious denominations.
Keywords: state, religion, Uzbekistan, Law, religious beliefs, confession

В современном Узбекистане основные направления взаимодействия государства и религии определяются Конституцией Республики Узбекистан и в значительной мере сложившимися традициями, в соответствии с которыми можно выделить несколько ключевых принципов.

1. Светский характер и нейтральность государства. В соответствии со статьей 1 Конституции Республика Узбекистан[16] суверенное, демократическое, правовое, социальное и светское государство с республиканской формой правления. Одним из важных компонентов такого государства является его светский характер. В этом смысле уже в преамбуле Основного закона четко определено, что единый народ Узбекистана ставит своей целью обеспечение достойной жизни граждан, межнационального и межконфессионального согласия, благополучия и процветания многонационального родного Узбекистана.

В частности правовое государство – это государство, в котором все равны и ответственны перед законами, принятыми на основе демократических принципов, и никто не стоит выше закона. Установлены верховенство закона во всем государстве, разделение властей, взаимная ответственность личности и государства, защита прав и свобод человека.

[16] Конституция Республики Узбекистан. // Народное слово. 2 мая 2023 г., № 86-87 (8387-8388)

В своем поздравительном послании по случаю 29-летия принятия Конституции Узбекистана 7 декабря 2021 года Президент Шавкат Мирзиёев сказал: «В то же время мы хорошо понимаем, что нам предстоит еще многое сделать в целях полного претворения в жизнь норм нашей Конституции, более эффективного обеспечения верховенства закона и справедливости в обществе, прав и интересов человека, его чести и достоинства», - подчеркнув важные требования правового государства[17].

В свою очередь социальное государство – это модель государства, направленная на справедливое распределение материальных благ в соответствии с принципами социальной справедливости в целях достижения достойного качества и уровня жизни каждого гражданина, смягчения социального неравенства и помощи нуждающимся.

В поздравлении говорится: «…сегодня Узбекистан уверенно идет по пути построения социального государства и справедливого общества. Поэтому, *думаю, - продолжал Президент, настало время закрепить в качестве конституционной нормы принцип «Новый Узбекистан – социальное государство...», «Социальное государство предусматривает обеспечение нуждающихся жильем, минимальным количеством потребительских товаров, необходимых для жизни. Для достойной жизни человека и его семьи требуются заработная плата, занятость, безопасные условия труда и сокращение бедности.*

В главе IV «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» особое внимание уделяется «Справедливой социальной политике, развитию человеческого капитала». Кроме того, 43 цели Стратегии прямо направлены на повышение качества и уровня жизни каждого гражданина[18].

Понятие «социальное государство» впервые было предложено в середине XIX века Лоуренсом фон Штейном[19]. Он говорил, что идея государства состоит в том, чтобы восстановить равенство и свободу, поднять

[17] // Народное слово. 8 декабря 2021 года, № 255 (8004)
[18] https://lex.uz/ru/docs/5841077
[19] Штейн, Л. фон. История социального движения Франции с 1789 г. – СПб.: Тип. А. М. Котомина, 1872. – с. 95.)

бедных до уровня богатых и могущественных, государство «осуществляет экономическое и социальное развитие всех своих членов, ибо развитие одного является условием и результатом другого».

В современном мире светское государство — это государство, в котором религия отделена от государственной власти и управления, управление осуществляется не по религиозным правилам, а по гражданскому праву, а решения не основываются на религиозных принципах. Установлено, что никакая религия или идеология не устанавливаются принудительно государством, что они отделены от государства.

В свою очередь в статье 12 сказано, что, в стране общественная жизнь развивается на основе многообразия политических институтов, идеологий и мнений. А статья 35 Конституции утверждает, что «Свобода совести гарантируется для всех. Каждый имеет право исповедовать любую религию или не исповедовать никакой. Недопустимо принудительное насаждение религиозных взглядов». Таким образом, никакая идеология не может устанавливаться в качестве государственной.

Отношения между религиозными организациями различных конфессий и государством регулируются законодательством, сформировавшимся еще до приобретения страной независимости от 14 июня 1991 года «О свободе совести и религиозных организациях».

На следующем этапе в 1998 году Олий Мажлис страны принимает Постановление «О свободе совести и религиозных организациях» в новой редакции[20].

Спустя три года законодательный орган страны принимает Закон «О свободе совести и религиозных организациях[21]. Закон от 1998 года был доработан и принят с изменениями в 2021 году. Статьей 32 данного Закона было признано положение о том, что некоторые законодательные акты утратили свою силу[22].

[20] Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1998 г., № 5-6, ст. 100
[21] Ведомости Верховного Совета Республики Узбекистан, 1991 г., № 8, ст. 186
[22] Конституция Республики Узбекистан. // Народное слово. 06 июля 2021 г., № 139 (7888)

Принятием 8 декабря 1992 года Конституции Узбекистана важнейшим законодательным актом в этой сфере становится Основной закон страны. Таким образом, в выше указанных правовых документах государство способствует установлению взаимной терпимости и уважения между гражданами, исповедующими различные религии и не исповедующими их, между религиозными организациями различных вероисповеданий, не допускает религиозного фундаментализма и экстремизма, действий, направленных на противопоставление и обострение отношений, разжигание вражды между различными конфессиями. Государство выступает гарантом мирного сосуществования конфессий. Осуществление миссионерства и прозелитизма не допускается.

В соответствии со ст. 7 Закона О свободе совести и о религиозных организациях» государство не возлагает на религиозные организации выполнение каких-либо государственных функций, не вмешивается в их деятельность, если она не противоречит законодательству. Религиозные организации не выполняют государственных функций. Государство не финансирует деятельность религиозных организаций и не допускает деятельность, оскорбляющую религиозные чувства верующих.

В Республике Узбекистан не допускается создание и деятельность политической партии и иного общественного объединения по религиозному признаку, представительств и филиалов религиозных партий, создаваемых вне республики, участие религиозных организаций в деятельности политических партий и иных общественных объединений, преследующих политические цели, а также оказание им финансовой или иной помощи.

Новейшая история Узбекистана с первых дней своей Независимости строилась именно на этих принципах и необходимо констатировать, что пройденный путь государства всесторонне доказала правильность выбранной молодой страной политики в этом вопросе.

Известно, что более половины населения страны молодежь в возрасте до тридцати лет. Воспитывая их в духе преданности своей Родине, высокоинтеллектуальными и гармонично развитым поколением особое

значение приобретает вопросы системы образования и религии. Так вот и этому вопросу в новом Законе уделено отдельное внимание. Система образования в Республике Узбекистан отделена от религии. Не допускается включение религиозных дисциплин (за исключением религиозных образовательных учреждений) в учебные программы системы образования.

Право на светское образование обеспечивается гражданам Республики Узбекистан независимо от их отношения к религии. Каждый имеет право на получение религиозного профессионального образования в религиозных образовательных учреждениях. На обучение в религиозные образовательные учреждения принимаются граждане после получения ими общего среднего, среднего специального образования или профессионального образования в соответствии с законодательством. Право на занятие деятельностью по преподаванию религиозных дисциплин в религиозных образовательных учреждениях имеют лица с религиозным профессиональным образованием.

Как отмечает, узбекский политолог К. Раббимов, проживающий во Франции, «Ш. Мирзиёев рассматривает ислам как средство вдохновения, сплочения, либерализации общества»[23]. Это означает, Шавкат Мирзиёев не опасается ислама и традиционности. Он не соглашается с толкованием религии, препятствующем развитию общества. Религиозная многоконфессиональность народа является неоспоримым духовным и политическим богатством Узбекистана.

Наша страна является родиной таких великих ученых и мыслителей, как Аль-Хорезми, Беруни, Ибн Сина, Имам Бухари, Мирзо Улугбек, Алишер Навои, которые внесли несравненный вклад в развитие мировой науки и показали ислам как религия знаний и мира, которой мы по праву гордимся.

В обществе с каждым днем все больше утверждаются такие благородные ценности и человеческие качества, предписанные нашей священной религией, как дружба и согласие, доброта и поддержка, высокая нравственность и порядочность, стремление к науке и просвещению. Особое внимание

[23] https://kun.uz/ru/13785668?q=%2Fru%2F13785668

уделяется глубокому изучению гуманистической сути религии ислам, исследованию и широкой популяризации нашей великой истории и культуры, богатого духовного наследия выдающихся мыслителей.

В республике свободно действуют свыше 230 религиозных организаций, относящихся к 16 конфессиям, проживают представители более 130 национальностей и народностей. Уделяется внимание религиозному образованию: в стране функционируют 4 высших исламских учебных заведения, 10 средних специальных исламских образовательных учреждений, включая 2 женских медресе, а также православные и протестантские семинарии. Активную деятельность ведет Совет по делам конфессий, являющийся эффективной площадкой для диалога между представителями различных религий.

Совсем недавно принят Закон Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции обеспечения свободы совести граждан и государственной политики в религиозной сфере в Республике Узбекистан»[24]. В Концепции в частности определены пять основных направлений в области религиозной политики государства:

- **свобода совести** – это гарантированное конституционное право граждан исповедовать любую религию или не исповедовать никакой;
- **светскость** – система норм и взглядов, предусматривающих этику и поведение, основанная на свободе совести, свободе мысли и в соответствие с Конституцией и законами на гуманистических ценностях и всеобщих интересах;
- **светское государство** – государство, в котором для каждого гарантирована свобода совести, многообразие идеологий и мнений, государственная власть отделена от религиозно-конфессиональных взглядов и институтов и которое при регулировании общественных отношений, принятии решений и их исполнения управляется, основываясь на Конституции и законах, всеобщих интересах;

[24] https://lex.uz/ru/pdfs/7404926

- **светские ценности** – комплекс общечеловеческих принципов, норм м взглядов в обществе, основанных на свободе совести, верховенстве закона, многообразии идеологий и мнений, межрелигиозной толерантности и межнациональном согласии;
- **всеобщие интересы** – совокупность осознанных потребностей общества по созданию необходимых условий для обеспечения прав, свобод и равенства перед законом каждой личности, совместного мирного проживания, справедливого использования материально-духовных благ и развития независимо от пола, расы, национальности, языка, религии, убеждений, социального происхождения, общественного положения.

В целом, можно делать вывод, что современный опыт развития государственно-религиозных отношений в светских государствах направлен на поиск баланса интересов светской и духовной властей в целях обеспечения стабильности и духовной безопасности государства и общества.

Основными характеристиками Узбекистана как светского государства являются: отделение всех конфессий от государственной власти; отсутствие официальной религии и нейтралитет государства по отношению к любым признанным религиозным объединениям; недопущение религиозных организаций к участию в политической жизни общества; равенство перед законом как верующих, так и неверующих; наличие гарантий и реализация свободы вероисповедания; запрет дискриминации по конфессиональному признаку.

Таким образом, наиболее существенной особенностью взаимодействия государства и религии в современных условиях становится сосуществование и сотрудничество для разумного и эффективного управления обществом, в котором функционируют различные конфессии.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Юсупов А. А. Приоритетные направления развития малого предпринимательства в Узбекистане на современном этапе // Достижения науки и образования. – 2018. – №. 18 (40). – С. 23-24.

4. Мамадалиев Н. Эгамназаров А. “Ўрта аср Шарқ алломалари дин ва диний қадриятлар тўғрисида”. // Ўрта аср Шарқ алломалари ва мутафаккирлари тарихий меросида санъат ва маданият масалалари ҳалқаро илмий назарий амалий конференция материаллари. - Тошкент. 2018, - 282 б.
5. Мамадалиев Н. К. Турк дунёси атоқли вакилларининг таълим ва тарбия ҳақидаги қарашлари. // Turkiy davlatlarning o‘zaro manfaatli integratsiyasi – barqaror taraqqiyot kafolati xalqaro konferensiya materiallari. - Тошкент 2024 й
6. Авлиёхонов Т. Порядок празднования праздника песах. // Материалы научно-педагогической конференции “Pedagogical sciences and teaching methods”. Copenhagen, Denmark. 2025

FARG‘ONA VODIYSI IJTIMOIY-MA’NAVIY HAYOTDA MAORIF VA MADANIYAT MASALALARI

Egamnazarov Azamjon Imomnazarovich

Farg‘ona jamoatchilik salomatligi

tibbiyot instituti “Ijtimoiy fanlar”

kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy va ilmiy manbaalarga asoslanib, XIXasr oxiri XX asr boshlarida O‘zbekistonda, xususan Farg‘ona vodiysidagi ijtimoiy-ma'naviy xayot evolyutsiyasida maorif va madaniyat masalalari o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, maorif, jadidlar, Farg‘ona mediklar jamiyati,ta'lim,folьklor,maktab, gimnaziya.

Farg‘ona vodiysi faqatgina O‘zbekistondagina emas, balki Markaziy Osiyoda ham o‘ziga xos xususiyatga egadir. Chor Rossiyasi bosib olganidan boshlab, to mustamlakachilik barham topgunga qadar bo‘lgan vodiy tarixi o‘zining murakkab, ziddiyatli ekanligi bilan ajralib turadi.

Tarixchilar tomonidan Farg‘ona vodiysidagi volost, shahar va tumanlari, aholisi, kishloq xo‘jaligi, sanoati tarixi haqida ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan, biroq

mazkur mavzu bo‘yicha deyarli tadqiqot ishlari olib borilgan emas. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1999 yil 18 dekabrda Farg‘ona viloyati saylovchilari bilan bo‘lgan uchrashuvdagi so‘zlari fikrimizning dalilidir: “Bugungi kunda arxeologlarimiz va tarixchilarimiz tomonidan yangi-yangi qazilma va noyob merosimiz namunalari topilayotganligi Farg‘ona vodiysi tarixini chuqurroq o‘rganish lozimligini taqozo etmoqda” .

Turkiston yoki Farg‘ona vodiysi tarixini o‘sha davrda yozilgan, chop etilgan ma'lumotlarsiz, manbalarsiz haqqoniy va holisona yoritib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ushbu mavzuda faqatgina tarixiy ma'lumotlar, o‘sha davrda yashab ijod etgan, Farg‘ona vodiysini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan mutaxassislar, olimlar, sayyohlar va tadbirkorlar, o‘sha davrda barpo etilgan tarixiy obidalar, san'at asarlari, hozirgacha saqlanib qolgan rasmlar, muzey hamda arxiv ma'lumotlaridan foydalandik.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi fanning turli soha vakillari tomonidan o‘rganilgan. Masalan, istoriografik aspektda N.Benidiktova, Ye.K. Betger , M.A.Jabbarovlar, ijtimoiy-iqtisodiy aspektda A.Sharafiddinov, G.Bashpulatov, V.A.Akramov, M.Sharipov, madaniy hayotga tegishli soha A.Umarovlar tomonidan o‘rganilganligini aytib o‘tish mumkin . Lekin bu tadqiqot, monografiya va adabiyotlarda Rossiyaning O‘rta Osiyoni bosib olishi hamda keyingi sovet davridagi mafkura asosida bir yoqlama yoritilganligini kuzatish mumkin.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi Farg‘ona vodiysi tarixiga oid ilmiy izlanishlarda ularning obьektiv, tarixiy-mantiqiy xulosalar asosida qayta ko‘rib chiqilganini ta'kidlash joizdir .

Tadqiqotda yangi o‘lka – Rossiya Turkistoni haqida metropoliya ishbilarmonlari va ziyolilarining ko‘proq ma'lumotga ega bo‘lishlari maqsadida general-gubernator fon K.P.Kaufman tashabbusi bilan nashr etilgan “Turkiston to‘plami” (“Turkistanskiy sbornik”) ma'lumotlaridan keng foydalanildi.

XIX asr oxirlari XX asr boshlaridagi taraqqiyot o‘zining murakkabligi va dinamik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ma'lumki, madaniyat, maorif, ijtimoiy-siyosiy

tafakkur muayyan iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlar negizida vujudga keladi va rivojlanadi. Iqtisodiy, siyosiy hayotning bu murakkab jarayonlari o‘sha davrning ma'rifatli kishilari, olimlari, siyosatchilari, faylasuf va sotsiologlarining asarlarida o‘z aksini topadi.

Bilamizki, jahonda integratsion jarayonlarning kuchayib borishi madaniyatlarning bir-biriga yaqinlashtirish, bir-birini boyitishga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Albatta, bu jarayon har bir milliy madaniyat umumjahon madaniyatiga o‘z hissasini qo‘shishga va o‘ziga xos hususiyatlari bilan uni boyitishga olib boradi. Binobarin, bu jarayonda jahon xalqlarining o‘zaro hamkorligi, bir-birining madaniyatiga hurmat bilan qarashi katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, jamiyat hayotida maorif-ta'lim o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Chor ma'murlari 70-yillarda o‘zlarining tor maqsadlari yo‘lida Turkistonda ta'limni isloh qilish bo‘yicha komissiya tuzgan. 1875 yil may oyida yerli aholiga xalq ta'limi sohasida rus madaniyatini singdirish maqsadida “Turkiston o‘lkasida o‘quv ishlarini tashkil etish haqida Nizom” qabul qilindi. 1876 yilda esa Turkistonda o‘quv ishlari Boshqarmasi tashkil etilib, maorif sohasida chor ma'muriyati siyosatini amalga oshira boshladi .

Turkiston general-gubernatorining 1886 yil 30 iyundagi farmoniga asosan rus-tuzem maktablari ochishga ruxsat berildi. Andijonda esa shunday maktablarni ochish haqidagi buyruq 1886 yil 1 oktyabrda e'lon qilindi. Shaxsiy tarkibni ta'minlash uchun 720 rublь, o‘quv qo‘llanma, isitish tizimi, yoritish, xizmatchilar yollash va boshqalar uchun yiliga 275 rublь ajratilgan. Andijon rus-tuzem maktabiga Buten, yerli aholidan o‘qituvchi Maxsum Mulla so‘fi oxun Alimov tayinlangan .

Rus-tuzem maktablarida asosan rus tili, arifmetika, umumiy tarzda tarix, geografiya, tabiatshunoslik, islom asoslari fanlari o‘qitilar edi. 1913-1915 yillarda shunday maktablardan 160 tasida 464 ta o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatib, 17299 nafar o‘quvchilar o‘qigan.

Turkistonda, jumladan, Farg‘ona vodiysida ham xorijiy o‘qituvchi – pedagoglar salmoqli foizni tashkil etar edi. Ular orasida har xil mutaxassisliklarga ega bo‘lgan

yuzlab o‘qituvchi - nemislar faoliyat ko‘rsatganlar. Ular qatoriga kommersiya bilim yurti o‘qituvchisi M.G.Shott, Real bilim yurti o‘qituvchisi M.F.Mazing, A.M.Fonkun, ayollar gimnaziyasi o‘qituvchisi N.A.Freyfer , rus-tuzem maktabi o‘qituvchisi G.Shelling, N.G.Gut va boshqalarni kiritish mumkin.

Viloyat markazi - Yangi Marg‘ilon boshqa shaharlarga nisbatan tezroq rivojlandi. Bunga sabab bu yerda ko‘plab madaniyat va ta'lim o‘choqlari ochildi. 1879 yilda shaharda birinchi bo‘lib erkaklar to‘rt yillik bilim yurti, ayollar maktabi ochildi. 1889 yilda butun Yangi Marg‘ilon shahridagi rus va musulmon o‘quv yurtlarida 138 nafar o‘quvchi ta'lim olgan.

Rus-tuzem maktablar bilan bir qatorda eski maktab va madrasalar ham o‘z faoliyatini to‘xtatmagan. Masalan, 1884 yilda Andijonda 14 ta madrasa bo‘lib, ularda 409 ta talaba ilm olgan bo‘lsa, 1892 yilga kelib madrasalar soni 16 taga yetib, ularda 49 ta mudarris (o‘qituvchi), talabalar soni 677 nafarga, 1908 yilda madrasalar soni 17 tani, talabalar 998 taga, 1913 yilda esa madrasalar 19 tani, talabalar esa 1061 nafarni tashkil etgan .

Arxiv ma'lumotlariga ko‘ra, XIX asrning oxirida Farg‘ona va Sirdaryo oblastlari madrasalarining faqat yettitasida, jumladan, Andijondagi Oq-Machit madrasasida kutubxona mavjud bo‘lgan. Shuning uchun ham o‘quv qo‘llanmalarini (qo‘lyozmalarni) talabalar o‘z hisobidan sotib olgan.

XIX asrning oxirlari - XX asr boshlaridagi sanoat, ishlab chiqarish, savdo va boshka maishiy sohalarning rivojlanishi maktablar oldiga qator talablarni qo‘ya boshladi. Chunki eski bilimlar bilan zamonaviy texnikaga asoslangan sanoatni boshqarib bo‘lmaydi, demak, o‘quvchilarga zamonaviy fanlarni o‘qitishni hayotning o‘zi talab qilab boshlagan. Shuning uchun ham asta sekin yangi uslubdagi milliy maktablar ochila boshladi. Ana shunday maktab ilk marotaba Andijonda 1897 yilda Sultonmurodboyning paxta zavodi binosida, keyinchalik 1899 yilda, Yangi Marg‘ilonda esa 1898 yilda ochildi.

Shuningdek, ishlab chiqarish, sanoat va boshqa sohalarda ishlash uchun ham mutaxassis kadrlarni tayyorlash katta ahamiyatga ega edi. Shunga ko‘ra 1879 yil 12

fevraldagi Turkiston general-gubernatorining buyrug‘i bilan Andijonda erkak va ayollar bilim yurti ochilishiga ruxsat berildi. Andijonda ikki sinfli erkaklar bilim yurti faqatgina 1880 yil 27 aprelda, 1880 yil 7 mayda esa ikki sinfli ayollar bilim yurti ochildi. Bilim yurtlari besh yillik bo‘lib, ularda ilohiyot, rus tili, arifmetika, geografiya, tarix, fizika, musiqa fanlari o‘qitilgan. Qizlar bilim yurtida bu fanlardan tashqari chevarchilik ham o‘rgatilgan.

1882 yildan boshlab ikki sinfli erkaklar bilim yurtida hunarmandchilik kursi ochildi. Endilikda slesarlik, tokarlik va muqovalovchilik kasblari ham o‘rgatila boshlangan. Har yili bu hunarlarni o‘rgatish uchun davlat xazinasidan 450 rublь ajratilgan .

Farg‘ona vodiysida ilk boshlang‘ich temir yo‘l bilim yurti 1909 yilda Andijon stantsiyasida temir yo‘lchi ota-onalarning iltimosiga ko‘ra ochildi. Ushbu bilim yurtida 1911 yil 1 yanvarь holatiga ko‘ra 39 nafar o‘quvchi bo‘lib, ulardan 26 tasi o‘g‘il, 13 tasi qizlardan iborat edi.

1916 yildagi ma'lumotga ko‘ra, Andijon erkaklar gimnaziyasida 252 ta, qizlar gimnaziyasida esa 295 nafar o‘quvchi tahsil olgan.

1915 yilda qizlar gimnaziyasida xizmatchilarning umumiy soni 23 tani, 1916 yilda 28 tani tashkil etib, direktor, bosh nazoratchi, din muallimi, ayol-vrach, 16 ta o‘qituvchi, 7 ta sinf nazoratchisi va ish boshqaruvchilardan iborat bo‘lgan. Har bir o‘quvchi qizning bir yillik o‘qish haqi o‘rtacha 85 rublь 17 kop.ni tashkil qilgan. Gimnaziyadagi 16 ta fan o‘qituvchilaridan 3 tasi nemis millatiga mansub bo‘lgan.

Bunday milliy maktablar, rus-tuzem maktablari, erkak va qizlar gimnaziyalarida o‘qitishning yevropacha usulda olib borilishi madaniy taraqqiyot uchun katta ahamiyatga ega edi. Bunday yevropa usulidagi va dunyoviy fanlarni o‘qitadigan maktablar Rossiya Turkistonni bosib olgunga qadar birorta ham bo‘lmagan. Lekin bunday o‘quv yurtlarida ko‘proq amaldor va boylarning farzandlari o‘qigan, chunki hammaning ham 85 rublni to‘lashga qurbi yetmas edi. Davlat hisobidan esa juda oz mablag‘ ajratilar edi. Shunga qaramasdan, 1880-1914 yillarda Andijonda 5 ta boshlang‘ich sinf maktablari (rus-tuzem maktablari bilan) va ikkita o‘rta maktablar

ochildi. Rus-tuzem maktablarida mahalliy aholi farzandlarining yevropa millati vakillari bilan birga o‘qishi yaxshi natija berar edi.

Qo‘qonda 90-yillarda ta'lim sohasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, maktablardagi darslar endilikda arab tilida emas, ona tilida o‘tila boshladi, yangi usulda o‘qitiladigan milliy maktablar ochildi. Ana shunday maktablar soni shaharda 7 ta bo‘lib, ularni mahalliy paxta zavodlarining egalari moddiy-moliyaviy ta'minlab turgan. 1906 yilda ishbilarmonlar tashabbusi bilan Kommersiya bilim yurti, 1912 yilda esa qizlar gimnaziyasi va oliy boshlang‘ich maktab ochildi .

Bunday maxsus o‘quv maskanlarining asrimiz boshida ochilishi Skobelov va Qo‘qon shaharlari aholisining turmush madaniyatining yuksalishida katta rolь o‘ynadi. Tadqiqotchi A.M.Matveyevning ko‘rcatishicha, XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda 150-200 dan ko‘proq Germaniya va Avstriya fuqarolari guvernant va o‘qituvchi sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

Bu yerda pedagog sifatida faoliyat ko‘rsatgan Ya.A.Dorman, A.M.Baranov, I.TSukervanik, A.Konarev, M.V.Kats-Nelьson, N.N.Polushin, E.TSindelь va boshqa yuzlab kishilar o‘sha davr Qo‘qon ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib, nafaqat Qo‘qonning, balki butun Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida ham muhim rolь o‘ynaganlar.

1914 yilda Skobelev shahar maktab shahobchalarida 2 ta gimnaziya (600ta o‘quvchi), 1 ta ayollar bilim yurti (120 ta o‘quvchi), 5 ta shahar Prixodskiy bilim yurti, 1 ta uch sinfli arman Prixod maktabi, 1 ta maktab mahalliy aholi bolalari uchun faoliyat ko‘rsatgan. Bundan tashqari, 8 yoshlilar uchun 1 ta xususiy maktab ochilgan bo‘lib unda 50 nafar boy va amaldorlarning bolalari ta'lim olgan . Jami maktab va bilim yurtlarida 1914 yilda 1377ta o‘quvchi tahsil olgan . O‘qituvchi-murabbiylarning asosiy qismi shu yerdagi davlat xizmatida bo‘lgan xizmatchi va harbiylarning oilalaridan bo‘lib, ular orasida nemis millatiga mansub bo‘lganlar ko‘pchilikni tashkil etgan (Sobir bobo so‘zidan yozib olindi, 1900 yilda tug‘ilgan).

“Chig‘atoy tili darsligi” German Vamberi tomonidan 1867 yilda Leybtsigda nashr qilingan. Muallif kitobning qisqacha so‘z boshida bu asarni asosan o‘z sayohati davomida Yevropaga olib ketilgan qo‘lyozmalar, to‘plangan materiallar asosida chig‘atoy tilini o‘rganuvchilar uchun nemis tilida yozganini bayon qiladi. U tillarni qiyosiy o‘rganishning va o‘zi to‘plagan materiallarning ahamiyati haqida shunday deydi: “Xitoydan Dunaygacha bo‘lgan xalqlarning tillari, ularning ichki va tashqi munosabatlari, keyingi taraqqiyoti – hammasi bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir... Bir paytning o‘zida ikki e'tiqodda bo‘lish juda og‘ir ekan. Turkistonning sahro va o‘tloqlarida yalangoyoq, darvesh qiyofasida yurib, til va adabiyotga oid qimmatbaho materiallar yig‘ib kelganim uchun hech kim qarshi bo‘lmasa kerak. Ularning fan rivoji uchun ahamiyati kattadir, degan umiddaman” (Chig‘atoy tili darsligi 7-8 bet).

G.Vamberi o‘z asarida o‘ttizdan ortiq asar haqida nemis va Yevropa xalqlariga ma'lumotlar berishi, uning o‘zbek xalqi hayoti to‘g‘risida juda sinchkovlik bilan tadqiqotlar olib borganligidan dalolat beradi.

Xilma xil adabiy yodgorliklar kitobning xrestomatiya qismida berilgan. Bu qismga yozilgan qisqacha so‘z boshida muallif o‘zi e'lon qilayotgan materiallar Yevropa uchun juda noyob va nihoyatda qiziqarli ekanligini ta'kidlab, bir yuz o‘n ikkita o‘zbek xalq maqolini arab va lotin grafikasida beradi va nemischa tarjimasini keltiradi. Maqollar nihoyatda aniq tarjima qilingan, chunki bu maqollarni xalq hayoti, urf-odati, turmushi va falsafasini o‘rganishda asosiy vosita deb bilgan .

Nemis folьklorshunosi Alьbert Veselьski 1911 yilda “Xo‘ja Nasriddin” nomli 2 tomlik kitobini Vaymerda nashr ettirgan.

1923 yilda nashr etilgan Gustov Yungbauyer “Turkiston va Tibet ertaklari” majmuasida o‘zbek xalqining boy og‘zaki ijodga ega ekanligini, ayniqsa, ertaklarni to‘plash, ularga kiritish, buning uchun esa, mahalliy xalq dastlab o‘z tilida bu ishlarni bajarishi kerakligini uqtirib, shunday yozadi: “Turkiston xalq ertaklarining tili to‘g‘risida biror narsa yozishim og‘ir, chunki men ularni turkiy tillarida hech qayerda uchratmadim. Men bu ertaklarni rus tilidan o‘girdim. Hozirgi kungacha Turkiston xalq og‘zaki ijodi faqat Yevropa olimlari tomonidan o‘rganilib, yozib

olinmoqda va boshqa tillarga tarjima qilinmoqda. Men Ostrotsiyevning 1906 yilda chop etilgan “Skazki sartov” ertaklar to‘plamidan tanladim” .

G.Yungbauyer o‘zbek ertaklarini nemis tiliga tarjima qilib, o‘zbek nemis folьklor aloqalari rivojiga katta hissa qo‘shdi. Uning tarjimasida ertak aytuvchi va yozib oluvchilar haqida ham ma'lumotlar beriladi. U o‘zbek, nemis, italьyan, turk, kavkaz xalqlarining ertaklarini taqqoslaydi.

Nemis-o‘zbek an'anasini davom ettirgan yirik nemis folьklorshunos olimi doktor Flaysher bo‘ldi. U o‘z kitobini Leyptsig shahrida “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” nomi bilan nashr ettirdi.

1914 yilda Brokkelьman “Devoni lug‘otit turk”ning barcha she'riy parchalarini, F.Xommel esa shu lug‘atdagi maqollarni yig‘ib, ularni nemischaga tarjima qildi va nashr ettirdi.

XIX asr o‘rtalarida boshlangan o‘zbek folьkloriga ilmiy qiziqishlar keyingi davrlarda ham davom etdi. Ular o‘zbek folьklorini faqat nemis tiliga tarjima qilib qolmasdan, ularni to‘pladi, Yevropa orqali jahon xalqlariga tanishtirdi. Ularning tarixi, mohiyati va chuqur ma'nosini izohlab berdilar.

Arxiv materiallarini o‘rganish jarayonida 1904 yilda Andijon shahrida ikkita - yozgi va qishki sirk binolari bo‘lganligi aniqlandi .

Bu va boshqa binolarda Rossiya shaharlaridan va boshqa chet ellardan kelgan artistlar va sirk artistlari, havaskorlar tomoshalar ko‘rsatgan. “Turkistanskiye vedomosti” gazetasi: “Shu kunlarda Andijonga anonslarga qaraganda qandaydir “Buf” truppasi kelyapti. Maks Sirki ketdi. Yaxshi pul ishladi” kabi xabarlarni bergan. 1912 yili Moskvadagi nemislarning “Robert-Kents” firmasi ekspeditsiyasi marg‘ilonlik Madali hofizning “Abdurahmonbegi” turkumidagi ashulalarini gramplastinkaga yozib olgan va hozirda 440-raqam bilan san'at muzeyida saqlanmoqda .

XIX asrning oxirlariga kelib Turkistonning turli shaharlarida ham ilmiy jamiyat va tashkilotlar o‘z faoliyatlarini boshladi. 1877 yilda Skobelevda shahar iqlimini o‘rganish uchun meteorologik stantsiya tashkil qilindi.

1896 yilda Turkiston geograflar jamiyatining Farg‘ona bo‘limi, tez orada Farg‘ona qishloq xo‘jaligi jamiyati hamda Farg‘ona mediklar jamiyati 1897 yildan o‘z faoliyatini boshlagan.

Farg‘ona vodiysi iqtisodiy-madaniy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan, Yangi Marg‘ilonda ilg‘or ziyolilarning tashabbusi bilan tashkil etilgan Oblastь statistika qo‘mitasi o‘z ma'lumotnomalarida asosan vodiydagi ishlab chiqaruvchi kuchlar, xalq xo‘jaligi, aholi, ularning ish faoliyatlari, ma'muriy-xududiy masalalar bo‘yicha xabar va umumiy sharhlar berib borgan. Bunday Qo‘mitalar keyinchalik Turkistonning boshqa oblastlarida ham tashkil etilgan .

Viloyatda nashr ishlari, har xil tashkilot va jamiyatlarning ish qog‘ozlari, blankalarini tayyorlash uchun tipografiyaga ehtiyoj tug‘ildi. Shuning uchun ham 1911 yili Skobelevda 2ta tipografiya ochildi.

Shuningdek, 1915-1916 yillarda Qo‘qonda ijtimoiy, siyosiy, adabiy va iqtisodiy hayotni qamrab olgan “Ferganskaya jiznь”, “Turkistanskiy kray” gazetalari chiqa boshladi. Yuqoridagi gazetalarning deyarli barchasi rus tilida nashr etilgan bo‘lib, faqat rus va rus tilini biladigan chet elliklar uchun edi. 1914 yildan chiqa boshlagan “Farg‘ona sadosi”, “Golos Ferganы” gazetalari esa xaftada 3 kun rus tilida, 3 kun o‘zbek tilida nashr qilingan.

Tipografiyalar Qo‘qonda 3ta bo‘lib eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Eng eskisi Sh.D.Belьskiy tipografiyasi bo‘lib, 1911 yilda Rimda o‘tkazilgan Xalqaro ko‘rgazmada oltin medal bilan mukofotlangan.1913 yilda “Qo‘qon birja qo‘mitasi” xabarnomasining uchta sonini nashr qilgan “G.Shumanova, M.Chekalina va K.“ birlashmasi tashkil qilindi. 1914 yilda eski shaharda Obidjon Maxmudov tipografiyasi ochilib, “Farg‘ona Sadosi” gazetasi o‘zbek tilida chop etila boshladi.

Bundan tashqari, Qo‘qon tipografiyalarida faqat gazeta emas, balki kitob va Qo‘qon rasmlari tushirilgan otkritkalar aptekachi va noshir nemis E.Vilьde tipografiyasida nashr ettirilgan.

Qo‘qonda ushbu davrda tipolitografiya (tosh bosmaxona) ning ham paydo bo‘lishi qo‘l ishini yengillashtirib, ish samaradorligini orttirdi. 1909 yilda 2 ta tipolitografiya mavjud bo‘lib, 19 ishchi ishlagan. Ular litografirovatь qilingan kitoblarni o‘zbek tilida bosmadan chiqargan .

Birinchi ommaviy, ishchi va xizmatchilar uchun kutubxona 1903 yilda Qo‘qon temiryo‘lchilari tomonidan ochilgan. Bundan avvalroq harbiy va jamoat yig‘inlari uchun, asosan tor doiradagi odamlarga xizmat ko‘rsatadigan uncha katta bo‘lmagan kutubxona ham mavjud bo‘lgan.

Shuningdek, 1914 yilda Qo‘qonda ochilgan ikkita kitob magazini orqali qo‘qonliklar va atrofdan kelgan mehmonlar o‘zbek va rus tillarida kitoblar harid qilish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

XX asr boshlarida Yangi Marg‘ilonda shaharlararo telefon, telegraf, pochta xizmati ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, shaharda 99 telefon abonentlari mavjud bo‘lgan. 1913 yilning o‘zida Qo‘qon shahrida 377 ta telefon tochkasi o‘rnatilgan . Shuningdek, shaharda transport xizmati ham tashkil qilingan bo‘lib, arava va izvoshchilar xizmat qilgan. Shaharlararo aloqalar ham arava, izvosh yoki ot orqali amalga oshirilgan.

Shaharda ko‘pchilikni tashkil etgan yevropa millatiga mansub kishilar ommaviy sport ishlarini ham tashkil etganlar. Bu yerda 1912 yilda Markaziy Osiyodagi ilk futbol komandasi tashkil etilgan va Skobelev futbolchilari to‘garagi deb atalgan. Ushbu komanda 1915 yilda Turkiston o‘lkasi musobaqalarida 1-o‘rinni egallagan. Shu bilan birga sportning boshqa turlari Valetrek, tir, ot sporti to‘garaklari ham tashkil etilgan. Bu to‘garaklar ichida Shmidtning ot sporti haqida alohida to‘xtalib o‘tish kerak. U parvarishlagan ko‘plab zotdor otlar ot sporti bo‘yicha o‘tkazilgan barcha musobaqalarda qatnashgan. Bu xilma-xil chiroyli otlarning dovrug‘i butun vodiyga ovoza bo‘lgan.

1894 yilda Farg‘ona vodiysi madaniy hayotida birinchi marta viloyat bo‘yicha tashkil etilgan sanoat, qishloq xo‘jaligi, madaniyat ko‘rgazmasi (vыstavka) ochildi. Ko‘rgazmaning asosiy tashkilotchisi olim-agronom German Ottendorf edi. U vodiy qishloq xo‘jaligi rivojlanishida katta xizmat qilgan, 1894 va 1913 yillardagi ko‘rgazmalarning tashkilotchisi, eng yaxshi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirgani va xizmatlari uchun diplomlar bilan taqdirlangan.

Ko‘rgazmadan so‘ng sovg‘a sifatida qoldirilgan ko‘plab kitoblar, buyumlar, shaxsiy kollektsiyalar, qimmatbaho tarixiy narsa va hujjatlar asosida G.Ottendorf birinchi muzey tashkil etilishining faol ishtirokchisi bo‘ldi. Muzey uchun gubernator uyining ikkinchi qavatidan to‘rtta xona ajratilgan.

1899 yilning 25 mayida muzeyning rasmiy ochilishi bo‘ldi. Dastlab muzeydan 1200 dan ortiq kitoblar joy olgan edi. Keyinchalik muzey qoshida kutubxona ochildi. Muzey va kutubxona o‘sha davr va keyingi davrlar uchun katta voqea edi. Chunki ana shu eng nodir buyum, narsa, esdalik, mashhur kishilarning shaxsiy buyumlarini saqlab qo‘yish va yetkazib berish vazifasini bajarishda kelajak avlodlar oldida mas'ulmiz.

Farg‘ona viloyat Xalq muzeyida dastlab jami 2223 ta kitob va ko‘plab buyumlar bo‘lib, 8 ta bo‘lim faoliyat ko‘rsatgan. Muzeyning Nizomi 1897 yil 4 iyulda general-adьyutant Obruchov tomonidan tasdiqlangan.

Muzey boshqaruvida 100 ta haqiqiy a'zo va a'zolikka nomzodlar bo‘lib, ular Farg‘ona vodiysida eng hurmatli olimlar, mutaxassislar, o‘z ishining ustasi bo‘lgan ziyolilarning vakillari edilar.

XX asr boshlarida Germaniyaning Berlin, Drezden, Nonn, Xaydelьberg, Darmshtadt kabi shaharlariga mashinasozlik, elektr, falsafa, kimyo, to‘qimachilik sanoati, ziroatchilik, injenerlik sohalari bo‘yicha malakali milliy kadrlar tayyorlash uchun S.Usmoniy, Ahmad Shakuriy, Sattor Jabbor, Ahmad Noyim, Shamsilbonotxonim, Ahmadjon Ibrohim kabi talabalar birinchilardan bo‘lib o‘qishga yuborilgan.

O‘z navbatida Germaniyadan Turkistonga doktor fon Vinner kabi olimlar ham taklif qilinib, ular bilan ilmiy-pedagogik hamkorlikni rivojlantirish sohasida ishlar olib borilgan .

Nemislarning ajoyib farzandi, Turkistonni, xususan, Farg‘ona vodiysini yaxshi bilgan, uning betakror, go‘zal tabiatini, odamlarini sevgan inson, rassom Fridrix Kraus (1826-1894) edi. Uning o‘nlab vodiy tabiati, o‘sha davr kishilari, turmush tarzi va voqealari aks ettirgan rasmlari bizgacha yetib kelgan.

Xojanazar Huvaydo XVIII asr o‘zbek badiiy adabiyoti va tasavvur falsafasining yirik vakili, o‘z zamonasining ilg‘or ma'rifatparvar ziyolisi, ilohiyot va fiqh ilmining chuqur bilimdoni sifatida tarixda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shoir.

Uning bizgacha yetib kelgan adabiy-falsafiy merosi ancha salmoqli bo‘lib, 400 ga yaqin turli janrlardagi she'riy asarlari ma'lum. Shoir yashagan davr ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va maishiy, madaniy muhit va adabiy til xususiyatlari to‘g‘risidagi muayyan tasavvur va bilimlar uning “Rohati dil” dostonida berilgan .

Huvaydoshunos faylasuf olim Q.Ro‘zmatzoda shoirning merosi haqida fikr bildirar ekan, uning “Rohati dil” dostonida halollik, to‘g‘rilik, diyonat, ma'rifatparvarlik g‘oyalarining ibratli hayotiy misollar orqali keng targ‘ib etilishi, boylikka xirs qo‘yish, nafs balosiga berilish, amalparastlik, xasislik kabi jamiyatdagi illatlarning keskin qoralaganligiga to‘xtalib o‘tadi.

Ana shunday ajoyib shoir, faylasuf Xojanazar Huvaydo haqida biz mustaqillikka erishganimizdan keyingina chuqurroq ma'lumotga ega bo‘ldik. Vaholanki, shoir hayoti va ijodini XX asr boshida nemis mutafakkiri Martin Xartman chuqur o‘rgangan. Muallif O‘sh, Andijon, Farg‘ona va Chimyonni kezib chiqib, u haqidagi ma'lumotlarni to‘plagan va 1902 yilda Berlinda Huvaydoning “Devoni chig‘atoycha” nomli kitobini nashr qilgan va birinchi bo‘lib Yevropa ilm ahlini Huvaydoning adabiy-falsafiy merosi bilan tanishtirgan.

Ana shu asar hozir paytda dunyoning Germaniya, Angliya, Frantsiya, AQSh, Ispaniya davlat kutubxonalarida saqlanmoqda.

Tarixdan ma'lumki, davlatning iqtisodiy taraqqiy etishi eng zamonaviy ishlab chiqarish texnikasini yaratishga bog‘liq. Buni bugungi kunimizda ham rivojlangan mamlakatlar misolida ko‘rib turibmiz. Shunday ekan, zamonaviy texnikani yaratadigan mutaxassislar, ziyolilar, bilimdon yoshlarning o‘qish, o‘rganish va izlanishlar olib borishi maktab hamda maorifga bog‘liq. Ana shunday yoshlarni tayyorlash mamlakat taraqqiyotini belgilab beradi. Bu borada yana XX asr boshlarida “Jadidchilik” deb nom olgan harakatning g‘oyalarini eslab o‘tish kerak.

Jadidlar harakatining darg‘alari maktab, maorif sohasida juda katta targ‘ibot ishlari olib bordilar. Savod chiqarish uslubining yangicha shakllarini ijod qildilar. 1883 yilning 10 aprelida I.G‘aspirali boshchiligida “Tarjimon” nomli gazetaning birinchi soni bosmadan chiqdi. Gazetadagi maqolasida u “Suyukli do‘stlarim, bizning uchun eng go‘zal ish ilm va maorif ishidir. Eng muqaddas intilish ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat va bilimdir. Bilim madaniy turmushga yetishish vositasidir. Madaniy turmush esa insonning yashash maqsadi usulidir...” , - deb murojaat qiladi.

Jadidchilarning atoqli namoyondalaridan yana biri Mahmudxo‘ja Behbudiy Yevropa ta'limiga havas qilib: “Ovropa ila savdo qilaturg‘on kishi avvolo zamona ilmi o‘qimog‘i lozim. U millat taraqqiyotining ma'naviyati ham tarbiyasi, ham iqtisodi, ham ma'rifati”,- degan edi.

Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li ham yoshlarni bilim olish uchun chet ellarga borishiga, u yerda ilm-fanni mukammal o‘rganib olishlikka da'vat etdi. U 1916 yilda so‘zlagan nutqida shunday deydi: ”O‘zbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib o‘qitishga juda muhtojmiz, bolalar o‘qub, ilm olib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar” .

Bulardan ko‘rinib turibdiki, jadidlar mamlakat taraqqiyoti mahalliy kadrlarga, ularning bilim va salohiyatiga bog‘liq ekanligi masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Demak, faqat germaniyaliklar Turkistonga qiziqmagan, balki, XX asr boshlariga kelib, turkistonliklar ham ko‘proq Yevropaga-Germaniyaga intilgan va uning yordamiga muhtoj bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysi o‘zining qulay tabiiy iqlimi, boy zahiraga ega bo‘lgan yerosti va yerusti tabiiy boyliklari va mehnatkash aholisi bilan qadim zamonlardan buyon xorijiy davlatlar e'tiborini tortib kelgan. Jumladan, o‘lkani har tomonlama o‘rganish maqsadida o‘nlab, yuzlab nemis mutaxassislari Turkistonga, xususan, Farg‘ona vodiysiga kelganlar. Faqatgina 1871 yildan 1914 yilgacha bo‘lgan davrda Avstriya va Germaniyadan 50 dan ortiq olim-tadqiqotchilarining kelganligi, turli ijtimoiy jamiyatlar tomonidan o‘ndan ortiq ekspeditsiyalarning o‘tkazilganligi fikrimizning isbotidir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyat-mazmuni, asosiy yo‘nalishlari umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg‘unligini anglash, har bir millatning tili, tarixi, qadr-qimmati, urf-odati va an'analariga yuksak e'tibor, ehtirom va hurmat bilan qarashni taqozo etmoqda.

XIX asrning oxiri - XX asr boshlaridagi mamlakat tarixi shunday murakkab, ziddiyatli davr hisoblanadiki, unga ob'ektiv yondashmasdan turib, keyingi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotdagi o‘zgarishlar haqida holisona xulosalar chiqarib bo‘lmaydi. Nemis Assosatsiyasining Xalqaro hamkorlik instituti (II.ZIDVY) Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi vakili Uve Gartenshleger fikri buni tasdiqlaydi: “Insoniyatning birorta ham buyuk madaniyat egalari o‘tmish haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishdan voz kechmagan, chunki faqat o‘tmishni bilgan odamgina o‘z kelajagini ko‘rishi mumkin” .

Olib borilgan tadqiqotlar U. Gartenshleger fikrini umumlashtirganday bo‘ladi. Tirik tarixiy shaxslar XX asr boshlarida nimalar bo‘lib o‘tganligini, ajdodlarimizning taraqqiyotimizga qo‘shgan hissalari haqida, shohidlar boshidan kechirgan, so‘zlab berishi mumkin bo‘lgan narsalar xaqida aniqroq tasavvurga ega bo‘lishga, “avlodlar o‘rtasidagi muloqot odamlarga haqiqatni afsonadan farqlashga va aniq hayotiy mo‘ljalga ega bo‘lishda ko‘maklashadi, shuningdek, taqdirlar va turli oilaviy rivoyatlar haqidagi xotiralarni saqlab qolishga imkon beradi”.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysi ijtimoiy-madaniy hayoti ziddiyatli, tahlikali davr bo‘lishiga qaramasdan fan-

madaniyat sohasida faoliyat ko‘rsatgan xorijiy mutaxassislar mamlakatimiz taraqqiyotiga salmoqli hissalari borligi ko‘rsatib o‘tildi. Ular xalqimizni oziq-ovqat, sanoat mollari bilan ta'minlash, og‘ir qo‘l mehnatini yengillashtirish, sog‘liqni saqlash, turmush tarzini o‘zgartirish va ma'naviyatli-ma'rifatli qilish uchun imkon darajasida yordam berib, qo‘llab-quvvatlaganlar.

Hozirgi kundagi mamlakatimizda olib borilayotgan barcha sohalardagi islohotlar, eng avvalo, Vatanimiz tarixini, uning o‘ziga xos xususiyatlarini, taxlikali, ziddiyatli tomonlarini ob'ektiv o‘rganishga qaratilganligi bois, biz olib borgan tadqiqotlar ham ana shu jarayonning bir tomoni sifatida qaraldi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1.Karimov I.A. Ilm-fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin. // Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T.: O‘zbekiston, 1995

2.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O‘zbekiston, 1997.

3.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., O‘zbekiston, 1998.

Ma’naviyat va talaba- yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi.

A.Egamnazarov. FJSTI

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi

katta o‘qituvchisi

Sharipova Gulxayo – FJSTI- 1 kurs talabasi

Bugun O‘zbekistonda ma'naviy yuksalishlarni ta'minlovchi demokratik, huquqiy, insonparvar, o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlarni qo‘yib, tinch-osoyishta xayot kechirayotgan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanib dunyoviy va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz

Odamzod uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo‘lib kelgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat xayotidagi o‘rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlarini har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etilishi, bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongiga turli zararli g‘oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor berilishi fikrimiz dalilidir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar asosida insonning, ayniqsa talaba yoshlarning ma'naviy olamini to‘ldirib, iymon-e'tiqodini, xulq-atvorini, ahloq-odobini, butun bir ijtimoiy falsafiy tizimini boshqarib to‘g‘ri yo‘lga soluvchi, xayot qiyinchiliklari – yaxshi va yomon kunlarda, turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri xulosa chiqaruvchi, o‘z hayotini to‘g‘ri boshqarish imkoniyatini beruvchi “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etish milliy dasturi Respublikamiz o‘z rivojlanish yo‘lidan tezroq borishi uchun xalq ma'naviyati, turmush tarzini, milliy g‘ururini beto‘xtov yuksaltirib borishni talab etadi. (Aminova M., Djuraboyeva O. “Yoshlarda mustaqil fikrlash jarayonini rivojlantirishning ayrim ijtimoiy falsafiy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Farg‘ona, 2004, 18-bet.)Bizga ma'lumki, ma'naviy jihatdan qoloq mamlakat hech qachon buyuk mamlakat bo‘la olmaydi. Demak, rivojlanish taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk kishilar hal qiladi. Ma'naviy yetuklikni esa vatanparvarliksiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Vatanparvarlik deganda eng avvalo, o‘z vatanini, xalqini, tuprog‘ini sevish, ularning mohiyatini anglab yetish, ularning oldida turgan ulkan vazifalarni hal qilish tushuniladi.

Demak, mamlakatimizdagi har bir fuqaro vatani, xalqining tarkibiy qismi deb bilib, vatan oldidagi o‘z burchini onglilik, fidoiylik bilan ado etsagina vatanparvarlik e'tiqodi mustaqil mamlakatimiz taraqqiyotiga katta ta'sir etuvchi ma'naviy kuchga aylanadi.

Akademik Erkin Yusupov fikricha, vatanparvarlik tug‘ma, irsiy hususiyat emas, balki muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyatda, ta'lim tarbiya natijasida shakllanadigan ma'naviyatdir. (E.Yusupov. “Inson kamolotining ma'naviy asoslari”. “Universitet” 1998. 67-bet) U esa o‘z navbatida insonda ilmiy vatanparvarlik, axloqiy teranlik, xuquqiy savodxonlik, burch, vatanparvarlik mas'uliyatini chuqur his qilish, poklik, halollik, fidoiylik, mehnatsevarlik, sadoqatlilik singari fazilatlarni shakllantiradi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, - Odamlarimiz, xalqimizning mafkurasida vatan, yurt g‘oyasi ustuvor bo‘lishi kerak. Milliy g‘urur, milliy iftihor har qanday ishimizning poydevori bo‘lmog‘i kerak.

Bugungi kunda ham xalqni yaxshi qila oladigan ishlar va g‘oyalar oz emas, ularning ichida eng ulug‘i, eng oliyjanobi – O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini ta'minlashdan iborat. Ana shu maqsad, ana shu g‘oya atrofida birlashsak, aslo hor bo‘lmaymiz. Xalqimizning ruhini ko‘taradigan, qalbiga nur olib kiradigan, o‘z kuchiga va ertasining buyukligiga ishonch tug‘diradigan muhim g‘oya bor. Bu g‘oya bu kishilarni birdamlik, ahillik, yakdillikka undaydi.

Bu muqaddas g‘oyalar millatning vatanparvarlik e'tiqodidan qat'iy nazar, shu yurtda, shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog‘i, har birimiz uchun eng kata tayanchga, eng katta ishonchga, boringki, haqiqiy iymonga aylanishi kerak.

Istiqlolni himoyalash, uni qadrlash, ulug‘lash, vatanparvarlik, unga hizmat qilish bizning ongimizga, aqidamizga aylansagina bizni tanlagan yo‘limizdan hech qanday kuch yo‘limizdan qaytara olmaydi, qaddimizni buka olmaydi.

Vatanparvarlik e'tiqodi har birimizning qonimizga singib, kelajak avlodlarga muqaddas meros bo‘lib o‘tish kerak.

Bugungi taxlikali kunlarimizda yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik g‘oyalari yoki vatanparvarlik tarbiyasi biz o‘ylaganchalik emasligi juda achinarli holdir. Ayniqsa, yoshlar xususan talaba yoshlar dunyoqarashi o‘rganilganda kutilgan natijalarni bermadi. Eng avvalo, talabalarning vatanparvarlik nima ekanligiga, Vatan

nima ekanligiga, mustaqillik, istiqlol mafkurasi nima ekanligiga aniq, lo‘nda javob bera olmasligini qanday izohlash mumkin? Bundan tashqari hozirgi yoshlardagi qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham pul topish, boylik orttirish kayfiyati bizning yuqoridagi dunyoqarashimizga ziddir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimizdagi siyosiy vaziyat, uni keltirib chiqarayotgan ham aynan shu vatanparvarlik tarbiyasining yetishmasligida emasmikin? Mamlakatimizda ro‘y berayotgan ba'zi noxush voqealarda yoshlarning ishtiroki borligi ular o‘rtasida jiddiy tarbiyaviy ish olib borish zarurligini ko‘rsatmoqda. Buning uchun o‘rta-maxsus va oliy ta'lim muassasalarida tarix, falsafa,huquq, adabiyot va dinshunoslik singari fanlarni o‘qitishga ularning tarbiyaviy vositalaridan unumliroq foydalanishga etiborni kuchaytirish zarur. Masalan, tarix darslarida yoshlarning o‘zi yashayotgan qishloq, tuman, shaharning shonli o‘tmishi, etnografiyasi, bu yerda yashagan atoqli kishilarining Vatan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, madaniyatimiz taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida to‘laroq ma'lumot berilsa, yosh avlodda ular bilan fahrlanish an'analarini davom ettirish, merosni asrash va sadoqat bilan hizmat qilish istagi paydo bo‘lishi tabiiydir.

“Mustaqillik menga nima berdi? -deb emas, balki men mustaqillik uchun nima qildim?” – deb yashash yoshlarning vatan oldidagi o‘z burch va vazifalarini qanday darajada angayotganligidan dalolat beradi. Bunda ularga huquq fanlaridan olgan bilimlari katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda ayniqsa, adabiyotning imkoniyatlari kattadir.

Binobarin, adabiyotning niyati ezgulik, shiori ozodlikdir. Undagi har bir asardan ana shu fazilatlarni topish va targ‘ib etish mumkin. Aytaylik, Maxmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasidagi o‘qimagan bolaning ota qotiliga aylanishi, Fitratning “Abulfayzxon” dramasi qahramoni Ibrohimbiy timsolini tahlil etish bilan yurtparvar, adolatparvar insonning mangulikka e'zozlanishini, A. Qodiriyning ”O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlaridagi Yusufbek xoji, Otabek, Mirzo Anvar obrazlarini tushuntirish orqali har qanday vaziyatda ham o‘z niyatidan qaytmaydigan, ya'ni yurt manfaatlarini ximoya qilganliklariga urg‘u berish orqali

yosh avlod qalbiga yaxshi fazilatlar urug‘ini ko‘proq ekish mumkin. Har holda bunday targ‘ibot usullari xamda vositalari yordamida nafaqat yoshlar o‘rtasida, balki o‘z bolalarining bugun nima bilan mashg‘ulligiga e'tibor bermay, ertasini barbod qilayotgan ota-onalar, akalar va umuman keng jamoatchilikning ko‘zini ochish mumkin.

Yuqoridagilarni bugungi hayotimizda yoshlar, ayniqsa, talaba yoshlar o‘rtasida kuzatish mumkin. O‘zlarining axloqlari, yurish-turishlari, ma'naviyati, ota-onalariga, kattalarga, mehnatga, o‘qishga, siyosatga bo‘lgan munosabatlarida ular yaqqol ko‘zga tashlanadi. Axir odam bo‘lish uchun har qanday yo‘l bilan pul, boylik topish shart degani emasku. Shu o‘rinda ma'naviyat- insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudrati ekanligini eslatib o‘tish joizdir. Bu fikrlarni qalbiga jo qilib olishi zarur bo‘lgan yoshlar quyidagi fikrlarni ham bilish foydadan holi xoli emas. Bozor iqtisodiyoti deb inson ma'naviyatini unutish gunoh bo‘ladi. Nuqul pul va foyda ketidan quvsakda, ammo odamlarimiz ruxan qashshoq bo‘lib qolishsa, bunday jamiyatning hech kimga keragi yo‘q.

Ob'ektiv zaruriyat sifatida tarixdan ma'lum bo‘lgan mafkuraviy ta'sirlarni o‘rganar ekanmiz, ularning oldini olish yoki salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nima qilish kerakligini odamlarimiz avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol inson etib tarbiyalash orqali amalga oshirish mumkin. Ularning tafakkurida o‘zligini unutmaslik, ota-onalarning muqaddas qadriyatlarini asrab avaylash va hurmat qilish fazilatlarini qaror toptirish, ularning men o‘zbek farzandiman, deb g‘urur va iftixor bilan yashashiga erishish talab etiladi.

Milliy mafkura, milliy g‘urur, milliy iftixor to‘g‘risida gap borar ekan, eng avvalo bu tuyg‘uni yoshlarda shakllantirish muammolarini xal qilishimiz kerak bo‘ladi yoki farzandlarimiz yuragida ana shu Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatini qaror toptirish, ta'bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur bo‘ladi.

Faylasuflar, tarixchi, siyosatshunos, sotsiolog, psixolog, pedagog va adabiyotshunos olimlar bilimdon, vatanparvarlik, sog‘lom tafakkurga ega bo‘lgan ziyoli odamlarning asosiy vazifalari jamiyatimizda milliy mafkura, milliy g‘oya asosida fidoiy, yoshlar ko‘payishiga yordam beradilar va endigi vazifa ularning intilishi va tashabbuskorliklarini bir nuqtaga to‘plash, bir maqsad sari yo‘naltirish shu asosda milliy mafkuramizni rivojlantirish va xalqimiz ongiga singdirishdan iboratdir deb alohida ta'kidladilar.

Bu gaplardan har bir ziyoli tegishli xulosa chiqarib olishi, asriy orzular, kurashlar evaziga qo‘lga kiritilgan mustaqil, ozod Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrash, ravnaq toptirish uchun o‘zining burchi ekanligini chuqur his etishi lozim.

Demak, vatanni sevmagan, millatiga, elu yurtiga sadoqat bilan xizmat qilmagan, uning tarixi va taqdiriga befarq qaraydigan insonlarda ma'naviyat haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas.

Xalq, millat o‘z milliy ma'naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib boradi. Chunki ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig‘indisi emas, doimiy xarakatdagi uzluksiz jarayon bo‘lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy xayot oldiga qo‘yiladigan talablar ham muttasil paydo bo‘laveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

4. E.Yusupov. “Inson kamolotining ma'naviy asoslari”. “Universitet” 1998.

Некоторые вопросы решения экологических проблем.

Кубатова Робия – Студентка 1 курса Ферганского института общественного здоровья.

Научный руководитель: Эгамназаров А. И. – старший преподаватель кафедры социальных наук Ферганского института общественного здоровья.

Как известно, ежегодно 5 июня во всем мире отмечается Всемирный день охраны окружающей среды. Сегодня, если человечество не уделит серьезного внимания охране экологии как глобальной проблеме, оно приблизится к катастрофе. В повестке дня Всемирного дня охраны окружающей среды – 2020 говорится: "Продукты, которые мы потребляем, воздух, которым мы дышим, вода, которую мы пьем, климат, дающий жизнь планете, на которой мы живем – все это благодаря климату... сейчас сама природа подает нам знак – чтобы заботиться о себе, мы должны прежде всего заботиться о природе". По имеющимся данным, на сегодняшний день экологическая обстановка заметно изменилась на 70% территории земного шара.

По мере усиления давления людей на природу, нарушение природного баланса приводит к тому, что образ жизни, здоровье и воздействие на социальную среду становятся все более катастрофическими.

В течение последних 100 лет увеличение солености мирового океана, ускорение таяния ледников, глобальное потепление, истребление дикой природы, чрезмерное загрязнение почвы и воды, выбросы в атмосферу ядовитых газов – все это представляет серьезную угрозу безопасности стран мира. Сегодня человечество привыкло к безразличному, варварскому отношению к природе, как к бесценному сокровищу.

Весь мир един и взаимосвязан. Наш общий долг – оставить землю нашим детям и внукам достойной для благополучной и счастливой жизни.

Научно-технический прогресс, принося нам удобства и облегчения, также порождает различные глобальные экологические проблемы. Одной из них, как отмечалось выше, является изменение климата. Изменение климата – один из широко распространенных и быстро ускоряющихся процессов. В результате дальнейшего развития промышленности атмосфера, которой мы дышим, год от года загрязняется различными отходами газов. Это усиливает "парниковый эффект" на нашей планете и вызывает резкие изменения климата. В результате увеличивается количество стихийных бедствий и нарушается баланс в климатических изменениях.

Известно, что "парниковый эффект" – это повышение температуры поверхности Земли, вызванное накоплением парниковых газов, которые нагревают нижние слои атмосферы.

На протяжении своей жизни человечество постепенно адаптировалось к погодным и климатическим условиям. Если температура воздуха повышается из-за парникового эффекта, на планете происходит глобальное потепление. Люди не могут выдерживать высокие температуры. Например, если раньше средняя летняя температура составляла +22°C - +27°C, то ее повышение до +35°C - +38°C приводит к тепловым ударам, обезвоживанию и проблемам с сердечно-сосудистой системой. Кроме того, повышение температуры воздуха приводит к развитию различных заболеваний и эпидемий, в том числе:

- Туберкулез
- Внешние и внутренние паразиты
- Сонная болезнь
- Желтая лихорадка и другие подобные заболевания.

По данным, в 1980-х годах XX века средняя температура в Северном полушарии повысилась на +0,6°C по сравнению с концом XIX века. По предварительным расчетам ученых, "парниковый эффект" может привести к

дальнейшему повышению средней температуры на планете еще на +1,2°C к началу нашего века.

Итак, если это такой серьезный и глобальный процесс, давайте остановимся на предпринимаемых в этом направлении действиях. В частности, это Киотский протокол – международное соглашение, направленное на объединение стран для снижения глобального потепления и устранения последствий повышения температуры после 150 лет индустриализации. Киотский протокол был подписан в декабре 1997 года в японском городе Киото. Его главной целью было снижение выбросов парниковых газов, и в этом направлении государствам были предложены различные меры.

В ноябре 2006 года в городе Найроби на конференции ООН по изменению климата была начата кампания по посадке 1 миллиарда деревьев в течение года, также направленная на снижение изменения климата.

В том числе, в Республике Узбекистан в рамках Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы, были разработаны и начали применяться планы по внесению вклада в решение экологических проблем в регионах республики путем привлечения системы образования, повышения экологической грамотности подрастающего поколения и формирования экологической культуры. Это стало одним из самых правильных путей, предпринятых в этом направлении. Потому что, существующие проблемы...

На протяжении всей истории человечество постепенно адаптировалось к погодным условиям и климату. Повышение температуры воздуха из-за парникового эффекта приводит к глобальному потеплению на планете. Люди не могут выдерживать высокие температуры. Например, если раньше средняя летняя температура составляла +22°C - +27°C, то ее повышение до +35°C - +38°C приводит к тепловым ударам, обезвоживанию и проблемам с сердечно-сосудистой системой. Кроме того, повышение температуры воздуха способствует развитию различных заболеваний и эпидемий, в том числе:

Туберкулез

Внешние и внутренние паразиты

Сонная болезнь

Желтая лихорадка и другие подобные заболевания.

По данным, в 1980-х годах XX века средняя температура в Северном полушарии повысилась на +0,6°C по сравнению с концом XIX века. По предварительным расчетам ученых, из-за парникового эффекта к началу нашего века средняя температура на планете может повыситься еще на +1,2°C.

Итак, поскольку это настолько серьезный и глобальный процесс, остановимся на предпринимаемых в этом направлении шагах. В частности, международным договором, направленным на объединение стран для снижения глобального потепления и устранения последствий повышения температуры после 150-летнего периода индустриализации, является Киотский протокол. Киотский протокол был подписан в декабре 1997 года в японском городе Киото. Его главной целью было снижение выбросов парниковых газов, и в связи с этим были разработаны различные меры, предложенные государствам.

На конференции ООН по изменению климата в ноябре 2006 года в городе Найроби была начата кампания по посадке 1 миллиарда деревьев в течение года, направленная на снижение изменения климата.

В частности, в Республике Узбекистан в рамках Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы были разработаны и начали применяться планы по внесению вклада в решение экологических проблем регионов республики путем привлечения системы образования, повышения экологической грамотности подрастающего поколения и формирования экологической культуры. Это стало одним из самых правильных путей, предпринятых в этом направлении. Ведь наряду с устранением существующих проблем важно предотвращать и появление новых. Это, в свою очередь, способствует росту..

Подводя итог, можно сказать, что нерациональное использование земель, применение различных ядовитых химикатов, необдуманное строительство заводов в городах, многоэтажные жилые дома, не

соответствующие климату, исчезновение естественных зарослей вдоль рек – все эти проблемы, вызывающие страдания, такие как здоровье матерей и детей, а также региональная трагедия Арала, имеют своим главным виновником самого человека.

Основываясь на вышеизложенной информации и размышлениях, было бы целесообразно предпринять следующие пять рекомендаций для смягчения экологической ситуации.

Во-первых: Прекратить безжалостную вырубку лесов, деревьев и кустарников, поскольку они поглощают углекислый газ и участвуют в очистке воздуха. Только использование макулатуры в качестве сырья для производства бумаги позволяет сократить вредные выбросы в атмосферу на 70-80% по сравнению с первичным сырьем. Примерно четыре кубометра древесины можно сэкономить из 1 тонны макулатуры. Это означает тысячи гектаров леса и чистый воздух.

Во вторых: Использовать электромобили и велосипеды для снижения загрязнения выхлопными газами. Чаще внедрять в нашу повседневную жизнь такие проекты, как "День без автомобиля". Это не только сохранит экологию, но и окажет огромное положительное влияние на здоровье человека. Это предотвратит ожирение, сердечно-сосудистые заболевания и другие проблемы.

В третых: Важнейшим решением проблемы парникового эффекта является донесение ее до внимания мирового сообщества и повышение экологической культуры молодежи. Необходимо чаще показывать населению мультфильмы, ролики и фильмы, посвященные защите природы. Самые актуальные экологические проблемы сегодняшнего дня должны занимать место на рекламных баннерах и ежедневно призывать к бдительности.

В чертвертых: Увеличить посадку деревьев. Как подчеркнул наш Президент Шавкат Миромонович Мирзиёев, ежегодная посадка 200 000 саженцев станет не только решением экологических проблем, но и внесет огромный вклад в процветание окружающей среды.

В пятых: Необходимо поддерживать и способствовать продвижению проектов "Ноль отходов".

В заключение, если каждый человек внесет свой небольшой вклад в борьбу с глобальными экологическими проблемами, глобальным потеплением и парниковым эффектом, мы сможем улучшить состояние окружающей среды и, как следствие, здоровье человека. Защитим и сохраним родную природу.

Использованная литература.

1. Мирзиёев Ш.М. "Стратегия развития Нового Узбекистана" "Узбекистан" Ташкент - 2022 г.
2. Мирзиёев Ш.М. Одобрение нашего народа – высшая оценка нашей деятельности. – Ташкент: Узбекистан, 2019.
3. Мирзиёев Ш.М. У народа с великими намерениями и дела велики, жизнь светла, а будущее благополучно. – Ташкент: Узбекистан, 2019.

O‘zbekistonda terorizm va ekstremizmga qarshi kurash borasida olib borilayotgan yondashuvlar

Xolmatov Shaxobidin Jumabaevich
sh.xolmatov62@mail.ru
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Abdug‘anieva Nilufar 7025-guruh talabasi

Anotatsiya. Mazkur maqolada din niqobidagi terorchi va ekstrimistik kuchlarga karshi kurashda mamlakatimizning tutgan yo‘li, bu borada Xarakatlar strategiyasida aniq aks etgan vazifalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: terorizm, ekstremizm, mafkura, jinoiy guruh, kommunikatsiya, informatsion texnologiyalar, manfaatlar, insonparvarlik, kechirimlilik.

Bugungi kunda xalqaro terrorizm va ekstremizm o‘zida siyosiy, iqtisodiy, hududiy, ma’naviy, axloqiy hamda diniy xarakterdagi muammolarni mujassamlashtirgan tobora murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisaga aylanmoqda. Bu ekstremizmni faqat kuch vositalari, ya’ni ma’lum bir guruh faoliyatini tugatish yoki ularning «etakchi»larini javobgarlikka tortishning o‘zi etarli emasligini ko‘rsatadi. Zamonaviy sharoitda ekstremizmni bartaraf etish, birinchi navbatda, uning mafkurasiga qarshi kurashni anglatadi. Chunki ekstremistik g‘oyalar va mafkuraning tarqalishi oqibatida bunday guruhlar safi kengayib bormoqda.

Afsuski, kommunikatsiya va informatsion texnologiyalarning tez sur’atlardagi taraqqiyoti g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarining kengayishiga turtki bo‘lib, geosiyosiy maqsadlarga bo‘ysindirilgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining ko‘payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Aksariyat holatlarda ushbu kurash quroll So‘nggi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq mamlakatlarida turli noqonuniy qurolli tuzilmalar tomonidan islomiy davlat qurish shiori ostida insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etildi.

Mutaxassislarning fikricha hozirda 100 mingdan ortiq ekstremizmning turli ko‘rinishlarini o‘zida tashuvchi g‘oyalar targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi saytlar faoliyat olib bormoqda. Internet orqali suhbat olib borish jarayonida yoshlarga kufr diyori, hijrat, jihod, shahidlik, xalifalikni tiklash kabi g‘oyalar singdirlib, ular turli to‘qnashuv va nizo o‘choqlariga jalb qilinmoqda. Muayyan siyosiy kuchlarning nog‘orasiga o‘ynayotgan diniy-ekstremistik va terrorchi oqimlar tomonidan u erlarda amaliyotni o‘tab kelgan aqidaparast, diydasi qotgan, mustaqil fikrlashdan mahrum, rahnamolarining har qanday buyruqlarini qonun deb biluvchi zombi jangarilardan tinch mintaqalarda ham turli nizolar va beqarorliklarni keltirib chiqarishda foydalanish maqsadi bugun ko‘pchilikka ayon haqiqatdir.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘zining yangi siyosiy yo‘nalishida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, xavfsizlik, dinlararo totuvlik hamda bag‘rikenglikni ta’minlashga katta e’tibor

bermoqda. Ushbu yo‘nalishdagi vazifalar 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida aniq aks ettirildi.

Xususan, ekstremizmga qarshi kurashish borasidagi yondashuvlar konseptual jihatdan o‘zgardi. Bunda asosiy e’tibor ekstremizmning oqibatlari bilan emas, uning sabab va omillarini bartaraf etishga qaratildi. Mazkur jihatlar quyidagilarda o‘z aksini topdi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti «Jaholatga qarshi ma’rifat» g‘oyasi asosida zo‘ravonlik mafkurasi «virusi» tarqalishining oldini olish vazifasini qo‘ydi. Xususan, yoshlarda diniy-axloqiy ongni shakllantirish va ma’rifat asosida ularni mafkuraviy tarbiyalash bu yo‘nalishning asosiy bo‘g‘iniga aylandi.

Mamlakatda diniy ta’limning besh bosqichli tizimi shakllantirildi. Toshkent islom universiteti negizida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamda Kalom, Hadis, Aqida, Islom huquqi, Tasavvuf ilmiy maktablarining diniy-ma’rifiy ta’lim muassasalari sifatida faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy nomidagi xalqaro tadqiqot markazlari tashkil etildi. Ushbu muassasalarning asosiy vazifasi sifatida islom dini merosini o‘rganish hamda unga xos bo‘lgan tinchlik, rahm-shafqat va bag‘rikenglik kabi haqiqiy qadriyatlarni keng targ‘ib qilish belgilab qo‘yildi.

Ikkinchidan, so‘nggi yillarda xalqimizga xos insonparvarlik va kechirimlilik siyosatini ekstremistik g‘oyalarga qarshi yo‘naltirishga qaratilgan ishlar ko‘lamini kengaytirish borasida bir qator tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, mamlakatimizda ekstremistik guruhlarga aloqador deb hisoblangan 20 mingdan ziyod fuqarolar maxsus hisobdan chiqarildi va bunday ro‘yxatlarni yuritish amaliyotidan butunlay voz kechildi. 2017 yildan to bugungi kungacha ekstremizm uchun hukm qilingan 4 ming nafardan ortiq shaxslar afv etildi.

O‘tgan davr mobaynida insonparvarlik tamoyilining huquqiy asoslari mustahkamlandi. Jumladan, 2018 yilning 19 sentyabrida «Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Prezident Farmoni e’lon qilindi. Mazkur Farmon

ekstremistik guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo‘lgan, o‘z qilmishining qonunga xilofligini anglab etgan va tuzalish yo‘liga o‘tgan fuqarolarga Vataniga, oilasi bag‘riga, tinch hayotga qaytish imkonini beradi.

Uchinchidan, mamlakatda ekstremizmni keltirib chiqaruvchi omil va shart-sharoitlarga qarshi qaratilgan ishlarga katta e’tibor berilmoqda. Bu borada ikki xil yo‘nalishda, ya’ni mafkuraviy hamda amaliy sa’y-harakatlarni o‘z ichiga olgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, mafkuraviy yo‘nalishdagi ishlarga davlat va huquqni muhofaza qilish organlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlari ham jalb etilmoqda. Xususan, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Ichki ishlar vazirligi hamda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi bilan birgalikda jamiyatda vijdon erkinligi kafolatlari hamda diniy-ma’rifiy muhit barqarorligini ta’minlash bo‘yicha doimiy hamkorlikni nazarda tutuvchi yangi tizim asosida tegishli ishlar tashkil etilgan.

Amaliy yo‘nalishda esa sodir etgan qilmishiga pushaymon bo‘lgan hamda tinch turmush tarziga qaytgan fuqarolar, shuningdek, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar faoliyatida ishtirok etishga moyil bo‘lgan shaxslarni ish bilan ta’minlash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda amaliy yordam ko‘rsatib kelinmoqda.

To‘rtinchidan, ekstremistik g‘oyalarga qarshi profilaktik choralar nafaqat mamlakat ichkarisida, balki tashqarisida ham faol amalga oshirilmoqda. 2019 yilda boshlangan hamda Yaqin Sharq va Afg‘oniston hududidan O‘zbekiston fuqarolarini olib chiqishga qaratilgan «Mehr» insonparvarlik operatsiyasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Xususan, 2019-2020 yillar davomida 318 nafar O‘zbekiston fuqarosi, asosan, ayollar va bolalar o‘z Vataniga qaytarildi. Mazkur shaxslarni O‘zbekistonga qaytarish oldidan ular bilan suhbatlar o‘tkazildi va sodir etgan qilmishiga pushaymon bo‘lgan hamda tinch turmush tarziga qaytish niyatidagi fuqarolar saralab olindi. Ayni paytda repatriatsiya qilingan shaxslarni reabilitatsiya qilish va ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi uchun doimiy ravishda individual hamda maqsadli ishlar olib borilmoqda.

Beshinchidan, ekstremizmga qarshi kurash borasidagi qarashlarning o‘zgarishi jahon hamjamiyati tomonidan ham yuqori baholanmoqda. Boisi mazkur yo‘nalishdagi ustuvor vazifalar qatoriga mamlakatda diniy bag‘rikenglik va vijdon erkinligini ta’minlash, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish kiritilganidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda din sohasida ham yangicha yondashuv va tamoyillarni o‘zida aks ettirgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Diniy tashkilotlar faoliyati erkinligining huquqiy kafolati sezilarli darajada kuchaytirildi. Jumladan, diniy tashkilot faoliyatini tugatish bo‘yicha qaror chiqarish vakolati ro‘yxatga oluvchi organdan sudlarga o‘tkazildi.

Umuman olganda, ekstremizmga qarshi kurash sohasidagi qarashlarning o‘zgarishi bir tomondan, xavfsizlik nuqtai nazaridan o‘z samarasini berayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, islohotlar natijasida fuqarolarning hukumatga bo‘lgan ishonchi ortib, aholining diniy erkinliklari kafolatlari uchun sharoit yaratishga asoslangan davlat va aholi o‘rtasidagi munosabatlarning yangi modeli barpo etilmoqda. Ushbu modelning asosini esa islom ma’rifati hamda diniy bag‘rikenglik an’analarini mustahkamlash tashkil etmoqda. Bunday yondashuv, shubhasiz, yaqin istiqbolda o‘z natijasini beradi.

XRISTIANLIK DINI TARIXI VA RIVOJLANISHI

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot insituti
Shahobiddin Xolmatov Jumaboyevich
sh.xolmatov62@mail.ru
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
Akramjonova Maftunaxon Qobiljon qizi
Pediatriya fakulteti Farmatsiya yo‘nalishi 72/25-guruh 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xristianlik dinining kelib chiqishi**,** ona shakllanish bosqichlari**,** asosiy ta’limotlari hamda tarix davomida sodir bo‘lgan

ijtimoiy-madaniy va siyosiy o‘zgarishlar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xristianlikning global madaniyatdagi o‘rni va uning bugungi dunyodagi mavqei ham qisqacha ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Xristianlik, Iso Masih, Injil, Apostollar, cherkov tarixi, katoliklik, pravoslavlik, protestantlik, diniy evolyutsiya, madaniy integratsiya, ijtimoiy ta’sir.

Xristianlik dini milodning I asrida, Rim imperiyasining bir qismi bo‘lgan Iudeyada paydo bo‘lgan. Bu davr Iudeyadagi yahudiy diniy va ijtimoiy muhitida shakllangani bilan, xristianlik keyinchalik o‘ziga xos global e’tiqodga aylandi. Iudeya, Rim imperiyasining provinsiyalaridan biri bo‘lib, yahudiy aholisi uchun cherkov va sinagogalar markazi sifatida ijtimoiy va diniy jihatdan muhim bo‘lgan. Yahudiylik bu hududda monoteistik e’tiqodga asoslangan bo‘lib, yahudiylar Xudoni yagona deb tan olgan va Muqaddas Qonun ga rioya qilish orqali xudoning xalqiga aylanishni ko‘zlagan. Bu mahalliy ijtimoiy va siyosiy muhit xristianlik paydo bo‘lishi uchun zamin yaratdi: yahudiylar orasida masih kutilishi, hukmron Rim imperiyasi ostida yashash, turli diniy guruhlar va grek-rim kulturasi bilan aloqalar mavjud edi Xristianlik ta’limotining markazida Iso Masih turadi. U yahudiy an’analariga binoan Galiley va Iudeya hududlarida ta’lim bergan, najot, tufayli kechirim va Xudoning Qirolligi haqida e’lon qilgan. Uning o‘limi, qayta tirilishi va shogirdlari tomonidan e’lon qilingan najotiy voqea xristian e’tiqodining asosiy tamoyillari tillaridan biriga aylandi.

Dastlabki nasroniylar yahudiy jamiyatining bir bo‘lagidi: ular sinagogalarda yig‘ilgan, yahudiy qonunlariga ma’lum darajada rioya qilgan, biroq Iso Masihni Xudoning O‘g‘li deb e’tirof etishi sababli yangi dinamik o‘zaro munosabatni shakllantira boshladilar. Iso Masihning shogirdlari uning ta’limotini qo‘lga olib, birinchi nasroniy jamoalarni tashkil etdilar. Ularning faoliyati – Rim imperiyasining yo‘l va savdo tarmoqlari orqali – diniy xabarni millatlar orasiga olib kirishiga imkon berdi. Masalan, apostol Pavlus yahudiylikdan nasroniylikka o‘tgan bosqichdan

so‘ng, Rim shaharlarida missiyachilik ishlarini boshlab, nasroniylikni yahudiy emas xalq orasida ham tarqatdi.

Bu missiya faoliyati o‘z bilan birga turli madaniyatlar, tillar va ijtimoiy qatlamlar bilan interaksiya qilishni olib keldi, bu esa xristianlikni bir majburiy yahudiy sektasidan xalqaro e’tiqod tizimiga aylantirdi. Dastlabki nasroniylar yahudiy jamiyatiga qisman integratsiyalashgan bo‘lsa-da, yahudiy qonunlari bo‘yicha tortishuvlar yuzaga keldi. Masalan, yahudiy bo‘lmaganlar xristian jamoalarga qo‘shilganida yahudiy qonunlarini to‘liq bajarishi kerak-emagani masalasi muhim mavzu edi. Bu jarayon nasroniylikni yahudiylikdan alohida oqim sifatida shakllanishiga olib kirgan va o‘zining turli yo‘nalishlari va institutsional tuzilishlari bilan mustaqil din sifatida paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Xristianlikning ilk asrlarida Rim imperiyasi tomonidan turli vaqtlarda ta’qiblar boshlangan. Nasroniylar ko‘pincha öz diniy an’analari – misol uchun imperatorga sajda qilish va Rim xudolariga qurbonlik qilishdan bosh tortganligi uchun hukumat nazarida xavf tug‘dirar edi. Masalan, imperator Diokletian davrida nasroniy uyushtirilgan, cherkovlar vayron qilingan va muqaddas yozuvlar yoqilgan eng keng qamrovli ta’qib boshlangan deb hisoblanadi. Bu bosimlar bilan birga, ijtimoiy jihatdan nasroniylar Rim jamiyatida tashqaridan ko‘rilgan, “qonuniy” diniy to‘siqlarga duch kelgan guruh bo‘lib qoldi – bu esa ularning ehtiyotkor tarzda tarqalishiga, tashkil topishiga va – paradoksal ravishda – e’tiqodni mustahkamlashga xizmat qildi. Eramizning 313-yilida imperator Konstantin I va hamroh imperator Likiniy Milano yaqinida yig‘ilgan va nasroniylikni qonuniy e’tiqod sifatida tan olgan hujjatni e’lon qilganlar: Ushbu hujjatda nasroniylarga ibodat qilish, jamoat cherkovlari tashkil etish va oldin musodara qilingan mulklarni qaytarish huquqi berilgani qayd etilgan. Bu huquqiy burilish xristianlikni Rim imperiyasida – «men faqat e’tiqod qilaman» darajasidan « qonuniy tashkil topgan diniy oqim » darajasiga ko‘tarishga sharoit yaratdi. IV asr oxirida, 380-yilda, imperator Feodosiy I tomonidan Tessalonika farmoni e’lon qilindi. U bilan “katolik nasroniylik” – Nikey an’anasi asosida – Rim imperiyasining rasmiy dini sifatida

belgilangani,ko‘rsatilgan.
Farmonda she’kllantirilgan quyidagi talablarga e’tibor qaratiladi:

- O‘zaro uyg‘un e’tiqodni saqlash maqsadida katolik nasroniy bo‘lmaganlar «heretik» deb tan olindi.

- Nasroniylik bilan birga ketayotgan siyosiy va jamiyatdagi rol kengaydi. Shu bilan birga, ayrim mutaxassislar bu farmonning «faoliyat jihatdan butun imperiyaga qaratilgan» darajada emas, balki asosan sharqiy hududdagi nazoratga yo‘naltirilganligini ham ta’kidlaydilar.

Xristianlik nafaqat tarixdagi e’tiqod tizimi sifatida, balki jahon miqyosida madaniy, siyosiy va ijtimoiy hayotga faol ravishda ta’sir etuvchi hodisaga aylangan. Xristianlikning global tarqalishi bilan birga, u turli madaniyatlar, til va ijtimoiy-muammolar bilan o‘zaro aloqada bo‘lmoqda. Muammolar va cheklovlar – Shuningdek, xristianlik uchun zamonaviy davrda bir qator murakkab jihatlar mavjud: G‘arb mamlakatlarida cherkovga borish va e’tiqodni saqlash darajasining pasayishi, “diniy unaffiliated” shaxslar sonining ortishi, shuningdek, xristianlar orasida e’tiqoddan voz kechish yoki boshqa yo‘nalishlarga o‘tish holatlarining ko‘payishi. Umuman olganda, zamonaviy xristianlik fenomeni – global jihatdan tarqalish, madaniy moslashish va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z ichiga olgan dinamik tizim bo‘lib, u bugungi dunyoda yangicha ma’nolarni shakllantirishda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

- A History of Christianity: The First Three Thousand Years — Diarmaid MacCulloch. Allen Lane, 2009.
- A Short History of Christianity — Geoffrey Blainey. Penguin Books, 2012.
- A History of Christianity — Paul Johnson. Touchstone, 1976
- Encyclopedia of Ancient Christianity — Angelo Di Berardino InterVarsity Press, 2014.

- Encyclopedia of Christianity — John Stephen Bowden (Ed.). Oxford University Press, 2005.
- Christianity Through the Centuries — Earle E. Cairns. 3-rd ed., Zondervan, 1996.
- A Source Book for Ancient Church History — Joseph Cullen Ayer Jr. Charles Scribner's Sons, 1913.

Abu Nasr Forobiyning ta'lim va axloq-odobga oid qarashlari

Xolmatov Shaxobidin Jumabaevich
sh.xolmatov62@mail.ru
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Anotatsiya. Mazkur maqolada Abu Nasr Farobiyning ta'lim-tarbiya, axloq-odob, davlat boshqaruvi masalariga oid falsafiy qarashlari o'z ifodfsini topgan. Shuningdek, insonni baxt-saodatga erishtiradigan insoniy fazilatlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, axloq, odob, kasb-xunar, fazilat, davlat, davlat rahbari, tarbiya va ta'lim usullari.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida butun musulmon dunyosiga o'zlarining asarlari bilan tanilgan, ajdodlarimizning ilmiy yutuqlarini xotirada saqlab, jahon ilmiy tafakkurining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ular olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon, umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi. Shunday ulug' allomalardan biri Abu Nasr Forobiy (873-950 yillar)dir.

Forobiy boshlang'ich ta'limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqanda, Bag'dodda ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar bor. Forobiy Bag'doda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tabiiyot, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug'ullandi, turli tillarni o'rgandi.

Abu Nasr Forobiy o'rta asr davri ilm – fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib

borgan. Forobiy o‘zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan.

Forobiy inson baxt – saodatga erishuvi uchun ularni baxtli – saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo‘lishi kerak deydi. U fozil shaharni boshqaradigan Hokim tabiatdan: 1 – sog‘ – salomat bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmaligi; 2 – tabiati nozik, farosatli; 3 – xotirasi mustahkam, 4 – zehni o‘tkir, 5 – o‘z fikrini tushuntira oladigan notiq, 6 – bilim-ma’rifatga havasli, 7 – taom eyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o‘zini tiya oladiga bo‘lishi (qimor yoki boshqa o‘yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi, 8 - haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan, 9 – o‘z qadrini biluvchi va oriyatli bo‘lishi, 10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan, 11 – adolatparvar, 12 – qatiyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi muhimligini qayd etadi.

Forobiy bu fazilatlarni har bir yetuk insonda ko‘rishni istaydi. Forobiy o‘zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo‘ladi. Bunda u, kishilarning diniy mas’habiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy hususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidoriga, bilim ko‘nikmalariga e’tibor berishlik zarur deydi. U o‘zning «Baxt saodatga erishuv yo‘llar haqida risola» asarida «Davlatning vazifasi insonlarni baxt – saodatga olib borishdir, - deb yozadi. U, - bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritadi».

Forobiy davlatni yetuk shaxs boshqarishi lozim daydi; ya’ni jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo‘lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko‘ra bilishi, boshqalarga g‘amxo‘r bo‘lishi lozim deydi. Forobiy ta’lim tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida ta’lim – tarbiyaning muhumligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim – tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi.

«Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida», «Ixso – al - ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma’nolari to‘g‘risida» kabi asrlarida ijtimoiy – tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Forobiy o‘z ishlarida ta’lim – tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, ammo har

birining insonni kamolga yetkazishda o‘z o‘rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Forobiy «Baxt – saodatga erishuv to‘g‘risida» asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi.

Forobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvchi yoki munosabatlariga muxtoj bo‘ladi. Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhumdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o‘zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o‘qituvchi lozim. Bunga Forobiy ta’lim – tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim – tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan komolga etkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi.

Forobiy ta’lim – tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. Ta’lim – degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma’lum xunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim.

Abu nasr Forobiy yana aytadi: «Ta’lim – degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish - harakat, kasb - hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir» Forobiy nazariy bilimlarni egallashga kirishgan har bir kishi xulq – odobda ham qay darajada pok bo‘lishi

kerakligini «Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to‘g‘risida»gi risolasida shunday ta’riflaydi: «Falsafani o‘rganishdan avval o‘zingizni hirs-havaslardan shunday tozalashingiz lozimki, sizda maishiy va shahvoniyat kabi notug‘ri tuyg‘ularga emas, balki kamolotga bo‘lgan hirs-havas qolsin.

Bundan biz Forobiyning axloqni xulq me’yorlari ifodasi sifatidagini emas, balki kishilarning aqliy faoliyatining natijasi sifatida ham talqin etganligini ko‘ramiz. Forobiy «Aql ma’nolari haqida» risolasida aql masalasini tahlil qilib, aql bilish haqidagi ta’limotida mantiq (logika) ilmi muhim o‘rin tutadi deydi.

U mantiq ilmi bilan grammatika o‘rtasidagi mushtarakligini qayd etib, mantiqning aqlga munosabati, grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo‘lda olib borish uchun aqlni to‘g‘irlab turadi deydi.

Forobiy «Muzika haqida katta kitob» degan ko‘p jildi asari bilan o‘rta asrning yirik muzikashunosi sifatida ham mashxur bo‘ldi. U muzikaga ilmini nazariy, amaliy jihatdan yoritib, muzikani inson axloqini tarbiyalovchi sihat salomatligni mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning muzika sohasida qoldirgan merosi muzika madaniyati tarixida muhim ahamiyatga molikdir.

Forobiy ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy – axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb- hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta’lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda Forobiy pedagogik ta’limotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o‘z mohiyati bilan ijtimoiy, ya’ni faqat jamiyatda, o‘zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi. Insonning kamolga etishida ham aqli, ham axloqiy tarbiyaning o‘zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Forobiy tavsiya etgan ta’lim – tarbiya usullari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xayrullaev M.M. Uyg‘onish davri va SHarq mutafakkirlari. Toshkent: O‘zbekiston 1995. 297-305 betlar.

2. Xayrullaev M.M. O‘rta Osiyoda ilk Uyg‘onish davri madaniyati. -T.: Fan, 1997 yil.
3. Ibn Xalmiqon haqida. Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» kitobidan olindi. T. Abdulla Qodiriy nomidagi Xlaq merosi nashiriyoti, 1993, 204 bet 4. www . ziyonet.uz

TIBBIYOT YO‘NALISHIDA CHET TILI TA’LIMINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR (3D VA VR) ASOSIDA MODERNIZATSIYA QILISH USULLARI

Qaxorova Tursinoy Ulug‘bek qizi
FJSTI “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
tursunoysolihabonu@gmail.com

XXI asrda ta’lim jarayonining raqamli transformatsiyasi dunyo miqyosida muhim o‘ringa ega bo‘lib, ayniqsa tibbiyot sohasi uchun bu jarayon alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tibbiyotda zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan 3D va VR (virtual reallik) tizimlarining joriy etilishi nafaqat klinik amaliyotda, balki ta’limda ham katta yangiliklar olib keldi. Bugungi kunda chet tilini o‘qitish ham bu jarayondan chetda qolmayapti. Chunki tibbiy ta’limda xorijiy tillarni bilish xalqaro hamkorlik, klinik tajriba almashinuvi va ilmiy tadqiqotlarni o‘rganishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois chet tili ta’limini 3D va VR texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish dolzarb vazifalardan biridir.

Tibbiyot talabalari uchun chet tili o‘rganish faqat lingvistik maqsad emas — bu ularning kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan kommunikativ, madaniy va ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasidir. Masalan, tibbiy ingliz tili darslarida “Doctor–Patient Interaction”, “Medical Research Presentation” yoki “Clinical Case Description” kabi mavzular o‘qitiladi. Bunday darslar talabadan nafaqat so‘z boyligini, balki tibbiy muloqot madaniyatini ham talab etadi.

Ammo an’anaviy o‘qitish usullari (matn bilan ishlash, tarjima, eshitish mashqlari) tibbiyot sohasining real muhitini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar, ayniqsa 3D va VR imkoniyatlaridan foydalanish ta’lim jarayonini jonlantiradi, interfaol va natijaga yo‘naltirilgan o‘quv muhitini yaratadi.

Modernizatsiya – bu o‘qitish jarayonini yangi texnologiyalar, metodlar va didaktik yondashuvlar asosida qayta tashkil etish demakdir. Chet tili ta’limida bu jarayon quyidagi ehtiyojlardan kelib chiqadi:

- Tibbiy terminologiyani aniq va vizual tarzda o‘rganish zarurati;
- Talabalarni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlash ehtiyoji;
- O‘qituvchining nazariy tushuntirishlarini interfaol shaklga keltirish talabi;
- Talabalarning o‘zlashtirish darajasini individual nazorat qilish imkoniyatini kengaytirish.

3D modellar va VR muhiti ushbu ehtiyojlarni to‘liq qondira oladi. Misol uchun, “Virtual Anatomy Lab”, “3D Medical Dictionary” yoki “Interactive Hospital Simulation” dasturlari tibbiy ingliz tili mashg‘ulotlarida samarali qo‘llanilmoqda.

3D texnologiyasi orqali tibbiy atamalarni organlar, tizimlar va jarayonlarning hajmli modellarida o‘rganish mumkin. Bu talabalarga “see and learn” tamoyili asosida idrok etish imkonini beradi.

VR esa to‘liq virtual muhit yaratib, talabani “haqiqiy tibbiy sharoit”ga olib kiradi. Masalan:

- VR klinik mashg‘ulotlar: talaba virtual bemor bilan ingliz tilida suhbatlashadi, tashxis qo‘yadi yoki davolash jarayonini tushuntiradi.
- Virtual simulyatsiyalar: “Emergency Room Scenario”, “Surgical Procedure Explanation” kabi mavzular talabani stressli holatlarda to‘g‘ri muloqot qilishga o‘rgatadi.

Bu jarayonlarda til o‘rganish faqat grammatikani emas, balki kasbiy muloqot ko‘nikmasini ham shakllantiradi.

Raqamli ta’lim sharoitida o‘qituvchi endi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, muhit yaratuvchi va fasilitator sifatida faoliyat yuritadi. U dars ssenariylarini 3D va VR resurslariga moslashtiradi, interfaol topshiriqlar ishlab chiqadi va talabalarni mustaqil o‘rganishga rag‘batlantiradi.

Misol uchun, tibbiy ingliz tili o‘qituvchisi VR platformasida “Virtual Patient Interview” mashg‘ulotini tashkil etib, talabalarni turli rollarga (doctor, patient, nurse) bo‘lib ishlashga yo‘naltiradi. Bu o‘quvchilarning tilni faol qo‘llash, muloqot madaniyati va kasbiy leksikani mustahkamlashiga yordam beradi.

Tibbiy yo‘nalishda chet tili ta’limini 3D va VR asosida modernizatsiya qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

5. Tahliliy bosqich – mavjud o‘quv dasturlarini tahlil qilish, texnologik imkoniyatlarni baholash;
6. Integratsion bosqich – chet tili darslarida 3D/VR resurslarini qo‘shish (modellar, simulyatsiyalar, interfaol topshiriqlar);
7. Metodik moslashtirish bosqichi – mashg‘ulotlarni CLIL va kommunikativ metodika asosida qayta tuzish;
8. Baholash bosqichi – talabalarning nutq faoliyati, terminologik bilim va amaliy ko‘nikmalarini virtual muhitda baholash.

Kelgusida tibbiy yo‘nalishdagi chet tili ta’limi uchun quyidagi yo‘nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

- Mahalliy 3D va VR dasturlarini ishlab chiqish;
- Tibbiy ingliz tili o‘qituvchilari uchun raqamli metodika bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- “Virtual Medical English Lab” platformasini yaratish;
- Tibbiy terminologiya bo‘yicha 3D lug‘at va interfaol test tizimlarini ishlab chiqish.

Bu chora-tadbirlar nafaqat chet tili ta’limini, balki tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlik salohiyatini ham oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 3D va VR texnologiyalarini chet tili o‘qitish jarayoniga joriy etish tibbiy ta’limni zamonaviy bosqichga olib chiqadi. Bu metodika talabalarning amaliy muloqot ko‘nikmalarini, vizual idrokini va kasbiy kompetensiyasini bir vaqtda rivojlantiradi. Shuningdek, u o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirib, ta’limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish imkonini beradi.

Demak, tibbiyot yo‘nalishida chet tili ta’limini 3D va VR texnologiyalari asosida modernizatsiya qilish – bu nafaqat texnik yangilik, balki pedagogik yondashuvlar tizimining tubdan yangilanishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

8. Rasulova N. “Chet tillarini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning roli.” – Toshkent: Fan va ta’lim, 2022.
9. Akhmedov B. “Tibbiy ta’limda virtual reallik texnologiyalarining tatbiqi.” – TTA nashriyoti, 2023.
10. Dudley-Evans, T. & St. John, M. *Developments in English for Specific Purposes.* – Cambridge University Press, 2019.
11. Chen, L. & Park, S. *The Effectiveness of 3D and VR Tools in Medical English Education. – Journal of Digital Learning*, 2021.
12. Qodirova G. “Innovatsion pedagogika va zamonaviy texnologiyalar.” – *Pedagogika va amaliyot*, №2, 2023.
13. World Health Organization. *Digital Learning in Medical Education: Global Framework.* – WHO Press, 2022.
14. Krashen S. *Second Language Acquisition and Learning.* – Pergamon Press, 2020.

TIBBIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRILGAN O‘QITISH TIZIMLARINING ISTIQBOLLARI

Qaxorova Tursinoy Ulug‘bek qizi
FJSTI “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
tursunoysolihabonu@gmail.com

Bugungi globallashuv davrida tibbiy ta’lim sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Bu o‘zgarishlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri — sun’iy intellekt (AI) va avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlari (AOT) ni joriy etishdir. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida ta’lim jarayoni nafaqat o‘qituvchilar uchun qulay, balki talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan, interfaol va natijador tizimga aylanmoqda.

Tibbiy ta’limda AI texnologiyalarining qo‘llanilishi diagnostika, kasalliklarni aniqlash, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish, bemor ma’lumotlarini boshqarish, hamda ta’lim jarayonida avtomatlashtirilgan tahlil va baholash imkoniyatlarini

kengaytirmoqda. Ushbu maqolada sun’iy intellektning tibbiy ta’limdagi o‘rni, amaliy imkoniyatlari, mavjud muammolar va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Sun’iy intellekt tushunchasi va tibbiy ta’limdagi ahamiyati

Sun’iy intellekt (Artificial Intelligence) — bu kompyuter tizimlarining inson tafakkuriga o‘xshash ravishda o‘rganish, tahlil qilish, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish kabi jarayonlarni avtomatik bajarish qobiliyatidir.

Tibbiy ta’limda AI quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- Intellektual o‘qitish tizimlari (Intelligent Tutoring Systems – ITS) orqali har bir talabaning bilim darajasiga mos individual o‘quv yo‘nalishini belgilaydi;
- Sun’iy neyron tarmoqlar yordamida talabalarning klinik fikrlash ko‘nikmalarini baholaydi;
- Ma’lumotlar tahlili orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi;
- Virtual bemor modellarini yaratish orqali real klinik holatlarni simulyatsiya qiladi.

Sun’iy intellektning asosiy ustunligi — katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish va natijalarni aniq, obyektiv tarzda taqdim etish imkoniyatidadir. Shu boisdan, AI tibbiy ta’lim sifatini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Tibbiy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi ko‘p qirrali va keng imkoniyatlarga ega. Avvalo, u diagnostika va klinik fikrlashni o‘rgatish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Sun’iy intellekt asosidagi dasturlar yordamida talabalarga real klinik holatlarni tahlil qilish, ularni baholash va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Masalan, IBM Watson Health yoki DeepMind Health kabi platformalar turli kasalliklarni aniqlashda ilg‘or model sifatida xizmat qiladi. Talabalar bu tizimlardan foydalanib o‘quv-amaliy mashg‘ulotlarda o‘z klinik tafakkurini mustahkamlaydilar.

Shuningdek, sun’iy intellekt tibbiy tasvirlarni o‘rganishda ham katta ahamiyat kasb etadi. U yordamida rentgen, kompyuter tomografiya va MRT tasvirlarini chuqur tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. AI-Radiology kabi simulyatsion dasturlar talabalarga haqiqiy tibbiy tasvirlar bilan ishlash, ularni o‘qish va patologik

o‘zgarishlarni aniqlashni o‘rgatadi. Bu esa ularning amaliy diagnostika ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt o‘qitish jarayonini avtomatlashtirishda ham beqiyos imkoniyatlarga ega. AI asosidagi o‘quv tizimlari o‘qituvchining yordamchisi sifatida ishlaydi — ular talabaning bilim darajasini avtomatik tarzda tahlil qilib, o‘quv materiallarining murakkablik darajasini moslashtiradi va individual takrorlash topshiriqlarini ishlab chiqadi. Bugungi kunda Coursera AI Learning Path, Google AI for Education hamda ChatGPT Medical Tutor kabi platformalar bu jarayonni samarali amalga oshirmoqda.

Baholash tizimida ham sun’iy intellektdan keng foydalanilmoqda. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari test natijalarini, esse yozuvlarini yoki klinik holatlar tahlilini avtomatik tekshiradi. Bu yondashuv o‘qituvchilar mehnatini yengillashtirib, inson omilidan kelib chiqadigan sub’ektivlikni kamaytiradi.

Shuningdek, simulyatsion ta’limda ham AI texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. Sun’iy intellekt yordamida yaratilgan virtual bemorlar va 3D simulyatorlar talabalar uchun xavfsiz amaliy mashg‘ulot muhitini yaratadi. Body Interact, SimX va 3D Organon dasturlari bu borada samarali ishlayotgan platformalar qatoriga kiradi. Ular talabalarga bemorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga kirishmasdan turib, diagnostika va muolaja jarayonlarini o‘rganish imkonini beradi.

Tibbiy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishdagi muammolar

Tibbiy ta’limda AI texnologiyalarini joriy etish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Eng avvalo, texnik va moliyaviy to‘siqlar e’tiborga loyiq. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlarni yaratish va ulardan foydalanish katta mablag‘ni, yuqori texnik imkoniyatlarni hamda malakali mutaxassislarni talab qiladi. Har bir oliygohda bu sharoitlar mavjud emasligi texnologiyaning keng joriy etilishiga to‘sqinlik qiladi.

Shuningdek, ma’lumotlar maxfiyligi va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Tibbiyotda ishlatiladigan ma’lumotlar — bemor tarixi, tahlil natijalari, diagnostik ma’lumotlar — juda maxfiy hisoblanadi. Ularni sun’iy

intellekt tizimlariga yuklashda axborotning ishonchliligini va himoyasini ta’minlash dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Bundan tashqari, o‘qituvchilarning sun’iy intellekt sohasidagi savodxonligi yetarli emasligi ham muhim muammolardan biridir. Ko‘plab pedagoglar AI texnologiyalarining imkoniyatlari, ularning o‘quv jarayoniga integratsiyasi va ishlash tamoyillarini chuqur o‘zlashtirishmagan. Shu sababli bu sohada malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

Yana bir muhim masala — etik va huquqiy jihatlar. Sun’iy intellektning qaror qabul qilishdagi roli, xatoliklar uchun javobgarlik, shaxsiy ma’lumotlarning ishlatilishi kabi masalalar hozircha aniq me’yorlar bilan tartibga solinmagan. Bu esa amaliyotda noaniqliklar keltirib chiqarmoqda.

Sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlarining afzalliklari

AI texnologiyalarining o‘qitish tizimidagi afzalliklari juda ko‘p. Eng avvalo, ular har bir talaba uchun individual ta’lim yo‘nalishini belgilash imkonini beradi. Sun’iy intellekt tizimi talabaning bilim darajasini, o‘rganish tezligini, kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilib, unga mos o‘quv strategiyasini ishlab chiqadi. Natijada o‘qish jarayoni individual tus oladi va samaradorlik ortadi.

AI tizimlari real vaqt rejimida o‘quv jarayonini kuzatadi, talaba tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni aniqlaydi va darhol tuzatish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Bu qayta aloqa tizimi o‘qitish sifatini ancha oshiradi.

Shuningdek, o‘qituvchining mehnatini yengillashtirishda ham sun’iy intellekt katta ahamiyatga ega. Test natijalarini baholash, reytingni shakllantirish, o‘quv jarayonini tahlil qilish kabi jarayonlarni AI avtomatik tarzda bajaradi. Natijada o‘qituvchi o‘z vaqtini ijodiy va metodik ishlarga yo‘naltira oladi.

Sun’iy intellekt bilan ishlash talabalarda raqamli kompetensiyani, tahliliy fikrlashni va zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularning kelajakdagi professional faoliyatida katta ustunlik beradi.

Tibbiy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarining istiqbollari

Kelajakda tibbiy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarining roli yanada kengayadi. U yordamida har bir talaba uchun shaxsiylashtirilgan ta’lim yo‘l xaritasi

ishlab chiqilishi kutilmoqda. Bu xarita talabaning o‘zlashtirish tezligi, qiziqishlari, kuchli va zaif tomonlariga mos tarzda tuziladi.

AI texnologiyalari tibbiy amaliyotlarda ham keng qo‘llaniladi. Haptik texnologiyalar orqali talaba virtual operatsiya bajarib, natijani real vaqt rejimida kuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Shu orqali u xavfsiz muhitda amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Sun’iy intellekt yordamida klinik qarorlarni o‘rgatish ham istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Talabalar AI tizimlari orqali turli klinik holatlarni tahlil qilishni, muqobil qarorlarni solishtirishni va diagnostika xatolarini kamaytirishni o‘rganadilar.

Bundan tashqari, AI yordamida ta’lim sifatini monitoring qilish imkoniyati ham kengayadi. Sun’iy intellekt tizimlari oliygohlarda o‘qituvchilarning faoliyatini, talabalar natijalarini, ta’lim jarayonining samaradorligini avtomatik tarzda tahlil qilib, takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Tibbiy ta’limda sun’iy intellektni joriy etish bo‘yicha tavsiyalar

Tibbiyot oliygohlarida sun’iy intellektni samarali joriy etish uchun bir qator chora-tadbirlar zarur. Avvalo, oliygohlar qoshida maxsus “Sun’iy intellekt laboratoriyalari”ni tashkil etish muhim. Bu markazlarda talabalar amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishi, yangi algoritmlar ustida ishlashi va o‘z bilimlarini mustahkamlashi mumkin.

Shuningdek, o‘qituvchilar uchun “AI in Medicine Education” nomli malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish zarur. Bu kurslar orqali pedagoglar zamonaviy texnologiyalarni o‘rganadilar va ularni dars jarayonida samarali qo‘llashni o‘zlashtiradilar.

AI texnologiyalarini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik ham muhim rol o‘ynaydi. IT-kompaniyalar va xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilish, ulardan ilg‘or tajribani o‘rganish va o‘z tizimimizga moslashtirish tibbiy ta’limni yangi bosqichga olib chiqadi.

Bundan tashqari, sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida etik va huquqiy me’yorlarni ishlab chiqish zarur. Shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, tibbiy axborot

maxfiyligi va sun’iy intellektning qaror qabul qilishdagi roli bo‘yicha aniq huquqiy asoslar yaratilishi kerak.

Yana bir muhim yo‘nalish — klinik ma’lumotlar bazasini yaratishdir. Real bemorlar haqidagi anonimlashtirilgan ma’lumotlar asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish talabalarga klinik amaliyotni yanada chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Xulosa sifatida, tibbiy ta’limda sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlarining joriy etilishi ta’lim sifatini oshirish, talabalarning klinik fikrlash, diagnostika va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, AI texnologiyalarini samarali qo‘llash uchun infratuzilmani rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minlash, o‘qituvchilar malakasini oshirish va etik me’yorlarni ishlab chiqish zarur.

Kelajakda tibbiy ta’limni sun’iy intellekt bilan uyg‘unlashtirish tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashning yangi modelini shakllantiradi — bu model ilmiy, texnologik va insoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli tibbiyot va innovatsion ta’limni rivojlantirish” to‘g‘risidagi farmoni, 2023-yil.
2. World Health Organization. *Artificial Intelligence in Health Education: Global Report*, 2021.
3. UNESCO. *AI and the Future of Education: Guidance for Policymakers*, 2022.
4. DeepMind Health. www.deepmind.com/health
5. IBM Watson Health. www.ibm.com/watson-health
6. Karimova N. “Sun’iy intellekt texnologiyalarining tibbiy ta’limdagi o‘rni.” – Toshkent Tibbiyot Akademiyasi ilmiy jurnali, 2023.
7. OECD. *Artificial Intelligence in Higher Education*, 2022.
8. SimX Virtual Training Platform. www.simxvr.com

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF PSYCHOPHYSIOLOGICAL MEANS IN THE DESCRIPTION OF EMOTIONAL STATES

Abdurahimova Manzura Shokirjon qizi
Lecturer, Fergana Public Health Medical Institute
Email: Abdurahimova772@gmail.com | Tel: +998905602128

Annotation

The article examines the issue of psychophysiological states through the example of writer Qo‘chqor Norqobil’s novellas.

Abstract

The article explores psychophysiological conditions in literary works based on the theories of literary scholars.

Keywords:

Psychology, psychophysiology, gesture, facial expression, hallucination, image, psyche

In artistic language, verbs are most often used to depict the state of a character. In such cases, one of the human body parts is “activated” to express the gestures or facial expressions of the character. Through the author’s commentary, this helps to convey the inner world and experiences of the character more broadly. It is also important to note that gestures and facial expressions that appear before, during, or after dialogue serve to clearly and vividly express the speaker’s psychophysiological state at that moment.

In recent years, Uzbek literature has increasingly employed gestures and facial expressions that enhance the expressiveness of dialogue, expanding their role in revealing human behavior and, particularly, the psychological state of a character. As Tolstoy once noted, “Gesture is the foundation of speech.” Modern Uzbek writers, following this view, skillfully use gestures as keys to unlocking the human psyche.

For example, in Abdulla Qodiriy's novel *"Bygone Days (O'tkan kunlar)"*, in the chapter *"If Only the Groom Were So Handsome"*, we read:

Qutidor, after sending off the guests and getting ready for bed, was asked by Oftob oyim:
"You kept praising that handsome, smart young man—who was he?"
"He was our guest, the son of my dear friend Yusufbek hoji from Tashkent," said Qutidor.
